O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI

**DILOROM AMANULLAYEVA**

# ESTRADA XONANDALIGI

*Darslik*

*Estrada xonandaligi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha
1-kurs talabalari uchun*

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2016

**85.364.1**
**A-58**
**Amanullayeva Dilorom**

Estrada xonandaligi: darslik /D.Amanullayeva; O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika metodika va axborot markazi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi – Toshkent: «Musiqa», 2015. 304 b.

**KBK 85.364.1ya7**

**UO‘K 785.161(075)**

*Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika metodika va axborot markazi hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

***Mas'ul muharrir:***

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori – AVAZ MANSUROV

***Muharrir:***

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy-ijodiy ishlar bo‘yicha prorektori – ANVAR NORBEKOV

***Taqrizchilar:***

San'atshunoslik fanlari doktori, professor – MARFUA XAMIDOVA

O‘zbekiston xalq artisti – MANSUR TOSHMATOV

Mazkur darslik O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 5A150601 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha 1-kursda tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, birinchi marta o‘zbek tilida yaratilgan yangi avlod o‘quv adabiyotidir.

Darslik oliy ta'lim muassasalarida «Estrada xonandaligi» fanidan dars berishni boshlayotgan yosh mutaxassislarga ham uslubiy yordam vazifasini bajaradi.

ISBN 978-9943-307-92-8

© «Musiqa» nashriyoti, 2016
© D.Amanullayeva, 2016

## MUALLIFDAN

Aziz magistratura talabalari! Qo'lingizdagi «Estrada xonandaligi« mutaxassislik fanidagi darslik ilk bor yaratilgan o'quv adabiyotidir. Ushbu darslikdan oldin magistratura bosqichi uchun 2 ta: «Estrada va jaz vokalizlari» (2014) va «Estrada xonandaligi» (2015) o'quv qo'llanmalarini nashr ettirgan edim. Qo'lingizdagi darslik yangi pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan, tizimga solingan maxsus o'quv adabiyotidir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni davr talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis, qolaversa, komil inson darajasida tarbiyalash davlatimiz targ'ib qilayotgan siyosatining asl mohiyatini tashkil etadi. Professional, yuqori malakali estrada xonandasini tarbiyalash ko'pqirrali va nihoyatda murakkab jarayondir.

Kasbiy estrada xonandalarini tayyorlovchi O'zbekiston davlat konservatoriyasining «Estrada xonandaligi» ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligida yosh professional estrada xonandalarining professional ko'nikmalari: vokal texnikasini, ijrochilik mahoratlarini, yangi stilistik janr va yo'nalishlarini mukammal darajada egallashga va ma'naviy-g'oyaviy ruhdagi yuqori professional asarlardan tuzilgan dastur ijrosida tarbiyalashga qaratilgan.

«Estrada xonandaligi» mutaxassislik fanining magistratura bosqichidagi asosiy vazifasi - magistr talabalarining ijodiy ijrochilik amaliyotining tayyorgarligini mukammallashtirish, ijro etish texnikasini rivojlantirish, kelgusida mustaqil ijodiy konsert faoliyatiga, shuningdek ilmiy pedagogik faoliyat olib borishiga tayyorlashdan iboratdir.

1-kurs magistratura bosqichida mutaxassislik sinfining spetsifikasi turli shakl va janrlar, shuningdek, ko'pqirrali turli stilistik zamonaviy estrada-jaz asarlarini ijro etishdan iboratdir. Katta ahamiyat nafaqat zamonaviy estrada stilistik yo'nalishlardagi o'zbek asarlariga, balki dunyoda mashhur bo'lgan milliy estrada vokal maktablari – Yevropa, AQSH va Rossiya estrada yulduzlarining estrada-jaz yo'nalishidagi klassik va zamonaviy vokal asarlariga ham qaratilishi shart.

«Estrada xonandaligi» fani ishchi o'quv rejasida ko'rsatilgan semestrlarda o'qitiladi. Mazkur fan «Xonandalik ansambli san'ati», «Improvizatsiya mahorati», «Orkestr jo'rligida ijrochilik mahorati» kabi fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardan olingan bilimlarni ma'lum darajada to'ldirishga xizmat qiladi, uslubiy jihatdan ketma-ketlikda o'tiladi, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi. Ijodiy jarayonda, badiiy jamoalarda ijro etiladigan asarlarni asosan ta'lim muassasasida o'rgangan bilimlari, ko'nikmalariga asoslangan holda ijodiy jarayonlarda ishtirok etadi.

Aytish muhimki, sizlarning mazkur fanni o'zlashtirishlaringiz uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, glossariy, sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Yakka (amaliy) darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

1-kurs magistraturada tahsil olayotgan talabalar 1-2 semestrlarda yirik shaklda yozilgan murakkab asarlarni – Gimn yoki Vatanparvarlik qo'shiqlari, estrada romansi yoki ballada, myuzikllardan parchalar, zamonaviy djaz va estrada asarlari kabilarni ijro etishlari zarur. Mustaqil ravishda yangi asarlarni o'rganib, kafedrada namoyish qilishlari kerak.

Ushbu darslik mutaxassislik fanining 1-2 semestrlardagi ta'lim jarayonini qamrab olgan shaklda tayyorlangan. Har bir dars bir nechta mavzudan iborat:

1 – ovoz sozlash mashqlari;
2 – estrada va jaz vokalizlarini ijro etish;
3 – O‘zbekiston kompozitorlarining klassik yoki zamonaviy estrada asarlarini ijro etish;
4. Chet el kompozitorlari va estrada yulduzlari (G‘arbiy yevropa, Amerika va Rossiya)ning dasturidagi estrada va jaz asarlarini original tillarda (ingliz, fransuz, italyan, rus) ijro etish;
5. Ijro dasturi talablariga binoan klassik va zamonaviy vokal janrlari: myuzikl yoki rok-operadan ariya, vatanparvarlik ruhidagi asarlar, estrada romansi, ashula, ballada, jaz yo‘nalishidagi asarlar bilan tanishish va ijro etish.

Darslikdagi dars mavzularida estrada san’ati va pedagogikasi bilan bog‘liq mavzular bo‘yicha kerakli ma’lumotlar va maqolalar, badiiy asarlarni o‘rganish va ijro etishga doir uslubiy tavsiyalar, asarlarning tahlili va nota klavirlari keltirilgan. Darslikda bilimlarni mustahkamlash uchun estrada-jaz san’ati bo‘yicha test savollari va glossariy ham keltirilgan. Test savollari estrada-jaz san’ati ijrochiligi masalalari bo‘yicha tuzilgan.

Shuningdek, ijro mahoratini va ijro ko‘nikmalarini rivojlantirishiga qaratilgan qulay zamonaviy pedagogoik texnologiyalar – MP3 formatida fonogramma «plyus« audio yozuv materiallari keltirilgan. Unda dunyodagi mashhur estrada-jaz yulduzlari ijrosida darslikda berilgan asarlar ijrosi «fonogramma plyus« formatida yozilgan.

Professional, yuqori malakali estrada xonandasini tarbiyalash masalasi ko‘pqirrali va nihoyatda murakkab jarayondir. Har bir yosh ijodkorning barcha tomonlarini hisobga olib yondoshishimiz zarur: uning iste’dod qirralari va doirasi, uning umumiy musiqiy tayyorgarlik darajasi, ovoz diapazoni va vokal texnik imkoniyatlari, ijodiy fikrlash doirasi, fizik xolati. Har bir vokal pedagogining vazifasi bo‘lajak estrada san’atkorining vokal imkoniyatlari va ijodiy qirralarini ochib berish va ularni rivojlantirishdan iboratdir.

«Estrada xonandaligi» fani yosh estrada xonandalarini tayyorlashda asosiy o‘rinni egallaydi. Unda sizlar estrada yunalishidagi ijro etish xonandalik ko‘nikmalarini puxta egallaysiz, ijro darajangizni o‘stirasiz. Yangi estrada-jaz yo‘nalishidagi janrlar bilan tanishasiz va ijro etasiz. O‘qish davrida sizlar o‘rgangan vokalizlar va badiiy asarlarni kafedraning tanlov va konsertlarida sahnada ijro etib, ijrochilik mahoratlaringizni oshirasiz.

Mutaxassislik fanining asosiy maqsadi - talabalarga estrada xonandaligi bo‘yicha zamon talabiga javob beradigan, har tomonlama keng bilim doirasiga ega bo‘lgan, mustaqil fikr yuritadigan yuqori malakali ijrochi va o‘qituvchi-mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Unda zamonaviy keng dunyoqarashga ega, yangi ijro talqinlarini yaratishga moyil, ansambl yoki orkestr badiiy jamoalarida yakkaxon xonanda sifatida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san’at ta’lim muassasalarida malakali xonanda-ijrochilarni tarbiyalashga o‘rgatishdan iborat.

Mazkur fanni o‘zlashtirish natijasida 1-kursda tahsil olayotgan davringizda ham sizlar Davlat ta’lim standartida belgilangan quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishingiz nazarda tutiladi. Xususan, ijodiy - ijrochilik faoliyatida har bir bitiruvchi:

– estrada vokal imkoniyatlarini va ijro texnikasini rivojlantirishi;
– konsert va shou dasturlarda yuksak badiiy asarlarning professional darajasida yakkaxon sifatida, vokal ansambl tarkibida professional ijrochilik texnikasini mukammallashtirishi;
– estrada simfonik orkestr, estrada cholg‘u ansambllari jo‘rligida ijrochilik imkoniyatlarini va vokal texnikasini rivojlantirishi;
– ijroda kamchiliklarni bartaraf etib, tobora ijro maxoratini mukammallashtirishi;
– musiqiy asarlarni tahlil qilish, kasbiy muammolarni anglash va ularni bartaraf etish yo‘llarini topishi;
– zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda yangi ijro interpretatsiyalari bilan ijro asarlarini muntazam boyitishi;
– zamonaviy ovoz kuchaytirish apparatlari (mikrofonlar, minidisklar) dan to‘g‘ri foydalanishi;
– studiyalarda professional darajada ovoz yozishi;
– konsert va bayram shou-dasturlarida turli jamoalar bilan erkin ishlashi;
– estrada jamoasi ishini tashkillashtira olishi;
– mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi lozim.

«Estrada xonandaligi» fanini chuqur o‘zlashtirib:
– estrada va djaz vokal san’atining ilmiy asoslari;
– ovoz tuzilishining fiziologiyasi, vokal ovoz registrlari va klassifikatsiyasi, tessitura va diapazoni, ovoz xususiyatlari;
– estrada xonandaligiga o‘qitish uslubiyoti;
– zamonaviy estrada xonandasining asosiy ijro dasturi;
– O‘zbekiston, jahon djaz va estrada musiqasi tarixi, estrada va djaz musiqasining turli uslub va yo‘nalishlari;
– estrada vokal ijrochiligi va vokal pedagogikasi tarixi, vokal san’atini o‘qitish uslubiyoti, ijrochilik san’ati va musiqiy ta’lim sohalaridagi zamonaviy yutuqlar;
– improvizatsiya texnikasi va ijrosining ijodiy jarayoni;
– sahna harakatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
– djaz va estrada musiqasi stilistik yo‘nalishlarini;
– estrada vokal musiqasi ifoda vositalarining interpretatsiya qonunlarini;
– milliy professional estrada va djaz dasturlarini, professional o‘zbek kompozitorlarining estrada va djaz asarlarini;
– MDH, AQSh va yevropa davlatlari estrada va jaz yulduzlarining retro va zamonaviy estrada-djaz vokal asarlarini;
– musiqiy asarlarni ilmiy tahlil qilish, kasbiy muammolarni anglash va ularni bartaraf etishning yo‘llarini topishni;
– jo‘rnavoz, cholg‘u ansamblari bilan ishlashni;
– ovozning texnik va ifoda vositalarining majmuasini;
– yangi ovoz kuchaytirish texnik vositalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
– ijro asarining xususiy interpretatsiyasini yaratish;
– asar ijrosida ovoz kengligi, rivojlangan ovoz va nafas texnikasi, «soul« yo‘nalishi ifodasi, musiqiy va artistik mahoratga erishish;
– mohir djaz va estrada yulduzlarining ijro transkripsiyalarini tahlil qilish;
– ijrodagi stilistik vokal usullari va ijro texnikasi (nola, qochirim, stakkato, subton, groul, filirovka, vibrato, sket, blyuz effektlari)ni amalda erkin qo‘llash;
– nota materiali, ilmiy-pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ishlash;
– jo‘rnavoz, cholg‘u va vokal ansambllari bilan ishlash;
– turli xil uslub, janr va shakllarga oid konsert dasturlarini tuzib ijro etish;
– estrada jamoasi ishini tashkillashtirish;
– sahnada raqs harakatlarini bajarish;
– studiyalarda ovoz yozish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

Endi fanga qo‘yilgan ixtisosiy va dasturiy talablar bilan tanishsak:
**Ixtisosiy talablar** (1- va 2-semestrlar uchun):
· ovoz diapazonining kengligini ko‘rsatmoq;
· rivojlangan texnik ijroni ko‘rsatmoq (nola, glissando, sket, forshlag va xokazo);
· tovushning erkin filirovkasi;
· rivojlangan va erkin tirgakli tovush;
· Asarlardagi badiiy obrazni ko‘rsatmoq;
· chet el tillarda sof talaffuz.
**Dasturiy talablar** (har bir semestrda ijro etiladi)*:
· estrada-jaz yo‘nalishidagi vokaliz ijrosi;
· rok-opera yoki myuzikldan ariya, yoki vatanparvarlik ruhidagi asar;
· estrada romansi, ashula yoki ballada;
· O‘zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari;
· improvizatsiya elementlari mavjud bo‘lgan jaz asari.

**Izoh:** 2 ta asar o‘zbek tilida, 1ta asar Rossiya kompozitorlari ijodidan, 1 ta asar g‘arb davlatlari tillarida (ingliz, fransuz yoki italyan) ijro etilishi shart.

Har bir magistr talabasiga individual ijro dasturi tuziladi. Ijro dasturi talabaning individual planida ko'rsatilishi lozim va ushbu dastur to'la bajarilishi talab etiladi. Ijro dasturi talabaning vokal texnik va tayyorgarlik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Magistrantlar ijrochilik mahoratlarini oshirish maqsadida, har semestrda ikki marta kafedraning tanlov va konsertlarida sahnada chiqishlari lozim. Ushbu sahnaviy chiqishlar magistr talabasini ijrochilik mahoratini rivojida juda zarur omillardan biridir.

**Ijro dasturlarini tuzishda** turli zamonaviy shakl va yo'nalishlardagi o'zbek va jahon kompozitorlarining, mashhur estrada yulduzlarining estrada va jaz asarlarini ijro etishdan iboratdir. Unda alohida e'tibor professional ijro darajani mukammallashtirishga, tovush apparatining texnik rivojiga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak.

O'zbekiston estrada xonandalari milliy estrada maktabi an'analarini davom ettirgan holda klassik va zamonaviy uslublardagi jahon estradasining vokal namunalarida tarbiyalanishlari lozim. Shuning uchun talabalar repertuariga jahon klassik estrada asarlari, zamonaviy kompozitorlarining oxirgi yillarda yaratgan turli uslubdagi estrada va jaz asarlari kiritilgan.

Xususan, amaliy (yakka) mashg'ulotlarda har bir asarni notaga qarab yoki yoddan ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi. Dasturdagi ayrim asarlar fortepiano jo'rligida ijro etilsa, ayrimlari fonogramma minus jo'rligida foydalaniladi. Asar tanlanganida o'qituvchi talabaning tayyorgarlik darajasi va ovoz diapazoni imkoniyatlarini xisobga olishi shart. Ayrim asarlarni ovoz diapazoniga moslash yo'lida transpozitsiya (tonallikni 1-2 ton pastga yoki tepaga ko'tarish) qilish kerak bo'ladi.

Yakka mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (mashhur estrada yulduzlari ijrolari yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Tinglangan mashhur xonandaning ijro san'atini tahlil orqali o'rganish va talabaning o'z ijrosini tahlil qila bilish, nuqsonlarni bartaraf qila bilish ko'nikmalari ham qo'yiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, «Internet«, «Ziyonet« kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Alohida ta'kidlash joizki, mazkur darslik an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari toifasiga kiradi. Shu sababli ilg'or pedagogik texnologiyalarga tayangan holda, darslikni chiqarishga mas'ullar, muharrirlar bilan maslahatlashib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishni ko'zda tutib ushbu darslikka kiritilgan asarlarning audio yozuvlarini kompakt-disk shaklida ham ilova qildik.

Aziz magistratura talabalari! Qo'lingizdagi ushbu darslik sizlarning estrada xonandaligi mutaxasisligi bo'yicha ijro mahorati haqidagi bilimlaringizni yanada oshirishga, hamda ijrochilik amaliyotingizni yuksaltirishga xizmat qiladi, degan umiddaman.

## 1 – SEMESTR

### 1-DARS: Kirish. Ijro dasturini shakllantirish

**Kirish.** Bugungi kunda milliy estrada san’ati taraqqiyoti yo‘lida, estrada qo‘shiqchiligi sohasida professional kadrlar tayyorlash masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu o‘rinda milliy musiqiy estrada xonanda va ijrochiligini professional darajaga ko‘tarish, jumladan, estrada xonandaligi milliy maktabini yaratish va rivojlantirish yo‘lida ijobiy xarakatlar qilinmoqda.

2002-chi yilida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov qaroririga binoan Toshkent davlat konservatoriyasi yangi zamonaviy binoga ko‘chdi va unga O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi qomusi berildi. Ushbu qarorga binoan yangi konservatoriyada yangi fakultet – «Estrada san’ati» fakulteti tashkil etildi va fakultetda uchta yangi yo‘nalish: «Estrada xonandaligi», «Estrada cholg‘u ijrochiligi» va «Ovoz rejissyorligi» ta’lim yo‘nalishlari ishga tushib, san’atning ushbu ta’lim yo‘nalishlari oliy ta’lim darajasiga mos holda o‘qitila boshlandi.

O‘tgan 12 o‘quv yili mobaynida kafedraga rahbarlik qilib kelayotgan, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, taniqli kompozitor, professor Dilorom Amanullaeva boshchiligida «Estrada xonandaligi« kafedrasida kadrlar tayyorlash maktabi uslubiy jixatdan kasbiy asosga qo‘yildi. Kafedrada o‘tgan yillar mobaynida taniqli estrada san’atkorlari ishga jalb qilinib faoliyat ko‘rsatganlar: O‘zbekiston xalq artistlari Farrux Zokirov, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullaeva, katta o‘qituvchi Pavel Borisov.

Bugungi kunda kafedrada ustozlik qilayotgan professor- o‘qituvchilarning ham nomlari ulug‘. Ular – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Yunus To‘raev, dotsent Movluda Orinboeva, katta o‘qituvchi Dilshod Umarov, yosh o‘qituvchilar Dilmurod Boybabaev, Esminara Mustafaeva, Kamilla Djalilova, Lola Turaevalar «Ixtisoslik« fanidan dars beradilar;

O‘zbekiston san’at arbobi, professor Alisher Ikromov «Improvizatsiya« va «Orkestr jo‘rligida kuylash« fanlarini,

dotsent Ruslana Islamova «Xonandalik ansambli» va «Shou-biznes asoslari» fanlarini, katta o‘qituvchi Nodira Amanova «Improvizatsiya» va «Djaz va estrada musiqasi tarixi» fanlarini,

katta o‘qituvchi Ra’no Dosmetova «Raqs» fanlarini olib bormoqdalar;

Professor Dilorom Amanullaeva bakalavriat va magistraturada «Mutaxassislik«, «Pedagogik repertuarni o‘rganish», «Malakaviy amaliyot» fanlarini olib bormoqda.

Har yili kafedraga fan arboblari ham soatbay tariqasida ishga taklif etiladi, jumladan, San’atshunoslik fanlari doktori, professor M.A.Xamidova, san’atshunoslik fanlari nomzodlari professor I.G.Galushenko, dotsentlar Sh.Ganixanova, I. Ganiyeva.

2007 yildan beri kafedraga yosh mutaxassislar – magistratura bitiruvchilarimiz muvaffaqiyatli ishlamoqdalar.

Aytish lozimki, kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan yangi ilmiy uslubiy ishlar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratildi va yana yangi o‘quv qo‘llanmalar nashrga tayyorlanmoqda.

Quyidagi o‘quv adabiyotlari nashr yuzini ko‘rdi va o‘quv jarayoniga joriy etildi:

1. D.Amanullaeva «Estrada xonandaligi» OTM uchun o‘quv qo‘llanma, 14 b.t.,T.,2007;
2. D.Amanullaeva «Estrada va jaz vokalizlari» OTM uchun o‘quv qo‘llanma, T., 20 b.t.«Musiqa», 2014;
3. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa», 2015;
4. D.Amanullaeva, N.Amanova «Istoriya djaza i estradnoy muzuki» – o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
5. Yu.Turaev, D.Amanullaeva «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» – o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,«Musiqa», 2008
6. M.Orinbaeva «Estradnoe penie» o‘quv-uslubiy qo‘llanma, D.Amanullaeva estrada asarlari asosida, 4 b.t.,T.,2007;
7. M.Orinbaeva «Estrada qo‘shiqlari» o‘quv uslubiy qo‘llanma, Rossiya estradasi asosida, ikkita tom, 24 b.t., T.,2010;
8. G.Zokirova «Eng gullagan yoshlik chog‘imda», I. Akbarov qo‘shiqlari asosida o‘quv qo‘llanma, 12 b.t.,T., 2012;
9. Sh.Saidova « Myuzikllar va ansambllar» – o‘quv qo‘llanma, 14 b.t.,T., 2011;
10. R.Islamova «Xonandalik ansambli» – o‘quv qo‘llanma, 14 b.t.,T.. 2007;
11. R.Islamova «Shou-biznes asoslari» – o‘quv qo‘llanma, 24 b.t., T.,2012
12. R.Islamova «Primenennie iteraktivnix metodov i novых informatsionnых i pedagogicheskix texnologiy v dissipline «vokalnыy ansambl» - o‘quv qo‘llanma, 10 b.t., T.,2013;
13. R.Islamova «O rasshirenii oblasti ispolzovaniya interaktivnыx metodov i innovatsionnых obrazovatelnых texnologiyv dissipline «iskusstvo vokalnogo ansamblya«- o‘quv qo‘llanma, 10 b.t., T., 2012;
14. Yu.Turaev «XX asr o‘zbek estrada qo‘shiqlari» – o‘quv qo‘llanma, 35,0 b.t., T.,2015.

Kafedra o‘qituvchilari respublikamizda va Konservatoriyada har yili o‘tkazilayatgan ilmiy konferensiya va anjumanlarda faol qatnashib to‘plam nashrlarida va respublika jurnallarida maqolalari chop etilmoqda.

Har yili kafedra professor-o‘qituvchilari Respublikamizda va tashqari davlatlarda **Master-klasslar** o‘tkazib kelmoqdalar. Jumladan: **professor D.Amanullayeva**

a) Anqara (Turkiya) davlat universiteti qoshidagi konservatoriyada Master klass (2009 .),

b) Stambul texnika universiteti qoshidagi konservatoriyada ijodiy uchrashuv (2011 y.),

d) «Iste’dod» Xalqaro yosh ijrochilar tanlovida (Toshkent 2015) o‘qituvchilar va qatnashchilar uchun;

e) «Nihol» davlat mukofoti tanlovining shaxar va rayon bosqichlarida ishtirokchilar va ularning rahbarlari uchun Mahorat darslari (Navoi, Buxoro, Samarqand viloyatlarida 6 ta maxorat darslari);

f) III Respublika yosh ijrochilari tanlovida Maxorat darsi (Qarshi san’at litseyi. 2011 yil);

g) Samarqand, Buxoro, Andijon san’at kollejlarida Master klasslar 2007-2013 yillar dotsentlar Yu.Turayev, M Orinbayeva, R.Islamova, katta o‘qituvchilar G.Zokirova, Sh.Saidovalar respublikamiz bo‘ylab san’at kollejlari va musiqa maktablarida o‘zlarining pedagogik uslublarini namoyish qilmoqdalar.




Kafedrada nafaqat o‘quv, ilmiy-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Kafedrada xar yili talabalar orasidagi bellashuv **tanlovlar** juda qiziqarli o‘tadi, jumladan:

1. «O‘zbek kompozitorlari estrada qo‘shiqlarining eng yaxshi ijrosi»,
2. «Estrada va djaz vokalizlari ijrosi»,
3. «G‘arbiy Yevropa va AQSh estrada yulduzlari dasturidagi estrada-djaz qo‘shiqlar«,
4. «Rossiya estrada qo‘shiqlari»,
5. «Vokal ansambllarning eng yaxshi ijrosi».

Ushbu tanlovlar talabalarning saxnaviy ijro amaliyotida katta foyda ko‘rsatmoqda.

Undan tashqari talabalarning «Djaz va estrada musiqasi tarixi» fanidan **ilmiy konferensiya**si bo‘lib o‘tadi – raxbar katta o‘qituvchi N.Amanova.

O‘quv jarayonida kafedra o‘qituvchilari va talabalari ijrosida ko‘plab konsertlar tayyorlanib o‘tkazildi. Masalan «**Ustoz – shogird»** ruknida prof. D.Amanullayeva, dotsentlar Yu.Turaev, M.Orinboyeva, katta o‘qituvchi Sh.Saidova, D.Umarov, o‘qituvchi Z.Soyning «Sinf konsertlari«.

O‘zR san’at arbobi Alisher Ikromov raxbarligidagi **milliy estrada simfonik orkestri** jo‘rligidagi konservatoriyaning Katta zalida o‘tkazilgan kafedra o‘qituvchilari ijrosidagi konsertlar (2008, 2010) talabalar ijrosidagi hisobot gala-konsertlari (2011, 2014) katta qiziqish bilan o‘tkazilib, tinglovchilarda yaxshi taasurotlar qoldirmoqda va kafedraning malakaviy o‘sishini ko‘rsatmoqda.

Bitiruvchilarning mutaxassislik fanidagi **bitiruv dasturlariga** 2006 yildan beri O‘zR san’at arbobi, professor v.b. Alisher Ikromov rahbarligidagi milliy estrada simfonik orkestri jo‘r bo‘lib kelmoqda, bitiruv davlat attestatsiyalari konsert sifatida, O‘zDKning Katta zalida konsert sifatida tomoshabinlar bilan to‘la zalda o‘tadi.

Respublika matbuotida va teleradio dasturlarida ham kafedra professor-o‘qituvchilari o‘z shogirdlari bilan chiqish qilib kafedra xayotini va o‘zbek estrada xonandaligi maktabini targ‘ib qilmoqda.

Har yili kafedra professor-o‘qituvchilari o‘z sinfidagi talabalarini **Xalqaro va Respublika estrada va djaz xonandalari tanlovlariga** tayyorlab kelmoqda. Kafedraning ko‘plab yetishtirgan shogirdlari Respublika va xalqaro tanlov g‘olibi va sovrindori unvonlariga sazovor bo‘lib, san’atimizga sidqidildan xizmat qilmoqdalar.

Buyuk Britaniyaning BBC Radiosinig tanlovida «Afrika va Osiyoning eng yaxshi artisti» Unvoniga sazovor bo‘lgan **Sevara Nazarxan** (prof.D.Amanullaeva sinfi);

Yurmalada bo‘lib o‘tgan «Novaya volna» Xalqaro tanlovida Diplomga sazovor bo‘lgan

**Xurshid Inagamov** (prof.D.Amanullayeva sinfi),

**Diana Ziyatdinova Bolgariyadagi Xalqaro tanlovida «Gran-pri«** sovrini,

**Liliya Fatkulina** Rossiya va Ukrainadagi Xalqaro tanlovlarda 1 o‘rin,

**Oksana Nechitaylo** (Sogdiana), bir nechta Xalqaro tanlovlar Gran pri va 1 o‘rinlarga sazovor bo‘lgan, Rossiyaning «Фабрика звёзд» tanlovi qatnashchisi, «Zolotoy grammofon» premiyasi sovrindori (prof.D.Amanullayeva sinfi);

**Aysel Balich** bir nechta xalqaro djaz festivallari laureati (prof.D.Amanullayeva sinfi);



Anastasiya Kryuchkova, Yuliya Axmedova, Bekzod To‘xtaboev Xalqaro tanlovlar laureatlari (professor D.Amanullaeva sinfi),

Lalitdin Xolmatov (katta o‘qituvchi L.Umarov sinfi) o‘zbek estrada xonandalik maktabini chet el davlatlarida targ‘ib qilmoqda.

**Kafedra talabalari «Nihol«** davlat mukofoti unvonlariga sazovor bo‘lganlar - Dilnoza Ismiyaminova, Oksana Nechitaylo (Sogdiana), Diana Ziyatdinova, Lola Axmedova, Manzura Yuldasheva, Madina Mumtoz, Bekzod Baxramov - (prof. D.Amanullaeva sinfi), Yulduz Nizamova, Mavjuda Alimova, Laziz Kilichev, Nigina Nabieva (dotsent M.Orinboeva sinfi), Xulkar Abdullaeva (katta o‘qit. Sh.Saidova sinfi), Ra’no Avazova, Shaxrizoda Axmedova, Shaxzod Sobirjonov - (katta o‘qit. D.Umarov sinfi).



Kafedra bitiruvchilaridan 4 nafari – Sevara Nazarxon, Dilnoza Ismiyaminova, Lola Axmedova, Zoya Soylar (prof. D.Amanullaeva sinfi) bugungi kunda **«O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artisti«** yuksak unvoniga sazovor bo'ldilar. Bu nomlar nafaqat konservatoriyaning fahri, balki kafedra faoliyatini to'g'ri yo'lda ish olib borayotganining dalolatidir.

Yurtimizda bo'lib o'tayotgan «Mustaqillik«, «Navruz«, «Konstitutsiya kuni«, «8-Mart« va boshqa ko'plab davlat konsert tadbirlarida, Respublika qo'shiq bayramlarida kafedra talabalari ustozlari raxbarligida dasturlar tayyorlab muvaffaqiyatli qatnashib, konservatoriya obro'siga obro' qo'shmoqdalar.



Kafedra bitiruvchilaridan 4 nafari – Sevara Nazarxon, Dilnoza Ismiyaminova, Lola Axmedova, Zoya Soylar (prof. D.Amanullaeva sinfi) bugungi kunda **«O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artisti»** yuksak unvoniga sazovor bo'ldilar. Bu nomlar nafaqat konservatoriyaningfahri, balki kafedra faoliyatini to'g'ri yo'lda ish olib borayotganining dalolatidir.

Yurtimizda bo'lib o'tayotgan «Mustaqillik», «Navruz», «Konstitutsiya kuni», «8-Mart» va boshqa ko'plab davlat konsert tadbirlarida, Respublika qo'shiq bayramlarida kafedra talabalari ustozlari raxbarligida dasturlar tayyorlab muvaffaqiyatli qatnashib, konservatoriya obro'siga obro' qo'shmoqdalar.

Kafedra professor o'qituvchilari o'z xizmat vazifasini **jamoatchilik ishi** bilan chambarchas qo'shib olib bormoqdalar: Xususan, **prof. D.Amanullaeva** – O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi kengashi a'zosi, O'zteleradiokompaniyasi Badiiy Kengashi a'zosi (1992-2000 yy.), «O'zbeknavo« Estrada birlashmasi Kengashi a'zosi, «Nihol» davlat mukofoti tanlovining xay'at a'zosi, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali xay'ati a'zosi va kotibasi (1997-2005 yy.), «Mustaqillik», «Navro'z» davlat bayramlari dasturini tayyorlash bo'yicha Davlat komissiyasi a'zosi (1998-2008 yy..).



Respublikada har yili bo'lib o'tadigan «Yagonasan muqaddas Vatan« qo'shiqlar tanlovlarida xay'at raisi va av'zosi.

**Professor A.Ikromov** – O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi kengashining a'zosi,

O'zteleradiokompaniyasi Badiiy Kengashi a'zosi (1990-2000 yy.),

«Mustaqillik», «Navro'z» davlat bayramlari dasturini tayyorlash bo'yicha Davlat komissiyasi a'zosi.

Dotsentlar Yu.Turayev, M.Orinbaeva, R.Islamova, katta o'qituvchilar D.Umarov, A.Balich va Z.Soylar shuningdek Respublikamizda o'tkazilayotgan estrada xonandalari yo'nalishi bo'yicha barcha tanlovlari xay'at raisi va a'zosi sifatida faol ish olib bormoqdalar.

Aytish joizki, kafedra professor o'qituvchilarini Mustaqillik davri san'atimiz ravnaqiga salmoqli hissa qo'shayotganligini e'tiborga olib, xukumatimiz qator **mukofotlar va fahriy unvonlar** bilan taqdirladi:

**Alisher Ikromov** – «O'zbekiston Respublikasi san«at arbobi« unvoni (2005 yil); **Dilorom Amanullaeva** – «O'zbekiston Respublikasi san«at arbobi« unvoni (2006 yil); **Zoya Soy** – «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist« unvoni (2010 yil), **Pavel Borisov** – «Do'stlik ordeni« (2004 yil).



O‘zbekiston davlat konservatoriyasining «Estrada xonandaligi« kafedrasini «yulduzlar« chamaniga qiyoslash mumkin, chunki aksariyat ustozlaru shogirdlar elu yurt nazariga tushgan. Ko‘cha kuyda ko‘pchilik taniydigan chehralar gulshanidir, deb ta’rif berish mumkin. Kafedramiz zahmatkash professor o‘qituvchilarimiz, kelajakka intilgan navqiron shogirdlarimiz bundan keyin ham yurtimiz va madaniyatimiz ravnaqi uchun sitqidildan mehnat qilaveradilar. Qisqa fursat ichida kafedra oliy ta’lim o‘chog‘i ekanligini namoyon etdi. Muxtasar qilib aytganda, keyingi 12 yil mobaynida «Estrada xonandaligi« kafedrasidagi faoliyat yuksak pog‘onaga chiqdi. Bu yutug‘lar va ko‘rinish - istiqlol yaratgan imkoniyatlar tufayli ro‘yobga chiqdi deb, baralla aytishimiz mumkin.

Yutug‘larimizni gapirishimiz yaxshi albatta, lekin faqat bu bilan kadrlarni tarbiyalash va tayyorlash maqsadi hal etilmaydi. Laureat bo‘lgan shogirdlar sanoqli, asosiy ta’lim oluvchilar ommasi o‘rtameyondir, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, dunyoqarashining kengligi, madaniyati, badiiy qarashidan keyingi avlod musiqachilarining rivojlanishi bog‘liq. Tan olib ta’kidlashimiz lozimki, keyingi paytlarda abiturientlar tayyorgarlik darajasi pasayib ketdi. Undan tashqari, ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaga kvota-joylar juda kam ajratiladi. Ohirgi 8 yil mobaynida faqat har 3 yilda bir marta magistratura tizimiga kvota – 2 yoki 1 joy berildi. Bakalavriat tizimiga ham kamroq joy ajratilish tendensiyasi ketmoqda. 2014chi yilda 25 o‘rin ajratilgan edi, 2015 yilda esa 22ta. Keyingi yillarda shunday holat yuz berayapti: iste’dodli abiturientlar mutaxassislikdan yuqori ball olib, test sinovlarida pasayib ketib o‘qishga kirolmayaptilar, musiqaga adashib kirib qolganlar, iste’dodi past bo‘lsa-da, test sinovlarida ko‘plab ball yig‘ib olib talabalikka qabul qilinayaptilar.

Muammolar orasida yana biri bor, o‘zbek tilida zamonaviy estrada xonandaligidan adabiyotlarni nashrga tayyorlash, ularda yangi metodik ko‘rsatmalar, ijrochilik tavsiyalari bo‘lishi, CDda yoki Internetda mohir ustozlarning «jonli darslari»ni ko‘rish kabi o‘quv jarayoniga juda zarur bo‘lgan adabiyotlar kam. Undan tashqari viloyatlardagi yosh o‘qituvchilar uchun ilg‘or pedagoglarimizning «Master-klass», Ochiq darslarini, Sinf konsertlarini, «ustoz saboqlari« mashg‘ulotlarini viloyatlarda o‘tkazish va b. Lo‘nda qilib aytganda, hali o‘zbek estrada xonandalari oldida ko‘pgina ijodiy maqsadlar turibdi.

**Ijro dasturini shakllantirish**. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida Estrada xonandaligi ta’lim yo‘nalishida ta’lim dasturlarini amalga oshirish tizimga solingan, albatta. Ushbu fan bo‘yicha amaliy (yakka) mashg‘ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – o‘zaro suhbatlarimizda gapirilgan, uqtirilgan bilimlarni, amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy (yakka) mashg‘ulotlarda vokal mashqlari, va har bir mavzu yuzasidan asarlarnining biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi. Amaliy (yakka) mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o‘rganish vazifalari ham qo‘yiladi.

1 kurs magistratura tabalasining o‘sayotganini ijrochilik amaliyotlarining samarali tashkil etilganligidan kuzatish mumkin. Talabalar butun o‘qish jarayonida ixtisoslik sinfida olgan bilimlari va ijrochilik ko‘nikmalarini, sinov-imtihonlarda, kafedrada rejalashtirilgan turli mavzulardagi tanlovlarda, akademik konsertlarda, sinf konsertlarida, kompozitorlar ijodiga bag‘ishlangan kechalar, bayram konsertlari, hamda Respublika va Xalqaro tanlov-festivallarda qatnashishlari, ularni ijrochilik mahoratlarini yanada oshirishda yordam beradi. 1-2chi semestrlar mobaynida o‘rganishimiz lozim bo‘lgan – ovoz maqshlarari, estrada-jaz vokalizlari, O‘zbekiston kompozitorining klassik va zamonaviy asari, yirik shakllardagi Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar va gimnlar, estrada romansi, ballada, ashula, myuzikldan parchalar, G‘arbiy yevropa, Amerika va Rossiya estrada yulduzlari dasturidagi mashhur asarlarni ustozingiz bilan imkoniyatlaringizni hisobga olib, maslahat bilan rejalashtirib olasiz.

1 kurs magistratura ta’lim jarayonlari mobaynida ijrochilik mahoratini yangi bosqichda o‘zlashtirish uchun dastavval ijro dasturini shakllantirish zarur, bu o‘quv yili boshida amalga

oshiriladi. Misol tariqasida ushbu darslikka asos qilib, bir talabaning iqtidorini inobatga olgan holda «Talaba shaxsiy rejasi«ni tuzdik. O'rtacha ijrochilik mahoratini egallagan talaba uchun namuna sifatida 1-o'quv yiliga quyidagi ijro dasturini tavsiya etaman.

1-SEMESTRGA IJRO DASTURI NAMUNASI*:

**Ayol ovozlar uchun:**

1. Estrada-jaz yo'nalishidagi vokaliz sifatida D.Amanullaevaning vokaliz №18;
2. Rok-opera yoki myuzikldan ariya sifatida Gershvining «Porgi va Bes» operasidan «Summer time» asari (ingliz tilida);
3. Estrada romansi, ashula yoki ballada sifatida D.Amanullayevaning Nodira g'azaliga «Jahondin kech» romansi;
4. O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari sifatida «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar» – D.Amanullayeva musiqasi, Z.Mo'minova she'ri;
5. Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan djaz asari sifatida «Do svidanya leto« (rus tilida) – A.Zatsepin musiqasi;

**Erkak ovozlar uchun:**

1\. Estrada-jaz yo'nalishidagi vokaliz sifatida D.Amanullaevaning vokaliz №19;

6\. Rok-opera yoki myuzikldan ariya sifatida Dj.Kernning «Nyu York« myuziklidan «New York» asari (ingliz tilida);

7\. Estrada romansi, ashula yoki ballada sifatida «Elegiya» romansi – D.Amanullayeva musiqasi, G.Murodalieva she'ri;

8\. O'zbekiston kompozitorlarining estrada yoki jaz asari sifatida «Yoshligim« qo'shig'i - D.Amanullaeva musiqasi, i.Jiyanov she'ri;

9\. Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan djaz asari sifatida A.Babadjanyanning «Verni mne muziku« qo'shig'i (rus tilida);

2-SEMESTRGA IJRO DASTURI NAMUNASI*:

**Ayol ovozlar uchun:**

1. Estrada-jaz yo'nalishidagi vokaliz sifatida D.Amanullaevaning vokaliz №20;
2. Vatanparvarlik ruhidagi asar sifatida: «Iftixor» asari – D.Amanullayeva musiqasi, N.Narzullaev she'ri;
3. Estrada romansi, ashula yoki ballada sifatida: A.Pugachyova dasturidan «Tri schastlivыx dnya» balladasi;
4. O'zbekiston kompozitorlarining estrada yoki jaz asari sifatida «Unutmadim» soul-balladasi – D.Amanullayeva musiqasi, M.Omon she'ri;
5. Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan djaz asari sifatida Lara Fabian dasturidan «Je suis malade» (fransuz tilida);

**Erkak ovozlar uchun:**

1. Estrada-jaz yo'nalishidagi vokaliz sifatida D.Amanullayevaning vokaliz № 22;
2. Vatanparvarlik ruhidagi asar sifatida: «Vatan xayotdek aziz» asari – D.Amanullayeva musiqasi, Z.Mo'minova she'ri;
3. Estrada romansi, ashula yoki ballada sifatida: «Noktyurn» – A.Babadjanyan musiqasi;
4. O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari sifatida: «Unutmadim« soul-ballada – D.Amanullayeva musiqasi, M.Omon she'ri;
5. Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan djaz asari sifatida: Frenk Sinatra dasturidan «My Way» qo'shig'i (ingliz tilida);

**Izoh:** Ikkita asar o'zbek tilida, birta asar Rossiya kompozitorlari dasturidan, 1ta asar g'arb davlatlari tillarida (ingliz, fransuz yoki italyan) ijro etilishi shart.

SAVOLLAR:

1. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida «Estrada xonandaligi» ta’lim yo‘nalishi qachon ta’lim tizimiga kiritilgan?
2. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida «Estrada san’ati» fakulteti qachon ochilgan?
3. Milliy estrada vokal maktablari xaqida nimalarni bilasiz?
4. «Estrada xonandaligi» kafedrasini bitirgan qaysi san’atkorlar «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist» unvoniga va O‘zR Prezidentining «Nihol» mukofotiga ega bo‘lgan?
5. 5A150601 – Vokal san’ati (estrada xonandaligi) ta’lim yo‘nalishida ta’lim dasturlarini amalga oshirish qanday normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimga solingan?
6. Talaba 1 o‘quv yili mobaynida qaysi janr va yo‘nalishlardagi asarlarni ijro etishi shart?

TOPSHIRIQLAR:

1. «Estrada xonandaligi» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qanday o‘quv-uslubiy adabiyotlari mavjudligini o‘rganib keling.
2. Vokaliz, romans, ballada, kompozitsiya, ashula asar tushunchalarini ensiklopediya va boshqa manbalardan toping, keyingi darsda ustozingizga so‘zlab bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:


1. Amanullayeva D. «Estrada va jaz vokalizlari» OTM uchun o‘quv qo‘llanma, T., 20 b.t.«Musiqa», 2014;
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa», 2015;
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki» – o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T., 2010;
4. Turayev Yu, Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» – o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T., «Musiqa», 2008.
5. Orinbayeva M. «Estradnoe penie« o‘quv-uslubiy qo‘llanma, D.Amanullaeva estrada asarlari asosida, 4 b.t.,T.,2007;
6. Orinbaeva M. «Estradnoe peniye« o‘quv qo‘llanma, Rossiya kompozitorlari asarlari asosida, 1-2 tom, 30 b.t.,T.,2010.


## 2–3-DARSLAR.
## Estrada xonandasining kasbiy tarbiyasida ovoz sozlash mashqlarining ahamiyati

Estrada xonandaligi sinfida dars vokal mashqlaridan boshlanadi. Vokal mashqlari estrada xonandasi tarbiyasida muhim o‘rin tutadi, binobarin, u talabaning vokal-texnik ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlanishida katta rol o‘ynaydi.

Vokal darslarining umumiy vaqti 40-45 daqiqa bo‘lgan tarzda, (haftada 2 marta) vokal mashqlariga odatda 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida har bir talabaga individual ravishda yondoshishimiz lozim bo‘ladi. Mashqlarni tanlaganda talabaning musiqiy qobiliyati va vokal tayyorgarligi, ovoz diapazoni va ovoz apparatidagi nuqsonlari hisobga olinishi muhimdir.

Dastlabki darslardan boshlab ustoz yosh xonandaning ijro holatidagi qomatiga alohida e’tibor berishi lozimdir. Bunda xonanda qomatini tekis, boshini esa tik tutib, erkin nafas olib, oyoqlarga bardam tayanib kuylashi lozim bo‘ladi.

Vokal mashqlarini diapazonning o‘rta (markaziy) qismidan boshlash lozimdir. Diapazonning pastki va ayniqsa, yuqori tovushlarini asta-sekinlik va ehtiyotkorlik bilan kengaytirish maslahat beriladi.

Mashg‘ulotlarning boshlang‘ich davrida ovozni toliqtirmaslik lozim. Ovoz mushaklari toliqqanda talabaga 3-5 daqiqa dam berilib, suhbat o‘tkaziladi. Suhbat davrida bajarilgan ish tahlil etiladi, uning yutuq va kamchiliklari aniqlanadi, yangi vazifalar belgilanadi.

Dastlabki darslarda talaba xotirasida tez muhrlanib qoladigan oddiy, qisqa mashqlar kuylanadi. Keyinchalik, oddiy mashqlar o‘zlashtirilgandan so‘ng, murakkab mashqlarga kirishiladi. Birinchi mashqlar unli tovushlarni vokallashtirishga qaratilishi lozim. Tajribalar

shuni ko‘rsatdiki, unli tovushlar ichida xonandaning o‘sishi uchun eng foydalisi – «A» va «I» tovushlardir. Ushbu tovushlar darslarda tug‘ri o‘zlashtirilsa, qolgan «E», «O», «U» tovushlari ancha oson kuylanadi. Zero, ular unli tovushlarda ovozning tiniqligi, intonatsiyaning sofligi, registrlarning ravonligi, diapazonning kengayishi, ovoz mushaklarining erkin ishlatilishi va boshqa vokal malakalarini o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Har bir xonandalik sinfida o‘qituvchilar bu malakalarni o‘zlashtirishda o‘z uslubiy yo‘li bilan yondoshadi. Ayniqsa, «Opera xonandaligi» va «An’anaviy xonandalik» sinflarida xonandalarni tarbiyalash tizimida ko‘pgina tajribaga egamiz.

Ma’lumki, opera xonandaligida «A» va «O» tovushlari «doirasimon» yopiq tarzda kuylanadi. Estrada xonandaligi ijrochiligida esa mazkur tovushlar biroz ochiq va «xalqona» yo‘lida kuylashi lozim. Zotan, xalq xonandaligi va an’anaviy maqom xonandaligining ovoz va nafas yo‘llarini o‘ziga mujassam etadi. Estrada san’atining xalq tomonidan tez va oson idrok etishning sababi ham shunda.

OVOZ MASHQLARINING ASOSIY VAZIFALARI:

1. Kuylashda nafasni vokal ixtisosiga mos darajada olish;
2. Kuylashda «artikulyasiyani» tug‘ri ishlatish;
3. Tomoq (ovoz) mushaklarini rivojlantirish;
4. Sof intonatsiyaga erishish;
5. Ovoz diapazonini (doirasini) kengaytirish;
6. Barcha kuylash texnikalari: kuychanlik (kantilena), stakkato, non legato, tayanchli tovush (opyortiy zvuk), falset, tovush filirovkasi, ovoz dinamikasi (forte, piano) ni egallash;
7. Estrada xonandaligi uslubidagi barcha texnik yo‘nalishlarini egallash.

Talaba kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga kuylashni tavsiya etishda uni nafaqat kuylab ko‘rsatish, balki uning asosiy maqsadini mufassal tushuntirib berish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ovozini tug‘ri yo‘naltiradi, hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni onson yengib o‘tadi.

Eng avvalo ovozni erkin va to‘liq chiqishini diapazonning o‘rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so‘ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o‘tish mumkin.

Ish jarayonida ustozning idroki nihoyatda xushyor bo‘lishi, tomoq siqilishi, artikulyasiyaning notug‘ri pozitsiyada ekanligi va xususan ovoz toliqishini o‘z vaqtida payqab olib zarur choralar ko‘rishi shart. Dars jarayonida talabada vokal mashqlarining barcha turlari «M» (yumuq) tovushdagi yopiq lablar bilan ochiq tarzdagi unli tovushlar, hamda unli va undosh tovushlar birligida «legato», «stakkato», «arpedjio», intervallar, gammalar, kichik kuylarni (popevka) kuylash va ulardan tegishli ko‘nikmalar shakllanishi lozim.

Ma’lumki, har bir ustoz-o‘qituvchi o‘zining shaxsiy tarjibasi va nuqtai nazariga tayanib vokal mashqlari orqali ovozni rivojlantirishda xususiy ish uslubiga ega. Ushbu darslikda umumlashtirib berilgan vokal mashqlardan va uslubiy tavsiyalardan unumli foydalanib, o‘z ish uslubini takomillashtirish tavsiya etiladi. Zeroki, ushbu mashqlar va ularni qo‘llashga doir uslubiy tavsiyalar O‘zbekistan davlat konservatoriyasi «Estrada xonandaligi» kafedrasi professor-o‘qituvchilarining uzoq yillik tajribalari asosida vujudga keltirilgandir.

Quyida ushbu pedagogik talablarga doir vokal mashqlari tavsiya etiladi.

AMALIY IJROCHILIK MASHG‘ULOTI

Ushbu keltirilgan mashqlarni rahbar boshchiligida ijro eting.

Birinchi o‘rinda eng oddiy mashqlardan boshlaymiz: og‘izni yumib «M» tovushidagi mashqlardan. Bu mashqlar tovush apparatini qizdirishga yordam beradi, rezonatorlarni yaxshi ishlatishga va his etishga yordam beradi, vokal nafasini to‘g‘ri olishga qaratiladi. Hamma mashqlar shoshilmasdan, asta sekinlik bilan kuylanadi. Mashqlarning ijro paytida intonatsiyaning sofligiga, to‘g‘ri vokal nafasga, va gavdani to‘g‘ri ushlashga intilish lozim.




Xonandalik nafas olish va unli tovushlarni tekislash uchun mashqlar.
«Ya» tovushini «Yo» tovushiga almashtirish mumkin.




Moderato
mi - ya
mi - ya


Moderato
mi - ya


Moderato
Moderato con moto
ya
mi


Moderato con moto
mi - ya
mi - ya


Moderato
mi - ya
mi - ya


Moderato
Moderato
mp
ff
mf
mi - ya
mi - ya
mp
ff
mf


Moderato
mi - ya


Moderato con moto
mi - ya




Artukulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.












Ovoz texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.




Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.
Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) axamiyat qilish lozim.






SAVOLLAR:

1. Vokal mashqlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Vokal mashqlarining ijrosida biri-ketinligini bilasizmi?
3. «Kantilena» so‘zi nimani bildiradi?
4. Qanday nafas olish turlarini bilasiz?
5. Ovoz diapazonini kengaytirish uchun qaysi turdagi mashqlar foydali?
6. Vokal maktabida «Maska» degan so‘ziga izoh bering.
7. Oddiy va estrada-jaz yo‘nalishining vokal mashqlarini farqi nimada?
8. «Mutatsiya» so‘ziga izoh bering?

TOPSHIRIQLAR:

1. O‘zingizni mutaxassislik sinfidagi rahbaringizning talabalar bilan o‘tkazgan darsidagi vokal mashqlarini ko‘ring va analiz qiling.
2. Darslikda keltirilgan hamma mashqlarni o‘rganib, keyingi darsda fortepianoda va ovozda o‘zingiz ijro etib bering va gapirib bering.
3. Estrada yo‘nalishida yangi mashqni ijodiy yaratishga xarakat qiling va keyingi darslarda o‘qituvchingiz maslahatlarini oling.
4. Darslikka ilova qilingan kompakt-diskdagi barcha audio yozuvlarni tinglang va ustozingiz, kursdoshlaringiz bilan fikr almashing.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Dmitriev L. Osnovi vokalnoy metodiki. M., 1969.
2. Klip O. Postanovka golosa estradnogo pevsa. M.,2003.
3. Golubev V. Soveti molodim pedagogam-vokalistam. M., 1963.
4. Turayev Yu, Amanullayeva D. Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish metodikasi. T.. 2008.
5. Amanullayeva D. Estrada va jaz vokalizlari. T: «Musiqa», 2014.

## 4–5-DARSLAR. Estrada va jaz vokalizlari. Yosh estrada xonandalarining kasbiy tarbiyasida vokalizlarning ahamiyati

Yosh estrada xonandasining vokal texnik ko'nikmalarining rivoji uchun mashqlar, badiiy asarlar bilan bir qatorda, vokalizlar ustida ishlash muhim o'rin egallaydi. Ushbu estrada va djaz stilistik yo'nalishida yaratilgan vokalizlar ta'lim jarayoni uchun zarur o'quv materiali hisoblanib, ular estrada san'ati fakulteti talabalarining zamonaviy vokal-texnik ko'nikmalarini tarbiyalashda juda foydalidir.

«Vokaliz» so'zi fransuz va lotin tilidan - «unli tovush» degan ma'noni bildiradi. Odatda, ular «so'zsiz qo'shiq» shaklida bo'lib, musiqiy asarlarda ovoz uchun she'riy matnsiz kuylash uslubida yoziladi. Vokalizlar o'zining xususiyati doirasida oddiy va badiiy turlarga bo'linadi. Ya'ni, xonandada ma'lum bir vokal ijrochilariga xos texnik ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi.

Professional estrada xonandasini tarbiyalashda vokalizlar talabaning vokal texnik rivojiga asososiy omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Vokal eshitish qobiliyatini shakllantiradi, asosiy kuylash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Odatda, vokalizlar opera pedagogikasida keng qo'llanib kelingan va hozirgacha vokal ijrochilik an'analarini o'zlashtirishda o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ular professional xonandalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan va italyan, fransuz, rus opera maktablarida keng foydalanib kelingan.

Talabalarning saboq jarayonida vokalizlar o'rta maxsus musiqa kollejlari va litseylardan boshlab, konservatoriyaning Bakalavriat va Magistratura bosqichida ixtisoslik fanining o'quv dasturlariga kiritilgan. Talabalar har bir semestrda, ixtisoslik sinfida 3 yoki 4-ta vokaliz ustida ish olib borishlari lozim. Reyting nazoratida esa 2-ta vokalizlarni ijro etishlari lozim bo'ladi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Estrada xonandaligi» yo'nalishining o'quv jarayonida, 2008 yilga qadar mumtoz va akademik yo'nalishda qo'llanilayotgan F. Abt, Dj. Konkone, G. N.Zeydler kabi vokalizlar keng qo'llanilib kelingan edi. Zamonaviy jarayonda estrada vokal san'atining rivojlanish mezonlari ancha ildamlashdi. Shunga qarab yo'nalishlar va ijrochilik uslublari ham kengaydi. Albatta ularni o'zlashtirish va ijro etish uchun turli ijroviy ko'nikmalarni rivojlantirish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda mukammal vokal ijrochilarini tarbiyalashda, ularning o'qish jarayonlarida estrada va djaz yo'nalishida yaratilgan vokalizlarni o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Chunki, vokal san'atining yo'nalishlaridan biri bo'lgan estrada ijrochiligining ko'pqirrali estrada va djaz stilistik yo'nalish-uslublarini egallashda tavsiya etilayotgan vokalizlar katta ahamiyatga ega. Eng muhimi vokalizlarning milliy musiqiy ohanglarga asoslanganligi, ularning jahon andozalariga mos holda shakllantirish va ijrochilik amaliyotiga tavsiya etish kunning mavzusi ekanligini e'tirof etish lozim. Ijrochilik texnikasini zamonga mos holda shakllantirish va yuqori saviyadagi ijrochilik mahoratiga erishish ta'lim jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Qayd etish joizki, O'zbekistondagi ijodkor kopozitorlar va vokal uslubchilari estrada va djaz vokalizlarini yozishga hali jazm etganlari yo'q. O'zbek kompozitorlari B. Gienko va H.Raximovlar tomonidan yaratilgan mavjud vokalizlar, akademik vokal yo'nalishida yozilgan va opera ijrochiligi sinflarida keng qo'llanib kelinganligini aytish lozimdir. «Estrada va djaz vokalizlari» bu o'rinda birinchi tajriba bo'lib, analoglariga ega emas.

Taklif etilayotgan «Estrada vokalizlari» muallifning ko'p yillik ijrochilik va pedagogik tajribasidan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan va har tomonlama milliy va professional jihatlarga asoslanganligini qayd etish joizdir. Vokalizlar 2002 yildan boshlab yaratib kelingan. Ushbu vakalizlar 2003-chi yildan boshlab o'quv jarayoniga singdirilib borilmoqda. Litsey, bakalavriat va magistratura talabalari ijrosida sinalib, ovoz imkoniyatlarini va ijro texnikalarini o'stirish uchun xizmat qilmoqda. Sinov davri shuni ko'rsatdiki, ushbu «estrada va djaz vokalizlari» ta'lim jarayoni uchun juda zarur uslubiy - o'quv material sifatida xizmat qilib kelmoqda. Qolaversa, talabalarning vokal texnik ko'nikmalarini o'zlashtirishda, ulardagi yuksak badiiy didini tarbiyalashda, sahnaviy madaniyat va aktyorlik mahoratlarini rivojlantirishda, qolaversa, professional estrada xonandalarini tayyorlashda tarbiyaviy ahamiyat va kasbiy saboq vazifasini o'tashi mumkin.

Eng asosiysi, talabalar va o‘qituvchilar ushbu vokalizlarni alohida qiziqish bilan qabul qildilar, va shu bilan birga, ushbu vokalizlarga bo‘lgan e’tibor oshmoqda. Ushbu vokalizlarga, talabalar va o‘qituvchilar tomonidan katta muhtojlik mavjud.

Buning dalili sifatida, 2008 yildan boshlab har yilning oktyabr oyida konservatoriyani Kichik zalida kafedra talabalari orasida «D. Amanullayeva ijodiga mansub estrada vokalizlarini eng yaxshi ijrosi» tanlovi o‘tkazilishini keltirish lozimdir. O‘tkazilgan tanlovlarda har doim 40dan ortiq talaba-yoshlar katta qiziqish bilan qatnashib kelayotganliklarini e’tirof etish lozimdir. Tanlovning talabalar orasida keng ommalashgani va unga talabalar tomonidan intilish bo‘lganligini inobatga olib, kafedra qaroriga ko‘ra ushbu tanlov an’anaga aylantirildi.

Qolaversa, ushbu vokalizlarning ijrosi o‘rta maxsu ta’lim muassaslari o‘rtasida O‘zR madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan «Yosh ijrochilar» renspublika tanlovi estrada xonandaligi bo‘limining dasturiy talablariga kiritilgan.

Keltirilgan 25ta estrada va djaz vokalizlari «so‘zsiz qo‘shiq» shaklida yaratilib, o‘zining texnik tomonlama mukammalligi, muqobilligi, milliyligi va badiiyligi bilan bir-biridan ajralib turadi va shu bilan qimmatlidir. Vokalizlarning mavzuilik jihatlari, stilistik va vokal-texnik qamrovi ham keng. Bir nechta vokalizlar mashhur estrada yulduzlari: Muslim Magomaev (№1), Luchano Pavarotti (№4), Tamara Xonim (№6), Frenk Sinatra (№9), Dalida (№10), Djo Dassen (№11), Lyudmila Gurchenko (№14), Rashid Beybutov (№18), Maykl Djekson (№19), Edit Piaf (№20), Ella Fitsdjerald (№21), Uitni Xyuston (№23), Elvis Presli (№24), Botir Zokirov (№25) larning yorqin xotiralariga bag‘ishlangan.

Shular qatorida ijodiy to‘lqinda yaratilgan bir nechta vokalizlar muallifning musiqiy hayotiga professional ta’sir ko‘rsatgan kompozitorlar xotiralariga bag‘ishlangan: I.Akbarov (№2), Y.Gaydn (№7), B.Zeydman (№8), V.A. Motsart (№15), S.Raxmaninov (№16), A.Babadjanyan (№17), Vagif Mustafa Zade (№22). Shular qatorida ushbu to‘plamga o‘zbek kino musiqasida ijod etib uning rivojiga katta hissa qo‘shgan kompozitor Rumil Vildanovning «Olovli yo‘llar» kinoserialidagi «Elegiya» kuyi (D.Amanullayeva ovoz va fortepiano uchun moslashtirgan) kiritilgan. (№13).

«Estrada va djaz vokalizlari» o‘z xususiyatlariga qarab ikkita qismga ajratilgan. Ya’ni, ayol va erkak ovozlari uchun mo‘ljallangan. Bu asosan har ikki yo‘nalishga xos bo‘lgan va qulay tonalliklarda, xonandalarning ovoz diapazonlarini hisobga olgan tarzda yaratilgan. Jumladan, birinchi bo‘limdagi ayollar ovozi metsso soprano uchun keltirilgan vokalizlarni erkak ovozlari - baritonlar uchun ham qo‘llanish mumkin. Baland erkak ovozlari tenorlar uchun mo‘ljallangan vokalizlarni - soprano, ya’ni baland ayollar ovozi uchun ishlatish mumkin. Qulaylik uchun vokalizlarni tonalligini o‘zgartirib, transpozitsiya holatida ijro etish ham o‘z samarasini beradi.

Vokalizlar turli ijro texnikasining rivoji uchun mo‘ljallangandir. №5, №6, №7, №15 vokalizlar «stakkato» texnikasida ijro etish uchun yaratilib, tovush harakatining tezligini, nafas olish texnikasini, tovushni filirovkasi va talaffuzning rivojiga xizmat qiladi. Djaz va djaz-rok yo‘nalishida yaratilgan №14, №21, №22, №24 - vokalizlar, ohang (intonatsion) va uslubiy (stilistik) nuqtai nazardan murakkab material hisoblanadi. Ayniqsa «Rok-roll» yo‘nalishidagi №24-vokaliz ijrochidan yuksak texnikaviy mahoratni talab qiladi. Ijro etish mezonida albatta ularni har bir intonatsiyasini eshitgan tarzda, ichki usulni sezib, saqlab va buzmagan holda ijro etish lozim. Bu vokalizlar talabaning djaz yo‘nalishini egallashda va badihaviy (improvizatsiya) texnikasini rivojlantirishda, samara beradi.

Keltirilgan vokalizlar badiiy va texnik jihatdan murakkabroq bo‘lib, kantilenaning rivojiga, nafas texnikasini erkin egallashga, garmonik intonatsiyaning rivojiga, artistik mahorat va sahnaviy obraz yaratishga, ijodiy fikrlash va yuksak badiiy didni tarbiyalashga qaratilgan. Ular badiiy tafakkur, hissiy ta’sirchanlik rivoji doirasida talabalar uchun juda foydali hisoblanib, «Djaz-vals», «Sving», «Bossa-nova», «Samba», «Disko», «Klassik djaz», «Djaz-rok», «Fyujn», «Lirik estrada» ritmik setkalarida yaratilgan. Har bir vokaliz ijrochidan alohida stilistik ijro va qiyofani talab etadi. Ayniqsa, «Soul» uslubini qo‘llashda №1, №4, №8, №10 - №13, №16 - №25 vokalizlar intonatsion nuqtai nazardan ancha murakkabdir. Ushbu vokalizlar o‘zlarining texnikaviy jihatlari bilan yangi vokal ta’sirchanlik imkoniyatlarini ochib beradi.

Artikulyasiya va talaffuz amaliyotida vokalizlarni har ikki uslubni qo‘llagan holda, ya’ni notalarni ifodasi bilan solfedjiolashtirish, hamda unli tovushda vokalizatsiyalashtirib kuylash mumkin. Tez suratdagi (tempdagi) «stakkato» va djaz vokalizlarini (№5, №6, №7, №14, №15, №24) «MI – Ya» yoki «fara-fara» so‘zlari bilan aytish ham foydaliroqdir. Mayin tempdagi kantilena vokalizlarini vokalizatsiya: «A», Na-na», hamda solfedjiolash usulida kuylash zarur, chunki bu ovoz apparatining ishini faollashuviga imkon beradi. Bunda unli va unsiz tovushlarning va artikulyasiya rivojiga ta’siri sezilarlidir. O‘quvchining ovozida professional nuqsonlar (jarangsiz tovush tembri, detonatsiya, artikulyasiyaning bo‘shligi va hokazo) mavjud bo‘lgan holda, solfedjiolash uslubida, ya’ni notalarni aytib ijro etish tavsiya etiladi.

Vokalizlarni unli tovushlarda ijro etish xonandaning ovoz apparatining kasbiy chidamliligiga xizmat qiladi. Lekin, unli tovushdagi vokaliz ijrosida talabaning ovozini charchashidan ehtiyot bo‘lish zarur, ayniqsa, xiqqildoq qismida. Bunda ijroni to‘xtatish lozim, yoki solfedjiolashga o‘tish o‘rinli. Keyinchalik vokaliz ijrosini yana unli «A» tovushida davom etish mumkin.

Vokalizlarni tanlashda har bir talabaning tayyorgarligi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, individual tarzda yondoshish lozim. Har bir talabaning ovoz apparati xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ishlash zarur. Notada ko‘rsatilgan har bir musiqiy belgilarni va nafas olish setkasini talaba ongli ravishda tushunib bajarishi lozim. Texnik xarakterdagi vokalizlarni sekin tempdan boshlab, asta-sekin tez tempga o‘tib ijro etish darkor.

Kuylashda talabadan maksimal ravishda alohida passajlarda sadoning (intonatsiyaning) sofligini talab etish zarur. Vokaliz ustida ishlagan paytda, talabani nafaqat texnik qiyinchiliklarni bartaraf etishiga, balki ularning musiqiy badiiyligi va emotsional mazmuni bilan qiziqishlariga e’tibor qaratish lozim. Qulay tanlangan vokalizlar kelajakda talabaga har qanday texnik va badiiy stilistik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Vokalizlarni kuylash jarayonida quyidagi jihatlarga asosiy urg‘uni qaratish lozim:

a) kantilena silliqligini rivojlantirish;
b) tovushning professional darajadagi filirovkasini egallash;
d) nafas olish texnikasini rivojlantirish;
e) ovoz diapazonini kengaytirish;
f) estrada-jaz stilistikasini egallash;
g) garmonik intonatsiyani rivojlantirish;
h) pop va djaz musiqasining zamonaviy ritmlarini egallash;
j) artistizm va badiiylikni rivojlantirish;
k) ijodiy fikrlash va ijroda ijodiy yondoshish;
l) yuksak badiiy didni tarbiyalash;
m) fizik va saxnaviy chidamlilikni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Dars jarayonida qo‘yiladigan asosiy vazifa, ijroda muallifning asarda ko‘rsatilgan asosiy ijodiy va texnikaviy talablarini to‘la to‘kis ifoda etishga qaratilishi lozim. Tashqi ko‘rinishi go‘zal bo‘lgan holda ham, asarni g‘oyaviy mazmunini ifoda eta olmagan talqin, ijrochini va tinglovchini qoniqtira olmaydi.

Ko‘pincha, ta’limning boshlang‘ich davrida pedagog asosiy urg‘uni talabaning vokal texnik qiyinchiliklarini bartaraf etishga qaratadi. Tabiiyki, professional ko‘nikmalarsiz (shakllanmagan ovoz, nafas olishdagi nuqsonlar, tor ovoz diapazoni, noaniq artikulyaqsiya va hokazo) asarning badiiy ijrosi haqida gapirish qiyin. Lekin, aynan shu boshlang‘ich bosqichda talabani badiiy asar ustida ishlashda to‘g‘ri yo‘naltirish zarur. Bu davrda taqdim etilayotgan estrada – djaz vokalizlari katta foyda beradi. Ushbu vokalizlarni ustida ishlash jarayoni talabani estrada sahnasiga tayyorlashdagi dastlabki qadamlari bo‘la oladi.

Keltirilgan vokalizlarning ijrosi yosh estrada xonandalariga yuksak ijroviy talablarni qo‘yadi: ijodiy fikrlash, badiiy tafakkur, intellekt, artistik fantaziya. Ushbu vokalizlar ijrosida, xonanda faoliyatida erishgan butun musiqiy-ifodaviy boyliklarni va ta’sirchanlik imkoniyatlarini ishlatmog‘i zarur.

Tajriba ko‘rsatdiki, asar ijrosida eng mushkil vazifalardan biri - bu to‘g‘ri yo‘naltirilgan uslubiy (stilistik) ijro ifodasidir. Ma’lumki, estrada musiqasi bir nechta rang-barang stilistik yo‘nalishlardan iborat. Bu o‘rinda talabalar bilan ishlashda «Soul» yo‘nalishiga ahamiyat

qaratish zarur, chunki ko‘pgina an’anaviy, estrada va djaz asarlarining ijrosi «soul» yo‘nalishidagi ijroga asoslangan.

«Soul» so‘zi ingliz tilidan - jon, qalb, yurak ma’nosini bildiradi va djaz stilidagi yo‘nalishni ifodalaydi. «Soul» yo‘nalishini his tuyg‘uli, nolali ijro, yuragi bilan ma’noli talqin etish desa bo‘ladi. «Soul» elementlarini ko‘pgina boshqa yo‘nalishlarda kuzatmoq mumkin, lekin mohiyati bitta: bu ehtirosli (emotsional) tarzda yurakdan nolali, jo‘shqin, yorqin ijro etish demakdir.

Berilgan yo‘nalishning yorqin namoyandalari orasida ko‘pgina mashhur estrada yulduzlarini misol keltirishimiz mumkin: Uitni Xyuston, Selin Dion, Toni Brekston, Lara Fabian, Meray Kerri, Maykl Djekson, Andrea Bachelli, Muslim Magomaev, Alla Pugachyova, Larisa Dolina, Tamara Gvarsitelli va boshqalar. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalish keng tarqalgan, chunki o‘zbek milliy an’anaviy va xalq ashulalari keng diapazonli, samimiy, his tuyg‘ular va nolalarga boy ijroni talab etadi. «Soul» elementlarini quyidagi o‘zbek estrada xonandalari ijrosida kuzatishimiz mumkin: Botir Zokirov, Yulduz Usmonova, Zulayxo Boyxonova, Aysel Balich, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Sogdiana, Sevara Nazarxon, Yulduz Turdieva va boshqalar.

Ushbu yangi yaratilgan vokalizlar yosh estrada xonandalarining vokal imkoniyatlarini rivojlantirish uchun qulaydir. Vokalizlar materialida talabalarning vokal-texnik ko‘nikmalarini tarbiyalash mumkin. Ular nafaqat o‘quv materiali jixatida vokal-texnik qiynchiliklarini yengishda foydalidir, balki talabaning ijodiy fikrlashida va yuksak badiiy didini tarbiyalashda axamiyat kasb etadi. Musiqani ongli ravishda ijro etish, amaliy ko‘nikmalarni puxta egallash, talabaning mustaqil ishga tayyorlashda yordam beradi.

Estrada xonandasini tayyorlashda ovozni to‘g‘ri qo‘yish – bu uzoq davom etadigan murakkab jarayon va talabani estrada sahnasiga tayyorlashda bir qator professional qiyinchiliklar mavjud ekanligini e’tirof etish lozimdir.

O‘qituvchining estrada xonandalik ixtisosligi sinfida musiqiy, tarbiyaviy faoliyati, badiiy asarlar ijrosidan tashqari, estrada va djaz vokalizlarini doimiy ravishda qo‘llashi aniq o‘z aksini topishi lozim. Chunki, u yosh professional estrada artistining shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi ishonchli uslubiy qo‘llanmadir.

## Vokalizlarni kuylashga doir uslubiy tavsiyalar

Bakalavriat bosqichida «Ixtisoslik» fanidan vokalizlarni ijro etish I-III kurslarda dasturiy talablarga kiritilgan.

Bakalavriat I-kursda – №№ 1-6 vokalizlar;
Bakalavriat II-kursda – №№ 7-12 vokalizlar;
Bakalavriat III-kursda – №№ 13-18 vokalizlar;
Magistratura 1-kursda – №№ 18-25 vokalizlar tavsiya etiladi.

Sinfdagi darslarda (Bakalavriatda) har semestrda talaba odatda 3-4ta vokalizni ustida ishlaydi, oraliq nazorat (ON1) dasturida ikkita vokaliz ijrosi majburiy. Magistratura 1chi kurs bosqichida esa, har bir semestrda bitta murakkab vokalizi ijrosi majburiy.

**Vokalizlar ijrosi.**
Ayollar ovozi uchun: D.Amanullayeva. Vokaliz №18

**Vokaliz №18** – buyuk Ozarbayjon xonandasi Rashid Beybutovga bag‘ishlangan ushbu asar ijrochilarning oldiga bir qator texnik va badiiy masalalarni qo‘yadi:
a/ murakkab sharqiy 7/8lik ritmik usulni erkin his etish va ijro qilish;
b/ murakkab lado-garmonik ohangdagi keskin xromatik tuzilishdagi intonatsiyaning sofligi;
d/ nafas texnikasini mohirona ishlata olish;
e/ badiiy obraz yaratishda artistik temperamentni ko‘rsatmoq.

Murakkab 7/8dagi ritmik usulni sharqona garmonik ladiga asoslangan yorqin kuy orqali erkin ijro etishga harakat qilish lozim. Ijrochining vazifasi - musiqaning ruhiyati va xarakterini ostinato vazndagi ritm-lad orqali erkin ifoda etmoq.

Vokalizning oxangi kichik xromatik passajlar bilan murakkablashtirilgan (31-32-chi taktlar). Kuylashda talabadan maksimal ravishda alohida passajlarda intonatsiyaning sofligini talab etish zarur. Ushbu vokalizni tanlaganda talabaning texnik tayyorgarligini e'tiborga olish lozim. Har qanday vaziyatda bu vokaliz yosh ijrochilar uchun ritmik qobiliyatining o'tkirligini tarbiyalash va rivojida juda foydalidir.

Oddiy uch qismli kompozitsiyaning o'rta qismida kulminatsiya – avj qurilgan. Ushbu avj ehtirosli ijroni talab etadi. Vokaliz ustida ishlagan paytda, talabani nafaqat texnik qiyinchiliklarni bartaraf etishiga, balki ularning musiqiy badiiyligi va ehtirosli jihati bilan qiziqishlariga e'tiborni qaratish lozim.

Bu asar sahnaviy so'zsiz qo'shiq sifatida qabul qilinib, unda ajoyib vokal mahoratni, badiiy fantaziya va yorqin artistzmni ko'rsatishga imkon berilgan. Vokalizni «fara-fara» yoki «nana-nana» ifodasi bilan kuylash tavsiya etiladi.

*Buyuk Ozarbayjon xonandasi Rashid Beybutov xotirasiga.*
*Памяти великого азербайджанского певца Рашида Бейбутова.*

# ВОКАЛИЗ №18

ДИЛОРОМ АМАНУЛЛАЕВА




f
f


mf
mf
3





**Erkaklar ovozlari uchun: D.Amanullayeva Vokaliz №19.**

**Vokaliz №19** – buyuk, tengi yo‘q va takrorlanmas artist, dunyo musiqasi industriyasiga ulkan hissa qo‘shgan, pop, rok va soul musiqasining qiroli Maykl Djekson xotirasiga bag‘ishlangan. Unda millionlab yuraklarni zabt etgan afsonaviy yulduzning bevaqt o‘limi motam – musiqada ifodalangan.

3/4 o‘lchamdagi keng bir qismli kompozitsiya tonika-subdominanta nisbatidagi lad o‘zgaruvchanligini tasavvur etadi. Ma’noli minor «kantilena-yig‘i» 29-chi taktdan asta-sekin kuchli ekspressiyali kulminatsiyaga (33-36 taktlar) aylanadi. Bu taktlarning musiqiy obrazi yangi emotsional obrazlarni, fojiali hissiy kechinmalarni keltiradi. Ushbu avj asarning cho‘qqisi bo‘lib, ehtirosli va ruhiy ta’sirli ijroni talab etadi.

37-taktdan boshlab keskin intonatsion pasayish ro‘y beradi. Fortepiano akkompanimentidagi qiziqarli garmonik variatsiyalar fonida datlabki musiqiy fraza «rechitativ» takrorlanadi. Bu qism ijrochidan motamsimon ruhiy obrazni nozik va sezgirlik bilan ifodalashni talab etadi.

Katta dramatik avjli ushbu asar ijrochidan keng ovoz diapazonini, yorqin yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarini, puxta o‘ylab taqsimlangan chuqur va katta nafasni va liriko-dramatik obrazli ijroni talab qiladi.

Vokaliz ijrochilarga musiqiy mahorat, yorqin obraz, badiiy fantaziya, artistik mahoratni namoyish etishga imkon beradi. Bu asarni sahnaviy so‘zsiz qo‘shiq sifatida ijro etib, musiqiy mahorat, yorqin obraz, badiiy fantaziya, artistik mahoratni namoyish etish mumkin. Vokalizni solfedjiolashtirib, hamda unli tovushda vokalizatsiya ifodasi bilan almashtirib kuylash tavsiya etiladi.

Ushbu vokalizlar har bir darsda takrorlanib, ijro sifatini o‘stirib borish ustida repetitsiyalar olib borish tavsiya etiladi. Talaba uyda vokalizlarning nota matnini mustaqil ravishda o‘rganib keladi. Sinfda esa o‘qituvchi rahbarligida, fortepiano jo‘rnavozligida matnni to‘g‘ri ijrosida, to‘g‘ri nafas setkasi ustida, artistik mahorat ustida repetitsion mashg‘ulotlar olib borish kerak bo‘ladi. Ushbu tanlangan vokalizlar oktyabr oyining uchinchi xaftasida konservatoriyaning Kichik zalida talabalar tanlovida ijro etiladi.

*Maykl Jekson xotirasiga.*

# VOKALIZ №19

Dilorom Amanullayeva




f
8va
mf
poco cresc.
mf
poco cresc.
f
8va
ff
8va
sub. p
sub. p




1.10.2011

SAVOLLAR:

1. Vokaliz so'zi nimani anglatadi?
2. D.Amanullayevaning qaysi vokalizlari «soul» yo'nalishida yaratilgan?
3. D.Amanullayevaning qaysi vokalizlari «jaz» yo'nalishida yaratilgan?
4. D.Amanullayevaning qaysi vokalizlari o'zbek musiqasi namoyondalariga bag'ishlangan?
5. D.Amanullayevaning qaysi vokalizlari Fransiya musiqasi namoyondalariga bag'ishlangan?
6. D.Amanullayevaning qaysi vokalizlari Amerika musiqasi namoyondalariga bag'ishlangan?

TOPSHIRIQLAR:

1. D.Amanullayevaning «Estrada va jaz vokalizlari» o'quv qo'llanmasini o'rganib chiqing.
2. D.Amanullayevaning «Estrada va jaz vokalizlari» №№ 20, 21 musiqiy shaklini, nazariy va stilistik yo'nalishini va ijro dramaturgiyasini tahlil qilib, keyingi darsda gapirib bering.
3. Vokal san'ati bo'yicha dunyoda yana qanday vokalizlar mavjudligini bilib keling.
4. Ijro dasturidagi vokalizlarni yodlab keling. Keyingi darsda yoddan ijro etib bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:


1. Dmitriyev L. Osnovi vokalnoy metodiki. M., 1969
2. Klip O. Postanovka golosa estradnogo pevsa. M.,2003
3. Golubev V. Soveti molodim pedagogam-vokalistam. M., 1963
4. Turayev Yu, Amanullayeva D. Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish metodikasi. T.. 2008
5. Amanullayeva D. «Estrada va jaz vokalizlari. T: «Musiqa», 2014


## 6–7-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari

O'quv yilining 3-4 haftalari mobaynida darslarda qo'yidagi mashg'ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi vokaliz ijrosi;
3. Shaxsiy ijro rejangizdagi o'zbek asarining ijrosi.

1. Ovoz sozlash mashqlari.

O'quv yilining uchinchi hafta mobaynida yakka amaliy darslarda ovoz mashqlari va vokalizlar ustida ish olib borildi. Keyingi xaftalarda ham ovoz mashqlari va vokalizlarni kuylash davom etadi, lekin ijro dasturidagi she'r bilan bog'liq badiiy asarlar ijrosi ustida ijrochilik mashg'ulotlari davom etiladi.

Kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshing. Eng avvalo ovozni erkin va to'liq chiqishini, diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so'ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin.

Quyidagi vokal mashqlarini bajaring










Quyidagi stakkato texnikasi bo'yicha tavsiya etilayotgan mashqda intonatsiyaning sofligiga va to'g'ri nafas setkasida ishlashga harakat qiling.




Keyingi vokaliz arpedjio vokalizi deb nomlanadi. Unda katta nafasda kuylash lozim. Bu mashq registrlarning tekisligiga va intonatsiyaning rivojiga foydali.




Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.






## 2. Tanlangan vokaliz ustida ishlash

Vokalizni fortepianodagi jo‘rnavoz jo‘rligida bir necha marta repetitsiya qiling. Ijro paytida tovushning erkin filirovkasini ko‘rsatishga xarakat qiling. Nota klavirida ko‘rsatilgan nafas setkasini to‘g‘ri bajaring va yoddan o‘rganing. Vokalizning avj qismlarida tirgakli tovushlar ustida ishlang. Yuqori registrlardagi tovushlarda yorqin va keng diapazonni ko‘rsatishga intiling.

*Buyuk Ozarbayjon xonandasi Rashid Beybutov xotirasiga.*
*Памяти великого азербайджанского певца Рашида Бейбутова.*

# ВОКАЛИЗ №18

ДИЛОРОМ АМАНУЛЛАЕВА

**Allegro brilliante**



SAVOLLAR:
1. Vokal mashqlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Vokal mashqlarining ijrosida biri-ketinligini bilasizmi?
3. «Kantilena» so'zi nimani bildiradi?
4. Qanday nafas olish turlarini bilasiz?
5. Ovoz diapazonini kengaytirish uchun qaysi turdagi mashqlar foydali?
6. Vokal maktabida «Maska» degan so'ziga izoh bering.
7. Oddiy va estrada-jaz yo'nalishining vokal mashqlarini farqi nimada?
8. «Mutatsiya» so'ziga izoh bering?

TOPSHIRIQLAR:
1. O'zingizni mutaxassislik sinfidagi rahbaringizning talabalar bilan o'tkazgan darsidagi vokal mashqlarini ko'ring va analiz qiling.
2. Darslikda keltirilgan hamma mashqlarni o'rganib, keyingi darsda fortepianoda va ovozda o'zingiz ijro etib bering va gapirib bering.
3. Estrada yo'nalishida yangi mashqni ijodiy yarating va keyingi darsda o'qituvchingizga ko'rsating..
4. Ijro repertuaringizga kiritilgan barcha asarlarning audio yozuvlarini darslik kompakt-diskidan yoki OTM fonotekasidan ko'chirib olib

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Dmitriyev L. Osnovi vokalnoy metodiki. M., 1969
2. Klip O. Postanovka golosa estradnogo pevsa. M., 2003
3. Golubev V. Soveti molodim pedagogam-vokalistam. M., 1963
4. Turayev Yu., Amanullayeva D. Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish metodikasi. T.. 2008
5. Amanullayeva D. «Estrada va jaz vokalizlari. T: «Musiqa», 2014
6. Amanullayeva D. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX–XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010, 198-202 betlar
7. Amanullayeva D. «Osobennosti prepodavaniya estradnogo peniya v Gosudarstvennoy konservatorii Uzbekistana» – ilmiy maqola « XX1 asr musiqa ta'limi: muammo va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2014, 90-94 betlar.

## 8–10-DARSLAR. O'zbekiston klassik kompozitorlarining estrada asarlari (1960-1980 yillar)

**Amaliy ijrochilik mashg'ulotlar**
O'quv yilining 7-8 haftalari mobaynida darslarda qo'yidagi mashg'ulotlar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi vokaliz ijrosi;
3. Shaxsiy ijro rejangizdagi o'zbek asarining ijrosi;
4.O'zbekiston kompozitorlarining klassik asarlari bilan tanishasiz.
5. Ijro mahorati qirralari va ko'nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**1. Ovoz sozlash mashqlari.**
O'quv yilining 4-5 hafta mobaynida yakka amaliy darslarda ovoz mashqlari va vokalizlar ustida ish olib borildi. Keyingi xaftalarda ham ovoz mashqlari va vokalizlarni kuylash davom etadi, lekin ijro dasturidagi she'r bilan bog'liq badiiy asarlar ijrosi ustida ijrochilik mashg'ulotlari davom etiladi.

Kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshing. Eng avvalo ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so'ng diapazoning yuqori tovushlarida kuylashga o'tish mumkin.

**2. Dasturdagi jaz vokalizi ustida ishlash.**

**Dasturdagi Estrada –jaz vokalizini jo‘rnavoz bilan repetitsiya qiling.** Talabalar o‘rtasidagi «Estrada va jaz vokalizlarining eng yaxshi ijrosi» tanloviga tayyorgarlik ko‘ring. Dinamik belgilarni inobatga olgan holda, sof intonatsiya va artistik mahorat ustida ishlang.

**O‘zbekiston klassik kompozitorlarining estrada asarlari (1960-1980 yillar)**

Vokal pedagogikasining vazifasi - bo‘lajak estrada san’atkorining vokal imkoniyatlari va ijodiy qirralarini ochib berishdan iboratdir. Shu bilan birga, yosh xonandaning ijro dasturi, ya’ni repertuar masalasi zarur omillardan biridir.

Mutaxassislik sinfida yirik vokal asarlarni - Vatanparvarlik ruhidagi va madhiyaviy asarlar; Estrada romanslari, balladalar, ariyalar, ashulalar va yirik shakldagi jaz kompozitsiyalarini o‘zlashtirishda - asosiy e’tibor estrada djaz sohasidagi ko‘pqirrali stilistik yo‘nalishlarni his etish, asarning kompozitsion tuzilmasi va shakli, obrazli strukturasini ifoda etishga, shu bilan birga ta’sirli ijroni ifoda qila olishga qaratilgan. Alohida e’tibor so‘z (she’r) va musiqaning birligiga, badiiy obraz va psixologik holatlarni his etib, sahnada aniq ko‘rsata olish ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Bu albatta, ijrochidan yuksak vokal-texnik va artistik mahoratni talab etadi.

Asar ijrosida xonanda to‘laqonli badiiy obrazni yaratish maqsadida bastakorning ijodiy metod vaestetik prinsiplarini o‘rganishi lozim. Ijrochi o‘zi ham yuqori estetik didli, fikrlash doirasi keng, yangilik yaratishga qodir ijodkor bo‘lishi shart.

Asarning she’riy manosini, musiqiy ifoda vositalarining xususiyatlarini ilg‘ash, asarning badiiy-estetik mohiyatini, undagi obrazlar tasvirini chuqur anglab yetish – ijrochi xonanda oldiga qo‘yiladigan zarur shartlardan biridir. Romans, ballada, ashula va djaz kompozitsiya asarlari – o‘ziga hos monospektakldir. Kichik vokal asarda bir umrning falsafasi, katta ifodali taqdirlar negizidagi manzaralar va timsollar gavdalangan. Shu o‘rinda ijrochi-xonanda asarning mohiyatini, uning dramaturgiyasini anglagan holda, asarni o‘z hissiyotida, yuragi bilan ilg‘ab, ijodiy fantaziyasi bilan boyitib, intonatsion tembr va dinamik bo‘yoqlarda samimiy va ta’sirli ijro etsa, asar tinglovchilarga to‘la yetib boradi. Gavdalangan obrazlarni ijrochilar sahnaviy xarakatlar bilan boyitishi darkor. Bu o‘rinda, albatta, asarning musiqali sahna dramaturgiyasini, she’riy matnning ma’no yo‘nalishi izchilligini aniq belgilab olishi kerak bo‘ladi.

Darslikda keltirilgan sahnaviy konsert asarlar ijrochidan intellektual darajadagi chuqur ijro talqinini talab etadi, va albatta, talabalarning ijodiy yondoshishiga da’vat etadi. Asarlarning ijrosi talabadan har bir she’riy misrani va so‘zlarni, she’rning g‘oyalarini chuqur anglagan holdagi, yorqin obrazli ijroni talab etadi. Ijrochi aniq interpretatsiya rejasini belgilab , asardagi psixologik kechinmalarning aniq ifodasi bo‘lmish, soul stilistik yo‘nalishidagi asarning nolali va ta’sirli yangrashiga intilishi lozim.

Barcha monumental konsert asarlari naqarotli kuplet shaklida, yoki ko‘p qismli variatsiyalashgan va erkin rivojlangan, katta avjli shaklda yaratilgan. Asarlarning kirish cholg‘u qismlari xonandani obraz yaratishiga va psixologik holatga kirishiga yordam beradi. Ulardagi musiqaning ranglarga boy melodiyasi nozik lirik kechinmalardan boshlanib, dinamik tarzda kuchayib boradi, va naqarot qismlarida kuchli shijoatli rakursda dramatik va patetik avjni hosil qiladi. Baland tessituradagi avjli naqarotlar – vokal asarlarining dramaturgiyasidagi markaziy qismi bo‘lib, unda she’rdagi eng ta’sirli so‘zlar yangraydi. Ijro bo‘yicha naqarot - asarning eng murakkab qismi bo‘lib, ijrochidan diapazoni keng dramatik ovozni, tirgakli tovushlarni, to‘g‘ri taqsimlangan nafasni, chuqur extirosli dramatik va ta’sirli ijro talqinini talab etadi. Vatanparvarlik ruhidagi asarlardan esa monumental xarakteridagi o‘ziga hos bayramona, g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan to‘la pafosli va keng, madhiyavor ijro talab etiladi.

Mazkur adabiyotdagi rang-barang stilistik asarlar ijodiy fikrlashga, intellektning rivojiga, tovush filirovkasi va nafas texnikasini rivojiga imkon beradi. Ular ijrochilarga o‘z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

Aytish joizki, estrada xonandasini to‘laqonli voyaga yetishidagi eng murakkab vazifa – badiiy ohang ifodasidir. Ayniqsa, estrada-jaz ijrochilik san’atida bu murakkab omildir. Kuylovchi xonanda psixologik emotsional holatlarni o‘ziga hos individual xususiyatlari bilan

asarning mohiyatini boyitadi. Notada keltirilgan shoirning she'ri, bastakor yaratgan musiqasidagi nota yozuvi asarning faqat tashqi ko'rinishini va mohiyatini belgilaydi. Jaz xonandasi asarning ichki mohiyatini o'z badihaviy ijrosida, faqatgina o'z intonatsiyasi, ovoz xarakterini o'z ruhiy holatidan, qalbi va yuragidan o'tkazib, asarni o'zinikiday qilib olib, ishonch bilan, dadil jonlantirishi mumkin. Musiqa orqali she'r mazmunini yorqin ifodaviyligi nafaqat jaz, balki barcha janrdagi vokal asarlar ijrosida zarur vositadir.

Ishlash jarayonida talaba intonatsion ifodaviyligiga ko'proq e'tibor qaratishi darkordir. Har bir so'zni, fikrning mohiyatini rang barang ovoz intonatsiyalari orqali yetkazib berishni talab etish zarurdir. Xonandalik san'atida intonatsion ifodaviylik asar g'oyasini ochib berishdagi asosiy omillardan biridir.

Estrada yo'nalishidagi vokal sohasida tahsil olayotgan yosh ijrochining ijodiy vazifasi – o'z ovozining texnik jihatlarini rivojlantirish, turli stilistik yo'nalishlardagi ijro uslublarini egallashdan tashqari, o'z imidjini yaratish, o'ziga hos va o'ziga yarashgan sahna qiyofasini izlab topishdir. Estrada xonandaligi sohasida bu murakkab vazifadir. Bu omil har bir xonandaning o'z imkoniyatlariga: ovoz tembri va ovozining rangdorligi, fizik xolati va ko'rinishi, ijrochilik tayyorgarligi va texnik darajasi, va albatta, iste'dod darajasiga bog'liqdir. Bu eng murakkab masala, uni faqat iqtidori baland ijrochilar yechishi mumkin. O'zDKning «Estrada xonandaligi» ta'lim yo'nalishini bitirgan talabalardan Sevara Nazarxon, Sogdiana, Diana Ziyatdinova, Dilnoza Ismiyaminova, Xurshid Inagamov, Aysel Balich, Lola Axmedova kabi iqtidorli san'atkorlar o'z imidjlarini yaratib, estrada ijrochilik sohasida katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Ta'kidlash lozimki, xonandaning imidji uning ijro repertuariga bog'liqdir. Yosh xonanda didini yuksak badiiy asarlarda tarbiyalashi zarur. Bu o'rinda o'quv dasturidan joy olgan, professional shoirlarning she'rlari asosida yaratilgan klassik va zamonaviy asarlar: vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar, estrada romanslari, balladalar va jaz asarlari qo'l keladi.

O'quv dasturidagi asarlarni tanlaganda talabaning ovoz diapazonini, uning texnik tayyorgarligini va fizik xolatini e'tiborga olish lozim.

Ushbu darslikda keltirilgan murakkab konsert asarlari ijrochilarning umumiy madaniyat doirasi rivojiga, stilistik qiyofa, ta'sirli artistik ijro, yakka va ansambl ijrosidagi musiqiy mahorat va vokal texnik ko'nikmalarini egallash, garmonik eshitish qobiliyatini va badiiy didini o'stirishda foydalidir. Asarlar ijrochilarga ijodiy yondoshishni talab etgan holda, o'z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi, va albatta, badiiy tafakkurini o'stirishda qo'l keladi.

Asarni tanlashda va uni ijro etishdan avval, talaba asarning yaratilgan davri, asar yaratilish tarixi, uning mualliflari haqida tasavvurga ega bo'lishi shart.

O'zbek asarlarining ijrosi bo'yicha o'quv dasturi ikki bo'limdan ibort: 1) klassik estrada qo'shiqlari – 1960-1980chi yillarda komopzitorlar Ikrom Akbarov, Mutal Burxonov, Doni Zokirov, Manas Leviev, Sharif Ramazonov, Xayri Izamov, G'ofir Qodirov, Enmark Salixov, Farrux Zokirovlar yaratgan estrada qo'shiqlari.

2) 1990-2010 yillardada yaratilgan Zamonaviy o'zbek estrada kompozitorlarining asarlari: kompozitorlar Anor Nazarov, Nadim Norxo'jaev, Dilorom Amanullayeva, Alisher Ikromov, Alisher Rasulov, Doni Ilyosov. Shuningdek xonandalar Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullaeva, Sevara Nazarxonlarning mashhur va tarbiyaviy- estetik talablarga javob bera oladigan professional qo'shiqlar.

Tepada keltirilgan qo'shiqlar xaqida ma'lumot va uslubiy tavsiyalar quyidagi o'quv qo'llanmalarda mavjud:

1. G.Zokirova «Eng gullagan yoshlik chog'imda» – Ikrom Akbarov qo'shiqlari. OTM uchun o'quv qo'llanma. T.. 2011.
2. Yu.Turayev. «XX asr o'zbek estrada qo'shiqlari» – OTM uchun o'quv qllanma. T., 2015.
3. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» – OTM uchun o'quv qo'llanma. T., 2007.
4. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» – magistratura uchun o'quv qo'llanma. T., 2015.

Shuningdek, nota materiallari kafedraning pedagoglarida tarqatma materiallar sifatida mavjud.

**«Ra'no»** – Ikrom Akbarov musiqasi, S.Akbariy she'riga yozilgan ushbu asar O'zbekiston xalq artisti, o'zbek estrada san'atining tamal toshlarini qo'ygan, buyuk artist Botir Zokirov uchun yaratilgan. 1960 yillarda ushbu qo'shiq O'zbekiston hududida va chet davlatlarda o'ta mashhur bo'lgan.

Aytish joizki, kompozitor Ikrom Akbarov Botir Zokirov uchun 10dan ortiq estrada qo'shiqlarini yaratgan. Ijodiy hamkorlikda yaratilgan «Gazli», «Qaydasan», «Yor kel», «Xayolimda bo'lding uzun tun» va mazkur «Ra'no» estrada qo'shiqlari o'zbek musiqa madaniyating zarvaraqalaridan joy olgan, xalqimizning qalbida va hotirasida muhrlangan. Ushbu qo'shiqlar hech qachon unutilmagan, yillar o'tgan sayin yangi tusda yosh xonandalar repertuaridan munosib joy egallab kelmoqda.

Bu asarni janrini ko'proq estrada ashulasi, deb izohlashimiz mumkin, chunki o'zining yorqin milliyligi, melodik tuzilmasi va avj qismlari mumtoz musiqa yo'lida yaratilgan.

Asar ikki kupletdan iborat bo'lib, lirik xarakterga ega. 1960 yillarda modaga aylangan «Bossa-nova» stilistik yo'nalishida yaratilgan. Asarning ekspozitsiya qismi mayin, lirik xarakterdagi cantilena dinamikasidagi ijroni talab etsa, avj qismlari mag'rur va dadil, to'laqonli tirgakli tovushlarda yangrashi kerak. Ushbu avj qismlari ijrochidan nihoyatda katta mahoratni, keng diapazonli, tepa pardalardagi tirgakli tovushlarni talab etadi. Asar ijrosida milliy nolalar bilan bezatilgan, nozik nyuanslarni his etgan holdagi texnik ijroni ustida, to'g'ri va katta nafas setkasida ishlash zarur. Aniq intonatsiya, va albatta, so'z ifodasi ustida ko'proq ishlash ham axamiyatga ega bo'ladi.

Asar bossa-nova ritmik setkasidagi ravon ijroni, va soul yo'nalishidagi talqin ustida ham ish olib borishni talab etadi. Ushbu asar faqat erkak ovozlari uchun mo'ljallangan. Keltirilgan nota klaviri tenor ovozlarga to'g'ri keladi. Baritonlar uchun 2-3 ton pastga tranpozitsiya qilib ishlash tavsiya etiladi.

**«Umid»** – Enmark Salixov musiqasi, A.Muxtor she'riga yaratilgan qo'shiq ham Botir Zokirov uchun yaratilgan, va uning ijrosida mashhur bo'lgan. Bu qo'shiq zamonaviy avangard estrada yo'nalishida yaratilgan, naqarotli ikki kupletdan iborat. Stilistik yo'nalishi – bossa-nova. Qo'shiqning mavzusiga alohida e'tibor berib, har bir she'riy satrni chuqur tahlil qilib chiqish lozim. Boshlanish qismi lirik-psixologik holatni talab qilsa, «naqarot» – qo'shiqning markaziy nuqtasiga aylanib, psixologik-dramatik holatdagi ijroni talab etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ko'p qo'shiqlarning asosiy mazmuni va musiqiy mohiyati naqarotda ifodalangan. Naqarotni alohida diqqat bilan ijro etib, tinglovchiga ta'sir ko'rsatishga harakat qilish lozim.

Bu qo'shiqdagi naqarot ijro texnikasi bo'yicha murakkab bo'lganligi tufayli, ijrochidan katta ovoz diapazonini, tayanchli nafas, ijroda esa ovoz (nafas) erkin va ravon «oqib» chiqishi talab qilinadi. Shular vositasida qo'shiq dardli ohangda yangrashi lozim. Ushbu asar ham erkaklar ovoziga mo'ljallangan, va magistraturaning 1 kurs bosqichida dasturga kiritish tavsiya etiladi.

**«Unutma meni»** – Bu asarning musiqa muallifi iste'dodli san'atkor, mashhur «Yalla» ansamblining rahbari va xonandasi, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirovdir. Asarning dastlabki varianti rus tilida (N.Sabri) «Vodillik kelin» kinofilmi uchun yaratilgan (1975 yilda). Iste'dodli yosh xonanda Nargiz Zokirova ijrosida kino ekranida mashhur bo'lgan. 1980 chi yillarda esa, ushbu qo'shiq o'zbek tiliga o'girilib, mashhur o'zbek estrada yulduzi Kumush Razzoqova ijrosida keng qanot yozdi, va yoshlarning eng sevimli qo'shig'iga aylandi.

Qo'shiq o'z shakli va musiqiy hamda dramaturgik konsepsiyasi, she'r va musiqaning uyg'unligi tizimlari bilan qo'shiq-ballada turiga kiradi. She'rdagi dardli misralar chuqur ma'noni o'z ichida aks etgan, va musiqa orqali keskin xarakterlarda: nozik lirik kantilenadan, to o'ta dardli va ekspressiya xarakteridagi dramatik psixologik xolatlarda ifodalangan.

Bu chuqur va dardli so'zlarning ijrosi xonandadan yorqin va ifodali obrazni yaratishni, artistik mahoratni va soul stilistik yo'nalishidagi ijroni talab etadi. Asarning vokal tizimi keng diapazonli, 1,5 oktava doirasidagi ovoz diapazoninin talab etadi. Naqarot qismini faqat tirgakli vokal tovushlarida, katta nafasda, lirik-dramatik xarakterda ijro etish lozimdir.

Asar ijrochining artistik mahoratini rivojiga, kontrast xarakterli obrazlarni ifodasi ustida ishlashga, intellektning rivoji uchun foydalidir. Klavirda berilgan tonallik metsso soprano uchun mo'ljallangan.

# RA'NO

S.Akbariy she'ri

I.Akbarov musiqasi




O - shiq - qa dil - dor - mi - san Ham-ma gul-lar - dan a' - lo Ra' -
Ko' cham - dan tur - gin o' - tib, Bax-ting dan bax - tim pay-do Ra' -
no ham-ma gul-lar - dan a' - lo Ra' - no, Ra' - no
-no bax-ting dan bax - tim pay-do Ra' - no, Ra' - no
mf
ff
ff
mp
Ne-yi git lar shay - do Ra' - no, bir ku-lib ka-lov
Bar-no lar ich ra Bar - no Bar - no Gul mi-san gul -yor


-lat-ding, qal-bim-ni o-lov - lat-di - i - i-
-mi-san O-shiq qa dil-dor - mi-sa - a - a-
-ing Ra' - no xu-mor ko'z-la shax-lo Ra' -
- an Ra' - no ham-ma gul lar-dan a' - lo Ra' -
-no xu-mor ko'z-la shax-lo Ra' - no, Ra' - no.
-no Ham-ma gul-lar dan a' - lo
Ha-yo
f
mf
ff
mp




Barnolar ichra barno, Ra'no,
Gulmisan, gulyormisan.
Oshiqqa dildormisan,
Hamma gullardan a'lo, Ra'no!

Hayoti to'la ma'no, Ra'no,
So'nmasin yoshlik o'ti,
Ko'chamdan turgin o'tib,
Baxtingdan baxtim paydo, Ra'no!

N a q a r o t :

Ne-ne yigitlar shaydo, Ra'no,
Bir kulib kalovlatding,
Qalbimni olovlatding,
Xumor ko'zlari shahlo, Ra'no.

## UMID

A.Muxtor she’ri

E.Salixov musiqasi




ga barg a - ro boq - qan o‘ - sha yul -
duz on-la - ri, qo‘-nar ko‘z - la - rim - ga
ne - ga - dir or - zi-qa-di de - sam ey ma - lak,
kuz ke lib - di ya - na. Ha -


birinchi marotaba liga
ikkinchi marotaba ligasiz
mon shu kuz tong - la - ri
mon sen - da - gi meh - mon
1-band uchun
vi - sol on - la - ri
ko‘ - ri - shar bal - ki
1.
es - lar - man ni -
gor
2.
Ha ya - na ko‘z tu - tib
barg a - ro boq - qan o‘ -sha yul - duz on - la - ri qo‘


nar ko‘z - la - rim - ga sen ham
u kuz tong- la - ri vi - sol on - la - ri, es-
lab es - lab ey ni - gor


Ha - mon shu kuz tong - la -
mon sen - da - gi meh-


ri vi - sol on - la -
mon ko' - ri - shar bal -
ri es - lar-man ni - goh Ha
ki
ya - na ko'z tu - tib barg a - ro boq - qan o' - sha yul-
duz on - la - ri qo' - nar ko'z - la - rim -




Kecha bog‘da oy shulasi
Tushmas edi yuzlarimga.
Barg aro boqqan o‘sha yulduz onlari
Qo‘nar ko‘zlarimga.
Negadir orziqadi desam, ey malak,
Kuz kelibdi yana.
Hamon shu kuz tonglari,
Visol onlari, eslarman, nigor.
Hamon sendagi mehmon,
Ko‘rishar balki, yana ko‘z tutib.
Barg aro boqqan o‘sha yulduz onlari
Qo‘nar ko‘zlarimga.
Sen ham u kuz tonglari, visol onlari,
Eslab, eslab, ey nigor,

Qo‘msayman kuz onlari,
So‘lim bog‘lar chirog‘ini.
Kuz keldi, gullar so‘ldi gulbog‘imda,
Kel, ey dilbar.
Sen ham u kuz tonglari, visol onlari,
Eslab, eslab, ey nigor.
Hamon shu kuz tonglari,
Visol onlari, eslarman nigoh.
Hamon sendagi mehmon,
Ko‘rishar balki, yana ko‘z tutib.
Barg aro boqqan o‘sha yulduz onlari
Qo‘nar ko‘zlarimga.
Sen ham u kuz tonglari, visol onlari,
Eslab, eslab, ey nigor.

# UNUTMA MENI

N.Sabriy she'ri F.Zokirov musiqasi

**Andante**




roq ya-qin - da - mi yo yi - roq me - ni es - la, u -
nut ma me - ni nur soch-gan da qu -yosh, oq - shom - lar be - rib bar - dosh me - ni es -
la U - nut - ma - me - ni osh - gan - da do - von yoq - qan -
da do - g'i hij - ron me - ni es - la ku - lib boq - sin iq - bol bax ti -




1. Sen ketarsan, jonginam, sen ketarsan,
Olis yo‘llar seni chorlar, chorlar zamon.
Orzularing olamiga, yor, yetarsan,
Men qolarman, ko‘zim giryon, dilda hijron.

Sen ketarsan, meni tashlab, sen ketarsan,
Goh ishon, goh ishonma deydi xayol.
Ammo o‘zing xayolingga keltirmaysan,
Xayolimsan, bormi sensiz menda majol.

Naqarot:
Unutma meni qaylarda chekma firoq,
Yaqindami yo yiroq, meni esla.
Unutma meni nur sochganda quyosh,
Oqshomlar berib bardosh meni esla.
Unutma meni oshganda dovon
Yoqqanda dog‘i hijron meni esla,
Kulib boqsin iqbol baxtimiz,
Topmay zavol meni esla.

2. Sen ketarsan ortingdan yetolmay sira,
Yurakkinam o‘tlarga tashlab ketarsan.
Diydoringga to‘ymadim, to‘ymadim zarra,
Boshginamni cho‘lg‘agan xayol qadarsan.

Qo‘lim siltab qolaman bag‘rim o‘rtanib,
Yulduz-yulduz ko‘zlarim boqar intizor.
Nigoh solsam keng samo ketar to‘lg‘anib,
Talpinarman, jonginam, vaslingga bedor.

Naqarot:
Unutma meni qaylarda chekma firoq,
Yaqindami yo yiroq, meni esla.
Unutma meni nur sochganda quyosh,
Oqshomlar berib bardosh meni esla.
Unutma meni oshganda dovon
Yoqqanda dog‘i hijron meni esla,
Kulib boqsin iqbol baxtimiz,
Topmay zavol meni esla.

SAVOLLAR:
1. Vokal qobiliyat va vokal texnikasiga izoh bering.
2. Vokal texnikasini va imkoniyatlarini rivojlantirish uslublarini aniqlang.
3. Garmonik intonatsiya tushunchasini ifodalab bering.
4. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
5. Ijro dasturini tanlashda qanday kriteriyalarga ahamiyat qilish darkor?

TOPSHIRIQLAR:
1. «Ra'no», «Umid» asarlarining shakli va stilistik yo'nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Unutma meni» asarning ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Ijro dasturidagi O'zbekiston kompozitorlari asarini musiqiy va she'riy matnini tahlil qiling va ijro dramaturgiyasini aniqlang.
4. O'zbekiston estrada san'atining shakllanishi va rivoji xaqida ma'lumotlarni quyidagi adabiyotlarda va maqolalarda o'rganib, gapirib bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Zokirova G. «Eng gullagan yoshlik chog'imda» – Ikrom Akbarov qo'shiqlari. OTM uchun o'quv qo'llanma. T.. 2011.
2. Turayev Yu. «XX asr o'zbek estrada qo'shiqlari» – OTM uchun o'quv qllanma. T., 2015.
3. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» – OTM uchun o'quv qo'llanma. T., 2007.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» – magistratura uchun o'quv qo'llanma. T., 2015.
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki. T.,2010
6. Amanullayeva D. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX-XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010, 198-202 betlar
7. Amanullayeva D. «Osobennosti prepodavaniya estradnogo peniya v Gosudarstvennoy konservatorii Uzbekistana» – ilmiy maqola « XX1 asr musiqa ta'limi: muammo va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2014, 90-94 betlar.

## 11–12-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari

O'quv yilining oltinchi hafta mobaynida darslarda qo'yidagi mashg'ulotlar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi vokaliz ijrosi;
3. Shaxsiy ijro rejangizdagi o'zbek asarining ijrosi;
4. Ijro mahorati qirralari va ko'nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**1. Ovoz sozlash mashqlari.**

Kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshing. Eng avvalo ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so'ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin.

Quyidagi vokal mashqlarini bajaring. Kantilena va registrlarni tekislash uchun foydali.










Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.







Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy. Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.






**2. Dasturdagi Estrada –jaz vokalizini jo'rnavoz bilan repetitsiya qiling.** Talabalar o'rtasidagi «Estrada va jaz vokalizlarining eng yaxshi ijrosi» tanloviga tayyorgarlik ko'ring. Dinamik belgilarni inobatga olgan holda, sof intonatsiya va artistik mahorat ustida ishlang.

**3. O'zbekiston kompozitorining asarini ijrosi (romans).**

Shaxsiy dastur rejasida belgilangan romanslar ijrosi.

Ayollar ijrosida: **«Jahondin kech»** – D.Amanullayeva musiqasi, Nodira g'azali.

Erkaklar ijrosida: **«Elegiya»** – D.Amanullayeva musiqasi, G.Murodalieva she'ri

Romans janri ovoz va cholg'u uchun yozilgan kamer asari bo'lib, asosan akademik musiqa san'atida, opera xonandaligida keng tarqalgan vokal-cholg'u asaridir. Romans so'zi ispancha tildan olinib, ispan, ya'ni roman xalqlari tilidagi, musiqa orqali ijroga mo'ljallangan she'r ma'nosini bildirgan. U ko'p davlatlarda tarqalib, keyinchalik cholg'u jo'rligidagi vokal asari terminiga ega bo'ldi. Romans qo'shiqqa nisbatan shakl va musiqiy dramaturgiyasi bo'yicha ancha chuqur va murakkabroq bo'lib, she'rdagi mazmun musiqa bilan chuqurroq bog'langan, ko'pqirrali ifodaga boy janrdir. Romansning musiqiy konsepsiyasi she'rdagi nozik his tuyg'ularini va ichki kechinmalairini musiqada chuqur ifodasi bilan, ruhiy xolatdagi obrazlarning keskin almashuvidagi lirik-dramatik kesimida ifodalashni talab etadi.

Romans 18chi asrning ikkinchi yarimida turli davlatlarda turli kompozitorlar ijodida rivojlana boshlagan, va 19 asrda yetakchi janrga aylangan. Yillar davomida romansning musiqiy yo'nalishi she'riyatning stilistik rivojlanishi bilan parallel o'zgargan. U o'z rivojlanish yo'lida klassitsizm, romantizm, impressionizm, ekspressionizm, neoklassitsizm kabi g'oyaviy estetik va badiiy yo'nalishlarda transformatsiyalashgan, turkum shaklida yaratila boshlagan. Turkum shakli rivojlanishiga F.Shubert, R.Shuman, I.Brams, M.Glinka, D.Shostakovich, G.Sviridov kabi kompozitorlar o'z xissalarinin qo'shganlar. 20chi asrda musiqa va she'rning sintezi yangicha usulda ishlatila boshlandi: unda erkin usuldagi she'rlarga, xattoki proza shaklidagi matnlarga romanslar yaratilgan.

O'zbekistondagi kompozitorlarning ijodida ham kamer musiqasi keng ommalashib, romanslar, vokal cholg'u turkumlar yaratilgan. M.Burxonov, S.Yudakov. R.Abdullaev, A.Mansurovlarning romanslari va vokal turkumlari bunga misol bo'la oladi.

**«Jahondin kech»** – D.Amanullayeva musiqasi, o'zbek klassik shoirasi Nodira g'azaliga yaratilgan estrada romansi. Ushbu asarni ilk bor O'zbekistonda *estrada stilistik yo'nalishida* yaratilgan «estrada romansi» deb izohlasak bo'ladi, chunki undagi she'r va musiqaning uzviy uyg'unligi va ifodasi, musiqaning dramaturgik konsepsiyasi - romans shakliga va dramaturgiyasiga hos tarzda yaratilgan. Ayniqsa, chuqur falsafiy she'riy mazmun, keskin va ko'pqirrali psixologik xolatlar estrada musiqasi va garmoniyasi ifodasida yoritilgan. Ushbu asar stilistik jixatdan, she'riy mazmuni bilan turkum romanslari shakliga kiradi.

Romansning ijrosida so'z va musiqaning mushtarakligi , ya'ni nutqiy va musiqiy ohangning uzviyligi talqinida psixologik obrazlarni yaratish darkordir. Matnning kuy bilan bog'lashda

alohida e'tiborni ohangga, pauzalarga, mantiqiy urg'uga qaratish lozim. Asarni o'zlashtirish davrida birinchi o'rinda talaffuz ustida, she'riy so'zlarni aniq ritmik ifodasi ustida ishlash lozimdir. She'rdagi so'zlarni o'zbek tilidagi talaffuzining milliy xususiyatini buzmagan holda, o'ziga hos ohangdorligida muhim fonetik vositalar tizimida yorqin, milliy tusda ifodalash darkor. Aytish lozimki, Nodira g'azallari 19chi asrning she'riy an'analarida, qadimgi o'zbek tilida va talaffuzida yaratilgan. Unda o'sha davrga hos qadimgi o'zbek va fors tilidagi so'zlar ishlatilgan. She'rdagi murakkab so'zlar ma'nosini, albatta, lug'at orqali tushunib yetish darkordir.

Ushbu romansning so'z uyg'unligidagi musiqiy ohangi lirik dramatik xarakterga ega bo'lib, o'zining chuqur va ehtirosli, qalblarni zabt etuvchi musiqasi, va estrada-djaz garmoniya tizimi bilan tinglovchilarni xayratda qoldirishi lozim. Asar uch qismli shaklda (a b a) yaratilgan. Ekspozitsiya qismi mayin lirik xarakterda boshlanadi. Uning vokal ifodasi ko'proq rechitativ yo'nalishidagi samimiy ohanglar bilan bog'liq. O'rta qism fortepianodagi cholg'u ijrosi bilan boshlanib, xonandani rivojlangan dramatik va extiroslarga boy avj qismiga olib kiradi. Unda chuqur va keskin dramatik xolatdagi, baland pardalardagi avj jo'shqin va qizg'in ma'noda yangraydi. Bu qism romansning markaziy qismi bo'lib, asarning eng ta'sirli, kuchli dinamikadagi qismidir. Uni xayajonli, chuqur ixtirosli va ta'sirli, yorqin artistik sur'atda ijro etish lozim bo'ladi.

Shiddatli vokal ijrosidagi avjdan so'ng, oxangining dramaturgiyasini fortepiano yanada rivojlangan va qizg'in rakursda davom ettiradi (ikkala asarda 41-50chi taktlar), va asta sekin dinamika pasayadi. Ekspozitsiya qismidagi ohang va lirik-romantik xarakterdagi mayin va iztirobli holat, repriza qismida ifodalanib, juda nozik va lirik-psixologik kechinmalarda, mayin ranglarda, asar nihoyasiga yetadi.

She'rda ifodalangan qahramonning qayg'uli va g'amli iztiroblari, uning dunyodagi yakkaligi, – musiqa ohanglari orqali, nozik lirik nyuanslardan shiddatli va chuqur dramatik avjlarda yoritilgan. Musiqaning estrada-djaz akkordlari bilan to'ldirilgan garmonik tizimi romanslarni zamonaviy talqinda bezagan. Shu bilan romanslar «soul» stilistik yo'nalishidagi ijroni va o'ziga hos zamonaviy qiyofani talab etadi.

Nota klavirida berilgan har bir dinamik detallar fortepiano va ovoz bilan o'zaro nisbatda, uyg'unlikda ifoda etilishi shart. Ushbu asarda vokal va fortepiano tizimlari teng darajadagi o'rinda asarni xarakterini ifodalaydi. Jo'rnavozning ijrosi ham yuqori intellekt va tayyorgarlikni talab etadi. Undan asarning she'riy matnini tushungan xolda, har bir detaliga chuqur ma'no kiritib, xonandaning emotsional nyuanslarini sezib, aniq ifodasini virtuoz texnik ijrosida ko'rsatishi talab etiladi.

Shubhasiz, ushbu ajoyib, yangi stilistik yo'nalishdagi, original va murakkab romans, ijrochilarning artistik va sahnaviy mahoratini, estetik didini o'sishida ulkan ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asar metsso soprano va bariton tonalligida berilgan. Tenorlar ijrosi uchun tonallikni kvarta yoki kvinta intervaliga ko'tarib ijro etish tavsiya etiladi. Fortepiano jo'rligida ijro etish tavsiya etiladi.

**Erkaklar dasturidagi romans:**

**«Elegiya»** – D.Amanullayeva musiqasi, yosh zamonaviy shoira G.Murodalieva she'rlari asosida yaratilib, u o'z shakli va musiqiy konsepsiyasi, dramaturgik o'lchovi, she'r va musiqaning uyg'unligi tizimlari bilan romans-ariya turiga kiradi. Asarning mazmuni va dramatik konsepsiyasi bo'yicha, u ko'proq ariya-monolog janriga mos desak ham, adashmaymiz. Shoir yaratgan she'rdagi fojiali va dardli misralar chuqur ma'noni o'z ichida aks etgan, va musiqa orqali keskin xarakterlarda: nozik lirik kantilenadan, to o'ta dardli va ekspressiya xarakteridagi dramatik psixologik xolatlarda ifodalangan.

Ushbu barmoq vazndagi she'r bilan tanishsak, uning har bir to'rtligida juda iztirobli, o'lim yoqasida turgan insonning fojiali va juda ta'sirli mazmuni nozik poetik misralarda ifodalangan. Bu chuqur va dardli so'zlarning ijrosi xonandadan yorqin va ifodali obrazni yaratishni, artistik mahoratni va soul stilistik yo'nalishidagi ijroni talab etadi. Asarning vokal tizimi mayin, lirik xarakterdagi rasmdan, keng diapazonli, oktava intervaliga sakragan dramatik xarakterdagi melodik tuzilmadan iborat (24-25chi taktlar). Unda dinamika tizimi pianodan (p ) keskin forte

( f) kuchidagi dramatizmni talab etadi. Ushbu qismni faqat tirgakli vokal tovushlarida, katta nafasda, keskin va ifodali dramatik xolatlarda ijro etish zarur bo‘ladi.

Asarning shakli ikki kupletdan iborat. Har bir kuplet o‘z ichida uch qismli shaklni tashkil etib, dramaturgiyaning markaziy o‘rta qismi 24-27chi taktlarga to‘g‘ri keladi. Ushbu qism ifodasi ijrochining diqqatini maksimal darajada konsentratsiya etishini talab qiladi.

Asar ijrochining artistik mahoratini rivojiga, kontrast xarakterli obrazlarni ifodasi ustida ishlashga, intellektning rivoji uchun foydalidir. Klavirda berilgan tonallik metsso soprano uchun – si minorda. Tenorlar ijrosi uchun mi minor tonalligi ma’qul keladi.

# ЖАҲОНДИН КЕЧ
# JAHONDIN KECH

Нодира шеъри
Nodira she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi




на жа - ҳон, бал - ки жис - му жон - дин кеч, на жа - ҳон, бал - ки
na ja - hon, bal - ki jis - mu jon - din kech, na ja - hon, bal - ki
жис - му жон - дин кеч.
jis - mu jon - din kech.
mf
8va


cresc.
f
Бир на-зар қо-ма-ти хи-ро - ми-га боқ,
Bir na-zar qo-ma-ti xi-ro - mi-ga boq,
f
муд - да-те ум-ри жо-ви-дон - дин кеч.
mud - da-te um-ri jo-vi-don - din kech.
Бўл - ма-ғил ях-ши-ю, я-мон - га та-раф,
Bo‘l - ma-g‘il yax-shi-yu, ya-mon - ga ta-raf,


бе - худ ул ях - ши - ю, я - мон - дин кеч.
be - hud ul yax - shi - yu, ya - mon - din kech.
Ку - йи туф - ро - ғи-га ни - ши - ман қил,
Ku - yi tuf - ro - g‘i-ga ni - shi - man qil,
сай - ри гул - зо - ру бўс - тон - дин кеч.
say - ri gul - zo - ru bo‘s - ton - din kech.
ff
Бўл - ма-ғил ях - ши - ю, я - мон - га та - раф,
Bo‘l - ma-g‘il yax - shi - yu, ya - mon - ga ta - raf,


бе - худ ул ях - ши - ю, я - мон - дин
be - xud ul yax - shi - yu, ya- mon - din
кеч.
kech.


mf
mf
p
Вас - ли ёр ис - та - санг жа - ҳон - дин кеч, хар - на мақ - ду - ринг ўл -
Vas - li yor is - ta - sang, ja - hon - din kech, xar - na maq - du - ring o‘l -
са он - дин кеч. Ёр - ким ер ту - би - да пин - ҳон - дур,
sa on - din kech. Yor - kim yer tu - bi - da pin - hon - dur,
Ко - ми - ла, мо - ҳи ос - мон - дин кеч, Ко - ми - ла, мо - ҳи ос -
Ko - mi - la, mo - hi os - mon - din kech, Ko - mi - la, mo - hi os -




Васли ёр истасанг, жаҳондин кеч,
Ҳарна мақдуринг ўлса ондин кеч.
Тиласанг васл ўт жаҳон ғамидин,
На жаҳон, балки жисму жондин кеч,
На жаҳон, балки жисму жондин кеч.

Бир назар қомати хиромига боқ,
Муддате умри жовидондин кеч.
Бўлмағил яхшию, ямонга тараф,
Бехуд ул яхшию, ямондин кеч.

Куйи туфроғига нишиман қил,
Сайри гулзору бўстондин кеч.
Бўлмағил яхшию, ямонга тараф,
Бехуд ул яхшию, ямондин кеч.

Васли ёр истасанг, жаҳондин кеч,
Ҳарна мақдуринг ўлса ондин кеч.
Ёрким ер тубида пинҳондур,
Комила, моҳи осмондин кеч,
Комила, моҳи осмондин кеч.

Vasli yor istasang, jahondin kech,
Harna maqduring oʻlsa ondin kech.
Tilasang vasl oʻt jahon gʻamidin,
Na jahon, balki jismi jondin kech,
Na jahon, balki jismi jondin kech.

Bir nazar qomati xiromiga boq,
Muddate umri jovidondin kech.
Boʻlmagʻil yaxshiyu, yamonga taraf,
Bexud ul yaxshiyu, yamondin kech.

Kuyi tufrogʻiga nishiman qil,
Sayri gulzoru boʻstondin kech.
Boʻlmagʻil yaxshiyu, yamonga taraf,
Bexud ul yaxshiyu, yamondin kech.

Vasli yor istasang, jahondin kech,
Harna maqduring oʻlsa ondin kech.
Yorkim yer tubida pinhondur,
Komila, mohi osmondin kech,
Komila, mohi osmondin kech.

# ЭЛЕГИЯ
# ELEGIYA

Гулчеҳра Муродалиева шеъри
Gulchehra Murodaliyeva she'ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi

**Moderato, cantabile**




бор кўз-ла-рин-га ҳа-ли тўй-ма-дим!...
bor ko'z-la-rin-ga ha-li to'y-ma-dim!..
mf
Ан-дуҳ-лар-дан қа ро-дир тун-лар. О-қи-бат-сиз ў-та-ди кун
An-duh-lar-dan qa-ro-dir tun-lar. O-qi-bat-siz o'-ta-di kun
p
лар... Фа-қат се-ни эс-ла-моқ ях-ши-
lar... Fa-qat se-ni es-la-moq yax-shi-
Нақарот:
Naqarot:
сен тас-кин-сан, ум-рим-нинг нақ-ши. Дард-ла-
sen tas-kin-san, um-rim-ning naq-shi. Dard-la-
6


рим-ни сен-га бер-мас - ман. Мен за - мин-да эн-ди
rim - ni sen-ga ber-mas - man. Men za - min-da en-di
қол-мас- ман... Ме-ни кўз - ла-ринг-да о-либ кет,
qol -mas - man... Me-ni ko‘z - la - ring -da o - lib ket,
у бе-за-вол ма-ко нин - га элт! Ме-ни кўз-ла ринг-да о-либ
u be-za-vol ma-ko-nin - ga elt! Me-ni ko‘z-la-ring-da o-lib
кет,- у бе-за-вол ма-ко-нин - га элт!
ket, u be-za-vol ma-ko-nin - ga elt!

Саҳар, сендан умидларим кўп.
Саҳар, менсиз ўтиб кетмагин.
Сенинг оппоқ, ёрқин, беғубор
Кўзларингга ҳали тўймадим!...

Андуҳлардан қародир тунлар.
Оқитабсиз ўтади кунлар...
Фақат сени эсламоқ, яхши –
Сен – таскинсан, умримнинг нақши.

Нақарот:

Дардларимни сенга бермасман,
Мен заминда энди қолмасман.
Мени кўзларингда олиб кет,
У безавол маконинга элт!

Ойнинг нури кўксимни тиғлар,
Ўйларимдай кўзи паришон.
Она, нечун кўзларинг йиғлар?
Бугун асло ўлмайман, ишон...

Деразамдан райхонлар кирар, –
Куйлар тонгни келтирган шамол:
Узоқларда кимдир соғинар...
Она, энди ўлмасман, ишон!

Нақарот.

Дардларимни сенга бермасман,
Мен заминда энди қолмасман.
Мени кўзларингда олиб кет,
У безавол маконинга элт!

Sahar, sendan umidlarim koʻp.
Sahar, mensiz oʻtib ketmagin.
Sening oppoq, yorqin, begʻubor
Koʻzlaringa hali toʻymadim!..

Anduhlardan qarodir tunlar.
Oqibatsiz oʻtadi kunlar...
Faqat seni eslamoq, yaxshi –
Sen – taskinsan, umrimning naqshi.

Naqarot:

Dardlarimni senga bermasman,
Men zaminda endi qolmasman.
Meni koʻzlringda olib ket,
U bezavol makoninga elt!

Oyning nuri koʻksimni tigʻlar,
Oʻylarimday koʻzi parishon.
Ona, nechun koʻzlaring yigʻlar?
Bugun aslo oʻlmayman, ishon...

Derazamdan rayxonlar kirar,-
Kuylar tongni keltirgan shamol:
Uzoqlarda kimdir sogʻinar...
Ona, endi oʻlmasman, ishon!

Naqarot.

Dardlarimni senga bermasman,
Men zaminda endi qolmasman.
Meni koʻzlringda olib ket,
U bezavol makoninga elt!

Ushbu notadagi romanslarni fortepiano jo‘rnavozi bilan birga nota matnini o‘rganib chiqing.

SAVOLLAR:
1. Vokal qobiliyat va vokal texnikasiga izoh bering.
2. Vokal texnikasini va imkoniyatlarini rivojlantirish uslublarini aniqlang.
3. Garmonik intonatsiya tushunchasini ifodalab bering.
4. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
5. Ijro dasturini tanlashda qanday kriteriyalarga ahamiyat qilish darkor?
6. «Soul» tushunchasiga izoh bering.
7. Romans janriga izoh bering.
8. D.Amanullayeva yaratgan romanslarning milliylik hususiyatlari qanday yoritilgan?

TOPSHIRIQLAR:
1. «Elegiya» va «Jahondin kech» asarlarining shakli va stilistik yo‘nalishini, ijro dramaturgiyasini mustaqil analiz qilib, izohlab bering.
2. O‘zbekiston estrada san’atining shakllanishi va rivoji xaqida ma’lumotlarni quyidagi adabiyotlarda va maqolalarda o‘rganib, gapirib bering.
3. Ijro dasturidagi asarlaringizni matnlarini yodlang, va yaqinlashayotgan Oraliq nazorati attestatsiyasiga tayyorgarlik ko‘ring.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. G.Zokirova «Eng gullagan yoshlik chog‘imda» – Ikrom Akbarov qo‘shiqlari. OTM uchun o‘quv qo‘llanma. T.. 2011.
2. Yu.Turayev. «XX asr o‘zbek estrada qo‘shiqlari» – OTM uchun o‘quv qllanma. T., 2015.
3. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» – OTM uchun o‘quv qo‘llanma. T., 2007.
4. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» – magistratura uchun o‘quv qo‘llanma. T., 2015.
5. D.Amanullayeva, N.Amanova. «Istoriya djaza i estradnoy muziki. T.,2010
6. D.Amanullayeva. «Osobennosti prepodavaniya estradnogo peniya v Gosudarstvennoy konservatorii Uzbekistana» – ilmiy maqola «XXI asr musiqa ta’limi: muammo va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2014, 90-94 betlar.
7. D.Amanullayeva. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)». Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar.
8. D.Amanullayeva. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX–XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010, 198-202 betlar.

## 13-DARS. Romans, ashula va balladalar

Dunyodagi estrada vokal san’atining turli janrlar va yo‘nalishlarining rivojlangan davrida, estrada xonanda mutaxassislarining kasbiy tarbiyasida qo‘shiq bilan bir qatorda murakkabroq asarlar: romanslar, balladalar va ashulalarning o‘zlashtirishi muhim kasb egallaydi. Yosh estrada xonandasini talabalik yillaridan boshlab, o‘z repertuarini turli janrlardagi asarlar bilan boyitishga o‘rgatish lozim. Bu kelajakda uning dunyo miqyosidagi standart va talablarga javob bera oladigan, professional san’atkor sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi. Talaba uchun har bir ijro etiladigan asar, uning janr xususiyatlari va stilistik yo‘nalishi xaqida tasavvurga ega bo‘lishini talab etadi.

Asarning ijro masalasida esa, talaba aniq interpretatsiya rejasini belgilab olishi zarur. Unda asardagi psixologik kechinmalarning aniq ifodasi, keng ko‘lamli asarning stilistik yaxlitligini buzilmagan ijrosi, she’riy va musiqiy dramaturgiyani ongosti darajasida avtomatik

ravishda ifoda etish, fortepiano yoki cholg‘u ansambli jo‘rligida badihaviy (improvizatsiya) ishlash malakalarini egallashi lozim bo‘ladi. Romans, ashula va balladalar yosh estrada san’atkorining konsert dasturini boyitadi.

**Romans** janri ovoz va cholg‘u uchun yozilgan kamer asari bo‘lib, asosan akademik musiqa san’atida, opera xonandaligida keng tarqalgan vokal-cholg‘u asaridir. Romans so‘zi ispancha tildan olinib, ispan, ya’ni roman xalqlari tilidagi, musiqa orqali ijroga mo‘ljallangan she’r ma’nosini bildirgan. U ko‘p davlatlarda tarqalib, keyinchalik cholg‘u jo‘rligidagi vokal asari terminiga ega bo‘ldi. Romans qo‘shiqga nisbatan shakl va musiqiy dramaturgiyasi bo‘yicha ancha chuqur va murakkabroq bo‘lib, she’rdagi mazmun musiqa bilan chuqurroq bog‘langan, ko‘pqirrali ifodaga boy janrdir. Romansning musiqiy konsepsiyasi she’rdagi nozik his tuyg‘ularini va ichki kechinmalairini musiqada chuqur ifodasi bilan, ruhiy xolatdagi obrazlarning keskin almashuvidagi lirik-dramatik kesimida ifodalashni talab etadi.

Romans 18chi asrning ikkinchi yarimida turli davlatlarda turli kompozitorlar ijodida rivojlana boshlagan, va 19 asrda yetakchi janrga aylangan. Yillar davomida romansning musiqiy yo‘nalishi she’riyatning stilistik rivojlanishi bilan parallel o‘zgargan. U o‘z rivojlanish yo‘lida klassitsizm, romantizm, impressionizm, ekspressionizm, neoklassitsizm kabi g‘oyaviy estetik va badiiy yo‘nalishlarda transformatsiyalashgan, turkum shaklida yaratila boshlagan. Turkum shakli rivojlanishiga F.Shubert, R.Shuman, I.Brams, M.Glinka, D.Shostakovich, G.Sviridov kabi kompozitorlar o‘z xissalarinin qo‘shganlar. 20chi asrda musiqa va she’rning sintezi yangicha usulda ishlatila boshlandi: unda erkin usuldagi she’rlarga, xattoki proza shaklidagi matnlarga romanslar yaratilgan.

O‘zbekistondagi kompozitorlarning ijodida ham kamer musiqasi keng ommalashib, romanslar, vokal cholg‘u turkumlar yaratilgan. M.Burxonov, S.Yudakov. R.Abdullaev, A.Mansurovlarning romanslari va vokal turkumlari bunga misol bo‘la oladi.

**Ballada** – romansning boshqa ko‘rinishidagi janrdir. U afsonaviy-tarixiy, ertak syujetlarini hikoya qiluvchi vokal cholg‘u asaridir. Janr keskin dramatik xarakterdagi voqyealarni manzara (kartina) sifatida ifoda etuvchi xususiyatlariga egadir. Balladalar operalarda ko‘p ishlatilgan. 20chi asrning ikkinchi yarmida estrada vokal janrida ham ballada shaklidagi asarlar qo‘llanila boshlangan. Selin Dionning «All by myself», Uitni Xyustonning «I always love you», Lara Fabianning «Je suis malade», «Adagio» kabi kompozitsiyalari ballada shakliga ega. O‘zbek estrada qo‘shiqchiligida, o‘zbek she’riyati asosida ilk bor estrada romans va balladalarini D.Omonullaeva yaratishga xarakat qilgan, va bu asarlar O‘zDKning «Estrada xonandaligi» ta’lim yo‘nalishining o‘quv dasturiga 2005chi yildan kiritilib, kompozitorning o‘zi va talabalar ijrosida kafedra konsertlarida va bitiruv davlat attestatsiyalarida ijro etib kelinmoqda.

**Ashula** - o‘zbek an’anaviy professional musiqasining alohida vokal cholg‘u janri bo‘lib, mumtoz musiqa vokal turlariga kiradi. Ashulalar odatda klassik shoirlarining aruz vaznidagi g‘azallariga yozilgan bo‘lib, ular sermazmun, serohang va mukammalligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda musiqiy mato bosqichma-bosqich rivojlanib, asta sekin yuqori pardalarda avj nuqtasiga yetadi, va yana asta sekin pastroq pardalarga tushib, boshlang‘ich pardalarda tugallanadi.

Ashula shaklining qismlari quyidagi bosqichlardan iborat: *Daromad* – ashulaning dastlabki kirish qismi, tovushqatorning birinchi bosqichlarida yangraydi; *miyonxat* - tovushqatorining o‘rta bosqichlarida yangraydigan qism, *dunasr* – ohang tovushqatorning oktavada baland ijro etiladigan yo‘li bo‘lib, avjga tayyorlanish qismi; Avj – ashulaning eng baland cho‘qqisidagi dramatik va markaziy qism. Ashulalarda bir nechta avjlar mavjud bo‘lishi mumkin. *Pirovard* – asarning tugallash qismi, ohangning birinchi bosqichiga qaytish qismi.

Ashulalarning ijro manerasi milliy an’anaviy yo‘nalishda, *ishkomi* yoki *gulligi* nafas yo‘lida ijro etiladi. O‘zbek klassik ashulalardan «Munojot», «Gulizorim», «Girya» kabi vokal cholg‘u asarlari misol bo‘lishi mumkin.

Estrada qo‘shiqchiligi san’ati rivojlanishi davrida, klassik ashulalar estrada yo‘nalishidagi aranjirovka ko‘rinishida ijro etila boshlandi. Shu bilan yana yangi murakkab estrada ashulalari paydo bo‘la boshlandi. Misol qilib Z.Boyxonova, G.Mamazoitova, Yu.Turdieva repertuaridagi asarlarning ko‘pi estrada aranjirovkasidagi milliy ashula janriga kiradi.

Estrada xonandalari uchun estrada romanslarini, murakkab ashula va balladalarning ijrosi - ularning professionallik darajasini belgilaydi. Albatta, ushbu shakldagi asarlar ustida ish olib borish, vokal pedagogikasi va ijrochiliginig eng murakkab sohasidir. Ushbu asarlar talabalarning vokal texnikasini rivojlantirib, yana madaniy doirasini kengaytiradi, intellektning rivojiga ta'sir ko'rsatadi, ijodiy fikrlashga imkon beradi. Mazkur janrlarni o'zlashtirish talabaning xonandalik san'atining rivojiga ta'sir etuvchi boy va murakkab materialdir. Bu janrlardagi asarlarning ijrosi xonandalardan nafaqat yuqori va yuksak ijroviy mahoratni talab etadi, balki chuqur intellektual darajadagi ifodani, murakkb obrazlarning artistik ifodasini talab etadi. Shu bilan birga asarning yirik shakldagi tuzilmasining chuqur moxiyatini xonanda anglagan holda ijro etishi zarur. Undagi nozik kechinmalar, lirik ohanglardan dramatik holatlargacha o'sgan chuqur va yorqin musiqiy ifodaviylikni, ovoz kantilenasi va filirovkasini, ovoz dinamikasining epchilligini, to'g'ri nafas texnikasini va ta'sirli so'z ifodasini o'zlashtirishida foydalidir. Shu bilan birga, ular yosh xonandaning badiiy didini o'stirishida, sahna mahorati va madaniyatini to'la o'zlashtirishida juda zarur va foydali materialdir.

*Ushbu romans bilan tanishamiz. Uni har doim esda tutamiz, chunki 2 kurs mobaynida bitiruv davlat attestatsiya ijro dasturida kerak bo'ladi.*

**«Yor kerak oshiqqa»** - D.Amanullayeva musiqasi, o'zbek klassik shoirasi Nodira g'azali asosida yaratilgan romans. Ushbu asarni ilk bor O'zbekistonda *estrada stilistik yo'nalishida* yaratilgan «estrada romansi» deb izohlasak bo'ladi, chunki undagi she'r va musiqaning uzviy uyg'unligi va ifodasi, musiqaning dramaturgik konsepsiyasi - romans shakliga va dramaturgiyasiga hos tarzda yaratilgan. Ayniqsa, chuqur falsafiy she'riy mazmun, keskin va ko'pqirrali psixologik xolatlar estrada musiqasi va garmoniyasi ifodasida yoritilgan. Ushbu asar stilistik jixatdan, she'riy mazmuni bilan turkum romanslari shakliga kiradi. Asarlar bir davrda, 1994 yil noyabrning oxirgi kunlarida bir ijodiy to'lqinda yaratilgan.

Romansning ijrosida so'z va musiqaning mushtarakligi , ya'ni nutqiy va musiqiy ohangning uzviyligi talqinida psixologik obrazlarni yaratish darkordir. Matnning kuy bilan bog'lashda alohida e'tiborni ohangga, pauzalarga, mantiqiy urg'uga qaratish lozim. Asarlarni o'zlashtirish davrida birinchi o'rinda talaffuz ustida, she'riy so'zlarni aniq ritmik ifodasi ustida ishlash lozimdir. She'rdagi so'zlarni o'zbek tilidagi talaffuzining milliy xususiyatini buzmagan holda, o'ziga hos ohangdorligida muhim fonetik vositalar tizimida yorqin, milliy tusda ifodalash darkor. Aytish lozimki, Nodira g'azallari 19chi asrning she'riy an'analarida, qadimgi o'zbek tilida va talaffuzida yaratilgan. Unda o'sha davrga hos qadimgi o'zbek va fors tilidagi so'zlar ishlatilgan. She'rdagi murakkab so'zlar ma'nosini, albatta, lug'at orqali tushunib yetish darkordir.

Ushbu romansning so'z uyg'unligidagi musiqiy ohangi lirik dramatik xarakterga ega bo'lib, o'zining chuqur va ehtirosli, qalblarni zabt etuvchi musiqasi, va estrada-djaz garmoniya tizimi bilan tinglovchilarni xayratda qoldirishi lozim. Ikkala romans ham uch qismli shaklda (a v a) yaratilgan. Ekspozitsiya qismi mayin lirik xarakterda boshlanadi. Uning vokal ifodasi ko'proq rechitativ yo'nalishidagi samimiy ohanglar bilan bog'liq. O'rta qism fortepianodagi cholg'u ijrosi bilan boshlanib, xonandani rivojlangan dramatik va extiroslarga boy avj qismiga olib kiradi. Unda chuqur va keskin dramatik xolatdagi, baland pardalardagi avj jo'shqin va qizg'in ma'noda yangraydi. Bu qism romansning markaziy qismi bo'lib, asarning eng ta'sirli, kuchli dinamikadagi qismidir. Uni xayajonli, chuqur ixtirosli va ta'sirli, yorqin artistik sur'atda ijro etish lozim bo'ladi.

Shiddatli vokal ijrosidagi avjdan so'ng, oxangining dramaturgiyasini fortepiano yanada rivojlangan va qizg'in rakursda davom ettiradi (41-50chi taktlar), va asta sekin dinamika pasayadi. Ekspozitsiya qismidagi ohang va lirik-romantik xarakterdagi mayin va iztirobli holat, repriza qismida ifodalanib, juda nozik va lirik-psixologik kechinmalarda, mayin ranglarda, asar nihoyasiga yetadi.

She'rda ifodalangan qahramonning qayg'uli va g'amli iztiroblari, uning dunyodagi yakkaligi, - musiqa ohanglari orqali, nozik lirik nyuanslardan shiddatli va chuqur dramatik avjlarda yoritilgan. Musiqaning estrada-djaz akkordlari bilan to'ldirilgan garmonik tizimi romansni zamonaviy talqinda bezagan. Shu bilan romans «soul» stilistik yo'nalishidagi ijroni va o'ziga hos zamonaviy qiyofani talab etadi.

Nota klavirida berilgan har bir dinamik detallar fortepiano va ovoz bilan o‘zaro nisbatda, uyg‘unlikda ifoda etilishi shart. Ushbu asarda vokal va fortepiano tizimlari teng darajadagi o‘rinda asarni xarakterini ifodalaydi. Jo‘rnavozning ijrosi ham yuqori intellekt va tayyorgarlikni talab etadi. Undan asarning she’riy matnini tushungan xolda, har bir detaliga chuqur ma’no kiritib, xonandaning emotsional nyuanslarini sezib, aniq ifodasini virtuoz texnik ijrosida ko‘rsatishi talab etiladi.

Shubhasiz, ushbu ajoyib, yangi stilistik yo‘nalishdagi, original va murakkab romans, ijrochilarning artistik va sahnaviy mahoratini, estetik didini o‘sishida ulkan ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Asar metsso soprano va bariton tonalligida berilgan. Tenorlar ijrosi uchun tonallikni kvarta yoki kvinta intervaliga ko‘tarib ijro etish tavsiya etiladi. Fortepiano jo‘rligida ijro etish tavsiya etiladi.

Quyidagi berilgan «Jahondin kech» romansini nota orqali ijro eting.

# ЁР КЕРАК ОШИҚҚА
# YOR KERAK OSHIQQA

Нодира шеъри
Nodira she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi




Бўл-ди ха-ё-линг би-ла кўнг - лим у - йи дил - ку - шо,
Bo‘l-di xa-yo-ling bi-la ko‘ng - lim u - yi dil - ku - sho,
кел-ки, бу вай-ро-на-да со - я - и де-вор йўх.
kel-ki, bu vay-ro-na-da so-ya-i de-vor yo‘x.
Бўл-ди ха-ё-линг би-ла кўнг - лим у-йи дил - ку -
Bo‘l-di xa-yo-ling bi-la ko‘ng - lim u-yi dil - ku-
шо, кел - ки, бу вай- ро - на-да
sho, kel - ki, bu vay- ro - na-da


со - я - и де - вор йӯх.
so - ya - i de - vor yo‘x.


Мах - фи - ли ай - ём а - ро мо - я - и ай - шу на -
Max - fi - li ay - yom a - ro mo - ya - i ay - shu na -
шот, бар - ча му - хай - ё мен - га,
shot, bar - cha mu - xay - yo men - ga,
хайф - ки, дил - дор йўх.
xayf - ki, dil - dor yo‘x.
Ўт - са хи - ром ай - ла - бон,
O‘t - sa xi - rom ay - la - bon,


жил - ва би - ла чо - бу - ким,
jil - va bi - la cho - bu - kim,
ет - мас а - нинг қад - ди - ға,
yet - mas a - ning qad - di - g‘a,
сарв - да раф - тор йўх.
sarv - da raf - tor yo‘x.
ff


ff
f
rit.
A tempo
mf
Эл-га не тонг ай - ла - са, о - ху фи - ғо - ним а -
El-ga ne tong ay - la - sa, o - xu fi - g‘o - nim a -
mf


сар, мен-га бу кун, Но - ди - ра,
sar, men-ga bu kun, No - di - ra,
ёр-дин о - сор йўх. Эл - га не тонг ай - ла -
yor-din o - sor yo‘x. El - ga ne tong ay - la -
са, о - ху фи-ғо - ним а - сар,
sa, o - xu fi - go‘ - nim a - sar,
мен - га бу кун, Но - ди - ра, ёр-дин о - сор
men - ga bu kun, No - di - ra, yor- din o - sor




Тошкент - Toshkent 2012

Ёр керак ошиққа, менда севар ёр йўх,
Дарду ғамим беадад, сўргали ғамхор йўх.

Бўлди хаёлинг била кўнглим уйи дилкушо,
Келки, бу вайронада сояи девор йўх.

Махфили айём аро мояи айшу нашот,
Барча мухайё менга, хайфки, дилдор йўх.

Ўтса хиром айлабон, жилва била чобуким,
Етмас анинг қаддиға, сарвда рафтор йўх.

Элга не тонг айласа, оху фиғоним асар,
Менга бу кун, Нодира, ёрдин осор йўх.

Ёр керак ошиққа, менда севар ёр йўх,
Дарду ғамим беадад, сўргали гамхор йўх.

Ёр керак ошиққа, ёр керак ошиққа, ёр керак...

Yor kerak oshiqqa, menda sevar yor yo‘x,
Dardu g‘amim beadad, so‘rgali g‘amxor yo‘x.

Bo‘ldi xayoling bila ko‘nglim uyi dilkusho,
Kelki, bu vayronada soyai devor yo‘x.

Maxfili ayom aro moyai ayshu nashot,
Barcha muxayo menga, xayfki, dildor yo‘x.

O‘tsa xirom aylabon, jilva bila chobukim,
Etmas aning qaddig‘a, sardva raftor yo‘x.

Elga ne tong aylasa, oxu fig‘onim asar,
Menga bu kun, Nodira, yordin osor yo‘x.

Yor kerak oshiqqa, menda sevar yor yo‘x,
Dardu g‘amim beadad, so‘rgali gamxor yo‘x.

Yor kerak oshiqqa, yor kerak oshiqqa, yor kerak...

SAVOLLAR:

1. Qo‘shiq va ashula o‘rtasidagi farq nimada?
2. Kantilena va tirgakli tovush tushunchasiga izoh bering.
3. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
4. Romans janrining estrada musiqasidagi ahamiyati?
5. Ballada janriga izoh bering.
6. Balladaning estrada-jaz musiqasidagi o‘rni va ahamiyati.
7. O‘zbek klassik, g‘azalnafis shoirlarni sanab bering.
8. Nodira poeziyasidagi qanday asarlarni bilasiz?

TOPSHIRIQLAR:

1. «Yor kerak oshiqqa» asarining shakli va stilistik yo‘nalishini, she’riy matnini, ijrodagi badiiy ohang tizimlarini analiz qilib, izohlab bering.
2. Nodira she’riyati, ijodiy xayoti bo‘yicha kutubxonadan va internet manbalaridan ma’lumot yig‘ing. Keyingi darsda o‘qituvchingiz bilan fikr almashasiz.
3. Nodira g‘azallariga yozilgan mumtoz o‘zbek asarlarini o‘rganing.
4. Darslikka ilova qilingan kompakt diskdagi audio yozuvlaridagi mashhur estrada jaz yulduzlarining ijrosidagi asarlarni hamisha tinglang va ijro uslublarini tahlil qiling, kursdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Sposobin I. Muzikalnaya forma. –M.:, 1972.
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
4. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa» 2008
5. Orinbayeva M. «Estrada qo‘shiqchiligi sirlari». Yilnoma: «Zamonaviy yoshlarning musiqiy va ma’naviy dunyosi». T.: 2008. 207-210 bb.;
6. Orunbaeva M. «Ona Vatan madhi» (Kompozitor D.Omonullaevaning qo‘shiqlari misolida). «Musiqa san’ati va zamonaviylik». O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida. T.: 2008., 139-143 bb.
7. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)» Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar.

## 14–15-DARSLAR. Vokalizlar tanloviga tayyorgarlik

O‘quv yilining 7chi haftasida kafedra rejasi bo‘yicha talabalar ijrosida «Estrada-jaz vokalizining eng yaxshi ijrochisi» tanloviga tayyorgarlik ko‘riladi.

Darslarda qo‘yidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi vokaliz ijrosi;
3. Yangi zamonaviy o‘zbek asari bilan tanishish;

**1. Ovoz sozlash mashqlari.**

O‘quv yilining 5-6 hafta mobaynida yakka amaliy darslarda ovoz mashqlari va vokalizlar ustida ish olib borildi. Keyingi xaftalarda ham ovoz mashqlari va vokalizlarni kuylash davom etadi, lekin ijro dasturidagi she’r bilan bog‘liq badiiy asarlar ijrosi ustida ijrochilik mashg‘ulotlari davom etiladi.

Kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshing. Eng avvalo ovozni erkin va to‘liq chiqishini diapazonning o‘rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so‘ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o‘tish mumkin.

Quyidagi vokal mashqlarini bajaring






Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.







**2. Dasturdagi Estrada –jaz vokalizini jo‘rnavoz bilan repetitsiya qiling.** Talabalar o‘rtasidagi «Estrada va jaz vokalizlarining eng yaxshi ijrosi» tanloviga tayyorgarlik ko‘ring. Dinamik belgilarni inobatga olgan holda, sof intonatsiya va artistik mahorat ustida ishlang.

Magistratura bosqichida murakkabroq vokalizlarni ijro etish dasturiy talablariga kiritilgan.

Estrada xonandasini tayyorlashda ovozni to‘g‘ri qo‘yish – bu uzoq davom etadigan murakkab jarayon va talabani estrada sahnasiga tayyorlashda bir qator professional qiyinchiliklar mavjud ekanligini e’tirof etish lozimdir.

Kuylashda maksimal ravishda alohida passajlarda sadoning (intonatsiyaning) sofligini ko‘rsatish zarur. Vokaliz ustida ishlagan paytda, nafaqat texnik qiyinchiliklarni bartaraf etishiga, balki ularning musiqiy badiiyligi va emotsional mazmuniga e’tiboringizni qaratishingiz lozim. Qulay tanlangan vokalizlar kelajakda sizlarga har qanday texnik va badiiy stilistik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Vokalizlarni kuylash jarayonida quyidagi jihatlarga asosiy urg‘uni qarating:
a) kantilena silliqligiga;
b) tovushning professional darajadagi filirovkasiga;
d) to‘g‘ri nafas olish texnikasiga;
e) ovoz dipazonini kengaytirishga;
f) yuqori tessituradagi tovushlarning yorqinligiga.
g) estrada-jaz stilistikasini egallashga;
h) garmonik intonatsiyani rivojlantirishga;
i) pop va djaz musiqasining zamonaviy ritmlarini egallashga;
j) artistizm va badiiylikni rivojlantirishga.

### 3. O‘zbekiston kompozitorining zamonaviy estrada asari bilan tanishish.

#### Ashula janri

**«Bolicha»** – D.Amanullayeva musiqasi. Estrada yo‘nalishidagi ashula, zamonaviy shoir O‘lmas Jamolning aruz vazndagi g‘azaliga 1991 yilda yaratilgan. Asar ilk bor milliy estrada orkestri jo‘rligida yosh xonanda Maysara Imamova ijrosida yangrab, tez orada mashhur bo‘lgan, va teleradio efirlarida bugungi davrgacha yangrab kelmoqda. Asarning cholg‘u varianti ham mavjud, virtuz rubobchi, san’atkor Toxir Rajabiyning orkestr jo‘rligidagi ijrosi efirda va telefilmlarda ko‘p ishlatilgan. Radioning oltin fondiga nafaqat ushbu keltirilgan ijro variantlari, D.Amanullayevaning ijrosidagi varianti ham kiritilgan. 1998 yilda yozilgan bu zamonaviy aranjirovkadagi variant teleradio efirlarida va konsert sahnalarida ko‘p marotaba yangragan.

Yillar o‘tgan sayin, ushbu asarga yoshlar orasida qiziqish kuchayib bormoqda. Asarning milliy ruhdagi oxangi va shakli, zamonaviy bossa-nova stilidagi ritmik usuli, so‘z matnining nozik va yuksak poeziyasi yosh san’atkorlarni ushbu asar ijrosiga qiziqtirmoqda, va yana yangi ijrodagi variantlar efirlarda yangramoqda. Jumladan Lola Axmedova, Madina Mumtoz, endi esa Yulduz Turdievalar ashulani o‘zlarining konsert dasturlariga kiritib, o‘zlariga hos turli interpretatsiyalarda ijro etmoqdalar.

Asar milliy yo‘nalishdagi ashula shaklida yaratilgan, va shaklga hos daromad, miyonxat, dunasr, avj va firovard qismlaridan iborat. Garmonik minordagi lad tuzilma, bossa-nova shaklidagi ritmik usul, djaz garmoniyalari bilan boyitilgan cholg‘u tizimi, she’rdagi nozik va latofatli, yuqori poetik misralar, - hammasi asarda alohida joziba kashf etadi. Asar lirik xarakterda boshlanib, yuqori pardalarga ko‘tarilgan sayin, dinamika kuchayadi, va avj qismida (35-47chi taktlar) baland pardalarda, dramatik holatda, yorqin ranglarda yangraydi.

Asar ikkita avjdan iborat. Bu avjlar dominanta tonalligida – sol minor tovushqatoridagi garmoniyalar ostida mag‘rur va dadil, to‘laqonli tirgakli tovushlarda yangrashi kerak. Ayniqsa, *«Qon yutar topmay bari, iqbol dilim iqbolicha»* misralaridagi ikkinchi avj, xonandaning butun vujudi bilan, hamma diqqatini aynan shu baland cho‘qqidagi avjda konsentratsiya qilingan yorqin va mohirona ijrosini kutadi. Ushbu avj qismlari ijrochidan nihoyatda katta mahoratni, keng diapazonli, tepa pardalardagi tirgakli tovushlarni talab etadi. Asar ijrosida milliy nolalar bilan bezatilgan, nozik nyuanslarni his etgan holdagi texnik ijroni ustida, to‘g‘ri va katta nafas setkasidagi aniq intonatsiya, va albatta, so‘z ifodasi ustida ko‘proq ishlash kerak. Asar bossa-nova ritmik setkasidagi ravon ijroni, va soul yo‘nalishidagi talqin ustida ham ish olib borishni talab etadi.

Bugungi kunga qadar asarni faqat ayol xonandalar ijro etib kelmoqda. Lekin, aytish joizki, so‘zlarning ma’nosi erkaklar ijrosiga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Tenorlar ovoziga sol minor, yoki lya minor tonalligi to‘g‘ri keladi. Fortepiano jo‘rligida ijro etish tavsiya etiladi.

# БОЛИЧА
# BOLICHA

Ўлмас Жамол шеъри
O'lmas Jamol she'ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi




ча (ей), бўл - ма - ғай дун - ё - да
cha -(yey), bo‘l - ma - g‘ay dun - yo - da
лаз - зат, ёр, ду - до - ғинг бо - ли-
laz - zat, yor, du -do - g‘ing bo‘ - li -
ча - (ей). Боғ а - ро бир гул то-
cha - (yey), Bog‘ a - ro bir gul to-
пил - мас - дур, я - но - ғинг о - ли-
pil - mas - dur, ya - no - g‘ing o - li -


1.
2.
ча- (ей). Боғ а - //ча - (ей).
cha - (yey). Bog‘ a - //cha - (yey).
f
mf
Тонг- да раъ-но бар - ги
Tong- da ra’-no bar - gi
уз - ра лаъ - ли шаб- нам не гӯ -
uz - ra la’ - li shab- nam ne go‘-


зал, гул - га ул ҳам зеб бе-
zal, gul - ga ul ham zeb be-
рол - мас, сен - га чеҳ - ранг о - ли-
rol - mas, sen - ga cheh - rang o - li-
ча (ей). Шу жа - хон бой - лик - ла-
cha (yey). Shu ja - hon boy - lik - la-
cresc.
ри - нинг қад - ри йўқ - дир мен у - чун,
rin - ning qad - ri yo‘q - dir men u - chun,


кип- ри -гинг зе - бин о-
kip - ri- ging ze - bin o-
ши- ган сур-ма- нинг мис - қо - ли-ча -
shi- gan sur- ma- ning mis - qo - li- cha -
(ей). Қон ю - тар топ - май ба-
(ey). Qon yu - tar top - may ba-
ри, иқ - бол ди - лим иқ - бо - ли-ча -
ri, iq - bol di - lim iq - bo - li- cha -


mf
(ей). Ё - на - ман, Ўл - мас, ви-
(yey). Yo - na - man, O‘l - mas, vi-
mf
со - линг бо - да - си дан нўш э-
so - ling bo - da - si - dan no‘sh e-
1.
2.
p
тиб. Ё - на //тиб. Бўл - ма ғай
tib. Yo - na - //tib. Bo‘l - ma g‘ay
дун - ё - да лаз - зат, ёр, ду-
dun - yo - da laz - zat, yor, du-
p


до - ғинг бо - ли - ча - (ей), бўл - ма-
do - g‘ing bo - li - cha - (yey), bo‘l - ma
ғай дун - ё - да лаз - зат, ёр, ду-
g‘ay dun - yo - da laz - zat, yor, du-
до - ғинг бо - ли - ча - (ей), бо - ли-
do - g‘ing bo - li - cha - (yey), bo - li-
rit.
ча - (ей), бо - ли - ча - (ей), бо - ли-
cha - (yey), bo - li - cha - (yey), bo - li-




Бўлмағай дунёда лаззат, ёр, дудоғинг болича – (ей),
Боғ аро бир гул топилмасдур, яноғинг олича – (ей).

Тонгда раъно барги узра лаъли шабнам не гўзал,
Гулга ул ҳам зеб беролмас, сенга чеҳранг олича – (ей).

Шу жаҳон бойликларининг қадри йўқдир мен учун,
Кипригинг зебин оширган сурманинг мисқолича – (ей).

Қон ютар топмай бари, иқбол дилим иқболича – (ей).
Ёнаман, Ўлмас, висолинг бодасидан нўш этиб.

Бўлмағай дунёда лаззат, ёр, дудоғинг болича – (ей),
Болича – (ей), болича – (ей), болича...

Bo‘lmag‘ay dunyoda lazzat, yor, dudog‘ing bolicha – (yey),
Bog‘ aro bir gul topilmasdur, yanog‘ing olicha – (yey).

Tongda ra’no bargi uzra la’li shabnam ne go‘zal,
Gulga ul ham zeb berolmas, senga chehrang olicha – (yey).

Shu jahon boyliklarining qadri yo‘qdir men uchun,
Kipriging zebin oshirgan surmaning misqolicha – (yey).

Qon yutar topmay bari, iqbol dilim iqbolcha – (yey),
Yonaman, O‘lmas, visoling bodasidan no‘sh etib.

Bo‘lmag‘ay dunyoda lazzat, yor, dudog‘ing bolicha – (yey),
Bolicha – (yey), bolicha – (yey), bolicha...

SAVOLLAR:
1. Vokal qobiliyat va vokal texnikasiga izoh bering.
2. Vokal texnikasini va imkoniyatlarini rivojlantirish uslublarini aniqlang.
3. Garmonik intonatsiya tushunchasini ifodalab bering.
4. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
5. Ijro dasturini tanlashda qanday kriteriyalarga ahamiyat qilish darkor?
6. D.Amanullayevaning vokal asarlarida milliylik jihati nimada belgilanadi?

TOPSHIRIQLAR:
1. «Bolicha» asarlarining shakli va stilistik yo'nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Bolicha» asarning ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Vokalizlar tanloviga tayyorgarlik ko'ring.
4. O'zbekiston estrada san'atining shakllanishi va rivoji xaqida ma'lumotlarni quyidagi adabiyotlarda va maqolalarda o'rganib, gapirib bering.
5. Ijro repertuaringizga kiritilgan barcha asarlarning audio yozuvlarini darslik kompakt-diskidan yoki OTM fonotekasidan ko'chirib olib, tinglab yuring, ijro talqinlarini tahlil qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. G.Zokirova «Eng gullagan yoshlik chog'imda» – Ikrom Akbarov qo'shiqlari. OTM uchun o'quv qo'llanma. T.. 2011.
2. Yu.Turayev. «XX asr o'zbek estrada qo'shiqlari» – OTM uchun o'quv qllanma. T., 2015.
3. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» – OTM uchun o'quv qo'llanma. T., 2007.
4. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» – magistratura uchun o'quv qo'llanma. T., 2015.
5. D.Amanullayeva, N.Amanova. «Istoriya djaza i estradnoy muziki. T.,2010
6. D.Amanullayeva. «Osobennosti prepodavaniya estradnogo peniya v Gosudarstvennoy konservatorii Uzbekistana» – ilmiy maqola « XX1 asr musiqa ta'limi: muammo va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2014, 90-94 betlar.
7. D.Amanullayeva. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)» Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar.

## 16-DARS. G'arbiy Yevropa va Amerika kompozitorlarining estrada-jaz asarlari. Myuzikllar.

Ushbu darslarda G'arbiy Yevropa va Amerika kompozitorlarining XXchi asrning ikkinchi yarimida yaratgan jaz, klassik estrada, shanson, soul-ballada, disko, bossa-nova va pop-qo'shiqlari bilan tanishasiz. Ushbu asarlarni o'quv dasturiga kiritilishidan maqsad - sizlarga imkon qadar dunyo estrada va jaz musiqasi xaqida bilim berish, dunyoqarashingiz va fikrlash doirasini kengaytirish, professional darajani mukammallashtirish, tovush apparatining va artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashdan iboratdir.

Aytish joizki, jaz musiqasi janr sifatida 19-20 asrlar to'qnashish orasida Amerikaning Nyu Orlean shahrida afrika va Yevropa musiqa kulturasi sintezida paydo bo'lgan. Uni afrika ritmik usullari va Yevropa garmoniyasining qorishtirmasi desak bo'ladi. Djazning negizi negrlarning folklor vokal janrlari: sperichuel, gospel, blyuz, soul va oq tanlilarning shahar folklori: kantri, djiga, regtaym, bugi-vugilarida asoslangan. Keyinchalik djaz boshqa millat (ispanlar, inglizlar, fransuzlar va boshqa) madaniyatlari bilan aralashib rivojlana boshlagan. 1917 yilgacha djaz folklor musiqasi sifatida tan olinar edi. 1917 yilda Nyu Yorkning «Viktor» firmasida «Original diksilend djaz bend» deb nomlangan djaz guruxi - beshta oq tanli djaz musiqachilari tomonidan birinchi gramplastinka yozilganidan so'ng, ushbu plastinka butun Amerikani hayratda qoldirdi, va jaz – professional musiqa janri sifatida tan olina boshlandi.

Keyinchalik, 40-50 yillarda Amerikada va Yevropada **myuzikllar** janri keng rivojlana boshlada va omma ichida katta qiziqish uyg'ota boshladi. Myuzikl – bu ko'proq operetta janriga hos teatr asari. Myuziklning betakrorligi va hattoki soddaligi spektaklga bayramona ruh beradi, oldindan hordiq chiqarish hamda ko'ngil ochish imkonimtini va'da qiladi. Myuzikl janriga turlicha nazar bilan qarash mumkin: yengil janr, ko'ngil ochar janr. Ammo o'zining rivojlanish davrlarida myuzikllar rok-opera darajasiga yetib bordi. 1930 yillardan boshlab myuzikl kino janriga kirib kelgan. Ko'plab musiqiy filmlar – myuzikllar paydo bo'la boshladi va keng tarqaldi.

O'zbekiston hududida ham – Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri milliy ko'rinishida paydo bo'lgan va hozirgi davrda ham rivojlanib, yashab kelmoqda.

Amerikada 1930-1970 yillardagi mashhur myuzikkllar kompozitorlari tarafidan yaratilgan myuzikllar dunyoda mashhur bo'lib, bugungi kunga qadar Amarika va dunyo teatrlarida muvaffaqiyatli qo'yilib kelmoqda. Ular ichida eng mashhurlari: Kompozitorlar **Djerom Kern** («Plavuchiyteatr»,«Roberta» myuzikllari); **Richard Rodjers** «Podrujka»,«Nasi pochkax», «Ya jenilsya na angele», «Sirakuzskie rebyata», «Komediya oshibok», «Korol i ya». «Zvuki muziki», «Karusel»); **Friderik Lou** («Moya prekrasnaya ledi», «Kamelot»); **Djyul Stayn** («Siganka», «Smeshnaya devchonka»); **Djon Kander** («Kabare»,»Chikago», ««Luchshiy orkestr»); **Endryu Lloyd Uebber** («Iusus Xristos – super zvezda», «Evita», «Koshki», «Prizrak operi», «Aspekti lyubvi»).

Myuzikllar qatorida 1950-1980 yillarda pop, disko, soul, jaz, rok stilistik yo'nalishidagi ommaviy musiqa janri rivoj topdi, turli milliy vokal maktablari namoyondalari ijrosida mashhur bo'lgan.

Amerikaning mashhur pop va djaz musiqa yulduzlari Frenk Sinatra, Ella Fitsdjerald, Elvis Presli, Tom Djons, Fransiyaning shanson yo'nalishi yulduzlari Edit Piaf, Sharl Aznavur, Jak Brel, Dalida, Salvatore Adamo, Djo Dassen, Mirrey Mate, grek Demis Russos, ispaniyalik Xulio Iglesias kabi yirik estrada yulduzlari 1950-1980 yillada estrada musiqasining tantanali yurishi bilan dunyoni zabt etdilar.

1980-2000 yillarda esa soul-ballada va xip-xop usullaridagi yo'nalishlarda Maykl Djekson, Stiv Uander, Elton Djon, Toni Brekston, Britni Spirs, Uitni Xyuston, Kristina Agilera, Lara Fabian, Rikki Martin, Andrea Bachelli, Shakira va boshqa yorqin estrada yulduzlari ijod qilib, ommaviy janrlarni o'zining yorqin ranglari bilan bezadilar. Aytish joizki, oxirgi davr estrada musiqasi rok musiqasi bilan boyitilgan alfozda rivojlana boshladi. Uning namunasi sifatida Fredi Merkuri (Queen guruhi) ijodini keltirish mumkin. «Boni M», «ABBA», «Arabeski» kabi guruhlar disko va pop yo'nalishida ijod qilib, o'ta mashhur bo'lganlar.

Ushbu keltirilgan dunyo estrada va jaz yulduzlari dasturidagi mashhur asarlar sizlarning intellektingizning rivojiga, madaniyat doirasini va badiiy tafakkuringizni kengayishiga, va shu bilan birga, kuylash texnikasini rivojiga imkon beradi. Asarlar soul, fyujn, shanson, disko, pop va jaz-rok stilistik yo'nalishini, badiha (improvizatsiya) texnikasini egallashda, garmonik va ritmik eshitish qobiliyatini rivojida, psixologik intonatsiya va badiiy ohang ifodasini egallashda foydalidir. Ushbu asarlar ustida ishlaganda ijodiy yondoshish, ijodiy fikrlash va chet tillar (ingliz, fransuz, italyan) talab etiladi. Va albatta, mazkur asarlar ijrochilarga o'z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

Djaz, rok musiqa, pop musiqa va estrada musiqasi janrlari D.Amanullayeva va N.Amanovaning «Istoriya djaza i estradnoy muziki» o'quv qo'llanmasida batavsil berilgan.

«**Summertime»** – XX asrning buyuk Amerika kompozitori Djorj Gershvinning «Porgi va Bess» operasidagi mashhur ariya (Klara ariyasi). Opera 1933 yilda yozuvchi Dyubos Xeyvardning asari asosida yozilgan va «Guild Theatre» teatrida qo'yilgan. Opera faqat 20 yildan so'ng, 1955 yilda mashhur bo'lgan, Rossiya va Yevropa davlatlarida ham qo'yilgan. 1976 yilda Klivlendning filarmonik orkestri dasturida ijro etilgan va «Gremmi» mukofotiga sazovor bo'lgan. Asar o'ta mashxur singllar qatoridan joy olib, dunyoning ko'p tillariga o'girilib ijro etilib kelinmoqda. Charli Parker, Lui Armstrong, Ella Fitdjerald, Pol Makkartni ijrosidagi turli cholg'u va vokal interpretatsiyalarida o'ta mashhur bo'lgan.

Mazkur asar klassik *jaz stilistik yo‘nalishida* yaratilgan, deb izohlasak bo‘ladi. Undagi she’r va musiqaning uzviy uyg‘unligi va ifodasi, musiqaning dramaturgik konsepsiyasi - qo‘shiq – ariya shakliga va dramaturgiyasiga hos tarzda yaratilgan.

Asarning ijrosida so‘z va musiqaning mushtarakligi, ya’ni nutqiy va musiqiy ohangning uzviyligi talqinida psixologik obrazni yaratish darkordir. Matnning kuy bilan bog‘lashda alohida e’tiborni ohangga, pauzalarga, mantiqiy urg‘uga qaratish lozim. Asarlarni o‘zlashtirish davrida birinchi o‘rinda ingliz tilidagi talaffuz ustida, she’riy so‘zlarni aniq ritmik ifodasi ustida ishlash lozimdir. She’rdagi so‘zlarni ingliz tilidagi talaffuzining milliy xususiyatini buzmagan holda, o‘ziga hos ohangdorligida muhim fonetik vositalar tizimida yorqin ifodalash darkor. She’rdagi murakkab so‘zlar ma’nosini, albatta, lug‘at orqali tushunib yetish darkordir.

Ushbu ariyadagi so‘z uyg‘unligidagi musiqiy ohang lirik xarakterga ega bo‘lib, ijrochidan mayin va ifodali ijroni talab etadi. Asar kuplet shaklida yozilgan, jaz yo‘nalishida fortepiano partiyasdagi garmoniyalar ijrochidan improvizatsiya (badixa) texnikasini ishlatishni talab etadi. Asar ayollar ijrosida magistraturaning 1 kurs bosqichiga mos keladi. MR3 – E.Fitsdjerald ijrosida keltirilgan.

**«New York»** asari ham Amerikaning mashhur estrada –jaz xonandasi Frenk Sinatra ijrosida ilk bor 1969 yilda ijro etilib, o‘ta mashhur asarlar qatoriga kiradi. Bu qo‘shiqni ko‘p mashhur estrada xonandalari o‘z repertuariga kiritgan. Vatanparvarlik mavzusidagi bu qo‘shiq Amerikaning Nyu York shahriga bag‘ishlangan. Ko‘pincha erkaklar ovozida ijro etilgan.

Ikki kuplet va naqarotdan iborat bu qo‘shiq aniq ritmik usulda yozilgan. Qo‘shiqning boshlang‘ich qismida chaqqon nafas olish (tez sur’atda kuylash), so‘zlarni burro va aniq ifodalash va usuldan chiqib ketmaslikka harakat qilish kerak. Naqarot kupletga qaraganda keng, katta ovozda erkin kuylanadi. Bu qo‘shiq Nyu Yorkning boy tarixiga bo‘lgan muhabbat hissini g‘ayratli va dramatik holda samimiy ijro etilishini talab qiladi. Ijro paytida quyidagilarga ahamiyat berish lozim: baland pozitsiyali tovushlarda «tirgakli nafasga» (opornoe dixanie) suyanib, sof ohang (intonatsiya)da kuylash. Magistraturaning 1chi kursiga mos keladi, va ushbu kompozitsiyani bitiruv ijro dasturiga kiritish ham tavsiya etiladi. MR3 – F.Sinatra ijrosida keltirilgan.

Keltirilgan nota klaviridagi asarlarni MP 3 formatidagi yozuvini diqqat bilan tinglang. So‘ng jo‘rnavoz jo‘rligida notaga qarab ijro eting. Ijroda sof talaffuzga va har bir nota ijrosining sof intonatsiyasiga ahamiyat qiling.

# SUMMERTIME

Lyric by DU BOSE HEYWARD

Music by GEORGE GERSHWIN




Am6 E7 Am D7 C Am D Dm7
look - in', so hush, lit - tle ba - by, don' yo'
Am Caug Am6 Caug D9 Caug Am6 E7
cry. One of these morn - in's
8va
Am6 E7 Am6 E7 Am6 E7 Am6 Dm F
you goin' to rise up sing - in', then you'll spread yo' wings
Fmaj7 D♯dim E a tempo B7 E Em6 E7(♭5)
an' you'll take the sky. But till that
a tempo
mf




Summertime,
And the livin' is easy
Fish are jumpin'
And the cotton is high

Your daddy's rich
And your mamma's good lookin'
So hush little baby
Don't you cry

One of these mornings
You're going to rise up singing
Then you'll spread your wings
And you'll take to the sky

But till that morning
There's a'nothing can harm you
With daddy and mamma standing by

Summertime,
And the livin' is easy
Fish are jumpin'
And the cotton is high

Your daddy's rich
And your mamma's good lookin'
So hush little baby
Don't you cry

*From the UNITED ARTIST Motion Picture "NEW YORK, NEW YORK"*

# THEME FROM NEW YORK, NEW YORK

Words by
FRED EBB

Music by
JOHN KANDER

**Moderately, wiht rhythm**




To Coda
I wan-na wake up in the cit-y that does n't sleep to find I'm
B♭maj7 B♭m6 F6 Fmaj7 Gm7 Fmaj7
king of the hill, top of the heap. My lit-tle town blues
Am7 D7 Gm7 Gm6 Gm7 C7 F
are mealt-ing a - way, I'll make a brand new start of it in old New
Gm7 C7 Gm7 C7 Gm7 C7 F F6
York. If I can make it there, I'd make it an - y where, It's up to
Cm7 F7 B♭ B♭m6 F D7(♯5) D7 C7 D7


D. S. al Coda
you, New York, New York.
Gm7 Am7 B♭maj7 C11 F Gm7 C7 Gm7 C7 Gm7 C7
f
mf
Coda
king of the hill, head of the list, cream of the crop at the top of the heap.
Am7 D7 B♭m7 D♭7
Slow tempo
My lit-tle town blues are mealt-ing a - way,
G♭ Am7 D♭7
molto rit.
f
I'll make a brand new start of it in old New York. If I can
E♭dim Fm7(♭5) G♭ G♭maj7 D♭m7 G♭7




[Verse 1:]
Start spreading the news,
I’m leaving today.
I want to be a part of it,
New York, New York.
These vagabond shoes are longing to stray
right through the very heart of it,
New York, New York.

[Chorus:]
I wanna wake up in a city that doesn’t sleep
and find I’m king of the hill, top of the heap.

[Verse 2:]
These little town blues are melting away.
I’ll make a brand new start of it in old New York.
If I can make it there, I’ll make it anywhere.
It’s up to you, New York, New York.
New York
New York, New York.

[Chorus:]
I want to wake up in a city that never sleeps
and find I’m a number one, top of the list, king of the hill, a number one.

[Verse 3:]
These little town blues are melting away.
I’ll make a brand new start of it in old New York.
And if I can make it there, I’m gonna make it anywhere.
It’s up to you, New York, New York,
New York.

SAVOLLAR:
1. Jaz janri qachon va qaerda paydo boʻlgan?
2. Rok musiqasining asosiy yoʻnalishlarini sanab bering?
3. Qanday rok-opera va myuzikllarni bilasiz?
4. Keltirilgan asarlarning qaysi biri «Bossa-nova» yoʻnalishiga mansub?
5. Keltirilgan asarlarning qaysi biri «Disko» va «Soul» yoʻnalishiga mansub?
6. Asar ijrosida «ijodiy fantaziya» deganida nimani tushunasiz?
7. Keltirilgan qaysi asarda S.Raxmaninov musiqasidan foydalanilgan?
8. Mashhur AQSh va Yevropadagi estrada-jaz yulduzlarini sanab bering.

TOPSHIRIQLAR:
1. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvidagi «New York», «Et Si Tu N'yexistait Pas» asarlarini tinglab, xonandalarning ijro uslublarini, ovoz diapazonlarini aniqlang.
2. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvidagi «All by myself», «Somos novios» asarlarini tinglab, xonandalarning ijro uslublarini va ijro dramaturgiyasini analiz qiling.
3. Chet el asarlari orasida «Bossa-nova» va «Disko» yoʻnalishiga mansub asarlarni izlang va gapirib bering.
4. «**Summertime»** hamda **«New York»** asarlarining shakli, lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun oʻquv qoʻllanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- oʻquv qoʻllanma, 14 b.t., T.,2010.
4. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)». Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009.
5. Amanullayeva D. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX-XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010.
6. Saidova Sh. Estrada kushiklari va vokal ansambllari. T., 2011.
7. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010.

## 17–18-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashgʻulotlari

Siz kafedrada oʻtkazilgan talabalar orasidagi «Vokalizlarning eng yaxshi ijrosi» tanlovida qatnashib, shahsiy dasturingizdagi vokalizni ijro etgan boʻlsangiz, ON1 (Oraliq nazorati 1) topshirishingizda tanlovda qatnashganligingiz komissiya tomonidan inobatga olinadi.
Oʻquv yilining 9chi haftasida darslarda qoʻyidagi mashgʻulotlar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi oʻzbek asarining ijrosi;
3. Shaxsiy ijro rejangizdagi Yevropa asarining ijrosi

**1. Vokal mashqlarida** ovoz diapazonini kengaytirish, katta va chuqur nafas olish texnikasini rivojlantiring, estrada jaz stilistik yoʻnalishlardagi mashqlarni ustida ishlang.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy. Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.




Keyingi mashqda stakkato texnikasida chaqqon va dadil kuylang. Intonatsiyani sofligiga erishing.




Ovozni texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.




**2. Romanslar ijrosi.**

Ayollar ijrosida: «Jahondin kech»;
Erkaklar ijrosida: «Elegiya»

Ijro dasturidagi o‘zbek kompozitorining asarini jo‘rnavoz bilan repetitsiya qiling.Asarning ijro dramaturgiyasi, artistik mahorat, so‘z ifodasi ustida ko‘proq ishlang.

**3. G‘arbiy Yevropa va Amerika kompozitori asarining ijrosi**

Ayollar ijrosida: «Summer time»
Erkaklar ijrosida «New York»

SAVOLLAR:
1. Qo‘shiq va ashula o‘rtasidagi farq nimada?
2. Kantilena va tirgakli tovush tushunchasiga izoh bering.
3. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
4. Romans janrining estrada musiqasidagi ahamiyati?
5. Ballada janriga izoh bering.
6. Balladaning estrada-jaz musiqasidagi o‘rni va ahamiyati.

TOPSHIRIQLAR:

1. «Jahondin kech» asarining shakli va stilistik yo‘nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Jahondin kech» asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Nodira g‘azallariga yozilgan romanslarning she’riy matnini analiz qiling. Asarlarning shakli, ijrodagi badiiy ohang tizimlarini analiz qiling.
4. Ijro repertuaringizga kiritilgan barcha asarlarning audio yozuvlarini darslik kompakt-diskidan yoki OTM fonotekasidan ko‘chirib olibib tinglab yuring, ijro talqinlarini tahlil qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Sposobin I. Muzikalnaya forma. –M.:, 1972.
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T., 2010;
4. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa» 2008
5. Orinbayeva M. «Estrada qo‘shiqchiligi sirlari». Yilnoma: «Zamonaviy yoshlarning musiqiy va ma’naviy dunyosi». T.: 2008. 207-210 bb.;
6. Orunbaeva M. «Ona Vatan madhi» (Kompozitor D.Omonullaevaning qo‘shiqlari misolida). «Musiqa san’ati va zamonaviylik». O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida. T.: 2008., 139-143 bb.;

## 19–20-DARSLAR. 1 semestr Oraliq nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish

O‘quv yilining 9-10 haftalari mobaynida ON nazoratiga tayyorgarlik ko‘riladi. Darslarda qo‘yidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi o‘zbek asarining ijrosi;
3. G‘arbiy Yevropa va Amerika kompozitorlarining asarlari ijrosi
4. Shaxsiy ijro rejangizdagi Rok-opera yoki myuzikldan ariya ijrosi

Dasturdagi ixtisosiy talablarni yana bir marta ko‘rib chiqamiz.

**Ixtisosiy talablar**: (1 va 2 semestrlar uchun)

– Ovoz diapazonining kengligini ko‘rsatmoq;
– Rivojlangan texnik ijroni ko‘rsatmoq (nola, glissando, sket, forshlag va xokazo)
– Tovushning erkin filirovkasi;
– Rivojlangan va erkin tirgakli tovush;
– Asarlardagi badiiy obrazni ko‘rsatmoq;
– Chet el tillarda sof talaffuz.

1. Vokal mashqlari ustida ish davom etadi. Mashqlarda ko‘proq registrlarni silliqlash, chuqr nafas setkasida ishlash, tirgakli tovushlarning yorqinligiga

**2. O‘zbek asarining ijrosida** asosiy urg‘u ni quyidagi talablarga qarating:

a) aniq va ifodali talaffuz ustida ishlash,
b) musiqiy frazalarni ifodasi ustida ishlash,
c) badiiy ohang ifodasini ko‘rsatish,
d) artisik mahoratni namoyon qilish.

Avj-kulminatsiya qismlarida katta nafas, yuqori registrlarning tirgakli va yorqinligi, so‘z ifodasi ustida, artistik mahoratni namoyon qilish ustida repetitsiyalar qiling.

**3. G'arbiy Yevropa va Amerika kompozitorlarining asarlari** ijrosida jaz stilistik yo'nalishini ko'rsatmoq lozim bo'ladi. Ushbu asarlarda Yevropa musiqasiga hos so'z va musiqiy intonatsiya, so'z ifodasida, aniq talaffuz ifodasida ko'proq mashqlar qiling. Improvizatsiya – badihaviylik texnikasini ishlating.

SAVOLLAR:
1. Jaz janri qachon va qaerda paydo bo'lgan?
2. Rok musiqasining asosiy yo'nalishlarini sanab bering?
3. Qanday rok-opera va myuzikllarni bilasiz?
4. Keltirilgan asarlarning qaysi biri «Bossa-nova» yo'nalishiga mansub?
5. Keltirilgan asarlarning qaysi biri «Disko» va «Soul» yo'nalishiga mansub?
6. Asar ijrosida «ijodiy fantaziya» deganida nimani tushunasiz?
7. Keltirilgan qaysi asarda S.Raxmaninov musiqasidan foydalanilgan?
8. Mashhur AQSh va Yevropadagi estrada-jaz yulduzlarini snanb bering.

TOPSHIRIQLAR:
1. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvidagi «New York», «Et Si Tu N'yexistait Pas» asarlarini tinglab, xonandalarning ijro uslublarini, ovoz diapazonlarini aniqlang.
2. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvidagi «All by myself», «Somos novios» asarlarini tinglab, xonandalarning ijro uslublarini va ijro dramaturgiyasini analiz qiling.
3. Chet el asarlari orasida «Bossa-nova» va «Disko» yo'nalishiga mansub asarlarni izlang va gapirib bering.
4. «**Summertime»** hamda **«New York»** asarlarining shakli, lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o'quv qo'llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o'quv qo'llanma, 14 b.t., T.,2010;
4. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)». Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar.
5. Amanullayeva D. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX-XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010, 198-202 betlar
6. Saidova Sh. Estrada kushiklari va vokal ansambllari. T., 2011
7. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010


## 21–22-DARSLAR. Rossiya kompozitorlarining estrada-jaz vokal asarlari. Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari

O'quv yilining 11-haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) dasturiga kiritilgan – Vokaliz, o'zbek kompozitorining asarlari: «Unutma meni» yoki «Elegiya», Myuzikllardan parchalarni mukammal o'zlashtirishingiz lozim. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Mahoratingiz ijobiy baholangandagina siz semestrning Yakuniy nazorati (YaN) dasturlarini xotirjamlik bilan o'rganishga kirishasiz. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

Oraliq nazoratini topshirib bo'lgandan so'ng, yakuniy nazoratni topshirish uchun dasturdagi qolgan ikkita asarlar: O'zbek asari va Rossiya estrada yulduzlari dasturidagi asarni o'zlashtirishingiz lozim bo'ladi.

Darslarda quyidagi vazifalar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi o‘zbek asarining ijrosi;
3. Shaxsiy ijro rejangizdagi Rossiya kompozitorlarining estrada-jaz asarlari bilan tanishasiz.
4. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish  ustida ish olib boriladi.

**1. Vokal mashqlari**
Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.
Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.



Quyidagi mashq katta va chuqur nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyali rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Ushbu stakkato texnikasidagi mashqni to‘la va toza bajarishga intiling.




Ovoz tesnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.



### 2. Rossiya kompozitorlari va estrada yulduzlarining estrada-jaz vokal asarlari

Rossiya estrada qo'shiqchilik san'ati «shahar romansi» va rus xalq qo'shig'i asosida vujudga kelgan. Sovet xukumati «burjuaziya» musiqasini ma'n etgan bo'lsada, 1930-1940chi yillarda ko'plab ajoyib estrada vokal asarlari yaratilgan. Kompozitorlar Isaak Dunaevskiy, Matvey Blanter, Oskar Felsman, Dmitriy Kabalevskiy, Nikita Bogoslovskiy, Vasiliy Solovyov-Sedoylar tomonidan yaratilgan xalqsimon estrada qo'shiqlari Klavdiya Shuljenko, Mark Bernes, Nina Dordalar ijrosida mashhur bo'lgan. Shular qatorida Leonid Utyosov va Oleg Lundstrem boshchiligida «sovet djaz musiqasi» ham gullab yashnagan.

1950-1960chi yillarda lirik estrada qo'shiq janri gullagan davr. Estrada sahnasida ajoyib mashhur estrada xonandalari paydo bo'ladi: Iosif Kobzon, Eduard Xil, Lev Лещенко, Muslim Magomaev, Edita Pexa, Mayya Kristallinskaya, Anna German, Lidiya Klement, Margarita Suvorova.

1970chi yillarda esa, sovet estradasida vokal cholg'u ansambllar davri boshlanadi. Rossiyada «Samotsveti», «Plamya», «Sveti», Belorussiyada «Pesnyari», «Syabri», «Verasi», Ozarbayjonda «Gyunesh», Gruziyada «Gaya», O'zbekistonda «Yalla» va boshqa ko'plab guruhlar xalq qo'shiqlari asosidagi «pop-folk musiqa» yo'nalishida ijod qilganlar va o'ta mashhur bo'lganlar.

Shu davrlarda estrada sahnasida Rossiya estradasining eng mashhur xonandalari Alla Pugachyova, Sofiya Rotaru, Yak Yola, Roza Rimbaeva, 1980 yillarda esa Filip Kirkorov, Larisa Dolina, Valeriya, Aleksandr Serov, Valeriy Meladze kabi xozirda mashhur estrada yulduzlari estrada Olimpiga qadam tashlaganlar..

1960-1980chi yillarda kompozitorlardan Veniamin Basner, Yan Frenkel, Oskar Felsman, Eduard Kolmanovskiy, Mark Fradkin, Raymond Pauls, Arno Babadjanyan, Aleksandr Zatsepin, Aleksandra Paxmutova, Mikael Tariverdiev, Andrey Petrov, Yevgeniy Martinov, 1990-2010chi yillarda esa Igor Krutoy, Igor Nikolaev, Konstantin Meladze kabi kompozitorlar Sovet va zamonaviy Rossiya estrada vokal musiqasining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularni novator kompozitorlar desak bo'ladi, chunki XX asr ikkinchi yarimining zamonaviy estrada qo'shiqchiligi va pop musiqasiga yangi zamonaviy oqimlarni kiritib, yangi mavzularda ijod qildilar, estrada san'atini rivojlantirdilar.

Aytish joizki, 1970-1990 yillarda Rossiyada rok-opera va myuzikllar ham estrada musiqasiga va yoshlarning g'oyaviy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Kompozitorlar David Tuxmanov, Aleksey Ribnikovlarning rok operalari yoshlar orasida mashhur bo'lgan, va bugungi kunga qadar teatr sahnalarida qo'yilmoqda.

Darslikda keltirilgan quyidagi asarlar asosan 1970-1990chi yillarda yaratilgan mashhur, va bugungi kunga qadar o'z qimmatini yo'qotmagan, vokal tarbiyasida metodologik ahamiyatga ega va foydali namunalardan terilgan. Ushbu asarlarni ustida ishlash jarayoni talabalardan ijodiy yondoshishni talab etadi. Ishlash jarayonida talaba intonatsion ifodaviylikga ko'proq e'tibor qaratishi darkordir. Har bir so'zni, fikrning mohiyatini rang barang ovoz intonatsiyalari orqali yetkazib berishni talab etish zarurdir. Asarlar ijrochilarga badiiy fantaziya, yorqin obraz, musiqiy va artistik mahoratni namoyish etishga, zamonaviy stilistik yo'nalishlarni egallashga, ovoz diapazonini kengaytirishga va vokal texnik ko'nikmalarini rivojiga imkon beradi.

**«Верни мне музыку»** asari A.Babadjanyan tarafidan yaratilgan, so'z muallifi A.Voznesenskiy.

Arno Babadjanyan XX asrning rus estrada musiqasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur kompozitordir. Uning yaratgan betakror va ajoyib estrada – vokal asarlari bugun ham yosh xonandalar ijrosida yashab kelmoqda.

Ushbu qo'shiq juda go'zal musiqiy mato va go'zallikni kuylovchi poezyasi bilan tinglovchilarni qalbini yoshartiradi, ma'naviy ozuqa beradi, musiqani ulug'lovchi madhiyadir. Bu asar ijrochilardan ruhiy muvozanatni, tantana kayfiyat va osoyishtalik, inson va uni o'rab turgan olam uyg'unligini ifoda etishni talab etadi.

Qo'shiq kuplet shaklida yaratilgan bo'lib, lirik va pafosli xarakterga ega. Naqarot keng diapazonli, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni talab etadi. Asarni o'rganishda diqqatni

kuyning plastikligiga, mayin va ifodali kantilenaga, sof intonatsiya va artistik mahoratni ko‘rsatishga qaratilishi lozim. Asar nafas, diapazon, ovoz tekisligini rivojlantirish, stil hissiyotini shakllantirishga yordam beradi.

Magistraturananing 1 kurs bosqichida ayol va erkak ovozlari tarbiyasi uchun mos keladi. MP3 – Filip Kirkorov ijrosida keltirilgan.

**«До свидания, лето!»** – A. Zatsepin musiqasi, L. Derbenyov she’riga yozilgan qo‘shiq Alla Pugachyova ijrosida 1980 yillarda mashhur bo‘lgan, xozirgi davrda yosh estrada xonandalari konsert dasturidan joy olgan.

Mazkur jaz yo‘nalishidagi qo‘shiq kuplet shaklida yaratilgan, va tonallik modulyasiyalari bilan ijrochilarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Asarga kirishish oldidan uni chuqur tahlil qilish darkor. Bu asar murakkab obrazlilik tartibida kasb etilib, yaratilgan musiqiy melosi chuqur falsafiylikka monand lirik-dramatik, ekspressiyali patetik obrazlarda she’riy matnni yorqin ifodalagan. Asarning she’riy manosi – yoz bilan xayrlashish, o‘tib ketgan muxabbat qayg‘usi mazmunini anglatadi. Ijrochilar oldiga qo‘yiladigan zarur shartlardan biri - she’r mazmuni va undagi musiqiy ifoda vositalaridagi xususiyatlarini ilg‘ash, asarning badiiy-estetik mohiyatini, undagi obrazlar tasvirini chuqur anglab yetishdan iboratdir. Shu bilan birga, asarni o‘z hissiyotida, qalbi bilan isitib, psixologik obrazlar bilan boyitib, intonatsion tembr va dinamik bo‘yoqlarda, samimiy va ta’sirli ijro etsa, asar tinglovchilarga to‘la yetib boradi.

Asar jaz stilistik mahorat va artistizm rivojiga foydalidir. 1chi kursning ayol va erkak ovozlari dasturiga kiritish tavsiya etiladi. MP3 – Alla Pugachyova ijrosida keltirilgan.

Quyidagi keltirilgan nota klaviridagi asarlarni fortepiano jo‘rligida notaga qarab idro eting.

## ВЕРНИ МНЕ МУЗЫКУ

А.Вознесенский — А.Бабаджанян




D/F♯ A/E B7/D♯ E7/D
за спи-ной рас-та-ял след от вод - ных лыж. Ты у - слышь, их му-зы -
A/C♯ F♯m B7 E9 E7
ку, у - слышь... Как от вол - шеб - но-го смыч - ка-та - ка - я му-зы - ка!
A E9/G♯ D/F♯
У - ве - ду те - бя от до-ма, у - ве-ду, на ви - ду у всех зна-
A/E B7/D♯ E7/D A/C♯
ко-мых у - ве-ду, у - ве - ду на ра-дость и бе - ду... Од-ной на -


F♯m B7 E7
тя - ну - той стру - ной свя - за - ны мы с то - бой!
cresc.
Припев:
A
Ты сквозь го - да, ты сквозь го -
3
G♯m7 C♯7(♭5) C♯7 F♯m Em7 A7(♭9)(♭5) A7(♭9)
да ле-тишь за мной, как буд - то ан - гел за-го - ре - лый, за спи - ной!
D C♯7 F♯m Dm6/F
mp
Вер - ни мне му - зы - ку... Без му - зы - ки тос - ка... Мы рас -


A/E B6 B7
ста - лись, но о - ста - лась на - ша
E7 A G♯m7 C♯7(♭5) C♯7
му-зы-ка. Ла, ла, ла и т.д.
più cresc.
f
F♯m Em7 A7(♭9)(♭5) A7(♭9) D C♯7
mp
Вер - ни мне му-зы - ку... Без
p
F♯m Dm6/F A/E E7 A
му зы - ки тос - ка... Мы рас - ста - лись, но о - ста - лась на - ша му-зы - ка.
f


F7 E7 A/E E7
ста - лась, но о - ста - лась на - ша
dim.
A F7
му - зы - ка...
B♭
ff
Am7 D7(♭9)(♭5) D7(♭9) Gm Fm7 dim. B♭7(♭9)(♭5) B♭7(♭9)
E♭ D7 Gm Cm7(♭5)/G♭
Вер - ни мне му - зы - ку... Без му - зы - ки тос - ка... Мы рас -
mp




Вслед за мной на водных лыжах ты летишь,
За спиной растаял след от водных лыж.
Ты услішь, их музыку услышь...
Как от волшебного смычка такая музыка!

Уведу тебя от дома, уведу,
На виду у всех знакомых уведу.
Уведу, быть может на беду...
Одной натянутой струной мы связаны с тобой!

Припев:

Ты сквозь года, ты сквозь года летишь за мной,
Как будто ангел загорелый, за спиной!
Верни мне музыку.... Без музыки тоска...
Мы расстались, но осталась наша музіка.

Никогда, не возвращусь я никогда,
Никогда не запоёт уже вода.
Без следа, всё смыло без следа,
Ложь не нужна – ей грош цена, струна оборвана...

Припев.

# ДО СВИДАНЬЯ, ЛЕТО!

Л. Дербенёв

А. Зацепин




Cm(sus) Cm7/E♭ F
до сви - да - нья, ле - то, до сви -
B♭m E♭m7 A♭ D♭maj7 G♭maj7
да - ни - я! За ок - ном сен - тябрь про - во - да ка - ча - ет,
Cm7 F
за ок - ном с ут - ра се - рый
B♭m Cm B♭/F F/C E♭m E♭m9 A♭
дождь сте - ной. Э - тим ле - том я


D♭maj7
G♭maj7
встре - ти - лась
с пе - ча - лью,
Cm7
F
1.
B♭m
Cm7
F
а лю-бовь про-шла сто-ро-ной.
B♭m9
Fm
E♭m
A♭
p
3
2.
B♭m
♩ = 140
B♭m9
//-ной.
mp


Bm
mf
Бы - ло близ-ко счас - тье, бы-ло
mf
Em
F♯7
о - ко-ло, да е-го о -
Bm
клик - нуть не у-спе - ла я,
Cmaj7
С каж-дым днём всё боль-ше не-бо хму - рит-ся,


C♯m
F♯7
Bm
с каж - дым днём всё бли - же вью - ги бе - лы - е.
Cm
Fm
Там, где мне в ла - до - ни звёз - ды па - да - ли,
G7
Cm
Мок - ра - я лист - ва грус - тит на де - ре - ве...
До сви - да - нья, ле - то, до сви -


D♭maj7
Dm
да - ни - я,
на те - бя на -
G7
Cm
прас - но__ я на - де - я - лась.
mf
Fm
B♭7
За ок - ном сен - тябрь
E♭7(♯9)
A♭maj7
Dm
G
про - во - да ка - ча - ет,
за ок - ном с ут - ра се - рый


Cm Fm/C Dm G Fm
дождь сте - ной. Э - тим ле - том я
B♭7 E♭7(♯9) A♭maj7
встре - ти-лась с пе - ча - лью,
Dm G Cm
а лю-бовь про - шла сто - ро - ной.
♩= 70
B♭m9 Fm E♭m A♭ B♭m
//-да - ни - я!
p
3




Снова птицы в стаи собираются,
Ждет их за моря дорога дальняя.
Яркое, веселое, зеленое,
До свиданья, лето, до свидания!

Припев:

За окном сентябрь
Провода качает,
За окном с утра
Серый дождь стеной.
Этим летом я
Встретилась с печалью,
А любовь прошла стороной.

Не вернешь обратно ночи звездные,
И опять напрасно сердце вспомнило
Всё, что это лето обещало мне,
Обещало мне, да не исполнило...

Припев:

За окном сентябрь
Провода качает,
За окном с утра
Серый дождь стеной.
Этим летом я
Встретилась с печалью,
А любовь прошла стороной.

Было близко счастье, біло около,
Да его окликнуть не успела я.
С каждым днем все больше небо хмурится,
С каждым днем все ближе вьюги белые.

Там, где мне в ладони звезды падали,
Мокрая листва грустит на дереве.
До свиданья, лето, до свидания!
На тебя напрасно я надеялась.

Припев:

За окном сентябрь
Провода качает,
За окном с утра
Серій дождь стеной.
Этим летом я
Встретилась с печалью,
А любовь прошла стороной.

Снова птицы в стаи собираются,
Ждет их за моря дорога дальняя.
Яркое, веселое, зеленое,
До свиданья, лето, до свидания!

До свиданья, лето, до свидания,
До свиданья, лето, до свидания...

SAVOLLAR:

1. Rossiyaning mashhur estrada kompozitorlari?
2. Rossiyaning pop yulduzi kim?
3. Alla Pugachyova dasturidagi qaysi asarlarni bilasiz?
4. Keltirilgan asarlarning qaysi biri «Soul» yo'nalishiga mansub?
5. Arno Babadjanyanning qaysi qo'shiqlarini Muslim Magomaev ijro etgan?
6. Raymond Paulsning mashhur qo'shiqlari va ijrochilari?
7 Aleksandr Zatsepinning mashhur qo'shiqlari va ijrochilari?

VAZIFALAR:

1. Kompozitorlar A.Babadjanyan va R.Pauls xaqida kutubxona va internet orqali ma'lumotlarni biling.
2. «Verni mne muziku», «Do svidanya, leto!» asarining tonallik plani, shakli va ijro dramaturgiyasini analiz qiling.
3. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvidagi «Podberu muziku», «Ya lyublyu tebya do slyoz» asarlarini tinglab, xonandalarning ijro uslublarini, ovoz diapazonlarini aniqlang.
4. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvidagi «Verni mne muziku», «Lyubov, poxojaya na son» asarlarini tinglab, xonandalarning ijro uslublarini va ijro dramaturgiyasini analiz qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o'quv qo'llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o'quv qo'llanma, 14 b.t., T.,2010;
4. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009.)». Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar.
5. Amanullayeva D. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX-XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010, 198-202 betlar
6. Orinbayeva M. «Estrada qo'shiqlari» (Rossiya estradasi asosida), T.. 2010.
7. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010

## 23–26-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari.

12-13chi xaftalarda yakka darslarda ijro etish ko'nikmalarini va ijro mahorati ustida ish olib boriladi.

Darslarda quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi yangi o'zbek asari bilan tanishish;
3. Rossiya kompozitorlarining estrada-jaz asarlarini ijrosi.
4. Ijro mahorati qirralari va ko'nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

### 3. Vokal mashqlari

Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo'nalishidagi kuy.
Estrada ijro yo'nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.


Moderato cantabile
cresc.
a
a
p
subito p
a
subito p
dim.
a
a
dim.

Quyidagi mashq katta va chuqur nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyali rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Ushbu stakkato texnikasidagi mashqni to‘la va toza bajarishga intiling.




Ovoz tesnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.



2. **«Verni mne muziku» – erkaklar ovozida va «Do svidanya, leto!»** – ayollar dasturidagi tanlangan asarlarni jo'rnavoz bilan birgalikda notaga qarab ijro eting. Ijroda rus tilidagi talaffuzni sofligiga, notadagi dinamik belgilarga ahamiyatni qarating va to'la bajaring.

3. O'zbekiston kompozitorining zamonaviy asari:

**«Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar»** – D.Amanullayeva musiqasi, Z.Mo'minova she'riga yozilgan romans-ariyadir. Keltirilgan asar talabalar ijrosida sinalgan, ko'p konsertlarda va bitiruv dasturlariga kiritilib, talabalar orasida mashhur bo'lgan.

Ushbu asar – faqat ayollar ijrosi uchun yozilgan bo'lib, u chuqur muxabbat qayg'ulari, javobsiz sevgi, rashk iztiroblarini ifoda etgan, o'ziga hos ayol monologidir. «Fyujn» uslubiy yo'nalishiga hos ushbu romans uch qismli shakldan iborat bo'lib, o'rta qismi ikki marta yangi she'riy matnda qaytariladi (21-32chi taktlar). Ekspozitsiyadagi cholg'u qismining melodik tuzilmasi, o'rta qismdagi *«Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar»* misralari bilan aytiladigan melodik aylanmadan iborat topgan (29-32 taktlar melodiyasi). Bu melodik aylanma asarda ko'p marotaba qaytariladi va refren rolini bajarib, she'rning asosiy falsafiy g'oyasini ta'kidlaydi.

Asar lirik-dramatik xarakterga ega bo'lib, qayg'uli nozik psixologik xolatdan qat'iy norozilik, protest mazmunidagi iztirobli dramatik xarakterni tasvirlaydi. Ariyaning ijrosi talabalarga bir qator qiyin vazifalarni qo'yadi: ijrochi xonandadan yuqori musiqiy va artistik mahoratni, ichki psixologik holatlarni ifoda etuvchi turli vokal tembrlarini ishlatishini, kontrast ifoda vositalarini qo'llashni, keng va chuqur nafas setkasida ishlashni talab etadi. Asar keng diapazonli dramatik ovozlar ijrosida yaxshi taasurot qoldiradi. Uning ijrosi ijodiy yondoshishni talab etib, baland pardalardagi tirgakli ovozning mustahkamlashida, artistik mahorat ko'nikmalari rivojida foydalidir. Xonandaning vazifasi - chuqur va yorqin obrazni yaratish, ta'sirli artistik mahoratni ko'rsatish, ovoz texnikasining nozik nyuanslarini filigran ifoda etishdan iboratdir.

Asar intellektning o'sishiga, badiiy tafakkurni, tovush filirovkasini, uzun nafas texnikasini va obrazli fikrlashni rivojiga imkon beradi. Fortepiano jo'rligida ijro etish tavsiya etiladi.

Ushbu **«Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar»** asarini uyda tahlil qilib, o'rganib kelasiz.

# БУ ДУНЁ СЕНДАН ҲАМ, МЕНДАН ҲАМ ҚОЛАР
# BU DUNYO SENDAN HAM, MENDAN HAM QOLAR

Зулфия Мўминова шеъри
Zulfiya Mo'minova she'ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi

**Moderato con anima**




mf
Ғий - бат - нинг кўй - ни - да ёт - ма гил, аҕ - ёр,
Giy - bat - ning ko‘y - ni - da yot - ma - gil ag‘ - yor,
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар,
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar,
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар.
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar.


I.Сев-ги-лим, сев-ма- динг, не-ни кўз-ла-ринг,
Дўс-ти хи- ё-нат-кор, се-ни ке-чир-дим,
Sev-gi-lim, sev-ma- ding, ne-ni ko'z-la-ring,
Do's-ti xi-yo-nat-kor, se-ni ke-chir-dim,
мен дан ях-ши-си-ни бун-ча из-ла-динг.
и-шонч-га муз-лар-нинг жо-нин и-чир-дим.
men-dan yax-shi-si-ni bun-cha iz-la-ding.
i-shonch-ga muz-la-ring jo-nin i-chir-dim.
Ўт ёқ-дим со-чим-дан тир-но-ғим-га-ча,
Дар-дим-га дард-лар-нинг қо-нин и-чир-дим,
O't yoq-dim so-chim-dan tir-no-g'im-ga-cha
Dar-dim-ga dard-lar-ning qo-nin i-chir-dim,
муз-ла-динг, муз-ла-динг, я-на муз-ла-динг.
muz-la-ding, muz-la-ding, ya-na muz-la-ding.


2.
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар,
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar,
mf
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар.
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar.
p
mf
II.Дўс - ти хи - ё - нат кор, се - ни ке - чир - дим,
Ҳиж - рон бағ - ри тош ҳам мен - га мех - мон - дир,
Do‘s - ti xi - yo - nat - kor, se - ni ke - chir - dim,
Hij - ron bag‘ - ri tosh ham men - ga mex - mon - dir,
f


и - шонч - га муз - ла - ринг жо - нин и - чир - дим.
кў - зим - да - ги ёш ҳам мен - га мех - мон - дир.
i - shonch - ga muz - la - ring jo - nin i - chir - dim.
ko‘ - zim - da - gi yosh ham men - ga mex - mon - dir.
Дар - дим - га дард - лар - нинг қо - нин и - чир - дим,
Бо - шим - да - ги тош ҳам мен - га мех - мон - дир,
Dar - dim - ga dard - lar - ning qo - nin i - chir - dim,
Bo - shim - da - gi tosh ham men - ga mex - mon - dir,
1.
сев - ма - динг, сев - ма - динг, се - ва ол - ма - динг.
sev - ma - ding, sev - ma - ding, se - va ol - ma - ding.
8vb
2.
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар,
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar,
mf


бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар.
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar.
1.
2.
p
mf
Мен - га кўп тош - ла - ринг от - ма-гил , аҒ - ёр,
Men - ga ko‘p tosh - la - ring ot - ma - gil, ag‘- yor,
гул - ни "ти - кон" де - бон сот - ма - гил, аҒ - ёр.
gul - ni "ti - kon" de - bon sot - ma - gil, ag‘- yor.


Ғий - бат - нинг кўй - ни - да ёт - ма гил, аг - ёр,
Giy - bat - ning ko'y - ni - da yot - ma gil ag' - yor,
mf
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар,
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar,
mf
1.
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо - лар.
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo - lar.
2.
rit.
бу дун - ё сен - дан ҳам, мен - дан ҳам қо -
bu dun - yo sen - dan ham, men - dan ham qo -




Менга кўп тошларинг отмагил, ағёр,
Гулни «тикон» дебон сотмагил, ағёр.
Ғийбатнинг қўйнида ётмагил, ағёр,
Бу дунё сендан ҳам, мендан ҳам қолар.

I.

Севгилим, севмадинг, нени кўзларинг,
Мендан яхшисини бунча изладинг.
Ўт ёқдим сочимдан тирноғимгача,
Музладинг, музладинг, яна музладинг.

Дўсти хиёнаткор, сени кечирдим
Ишончга музларнинг жонин ичирдим
Дардимга дардларнинг қонин ичирдим, –
Бу дунё сендан ҳам, мендан ҳам қолар.

II.

Дўсти хиёнаткор, сени кечирдим,
Ишончга музларнинг жонин ичирдим.
Дардимга дардларнинг қонин ичирдим, –
Севмадинг, севмадинг, сева олмадинг.

Ҳижрон бағри тош ҳам менга мехмондир,
Кўзимдаги ёш ҳам менга мехмондир.
Бошимдаги тош ҳам менга мехмондир,
Бу дунё сендан ҳам, мендан ҳам қолар.

Менга кўп тошларинг отмагил, ағёр,
Гулни «тикон» дебон сотмагил, ағёр.
Ғийбатнинг кўйнида ётмагил ағёр,
Бу дунё сендан ҳам, мендан ҳам қолар.

Menga ko‘p toshlaring otmagil, ag‘yor,
Gulni «tikon» debon sotmagil, ag‘yor.
Giybatning ko‘ynida yotmagil, ag‘yor,
Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar.

I.

Sevgilim, sevmading, neni ko‘zlaring,
Mendan yaxshisini buncha izlading.
O‘t yoqdim sochimdan tirnog‘imgacha
Muzlading, muzlading, yana muzlading.

Do‘sti xiyonatkor, seni kechirdim,
Ishonchga muzlaring jonin ichirdim.
Dardimga dardlarning qonin ichirdim, –
Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar,

II.

Do‘sti xiyonatkor, seni kechirdim,
Ishonchga muzlaring jonin ichirdim.
Dardimga dardlarning qonin ichirdim, –
Sevmading, sevmading, seva olmading.

Hijron bag‘ri tosh ham menga mexmondir,
Ko‘zimdagi yosh ham menga mexmondir.
Boshimdagi tosh ham menga mexmondir,
Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar.

Menga ko‘p toshlaring otmagil, ag‘yor,
Gulni «tikon» debon sotmagil, ag‘yor.
Giybatning ko‘ynida yotmagil ag‘yor,
Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar.

SAVOLLAR:
1. Qo‘shiq va ashula o‘rtasidagi farq nimada?
2. Kantilena va tirgakli tovush tushunchasiga izoh bering.
3. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
4. Romans janrining estrada musiqasidagi ahamiyati?
5. Ballada janriga izoh bering.
6. Balladaning estrada-jaz musiqasidagi o‘rni va ahamiyati.

VAZIFALAR:
1. «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar», asarining shakli va stilistik yo‘nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Verni mne muziku» asarining she’riy matnini analiz qiling va yodlang. Asarning lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvlaridagi «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar» (D.Amanullayeva ijrosida), «Verni mne muziku»(F.Kirkorov ijrosida) tinglang, she’riy matnini analiz qiling. Asarlarning shakli, ijrodagi badiiy ohang tizimlarini analiz qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Sposobin I. Muzikalnaya forma. –M., 1972.
2. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015.
3. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T., 2010.
4. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa» 2008.
5. Orinbayeva M. «Estrada qo‘shiqchiligi sirlari». Yilnoma: «Zamonaviy yoshlarning musiqiy va ma’naviy dunyosi». T.: 2008. 207-210 bb.
6. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)» Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar.

## 27–30-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg‘ulotlari.

12-13chi xaftalarda yakka darslarda ijro etish ko‘nikmalarini va ijro mahorati ustida ish olib boriladi.

Darslarda quyidagi vazifalar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi yangi o‘zbek asari bilan tanishish va ijro etish;
4. Shaxsiy ijro rejangizdagi Rossiya kompozitorlarining estrada-jaz asarlarini ijrosi.
5. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

1. Vokal mashqlari

Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy. Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.



Quyidagi mashq katta va chuqur nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyali rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Ushbu stakkato texnikasidagi mashqni to‘la va toza bajarishga intiling.




Ovoz tesnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.



29-31 mashqlarda katta va uzun nafas ishlating. Yuqori tessturadagi eng baland notalarni dadil ijro etishga intiling.

2. **«Verni mne muziku» – erkaklar ovozida va «Do svidanya, leto!»** - ayollar dasturidagi tanlangan asarlarni jo'rnavoz bilan birgalikda notaga qarab ijro eting. Ijroda rus tilidagi talaffuzni sofligiga, notadagi dinamik belgilarga ahamiyatni qarating va to'la bajaring. Asardagi kulminatsiya – avj qismlarini ustida ko'proq ishlang. Artistik mahorat ustida ishlang.

3. O'zbekiston kompozitorining zamonaviy asari – erkaklar ijrosida:

**«Yoshligim»** – D.Amanullayeva musiqasi, I.Jiyanov sheri. Bu qo'shiq oddiy kuplet shaklidagi naqaratli tuzilmada yaratilgan. She'riy matn lirik romantik og'ushida yozilgan, orzularga to'la gullagan yoshlik chog'i, Ona Vatanga bo'lgan muhabbat, shukronalik his tuyg'ulari madh etilgan.

Asar oddiy minor ladida yaratilib, lirik ohanglar bilan yo'g'rilgan. Naqarot qismida ohang sekvensiyali ko'tarilishlar va garmonik o'zgarishlar bilan to'ldirilib, 30-38chi taktlarda

*«Yuragimdan ketma, muhabbat,*

*Boshim uzra quyosh bo'lgin, Baxt!»* – so'zlari bilan baland tessituradagi jo'shqin avjni hosil qiladi.

Asar bilan tanishish jarayonida ahamiyatni ohang intonatsiyasi tuzilmasiga, o'zgaruvchan liriko-dramatik obrazlarning ifodasiga, har bir musiqiy jumlani (musiqiy frazani) nafasda yetkazib badiiy ijroga qaratish lozim. Ayniqsa asarning chuqur mazmunini shakliy yaxlitlikda ifoda etishni talab qilish zarurdir.

Qo'shiq kantilena, tirgakli tovush, ritmik qobiliyat, tovush filirovkasi, sof intonatsiya, uzun nafas, garmonik intonatsiyani rivojiga, kontrast obrazlar ifodasi ko'nikmalarini egallashda foydalidir. Ishlash jarayonida asosiy urg'u «soul» yo'nalishini ifodasini keltirishga qaratilishi lozim.

Ushbu qo'shiqning nota matni tenor tonalligida berilgan (e-moll), baritonlar va ayollar uchun si minorga transpozitsiya qilish tavsiya etiladi.

Fortepiano jo'rligida ijro etish tavsiya etiladi.

Ushbu **«Yoshligim»** asarini uyda tahlil qilib, o'rganib kelasiz.

# ЁШЛИГИМ
# YOSHLIGIM

Иброҳим Жиянов шеъри
Ibrohim Jiyanov she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi




Ва-тан-се-нинг мех̣-ринг-ни сез - дим,
Va-tan-se-ning meh-ring-ni sez - dim,
Ва-тан-се-нинг мех̣-ринг-ни сез
Va-tan-se-ning meh-ring-ni sez
1.
2.
Naqarot:
дим.
dim.
дим. О, ёш - ли - гим, қа-нот бер мен-
dim. O, yosh - li - gim, qa-not ber men
cresc.
га, ал-ёр ай-тай, ха-ёт, мен сен - га. Ю-ра -
ga, al-yor ay-tay, xa-yot, men sen - ga. Yu-ra -
гим-дан кет-ма, му-хаб - бат, бо-шим уз-ра қу-ёш бўл-гин
gim-dan ket-ma, mu - xab - bat, bo-shim uz-ra qu-yosh bo‘l-gin,


f
Бахт!
Baxt!
Ю-ра-гим-дан кет-ма, му-хаб-бат,
Yu-ra-gim-dan ket-ma, mu-hab-bat,
бо-шим уз-ра қу-ёш бўл-гин, Бахт!
bo-shim uz-ra qu-yosh bo'l-gin, Baxt!
тамомлаш учун - tamomlash uchun
Ю-ра-гим-дан кет-ма, му-хаб-бат,
Yu-ra-gim-dan ket-ma, mu-hab-bat,
бо-шим уз-ра қу-ёш бўл-гин, Бахт!
во-shim uz-ra qu-yosh bo'l-gin, Baxt!

Гуллаган боғларни кезганда,
Орзулар баҳрида сузганда,
Дилга бахт сувратин чизганда,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим.

Менга яқин бқлди юлдузлар,
Яқинрокдир ҳатто денгизлар.
Нурга тўла бу ёшлик кезлар,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим.

Нақарот:

О, ёшлигим, қанот бер менга,
Алёр айтай, хаёт, мен сенга.
Юрагимдан кетма, мухаббат,
Бошим узра куёш бўлгин, Бахт!
Юрагимдан кетма, мухаббат,
Бошим узра куёш бўлгин, Бахт!

Бу тиниқ булоқлар сувида,
Бу майин шаббода куйида,
Осуда, тинч диёр қўйнида,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим.

Минг йиллик чинорлар сўз очса,
Кўҳна бу минорлар юз очса,
Қалбимда бир ғурур кўз очса,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим,
Ватан – сенинг меҳрингни сездим.

Нақарот:

О, ёшлигим, қанот бер менга,
Алёр айтай, хаёт, мен сенга.
Юрагимдан кетма, мухаббат,
Бошим узра қуёш бўлгин, Бахт!
Юрагимдан кетма, муҳаббат,
Бошим узра қуёш бўлгин, Бахт!

Gullagan bog'larni kezganda,
Orzular bag'rida suzganda.
Dilga baxt suvratin chizganda,
Vatan – sening mehringni sezdim,
Vatan – sening mehringni sezdim.

Menga yaqin bo'ldi yulduzlar,
Yaqinroqdir hatto dengizlar.
Nurga to'la bu yoshlik kezlar,
Vatan – sening mehringni sezdim,
Vatan – sening mehringni sezdim.

Naqarot:

O, yoshligim, qanot ber menga,
Alyor aytay, xayot, men senga.
Yuragimdan ketma, muhabbat,
Boshim uzra quyosh bo'lgin Baxt!
Yuragimdan ketma, muhabbat,
Boshim uzra quyosh bo'lgin, Baxt!

Bu tiniq buloqlar suvida,
Bu mayin shabboda kuyida.
Osuda, tinch diyor qo'ynida,
Vatan – sening mehringni sezdim,
Vatan – sening mehringni sezdim.

Ming yillik chinorlar so'z ochsa,
Ko'xna bu minorlar yuz ochsa.
Qalbimda bir g'urur ko'z ochsa,
Vatan – sening mehringni sezdim,
Vatan – sening mehringni sezdim.

NAQAROT:

O, yoshligim, qanot ber menga,
Alyor aytay, xayot, men senga.
Yuragimdan ketma, muhabbat,
Boshim uzra quyosh bo'lgin Baxt!
Yuragimdan ketma, muhabbat,
Boshim uzra quyosh bo'lgin, Baxt!

SAVOLLAR:
1. Ashula janridagi estrada asarlarini bilasizmi?
2. «Naqrot» so‘ziga izoh bering..
3. Badiiy ohang tushunchasini qanday ifodalaysiz?
4. Balladaning janrining estrada musiqasidagi ahamiyati?
5. Soul-Ballada janriga izoh bering.
6. Soul-Balladaning estrada-jaz musiqasidagi o‘rni va ahamiyati.

VAZIFALAR:
1. «Yoshligim», asarining shakli va stilistik yo‘nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Yoshligim» asarining she’riy matnini analiz qiling va yodlang. Asarning lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Tepada keltirilgan asarlarning MR3 yozuvlarini tinglang, she’riy matnini analiz qiling. Asarlarning shakli, ijrodagi badiiy ohang tizimlarini analiz qiling.
4. Soul-ballada yo‘nalishidagi asarlarni izlang va keyingi darsda gapirib bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988.
2. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
3. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesi». M., 1986.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015.
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010.
6. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa» 2008.
7. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010.

## 31–34-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg‘ulotlari

Kafedraning ish rejasida belgilangan talabalar ishtirokidagi «Eng yaxshi chet el asari ijrosi» mavzusidagi tanlovga tayyorgarlik ko‘rish.

15-16chi xaftalarda yakka darslarda ijro etish ko‘nikmalarini va ijro mahorati ustida ish olib boriladi.

Darslarda quyidagi vazifalar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Ijro dasturidagi o‘zbek asarini ijro etish «Yoshligim», «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar;
3.Rossiya kompozitorlarining estrada-jaz asarlarini ijrosi. Tanlovda ishitrok etishga tayyorgarlik.
4. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

### 2. Vokal mashqlari

Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.
Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.




Quyidagi mashq katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan oshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Stakkato texnikasidagi 28chi mashqni to‘la va toza bajarishga intiling.




Ovoz tesnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.



29-31 mashqlarda katta va uzun nafas ishlating. Yuqori tessturadagi eng baland notalarni dadil ijro etishga intiling.

2. Yana bir marta magistr talabasining Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi xususidagi komponentlarga bir nazar solsak:

**Ijodiy-ijrochilik faoliyatida magistr:**

– estrada vokal imkoniyatlarini va ijro texnikasini rivojlantirishi lozim;

– konsert va shou dasturlarda yuksak badiiy asarlarning professional darajasida yakkaxon sifatida, vokal ansambl tarkibida professional ijrochilik texnikasini mukammallashtirishi lozim;

– estrada simfonik orkestr, estrada cholg'u ansambllari jo'rligida ijrochilik imkoniyatlarini va vokal texnikasini rivojlantirishi lozim;

– ijroda kamchiliklarni bartaraf etib, tobora ijro mahoratini mukammallashtirishi lozim;

– musiqiy asarlarni tahlil qilish, kasbiy muammolarni anglash va ularni bartaraf etish yo'llarini topishi lozim;

– zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda yangi ijro interpretatsiyalari bilan ijro asarlarini muntazam boyitishi lozim.

– zamonaviy ovoz kuchaytirish apparatlari (mikrofonlar, minidisklar) dan to'g'ri foydalanishi lozim;

– studiyalarda professional darajada ovoz yozish;

– konsert va bayram shou-dasturlarida turli jamoalar bilan erkin ishlashi lozim;

– estrada jamoasi ishini tashkillashtira olishi lozim.

– mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;

Estrada xonandaligi fani bo'yicha

Magistr:

– estrada va djaz vokal san'atining ilmiy asoslari;

– ovoz tuzilishining fiziologiyasi, vokal ovoz registrlari va klassifikatsiyasi, tessitura va diapazoni, ovoz xususiyatlari;

– estrada xonandaligiga o'qitish uslubiyoti;

– zamonaviy estrada xonandasining asosiy ijro dasturi;

– O'zbekiston, jahon djaz va estrada musiqasi tarixi, estrada va djaz musiqasining turli uslub va yo'nalishlari;

– estrada vokal ijrochiligi va vokal pedagogikasi tarixi, vokal san'atini o'qitish uslubiyoti, ijrochilik san'ati va musiqiy ta'lim sohalaridagi zamonaviy yutuqlar;

– improvizatsiya texnikasi va ijrosining ijodiy jarayoni;

– sahna harakatlari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi****;*

– djaz va estrada musiqasi stilistik yo'nalishlarini;

– estrada vokal musiqasi ifoda vositalarining interpretatsiya qonunlarini;

– milliy professional estrada va djaz dasturlarini, professional o'zbek kompozitorlarining estrada va djaz asarlarini;

– MDH, AQSh va Yevropa davlatlari estrada va djaz yulduzlarining retro va zamonaviy estrada-djaz vokal asarlarini;

– musiqiy asarlarni ilmiy tahlil qilish, kasbiy muammolarni anglash va ularni bartaraf etishning yo'llarini topishni;

– jo'rnavoz, cholg'u ansamblari bilan ishlashni;

– ovozning texnik va ifoda vositalarining majmuasini;

– yangi ovoz kuchaytirish texnik vositalarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi****;*

– ijro asarining xususiy interpretatsiyasini yaratish;

– asar ijrosida ovoz kengligi, rivojlangan ovoz va nafas texnikasi, «soul» yo'nalishi ifodasi, musiqiy va artistik mahoratga erishish;

– mohir djaz va estrada yulduzlarining ijro transkripsiyalarini tahlil qilish;

– ijrodagi stilistik vokal usullari va ijro texnikasi (nola, qochirim, stakkato, subton, groul, filirovka, vibrato, sket, blyuz effektlari)ni amalda erkin qo'llash;

– nota materiali, ilmiy-pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ishlash;
– jo‘rnavoz, cholg‘u va vokal ansambllari bilan ishlash;
– turli xil uslub, janr va shakllarga oid konsert dasturlarini tuzib ijro etish;
– estrada jamoasi ishini tashkillashtirish;
– sahnada raqs harakatlarini bajarish;
– studiyalarda ovoz yozish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***.

Diqqat bilan ushbu magistratura talablariga nazar solsak, siz magistraturada o‘qish jarayonida birinchi o‘rinda **ijro asarining xususiy interpretatsiyasini yaratishingiz lozim bo‘ladi**; asar ijrosida ovoz kengligi, rivojlangan ovoz va nafas texnikasi, «soul» yo‘nalishi ifodasi, **musiqiy va artistik mahoratga erishish**; mohir djaz va estrada yulduzlarining ijro transkri psiyalarini tahlil qilish; ijrodagi stilistik vokal usullari va**ijro texnikasi** (nola,qochirim, stakkato, subton, groul, filirovka, vibrato, sket, blyuz effektlari)ni **amalda erkin qo‘llash**; nota materiali, **ilmiy-pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ishlash** – vazifalarini va talablarini to‘la bajarishingiz lozim bo‘ladi. Ushbu talab va vazifalarni nafaqat sinfda, o‘qituvchi-rahbar boshchiligida, lekin o‘zingiz mustaqil izlanib, ijroda professional darajani takomillashtirib borishingiz lozim bo‘ladi. Ilmiy-uslubiy jihatdan bilimlaringiz kengayib borishi shart. O‘zingiz kutubxona, internet, ziyonet materiallaridan foydalnib izlanishlar olib borishingiz kerak. O‘quv rejasida belgilangan Ilmiy faoliyatingizda Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashingiz kerak bo‘ladi. Ilmiy-pedagogik ish olib borishingiz kerak bo‘ladi, Malaka amaliyoti soatlarida pedagogik uslubiy bilimlaringizni oshirib borishingiz zarur. Ushbu jihatlar nafaqat mutaxassislik fani darslarida, o‘quv rejasidagi belgilangan «Xonandalik ansambli san’ati», «Improvizatsiya mahorati», «Orkestr jo‘rligida ijrochilik mahorati» fanlarida ham yuqori malakali kasb egasi bo‘lishga intilishingiz kerak. Birinchi blokda berilgan «Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi», «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat», «Amaliy xorijiy til», «Axborot tizimlari», «Nutq madaniyati», «Psixologiya (pedagogik psixologiya)» kabi juda zarur fanlar sizni kelajakda zamon talablariga mos yuqori darajali mutaxassis bo‘lishingiz uchun ishlab chiqilgan.

2. **«Verni mne muziku» – erkaklar ovozida va «Do svidanya, leto!» - ayollar dasturidagi** tanlangan asarlarni jo‘rnavoz bilan birgalikda notaga qaramasdan, yoddan ijro eting. Ijroda rus tilidagi talaffuzni sofligiga, notadagi dinamik belgilarga ahamiyatni qarating va to‘la bajaring. Artistik mahoratni ko‘rsatishga xarakat qiling. Ayniqsa, naqarotdagi avj – kulminatsiya qimslarini katta nafasda, tirgakli tovushlarni ishlating.

3. O‘zbekiston kompozitorining zamonaviy asari:

**Erkaklar ijrosida «Yoshligim»;**

**Ayollar ijrosida: «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar»** asarlarini fortepiano jo‘rligida yuqori musiqiy va artistik darajada ijro etishga intilishingiz darkor.

Aytishimiz kerakki, estrada xonandasini to‘laqonli voyaga yetishidagi eng murakkab vazifa – badiiy ohang ifodasidir. Ayniqsa, estrada-jaz ijrochilik san’atida bu murakkab omildir. Kuylovchi xonanda psixologik emotsional holatlarni o‘ziga hos individual xususiyatlari bilan asarning mohiyatini boyitadi. Notada keltirilgan shoirning she’ri, bastakor yaratgan musiqasidagi nota yozuvi asarning faqat tashqi ko‘rinishini va mohiyatini belgilaydi. Jaz xonandasi asarning ichki mohiyatini o‘z badihaviy ijrosida, faqatgina o‘z intonatsiyasi, ovoz xarakterini o‘z ruhiy holatidan, qalbi va yuragidan o‘tkazib, asarni o‘zinikiday qilib olib, ishonch bilan, dadil jonlantirishi mumkin. Musiqa orqali she’r mazmunini yorqin ifodaviyligi nafaqat jaz, balki barcha janrdagi vokal asarlar ijrosida zarur vositadir.

Ishlash jarayonida sizlar intonatsion ifodaviyligiga ko‘proq e’tibor qaratishingiz darkordir. Har bir so‘zni, fikrning mohiyatini rang barang ovoz intonatsiyalari orqali yetkazib berishingiz zarurdir. Xonandalik san’atida intonatsion ifodaviylik asar g‘oyasini ochib berishdagi asosiy omillardan biridir.

Siz kundan kunga o‘z ovozingizning texnik jihatlarini rivojlantirish, turli stilistik yo‘nalishlardagi ijro uslublarini egallashingiz darkor. Shu bilan birga o‘z imidjingiznii yaratib,

o‘ziga hos va o‘zingizga yarashgan sahna qiyofasini izlab topishingiz kerak. Estrada xonandaligi sohasida bu murakkab vazifadir. Bu omil har bir xonandaning o‘z imkoniyatlariga: ovoz tembri va ovozining rangdorligi, fizik xolati va ko‘rinishi, ijrochilik tayyorgarligi va texnik darajasi, va albatta, iste’dod darajasiga bog‘liqdir. Bu eng murakkab masala, uni faqat iqtidori baland ijrochilar yechishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, xonandaning imidji uning ijro repertuariga bog‘liqdir. Yosh xonanda didini yuksak badiiy asarlarda tarbiyalashi zarur. Bu o‘rinda o‘quv dasturidan joy olgan, professional shoirlarning she’rlari asosida yaratilgan klassik va zamonaviy asarlar: vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar, estrada romanslari, balladalar va jaz asarlari qo‘l keladi.

O‘quv dasturidagi asarlarni tanlaganda o‘zingizning ovoz diapazoningiz, texnik tayyorgarligingiz va fizik xolatingiz e’tiborga olinishi lozimdur.

Ushbu darslikda keltirilgan murakkab konsert asarlari sizlarning umumiy madaniyat doirasi rivojiga, stilistik qiyofa, ta’sirli artistik ijro, yakka va ansambl ijrosidagi musiqiy mahorat va vokal texnik ko‘nikmalarini egallash, garmonik eshitish qobiliyatingizni va badiiy didni o‘stirishda foydalidir. Asarlar sizlarga ijodiy yondoshishni talab etgan holda, o‘z mahoratingizni namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi, va albatta, badiiy tafakkuringizni o‘stirishda qo‘l keladi.

SAVOLLAR:

1. «Asarning xususiy interpretatsiyasi» deganda nimani tushunasiz?
2. «Badiiy ohang ifodasi» – jumlasiga izoh bering.
3. «Intonatsion ifodaviyligi» ni qanday tushunasiz?
4. «Artistik va sahna imidji» ni qanday tushunasiz?
5. «Ijroda ijodiy yondoshish» jumlasiga izoh bering..
6. «San’atda «novatorlik ijod» jumlasiga izoh bering.
7. «Sahna imidji» deganda nimani tushunasiz?
8. Estrada vokal san’atida kimlar «novatorlik» asarlari yaratganlar?

VAZIFALAR:

1. «Estrada xonandaligi» magistratura mutaxassiligiga qo‘yilgan Davlat ta’lim standartlarining (DTS) talablarini o‘rganing va keyingi darsda so‘ylab bering.
2. Tanlovda qatnashish uchun Rossiya asarini puxta tayyorlang..
3. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvlaridagi Rossiya asarlarini tinglang, she’riy matnini analiz qiling. Asarlarning shakli, ijrodagi badiiy ohang tizimlarini analiz qiling.
4. Etno-djaz va etno-pop yo‘nalishidagi asarlarni va xonandalarni izlang va keyingi darsda gapirib bering.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988.
2. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
3. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesi». M., 1986.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015.
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010.
6. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» – o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa», 2008.
7. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010.

## 35-37 DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg‘ulotlari.

17 xaftada talabalar ishtirokidagi «Eng yaxshi chet el asari ijrosi» tanlovida qatnashib, sahnada Rossiya yoki ingliz tilidagi Amerika va G‘arbiy Yevropa asari ijrosi timsolida o‘z ijrochilik mahoratingizni namoyon eting. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

17-18chi xaftalarda yakka darslarda ijro etish ko‘nikmalarini va ijro mahorati ustida ish olib boriladi.

Darslarda quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Vokaliz ijrosi
3. O‘zbek asarini ijro etish;
3. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

1. Vokal mashqlari

Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.

Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.









Quyidagi mashq katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, oʻrta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Stakkato texnikasidagi 28chi mashqni toʻla va toza bajarishga intiling.



Ovoz tesnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.




Ovoz texnikasini rivojida estrada –jaz vokalizlarini kuylash foydalidir. Yakuniy nazoratga vokalizlarni olib chiqish lozim bo‘lmaydi, ammo sinfda, o‘qish jarayonida vokalizlarni ijrosi xonandaning ovozini va texnik komponentlarini yaxshi ifodalashiga yordam beradi.

№№ 16-25 vokalizlar badiiy va texnik jihatdan murakkabroq bo‘lib, kantilenaning rivojiga, nafas texnikasini erkin egallashga, garmonik intonatsiyaning rivojiga, artistik mahorat va sahnaviy obraz yaratishga, ijodiy fikrlash va yuksak badiiy didni tarbiyalashga qaratilgan. Ular badiiy tafakkur, hissiy ta’sirchanlik rivoji doirasida talabalar uchun juda foydali hisoblanib, «Djaz-vals», «Sving», «Bossa-nova», «Samba», «Disko», «Klassik djaz», «Djaz-rok», «Fyujn», «Lirik estrada» ritmik setkalarida yaratilgan. Har bir vokaliz ijrochidan alohida stilistik ijro va qiyofani talab etadi. Ayniqsa, «Soul» uslubini qo‘llashda №16 - №25 vokalizlar intonatsion nuqtai nazardan ancha murakkabdir. Ushbu vokalizlar o‘zlarining texnikaviy jihatlari bilan yangi vokal ta’sirchanlik imkoniyatlarini ochib beradi.

Artikulyasiya va talaffuz amaliyotida vokalizlarni har ikki uslubni qo‘llagan holda, ya’ni notalarni ifodasi bilan solfedjiolashtirish, hamda unli tovushda vokalizatsiyalashtirib kuylash mumkin. Tez suratdagi (tempdagi) «stakkato» va djaz vokalizlarini (№5, №6, №7, №14, №15, №24) «MI –Ya» yoki «fara-fara» so‘zlari bilan aytish ham foydaliroqdir. Mayin tempdagi kantilena vokalizlarini vokalizatsiya: «A», Na-na», hamda solfedjiolash usulida kuylash zarur, chunki bu ovoz apparatining ishini faollashuviga imkon beradi. Bunda unli va unsiz tovushlarning va artikulyasiya rivojiga ta’siri sezilarlidir. O‘quvchining ovozida professional nuqsonlar (jarangsiz tovush tembri, detonatsiya, artikulyasiyaning bo‘shligi va hokazo) mavjud bo‘lgan holda, solfedjiolash uslubida, ya’ni notalarni aytib ijro etish tavsiya etiladi.

Vokalizlarni unli tovushlarda ijro etish xonandaning ovoz apparatining kasbiy chidamliligiga xizmat qiladi. Lekin, unli tovushdagi vokaliz ijrosida talabaning ovozini charchashidan ehtiyot bo‘lish zarur, ayniqsa, xiqqildoq qismida. Bunda ijroni to‘xtatish lozim, yoki solfedjiolashga o‘tish o‘rinli. Keyinchalik vokaliz ijrosini yana unli «A» tovushida davom etish mumkin.

Vokalizlarni tanlashda har bir talabaning tayyorgarligi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, individual tarzda yondoshish lozim. Har bir talabaning ovoz apparati xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ishlash zarur. Notada ko‘rsatilgan har bir musiqiy belgilarni va nafas olish setkasini talaba ongli ravishda tushunib bajarishi lozim. Texnik xarakterdagi vokalizlarni sekin tempdan boshlab, asta-sekin tez tempga o‘tib ijro etish darkor.

Kuylashda talabadan maksimal ravishda alohida passajlarda sadoning (intonatsiyaning) sofligini talab etish zarur. Vokaliz ustida ishlagan paytda, talabani nafaqat texnik qiyinchiliklarni bartaraf etishiga, balki ularning musiqiy badiiyligi va emotsional mazmuni bilan qiziqishlariga

e’tibor qaratish lozim. Qulay tanlangan vokalizlar kelajakda talabaga har qanday texnik va badiiy stilistik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Vokalizlarni kuylash jarayonida quyidagi jihatlarga asosiy urg‘uni qaratish lozim:
a) kantilena silliqligini rivojlantirish;
b) tovushning professional darajadagi filirovkasini egallash;
d) nafas olish texnikasini rivojlantirish;
e) ovoz dipazonini kengaytirish;
f) estrada- djaz stilistikasini egallash;
g) garmonik intonatsiyani rivojlantirish;
h) pop va djaz musiqasining zamonaviy ritmlarini egallash;
i) artistizm va badiiylikni rivojlantirish;
j) ijodiy fikrlash va ijroda ijodiy yondoshish;
k) yuksak badiiy didni tarbiyalash;
l) fizik va saxnaviy chidamlilikni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Dars jarayonida qo‘yiladigan asosiy vazifa, ijroda muallifning asarda ko‘rsatilgan asosiy ijodiy va texnikaviy talablarini to‘la to‘kis ifoda etishga qaratilishi lozim. Tashqi ko‘rinishi go‘zal bo‘lgan holda ham, asarni g‘oyaviy mazmunini ifoda eta olmagan talqin, ijrochini va tinglovchini qoniqtira olmaydi.

Keltirilgan vokalizlarning ijrosi yosh estrada xonandalariga yuksak ijroviy talablarni qo‘yadi: ijodiy fikrlash, badiiy tafakkur, intellekt, artistik fantaziya. Ushbu vokalizlar ijrosida, xonanda faoliyatida erishgan butun musiqiy-ifodaviy boyliklarni va ta’sirchanlik imkoniyatlarini ishlatmog‘i zarur.

Tajriba ko‘rsatdiki, asar ijrosida eng mushkil vazifalardan biri - bu to‘g‘ri yo‘naltirilgan uslubiy (stilistik) ijro ifodasidir. Ma’lumki, estrada musiqasi bir nechta rang-barang stilistik yo‘nalishlardan iborat. Bu o‘rinda talabalar bilan ishlashda «Soul» yo‘nalishiga ahamiyat qaratish zarur, chunki ko‘pgina an’anaviy, estrada va djaz asarlarining ijrosi «soul» yo‘nalishidagi ijroga asoslangan.

«Soul» so‘zi ingliz tilidan - jon, qalb, yurak ma’nosini bildiradi va djaz stilidagi yo‘nalishni ifodalaydi. «Soul» yo‘nalishini his tuyg‘uli, nolali ijro, yuragi bilan ma’noli talqin etish desa bo‘ladi. «Soul» elementlarini ko‘pgina boshqa yo‘nalishlarda kuzatmoq mumkin, lekin mohiyati bitta: bu ehtirosli (emotsional) tarzda yurakdan nolali, jo‘shqin, yorqin ijro etish demakdir.

Berilgan yo‘nalishning yorqin namoyandalari orasida ko‘pgina mashhur estrada yulduzlarini misol keltirishimiz mumkin: Uitni Xyuston, Selin Dion, Toni Brekston, Lara Fabian, Meray Kerri, Maykl Djekson, Andrea Bachelli, Muslim Magomaev, Alla Pugachyova, Larisa Dolina, Tamara Gvarsitelli va boshqalar. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalish keng tarqalgan, chunki o‘zbek milliy an’anaviy va xalq ashulalari keng diapazonli, samimiy, his tuyg‘ular va nolalarga boy ijroni talab etadi. «Soul» elementlarini quyidagi o‘zbek estrada xonandalari ijrosida kuzatishimiz mumkin: Botir Zokirov, Yulduz Usmonova, Zulayxo Boyxonova, Aysel Balich, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Sogdiana, Sevara Nazarxon, Yulduz Turdieva va boshqalar.

Ushbu yangi yaratilgan vokalizlar yosh estrada xonandalarining vokal imkoniyatlarini rivojlantirish uchun qulaydir. Vokalizlar materialida talabalarning vokal-texnik ko‘nikmalarini tarbiyalash mumkin. Ular nafaqat o‘quv materiali jixatida vokal-texnik qiynchiliklarini yengishda foydalidir, balki talabaning ijodiy fikrlashida va yuksak badiiy didini tarbiyalashda axamiyat kasb etadi. Musiqani ongli ravishda ijro etish, amaliy ko‘nikmalarni puxta egallash, talabaning mustaqil ishga tayyorlashda yordam beradi.

Estrada xonandasini tayyorlashda ovozni to‘g‘ri qo‘yish – bu uzoq davom etadigan murakkab jarayon va talabani estrada sahnasiga tayyorlashda bir qator professional qiyinchiliklar mavjud ekanligini e’tirof etish lozimdir.

O‘qituvchining estrada xonandalik ixtisosligi sinfida musiqiy, tarbiyaviy faoliyati, badiiy asarlar ijrosidan tashqari, estrada va djaz vokalizlarini doimiy ravishda qo‘llashi aniq o‘z

aksini topishi lozim. Chunki, u yosh professional estrada artistining shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi ishonchli uslubiy qo'llanmadir.

**Vokaliz №25** - o'zbek estrada qo'shiqchiligining birinchi yorqin yulduzlaridan biri, ajoyib ovoz sohibi, o'zinig ko'plab professional va mahoratli ijrosi hamda unutilmas qo'shiqlari bilan dunyoni zabt etgan va bugungi kunda afsonaga aylangan xonanda, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovga bag'ishlangan.

Vokaliz «bossa – nova» usulida, qo'shiq shaklida yaratilgan. Asarning ohangi Botir Zokirov yashagan va mashhur bo'lgan davr – 1960-1970- yillarni eslatadi, musiqada san'atkorni ijodiy portreti tasvirlangan.

Asarning shakli – boshlang'ich qism, ikki marta qaytarilgan naqorat- avj, va yakunlanish qismlaridan iborat. Asarning fortepiano partiyasi murakkab ritmik usuli bilan jo'rnavozdan yuqori texnik mahoratni talab etadi.

Asar mayin lirik obrazda boshlanadi, dramatik xarakterdagi avj naqorat qismiga to'g'ri keladi va ikki marta qaytariladi. Ikkinchi avj yanada ma'noliroq ifodalangan, variatsiyalashgan holatda yangraydi. Bu yerda butun musiqiy boylikni va ta'sirchanlik imkoniyatlarini ishlatmoq zarur.

Vokalizni o'rganish davrida e'tiborni «soul» ifodasiga, asarning shakliga, musiqiy obrazlarga, klavirdagi dinamik belgilarga, nafas olish setkasiga qaratish lozim.

Musiqaning badiiylik xususiyati, qo'shiq shaklidagi rangdor ifodasi tufayli bu vokalizni konsert asari sifatida talqin qilish tavsiya etiladi.

Vokaliz ijrochilarga musiqiy mahorat, yorqin obraz, badiiy fantaziya, stilistik qiyofani namoyish etishga imkon yaratib beradi. Vokalizni solfedjiolashtirib, hamda unli tovushda vokalizatsiya ifodasi bilan almashtirib kuylash tavsiya etiladi.

Quyidagi №25 vokalizni fortepianoda notadan ijro eting va tahlil qiling. Vokaliz ayollar ovozlari (metsso soprano) va baritonlar tonalligida berilgan. Tenorlar uchun nota klavirini D.Amanullayevaning «Estrada va jaz vokalizlari» o'quv qo'llanmasidan topasiz.

*Afsonaviy Botir Zokirovning yorqin xotirasiga.*

# Vokaliz № 25

**Tempo di Bossa nova** Dilorom Amanullayeva




fa
ru fa ra fa ra fa
mf
7
f
f
6


mf
mf
f
f


f
mf
mf




27.01.2013

3. O‘zbekiston kompozitori asari ustida ishlash. Vokal-texnik va artistik qirralarni namoyon etish. «Soul» uslubini ijroda namoyon etish.

SAVOLLAR:
1. Estrada jaz vokalizlarida qaysi birlari «Soul» yo‘nalishiga mansub?
2. «Interpretatsiya» ma’nosini tushuntirib bering.
3. «Etno-jaz» uslubiga izoh bering.
4. «Artistik va sahna imidji» ni qanday tushunasiz?
5. Jaz va estrada musiqasida «novator» ijodkorlarini sanab bering.
6. «Sving» so‘ziga izoh bering.

VAZIFALAR:
1. Yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko‘ring. O‘zbekiston kompozitoriga mansub asarni puxta tayyorlang.
2. Darslik ilovasidagi kompakt diskdagi o‘z repertuaringizdagi yozuvlarini tinglang, she’riy matnini analiz qiling. Asarlarning shakli, ijrodagi badiiy ohang tizimlarini analiz qiling.
3. Rok va jaz-rok yo‘nalishidagi asarlarni va xonandalarni izlang va keyingi darsda gapirib bering.
4. Darslikka ilova qilingan kompakt-diskdagi barcha audio yozuvlarni tinglang va ustozingiz, kursdoshlaringiz bilan fikr almashing.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988
2. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984
3. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;

4. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
5. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)» Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar
6. Islamova R. «Primenennie interaktivnix metodov i novix informatsionnix i pedagogicheskix texnologiy v dissipline «Vokalniy ansambl» dlya bakalavriata. T. 2012.
7. Islamova R. «O rasshirenii oblasti ispolzovaniya interaktivnix metodov i innovatsionnix obrazovatelnix texnologiy v dissipline «Iskusstvo vokalnogo ansamblya» v Magistrature»- o‘quv qo‘llanma. T.2012.

## 38-40 DARSLAR. 1-semestr yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish

19-20 xaftalarda yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko‘riladi.

Birinchi semestrning 20-haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) dasturning uchta asarini topshirgansiz (vokaliz, myuzikldan parcha va o‘zbek asari). Tanlovda qatnashib Yevropa asarini (rus) ijro etgan bo‘lsangiz, demak sizga yakuniy nazoratda faqat bitta asar ijrosi – zamonaviy O‘zbekkiston kompozitorining asari: Erkak ovozlari uchun «Yoshligim» asari, ayol ovozlari uchun «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar» asarini topshirish qoladi.Ushbu ijro dasturiga kiritilgan o‘zbek asarlarini mukammal o‘zlashtirishingiz lozim. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Turli janrlardagi asarlarni me’yoriga yetkazib, asarlar mazmunini tinglovchiga singdira olsangizgina mahoratingiz ijobiy baholanadi. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

Test savollariga tayyorgarlik ko‘rish esingizdan chiqmasin!

O‘quv rejadagi semestr fanlarini ham topshirib, keyingi semestrda o‘qishingizni davom ettirishingiz mumkinligi hyech qachon esingizdan chiqmasin!

## 1-semestrda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar

1. Djaz musiqasining geografik kelib chiqishi:
A) Shimoliy Amerika
B) Janubiy Amerika
D) Markaziy Afrika
E) Markaziy Yevropa

2. Djaz musiqasining shakllanishiga qaysi xalqlar folklori asos bo'lgan?
A) Yevropa va Afrika xalqlari folklori
B) Lotin Amerika xalqlari folklori
D) Negr xalqlari va xindular folklori
E) Yevropa xalqlari

3. Djazga asos bulgan negr folklori bu...
A) Spirichuel, soul, blyuz, gospel
B) Jiga, spirichuel, fokstrot, blyuz
D) Gospel, regtaym, spirichuel
E) Regtaym, spirichuel, fokstrot, blyuz

4. Spirichuel bu...
A) Diniy qo'shiq
B) Ommabop qo'shiq
D) Mehnat qo'shig'I
E) Bolalar qo'shig'i

5. Djaz uchun muhim bo'lgan omillar
A) Ritm, garmoniya, improvizatsiya, lad
B) Ritm, garmoniya, improvizatsiya, bas
D) Ritm, garmoniya, improvizatsiya, tembr
E) Improvizatsiya, tembr

6. Djazning ilk uslubi shakllangan joy:
A) Nyu-Orlean
B) Nyu-Djersi
D) Nyu-York
E) Nyu-Deli

7. Klassik djazning asosiy uslublari:
A) Nyu-Orlean, Chikago, Sving, Bi-bop, Kul, Progressiv
B) Bi-bop, Bugi-vugi, Kul, Chikago, Nyu-Orlean, Sving
D) Kul, Etno-djaz, Bi-bop, Fokstrot,Sving
E) Chikago, Nyu-Orlean, Sving

8. Nyu-Orlean uslubiga xos bo'lgan elementlar:
A) Kollektiv improvizatsiya, «guruhlar bellashuvi»
B) Kollektiv improvizatsiya, tez temp
D) Kollektiv improvizatsiya, damli cholg'ular yakkaxonligi
E) Urma cholg'ular yakkaxonligi

9. Chikago uslubiga xos bo‘lgan elementlar:
A) Yakkaxon improvizatsiya, tembrlar rang-barangligi
B) Sinkopa, yakkaxon improvizatsiya
D) «Chaykaluvchan ritm», yakkaxon improvizatsiya
E) «Stakatto ritm»

10. Sving bu...
A) Chaykaluvchan ritm
B) Mayin ohang
D) Mohirona improvizatsiya
E) Garmonizatsiya

11. Bi-bop uslubining elementlari:
A) Tez temp, modulyatsiyalar, dissonanslar
B) Sokin kuy, tez temp, dissonanslar
D) Tez temp, modulyatsiyalar, konsonanslar
E) Modulyatsiyalar, konsonanslar

12. Kul uslubiga xos elementlar:
A) Sokin kuy, konsonanslar, polifoniya
B) Sokin kuy, konsonanslar, modulyatsiyalar
D) Sokin kuy, konsonanslar, improvizatsiyalar
E) Baland kuy, konsonanslar, modulyatsiyalar

13. Etno-djaz nimaga asoslanadi?
A) Folklor musiqasiga
B) Klassik an’analarga
D) An’anaviy musiqaga
E) Jaz musiqaga

14. Ritm-end-blyuz musiqasi qayerda shakllangan?
A) Shimoliy Amerikada
B) Janubiy Amerikada
D) Markaziy Afrikada
E) Shimoliy Afrikada

15. Ritm-end-blyuz musiqasiga qaysi folklor musiqalar asos bo‘lgan?
A) Blyuz, kantri, soul
B) Rok-n-roll, tvist
D) Blyuz, skiffl
E) Skiffl, tvist

16. Ritm-end-blyuz uslubi yulduzlari...
A) Chak Berri, Maddi Uoters, Rey Charlz
B) Rod Styuart, Selin Dion, Elvis Presli
D) Charli Parker, Oskar Piterson, Telonius Monk
E) Selin Dion, Elvis Presli

17. Ritm-end-blyuz uslubidan so‘ng yaralgan uslub...
A) Rok-n-roll
B) Rok-n-bitt
D) Rok-n-soul
E) Rok-n-pop

18. Rok musiqasi yaralguncha Amerikada ommabop bo‘lgan uslub…
A) Rok-n-roll
B) Ritm-end blyuz
D) Ritm-end-bitt
E) Ritm-end-rok

19. Elvis Presli qaysi musiqiy uslub qiroli?
A) Rok-n-roll
B) Ritm-end-blyuz
D) Rok-end-ritm
E) Ritm-end-bitt

20. Evis Presli o‘z ijodida …musiqasini qo‘llagan
A) Folklor
B) Klassik
D) Ommabop
E) An’anaviy

21. Rok musiqasi qayerda va qachon shakllangan?
A) Angliyada 1960 y.
B) Kaliforniyada 1945 y.
D) Angliyada 1984 y.
E) Afrikada 1985 y.

22. Rok musiqasiningi asoschilari….
A) «Bitlz»
B) «Rolling Stoun»
D) «Kuin»
E) «Abba»

23. «Liverpul to‘rtligi»ga quyidagilar kiradi:
A) Pol Makkartni, Djon Lennon, Djorj Xarrisson, Ringo Star
B) Pol Makkartni, Djon Lennon, Ringo Star, Ozzi Osborn
D) Pol Makkartni, Djon Lennon, Ozzi Osborn, Ringo Star
E) Djon Lennon, Ringo Star, Ozzi Osborn

24. Rok musiqasining asosiy pog‘onalari:
A) Art rok, Progressiv rok, Xard rok, Dum rok, Trash rok
B) Art rok, Barokko rok, Xard rok, Dum rok, Trash rok
D) Art rok, Progressiv rok, Spiid rok, Dum rok, Trash rok
E) Trash rok, Progressiv rok, Spiid rok

25. «Pink Floyd» … uslubi vakili
A) Art rok
B) Xard rok
D) Dum rok
E) Progressiv rok

26. «Kvin» … uslubi vakili
A) Xard rok
B) Art rok
D) Dum rok
E) Progressiv rok

27. «Dart Streyz» ... uslubi vakili
A) Progressiv rok
B) Xard rok
D) Art rok
E) Dum rok

28. «Cats» - bu ...
A) Myuzikl
B) Guruhning nomi
D) Rok opera
E) Rep musiqa

29. «Iisus-Xristos – super zvezda» rok operasining muallifi?
A) L.Uebber
B) P.Makkartni
D) O.Osborn
E) Deva Mariya

30. «Iisus-Xristos – super zvezda» rok operasining bosh kahramonlari?
A) Iisus-Xristos, Iuda, Mariya Magdalena, Kayyafa, Pontiya Pilat, Irod
B) Iisus-Xristos, Iuda, Monna Liza, Mariya Magdalena, Kayyafa, Pontiya Pilat
D) Iisus-Xristos, Deva Mariya, Mariya Magdalena, Iuda, Kayyafa, Pontiya Pilat
E) Liza, Mariya Magdalena, Kayyafa, Pontiya Pilat

31. «Iisus-Xristos – super zvezda» rok operasida qo‘llanilgan cholg‘ular:
A) Simfonik orkestr cholg‘ulari, rok guruh cholg‘ulari
B) Simfonik orkestr cholg‘ulari
D) Rok guruh cholg‘ulari
E) Pop guruh cholg‘ulari

32. Rok-n-roll musikasi qiroli kim?
A) E.Presli
B) M.Djekson
D) E.Djon
E) Madonna

33. «Iisus-Xristos – super zvezda» film-rok operasi kachon suratga olingan?
A) 1973 y.
B) 1988 y.
D) 1978 y.
E) 1985 y

34. Jaz qirolichasi
A) E.Fitsjerald
B) Madonna
D) S.Dion
E) M.Jekson

35. Qaysi uslub jazni professional musiqa toifasiga olib chiqdi?
A) Bi-bop uslubi
B) Kul uslubi
D) Etno djaz uslubi
E) Ommaviy musiqa

36. «Estrada» atamasining  kelib chikishi:
A) Yunon tilidan
B) Fransuz tilidan
D) Lotin tilidan
E) Ingliz tilidan

37. Soul uslubining qirolichasi
A) U.Xyuston
B) B.Spirs
D) K.Agilera
E) T.Brekston

38. Pop musiqa atamasi ...ni anglatadi:
A) Ommaviy musiqa
B) Xalq musiqasi
D) Hammaga mansub musiqa
E) Kul uslubi

39. Disko uslubi qayerda va qachon paydo boʻlgan?
A) Yevropada, 70-yy..
B) Amerikada, 80-yy..
D) Lotin Amerikasida, 60-yy..
E) Afrikada 50 yy..

40. «Disko» nimani anglatadi?
A) Disk
B) Doyra
D) Shar
E) Koptok

41. Disko uslubining qirralari:
A) 4/4 oʻlchov, zarba tezligi 120-130, pulssimon ritm, kvadratlik.
B) Kiska melodik jumla, ulchov 4/4, zarba tezligi 120-130, improvizatsiya.
D) Ulchov 3/4, zarba tezligi 120-130, kvadratlik, kiska melodik jumla
E) Oʻlchov 6/8, zarba tezligi 100-110, kvadratlik jumla

42. Soul uslubi ...ga asoslanadi:
A) Afroamerikaliklar folklor musiqasiga
B) Yevropaliklar folklor musiqasiga
D) Afrikaliklar folklor musiqasiga
E) Osiyoliklar folklor musiqasiga

43. Areta Franklin qaysi uslub vakili?
A) Soul
B) Disko
D) Texno
E) Rep

44. Ushbu atamalar qaysi uslubga tegishli: rimshot, uan-drop, babling?
A) Reggi
B) Disko
D) Rep
E) Rok

45. Soul uslubining tashkiliy qismlari:
A) O'rta temp, keng vokal diapazoni, improvizatsiya, ikkinchi bo'g'inga urg'u beriladi.
B) Tez temp, pulssimon ritm, qiska melodik jumla, improvizatsiya, birinchi bo'g'inga urg'u beriladi
D) Sekin temp, uzun melodik jumla, uchinchi bo'g'inga urg'u beriladi.
E) O'rta temp, uzun melodik jumla, to'rtinchi bo'g'inga urg'u beriladi

46. «BoniM» guruhi qaysi uslubga mansub?
A) Disko
B) Ritm-end-blyuz
D) Soul
E) Rok

47. Yamaykada yaralgan uslubning nomi?
A) Reggi
B) Rok
D) Soul
E) Pop

48. Uitni Xyuston qaysi uslub yulduzi?
A) Soul
B) Reggi
D) Disko
E) Jaz

49. Reggi uslubining «qiroli»:
A) Bob Marli
B) Tom Djons
D) Stivi Uonder
E) Uitni Xyuston

50. Rep nima?
A) Musiqiy uslub elementi
B) Raqsbob musiqa
D) Musiqiy uslub
E) Ommaviy uslub

51. Rastofarri dinini qaysi musiqiy uslub bilan bog'laydilar?
A) Reggi
B) Disko
D) Rep
E) Rok

52. Xip-xop qayerda paydo bulgan?
A) Amerikada
B) Yamayka orollarida
D) Yevropada
E) Afrikada

53. Reggi uslubini aniqlab beruvchi elementlar:
A) Chayqaluvchan ritm, babling
B) Ohangdor kuy, tez temp
D) Sekin temp, pulslanuvchan ritm
E) Tez shoshilinch temp

54. Rok-musiqasi bu - ....
A) Populyar muziqasi janri
B) Jaz muziqasi uslubi
D) Pop-muziqasi uslubi
E) Rep musiqasi uslubi

55. Rok-muziqasi .... kelib chiqqan.
A) Ritm-end-blyuzdan
B) Psixodelik-rokdan
D) Dum-rokdan
E) Kul-rokdan

56. Rok-muziqastning asosiy uslublari:
A) Art, Progressiv, Dum, Xard, Trash
B) Glem, Epik, Folk, Art, Simfonik-rok
D) Trash, Xard, Gdem, Dum, Pomp-rok
E) Folk, Art, Simfonik-rok

57. Rok-muziqasi .....ga tayanadi
A) Blyuz tovushqatoriga
B) Minor tovushqatoriga
D) Miksolidiy tovushqatoriga
E) Lidiy tovushqatoriga

58. Rok-n-roll – bu....ning sintezi
A) Kantri va bugi-vugi
B) Texno va blyuz
D) Djaza va fyujn.
E) Djaza va blyuz

59. «PinkFloyd» – .... guruhi
A) Ingliz
B) Nemis
D) Amerika
E) Afrika

60. Art-rok va progressiv-rok ....an'analariga tayanadi
A) Klassik muziqa
B) Zamonaviy muziqa
D) Elektron muziqa
E) Ommaviy musiqa

61. Rok-opera – bu....musiqasi janri ......
A) Rok-muziqasi
B) Klassik muziqasi
D) Pop-muziqasi
E) Rep musiqasi

62. Pol Makkartni – ... guruh ijrochisi
A) «Bitlz»
B) «Skorpions»
D) «Aerosmit»
E) «Abba»

63. «DireStraits» – ….uslubi vakili
A) Progressiv-rok
B) Xard-rok
D) Pank-rok
E) Xip-xop

64. «Rok-n-roll» atamasining muallifi
A) Alen Frid
B) Elvis Presli
D) Meddi Uoters
E) Elvis Presli

65. Rok-muziqasi ... yillarda vujudga keldi
A) 1960-chi
B) 1940-chi
D) 1980-chi
E) 1990-chi

66. Elvis Presli ... ijrochisi.
A) Rok-n-roll musiqasi
B) Pop-muziqasi
D) Soul-muziqasi
E) Disko-muziqasi

67. Freddi Merkyuri …. guruhining xonandasi
A) «Kuin»
B) «Aerosmit»
D) «Boni M»
E) «Drim Teatr»

68. Rok-muziqasiga dahldor bo'lmagan guruhni ko'rsating.
A) «ABBA»
B) «Drim Teatr»
D) «Bitlz»
E) «Aerosmit»

69. Xard-rok atsmasi ….demakdir.
A) Qattiq-rok
B) Yumshoq-rok
D) Yengil-rok
E) Oson-rok

70. Metall-rok …. dan kelibchiqqan.
A) Xard-rok
B) Tresh-rok
D) Art-rok
E) Pop-rok

71. Rok-opera qaysi san'at turiga kiradi?
A) Sintetik
B) Vokal
D) Sahnaviy
E) Rok

72. Klassik operaning qaysi musiqiy shakllari rok-operada ham qo'llanadi?
A) Ariya, monolog, xor
B) Qo'shiq, raqs, klip
D) Balet, qo'shiq, klip
E) Balet, qo'shiq raqs, klip

73. «Stena» —bu
A) Rok-opera
B) Rok-balet
D) Rok-simfoniya
E) Rok-sonata

74. Myuzikl – bu
A) Pop-musiqa janri
B) Klassik musiqa shakli
D) Jaz muziqasi uslubi
E) Rok muziqasi uslubi

75. L.Uebber qaysi myuzikl muallifi?
A) «Prizrak operi»
B) «Yunona i Avos»
D) «Unesennыe vetrom»
E) «Ieusus Xristos»

76. Alen Frid –
A) Taniqli DJ
B) 70-yillar pop-musiqasi yulduzi
D) Rok-n-roll qiroli
E) Raqqos

77. Birinchi rok-n-roll qo'shig'i ijrochisi
A) Ayk Tyorner
B) Tina Terner
D) Chak Berri
E) Toni Brekston

78. «ZZ top» guruhi – ...uslubi vakili
A) Xard-rok
B) Art-pop-rok
D) Glem-rok
E) Pop-rok

79. «Bitlz» guruhi ... musiqachilardan iborat
A) 4
B) 2
D) 8
E) 5

80. Djon Lennon – ...guruhining yetakchi musiqachisi
A) «Bittlz»
B) «Skorpions»
D) «Bi Jiz»
E) «Abba»

81. Estrada atamasi ... demakdir
A) Pog‘ona
B) Sahna
D) Balandlik
E) Ring

82. Pop-muziqa – bu ...
A) Ommaviy musiqa
B) Madaniy musiqa
D) Umumxalq musiqa
E) Yakka musiqa

83. Kantri – bu
A) Oq tanlilar qishloq folklor musiqasi
B) Oq tanlilar shahar folklor musiqasi
D) Qora tanlilar folklor muziqasi
E) Qizil tanlilar folklor muziqasi

84. Disko – bu ...
A) Raqsbob uslub
B) Xordiq uslubi
D) Akademik uslub
E) Simfonik uslub

85. Soul – ... musiqasi uslubi.
A) Pop
B) Jaz
D) Rok
E) Disko

86. «Pop-musiqasi qiroli» unvonini olgan qo‘shiqchi
A) M.Djekson
B) Sting
D) F.Merkuriy
E) Madonna

87. Bit va rechitatsiyaga asoslangan pop-musiqasi uslubi
A) Rep
B) Disko
D) Fank
E) Rok

88. Xip-xop uslubining yaralish joyi...
A) Nyu-York
B) Chikago
D) Texas
E) Kaliforniya

89. Xip-xop uslubiga tegishli bo‘lgan tasviriy san’at turi
A) «graffiti»
B) «stenopisi»
D) «stenofiksi»
E) «steno»

90. Fransuzcha pop musiqasi uslubi
A) Shanson
B) Blyuz
D) Soul
E) Xip-xop

91. Raqsbob uslublar orasidagi eng «texnogen» uslub
A) Texno
B) Xip-xop
D) Rep
E) Pop

92. Klassik vokal jazining yulduzi:
A) Lui Armstrong
B) Areta Yuranklin
D) Dyuk Ellington
E) E.Fitsdjerald

93. «Sket» texnikasining «muallifi»
A) L.Armstrong
B) E.Fitsdjerald
D) O.Piterson
E) M.Jekson

94. Bi-bop uslubi asoschilari
A) D.Gillespi
B) K.Djarrit
D) D.Ellington
E) O.Piterson

95. A.Mustafa-zoda qaysi millat djaz musiqasi malikasi?
A) Ozarbayjon
B) Eron
D) Turk
E) Arab

96. Ritm-n-blyuz,Soul,Fank,Disko,Texno,Reggi,Xip-xop,Shanson-bu
A) Pop musiqasi uslublari
B) Rok musikasi uslublari
D) Jaz musiqasi uslublari
E) Rep musiqasi uslublari

97. R&B .... kelib chiqqan
A) Ritm-n-blyuzdan
B) Rok-n-rolldan
D) Reggidan
E) Rok-n-popdan

98. O'zbek estradasining asoschisi
A) B.Zakirov
B) Yu.Turayev
D) F.Zokirov
E) D.Omonullayeva

99. «Yalla» guruhining ilk rahbari
A) B.Zokirov
B) Ye.Jivayev
D) F.Zokirov
E) Yu.Usmonova

100. Birinchi o‘zbek estrada kompozitorlari
A) E.Salixov, I.Akbarov
B) M.Ashrafi, S.Yudakov
D) T.Kurbanov, U.Musayev
E) M.Ashrafi, U.Musayev

101. Zamonaviy ESO rahbari
A) A.Ikromov
B) R.Abdullayev
D) A.Ergashev
E) A.Ibodullayev

102. B.Zokirov,L.Zokirova,Yu.Turayev,M.Shamayeva,R.Sharipovao‘zbek estradasining nechchinchi yillar yulduzlari?
A) 70
B) 50
D) 90
E) 80

103. «Yomg‘ir yog‘di» qo‘shig‘ining muallifi
A) D.Amanullayeva
B) N.Norxojayev
D) A.Ikromov
E) A.Ergashev

104. «Uch kuduk» qo ‘shig‘ining ijrochisi
A) «Yalla» guruhi
B) «Original» guruhi
D) «Sado» guruhi
E) «Setora» guruhi

105. «Ra’no», «Gazli», «Qaydasan?» qo‘shiqlarining muallifi
A) I.Akbarov
B) E.Salixov
D) N.Norxodjayev
E) D.Omonullayeva

106. «Saraton», «Yomg‘ir yog‘di», « Siz yoqqansiz...» qo‘shiqlar ijrochisi
A) K.Razzoqova
B) N.Nurmuxammedova
D) R.Sharipova
E) D.Omonullayeva

107. O‘zbek estradasining asosiy yo‘nalishlari
A) Milliy estrada, klassik estrada, oriyent-pop, pop musiqasi uslublari
B) Soul, klassik estrada, shanson
D) Disko,Texno,Xip-xop
E) Pop,disko,Texno,Xip-xop

108. T.Sodiqov qaysi gurih xonandasi?
A) «Bolalar»
B) «Shaxzod»
D) «Xo‘ja»
E) «Yalla»

109. O.Nazarbekov ijro yo‘nalishi
A) Milliy Estrada
B) Klassik estrada
D) Orint-pop
E) Folklor

110. O‘zbekistonda vokal jaz musiqasi yulduzi
A) A.Balich
B) Shoxriyor
D) O.Nazarbekov
E) T.Sodiqov

111. T.Sodiqov qaysi uslub vakili
A) Pop-rok
B) Soul
D) Etno-jaz
E) Rep

112. O‘zbek etno-pop-rok uslubi vakili
A) S.Nazarxon
B) R.Sharipov
D) R.Xoliqov
E) A.Ergashev

113. «Qars» guruhining ijro uslubi
A) Folk-rok
B) Jaz rok
D) Spid-rok
E) Rok

114. «Saraton», «Yomg‘ir yog‘di», «Siz yoqqansiz...» qo‘shiqlari muallifi
A) D.Amanullayeva
B) R.Abdullayev
D) S.Yudakov
E) F.Zokirov

115. O‘zbekiston musiqiy telekanallari
A) «MuzTV»
B) «Forum TV»
D) «Yoshlar»
E) «O‘zbekiston»

116. O‘zbekistonda eng birinchi hususiy musiqiy radio
A) «Grand»
B) «Vodiy sadosi»
D) «Oriyat Dono»
E) «Mash’al»

117. O‘zbek estradasidagi ustivor yo‘nalishlar
A) Raqsbop
B) Mumtoz
D) Vatan haqidagi
E) An’anaviy

118. N.Abdullayeva, F.Zokirov, K.Razzoqova qaysi musiqiy yo‘nalishda kuylaydilar?
A) Klassik Estrada
B) Milliy Estrada
D) Pop-musiqasi uslublarida
E) Rep-musiqasi uslublarida

119. Dyuk Ellington kim?
A) Klassik jaz musiqasi asoschisi
B) Rok musiqasi asoschisi
D) Pop musiqasi asoschisi
E) Rep-musiqasi asoschisi

120. Bionse qaysi musiqiy uslub vakili?
A) R&B
B) Shanson
D) Xard-rok
E) Rep

## 2-SEMESTR

### 41-DARS: Barkamol avlod tarbiyasida estrada qo‘shiqchiligining o‘rni

Aziz talabalar! Yosh avlodni tarbiyasida musiqaning, qo‘shiqning o‘rni beqiyosdir. Ma’lumki, qo‘shiqchilik san’ati qadim zamonlarda vujudga kelgan va hozirgi kunlarda ham o‘z rivojini davom ettirayotgan ijodiyot turidir. Qo‘shiq azal-azaldan insoniyat hayotida hamroh bo‘lib kelgan va insonning ma’naviy va madaniy, g‘oyaviy va ahloqiy tarbiyasida bosh tarbiyachi rolini o‘tagan. Bugun ham qo‘shiq hayotimizda ma’naviy va madaniy, ahloqiy tarbiyani joriy qiladigan asosiy omillardan biridir. Bu borada «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida ham alohida keltirilgan.

Yurtimiz mustaqillikga erishgach, muhtaram Prezidentimiz rahbarligida musiqa va qo‘shiq san’ati rivojiga katta axamiyat qaratilyapti, bu san’at turi millatning qiyofasi, tarbiya vositasi sifatida baholanyapti. Buning bosh sababi – milliy anglash, milliy yuksalish va milliy uyg‘onishdir.

Haqiqatdan ham, qo‘shiq insonlarning qalbiga tez kirib boradigan, qalb pardalarini chertadigan, dillarning tub-tubida cho‘kib yotgan Vatanparvarlik tuyg‘ularini anglatib yuboradigan, ezgu ishlarga da’vat qiladigan kuchli omildir. Insonning ruhan poklanishida, qalban ulg‘ayishiga chorlaydigan, irodasi, iymon-ehtiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch ham qo‘shiqdir. Barkamol inson, komil inson tarbiyasida musiqaning, qo‘shiqning kuchi va axamiyati kattadir.

Barkamol inson va barkamol jamiyat haqida fikr yuritar ekanmiz, Prezidentimiz Islom Karimovning nutq, ma’ruza va suhbatlarida, yaratilgan asarlarida ana shu barkamol inson qiyofasini shakllantirish manbai va asosi bo‘ladigan, ushbu qiyofani komillik darajasini belgilaydigan omillar bosqichma-bosqich qayd etilganini guvohi bo‘lamiz. Islom Karimov mamlakatimizning yorqin kelajagi, bu kelajak sohibi bo‘ladigan yuksak ma’naviyatli barkamol avlod xaqida «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarlarida shunday deydilar: «Tabiiyki, milliy g‘oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarini o‘z ichiga oladi.... Vatan ravnaqi va taraqqiyoti - ma’naviyati yuksak va mustahkam, barkamol avlodga bog‘liq .. Tarix haqiqati shuni ko‘rsatdiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.» (90 bet) Ta’kidlab o‘tish joizki, ma’naviy-ahloqiy barkamollik, insoniy komillik bizga ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan bebaho me’rosdir. Aslida insonning eng olijanob va muqaddas burchi – Vatanga, millatga fidoiy bo‘lib xizmat qilishdir.

Tabiiyki, yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda tarixiy va milliy ma’naviy omillar bilan birga Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlarning kuchi va ahimyati kattadir. O‘zbekiston mustaqillikga erishgach, davlatimiz rahbariyati tomonidan qo‘shiqchilik san’ati rivojiga, ayniqsa Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlarga katta e’tibor berilib kelmoqda. Prezidentimiz I.Karimov tashabbusi bilan 1996 yildan beri O‘zbekistonimiz bo‘ylab keng qanot yozgan «O‘zbekiston – Vatanim manim», «Yagonasan, muqaddas vatan», «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali kabi tanlovlar, Mustaqillik, Navruz va boshqa davlat konsert tadbirlari dasturiga kiritilgan Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar ijrosi shuning dalilidir. Oxirgi yillar ichida o‘zbek ijodkorlari tomonidan minglab Vatanni, tinch xayotni madx etuchi qo‘shiqlar yaraldi. Bugungi kunda har bir professional xonandaning repertuaridan Vatan mavzusidagi qo‘shiq o‘rin olgan.

Vatanparvarlik asarlari asosida yosh avlodni va jamiyatni xaqiqiy vatanparvar millat etib, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli va taraqqiyoti yo‘lida hizmat qilish va kurashishni tarbiyalash, insonning ongiga Vatan tuyg‘usini singdirish mumkin.

Qo‘shiqchilik san’at turi millatning qiyofasi, tarbiya vositasi sifatida baholanyapti. Buning bosh sababi – milliy anglash, milliy yuksalish va milliy uyg‘onishdir.

Qo‘shiq san’ati insoniyatning tarixiy taraqqiyot yo‘lida jamiyat bilan birgalikda sayqallanib kelmoqda. U shaklan va usluban juda ko‘p o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazgan, davrlar o‘zgargan sayin transformatsiyalanib kelmoqda. XX asrga kelib bu janr «estrada qo‘shig‘i» qiyofasida dunyoni zabt eta boshladi va eng ommabop janrga aylandi.

Dunyo miqyosida estrada qo‘shiqchilik san’ati kundan kunga rivojlanib, yangi turli oqimlar va ko‘rinishlarni kashf emoqda, estrada osmonida yangi yulduzlar paydo bo‘lmoqda. Bu yangicha ko‘rinishlar va stilistik uslublar Respublikamizning estrada san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Biz o‘zbek estrada qo‘shiqchilik san’atiga umumiy baho bersak, aytish mumkinki, milliy estradamizning bugungi ko‘rinishi, kechagi tarixi bu sohada katta ishlar qilinganidan dalolat beradi. O‘zbek milliy estradasiga asos solgan taniqli san’atkor Botir Zokirovdan boshlab, bugungi, bu sohaning kenja avlodi ham jahondagi eng katta sahnalarda jahon qo‘shiq shinavandalarini qoyil qoldirishga erishganlar va erishmoqdalar. Misol qilib Sevara Nazarxon, Rovshan Namozov, Sogdiana, Xurshid Inagamov, Diana Ziyatdinova, Sardor Milanolarning jahondagi eng murakkab va nufuzli Xalqaro tanlovlarida va baland sahnalarda o‘zbek millatini, o‘zbek madaniyatini, o‘zbek san’atini yuksak pog‘onalarda targ‘ib qilayotganlarini g‘urur bilan aytishimiz mumkin. Ular kam bo‘lsa-da, o‘zbek xalqidan ham dunyo sevib eshitadigan san’atkorlar yetishib chiqayotganligi quvonarli hol.

XX asrning 60-80chi yillarida O‘zbekiston xududida barmoq bilan sanarli estrada xonandalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar-da, bugungi kunda, istiqlol tufayli yoshlarning ijodiy erkinlikka ega bo‘lishi, senzura masalasida hamma to‘siqlar olib tashlanganligi, zamonaviy ovoz yozish studiyalarining texnik imkoniyatlari o‘sib ketgani tufayli, teleradio efirlarida minglab yosh ijrochilarning chiqishlarini kuzatmoqdamiz. O‘sib chiqayotgan yosh estrada san’atkorlari orasida ustoz va maktab ko‘rgan, xaqiqiy iste’dod va ovoz egalari: Sevara Nazarxon, Gulsanam Mamazoitova, Yulduz Turdieva, Ozodbek Nazarbekov, Dilnoza Ismiyaminova kabi professional, yuqori badiiy didga ega xonandalar bilan bir qatorda o‘zlarini «yulduz» darajasida xisoblagan, musiqa savodidan xabarsiz, ma’naviy va madaniy ongi past, san’at va sahna talablarga javob bera olmaydigan, saviyasi past xavaskor yoshlarni chiqishlarini chidashga majbur bo‘lyapmiz.

Bunday axvolga ijobiy baho berish qiyin. Bugungi sahna va teleradio efirlaridagi achinarli ahvol bo‘yicha ko‘p savollar tug‘ilmoqda. Xo‘sh, umuman bugungi yoshlar qanday qo‘shiqlarni kuylashmoqda? Ularning san’at to‘g‘risidagi tasavvuri nima bilan izohlanadi? Radio va televidenie efirlari qanday xonandalarni va qanday qo‘shiqlarni targ‘ib qilmoqda??? O‘sib kelayotgan yosh avlod Bog‘chadan boshlab maktab va Oliy yurtlarda qanday musiqa asarlari orqali tarbiyalanmoqda? O‘zbeknavo estrada konsert birlashmasi, O‘zbekiston milliy teleradio kompaniyasi, xavaskor san’atkorlar va qo‘shiqlar saviyasini oshirish masalasida qanday chora tadbirlar o‘tkazmoqda?

Teleradio kompaniyasida musiqiy dasturlarni efirga uzatayotgan muharrir va rejissyorlarni ma’lumoti, ma’naviy, madaniy, axloqiy dunyoqarashi qay darajada, musiqa va san’at targ‘iboti bilan shug‘ullanishga ularning ma’naviy xuquqi bormi? Ayonki, qo‘shiqchilik san’ati, yosh avlodning ma’naviy va madaniy tarbiyasi ko‘proq davlat tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liq.

Zamon talablariga javob bera oladigan, o‘zbek estrada san’atini yuqori pog‘onalarga olib chiqadigan, xalqaro miqyosda o‘zbek estrada qo‘shiqchiligini munosib targ‘ib qila oladigan yuqori malakali yosh mutaxassislarni tayyorlash masalasi davlat ta’lim dasturining asosiy mezonidir.

Professional, yuqori malakali estrada xonandasini tarbiyalash masalasi ko‘pqirrali va nihoyatda murakkab jarayondir. Har bir yosh ijodkorning barcha tomonlarini hisobga olib yondoshishimiz zarur: uning iste’dod qirralari va doirasi, uning umumiy musiqiy tayyorgarlik darajasi, ovoz diapazoni va vokal texnik imkoniyatlari, ijodiy fikrlash doirasi, fizik xolati. Har bir vokal pedagogning vazifasi bo‘lajak estrada san’atkorining vokal imkoniyatlari va ijodiy qirralarini ochib berishdan iboratdir.

Kasbiy estrada xonandalarini tayyorlovchi O‘zbekiston davlat konservatoriyasining «Estrada xonandaligi» ta’lim yo‘nalishida yosh professional estrada xonandalarining professional

ko‘nikmalari: vokal texnikasini, ijrochilik mahoratlarini, yangi stilistik janr va yo‘nalishlarini mukammal darajada egallashga va yuqori ma’naviy-g‘oyaviy ruhda tarbiyalashga qaratilgan.

Yosh xonandaning kasbiy yetukligi – uning estetik qadriyat nima ekanligi, insonlar tinglab zavqlanishi uchun saxnaga chiqganda yetuk darajadagi ijro mahoratini, estrada yo‘nalishidagi zamonaviy stilistik yo‘nalish va uslublarni egallaganini, ijrodagi ovoz texnikasi ko‘nikmalari borligini, musiqa va sahna qonunlarini puxta egallagan, qolaversa, o‘z milliy madaniy merosini buzmagan xolda zamonaviy ko‘rinishda yarata olishdan iboratdir.

Vokal pedagogikasining vazifasi – bo‘lajak estrada san’atkorining vokal imkoniyatlari va ijodiy qirralarini ochib berishdan iboratdir. Shu bilan birga, yosh xonandaning ijro dasturi, ya’ni repertuar masalasi zarur omillardan biridir. Bu juda zarur masaladir. Erkinlik shiori ostida oxirgi yillar davomida teleradio orqali yangrayotgan qo‘shiqlarning deyarli ko‘pi professional san’at va g‘oyaviy-axloqiy jihatdan talablarga javob bera olmaydigan, mavsumiy qo‘shiqlardir. Jamiyatning estetik va madaniy tarbiyasini buzayotgan, na musiqada, na she’rda, na ijroda, na sahna ko‘rinishida saviyasi past, axloqiy bema’ni va bachkana chiqishlar yosh avlodning didini buzmoqda, ma’naviy xayotimizni sayozlantirmoqda, san’at muxlislari tomonidan ochiq e’tirozlarni ko‘paytirmoqda. Albatta bu achinarli xol respublikamizda qo‘shiqchilik sohasida kuchli erkinlashtirish jarayoni, ijodkorning erkin ijod qilish imkoniyati berilganligi, repertuar masalasida to‘siqlar olib tashlanganligi tufayli ro‘y beryapti.

Sayoz xonandalarga litsenziya berayotgan va saviyasi past qo‘shiqlarni targ‘ib qilayotgan davlat tashkilotlari – «O‘zbeknavo» va teleradio kompaniya faoliyatini ijobiy baholab bo‘lmaydi. «Bunday holatlarni oldini olish uchun san’atkorlar orasida sog‘lom ijodiy muhit tashkil qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san’ati namunalaridan keng bahramand bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.» – deydi yurtboshimiz I.Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarlarida (143 bet). Xaqiqatdan ham, masalani yechimiga juda jiddiy yondoshishimiz zarur. Shu masalada quyidagilarni taklif qilamiz: Biz birinchi o‘rinda **san’at va madaniyat qonunini ishlab chiqib, qa’bul etishimiz darkor.** Bu qonun milliy g‘oya, milliy mafkura asosida tuzilishi darkor. Unda

– san’at va madaniyat kriteriylariga aniq izoh berish;

– san’atimizni yanada rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– yosh avlodning ma’naviy va madaniy yuksaltirish tiziminining nazariy va metodologik tamoyillarini ishlab chiqish, hayotga tadbiq etish;

– mumtoz va klassik san’atimizni har hil hurujlardan himoya qilish tizimini;

– professional shoir va bastakorlarning qalam haqini oshirish tizimini ishlab chiqish;

– professional ijodkorlarining mualliflik huquqini himoya qilish tizimini ishlab chiqish, xalqaro konvensiyaga kirish;

– xususiy nashriyotlar, xususiy ovoz yozish studiyalarining faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish;

– targ‘ibot etuvchi davlat tashkilotlarining faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, badiiy kengashlarning tizimini tiklash va yo‘naltirish;

– jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqishimiz darkor.

Biz yoshlarning estetik va ma’naviy tarbiyasini Bog‘chadan boshlab tarbiyalashimiz darkor. Bola yoshligidan yuksak professional, milliy istiqlol va odamiylik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan musiqa durdonalari asosida tarbiya olishi zarur. Bolalarimizning ma’naviy, madaniy, estetik didni shakllantirish – juda murakkab va mas’uliyatli jarayon. Biz avvalo bu jarayonni boshqara bilishimiz kerak. Bu masalada bizning takliflarimiz:

• Bog‘cha va maktab tizimidagi «Musiqa» darslariga jiddiy e’tibor berish lozim, musiqa fanidagi soatlarni ko‘paytirib, o‘qituvchilarining kasbiy saviyasini o‘stirish tizimini yaratish lozim.

• Bolalar musiqasini yaratuvchi mahsus bastakorlar va shoirlarning sermahsul ijodi uchun, bolalar xor va ansambl jamoalari bilan hamkorlikda yangi asarlar yaratishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratib berishimiz lozim.

• Bog‘cha va maktab bolalari uchun maxsus musiqiy tarbiyaviy dasturga asoslangan musiqiy lektoriyalar tizimini yaratishimiz darkor.

• Bolalar musiqa adabiyotini nashr masalasini davlat o‘z zimmasiga olishi darkor. Bu adabiyotlar davr talabiga mos ravishda bo‘lishi shart.

• Televidenieda bolalar uchun mahsus marifiy-tarbiyaviy musiqa ko‘rsatuvini tashkillashtirish zarur, va bu ko‘rsatuvni faqat professional musiqashunoslari olib borishi shart.

• 14 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli bolalar assotsiatsiyasini tuzib, iste’dodli bolalarning ulg‘ayishida shart-sharoitlar yaratish tizimini ishlab chiqish lozim.

• Bolalar xor xonandaligini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish zarur. Bolalar xor jamoalarini ko‘paytirirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish, va yilda bir marta bolalar xor festivallarini o‘tkazish sharoitlarini yaratib berish darkor.

Biz bugunimizni ham, ertamizni ham musiqasiz, qo‘shiqsiz tasavvur qila olmaymiz. Qo‘shiqchilik janrining rivojlanishi va taraqqiyotini ham jamiyatning taraqqiyotidan aloxida ko‘rib bo‘lmaydi. Jamiyat rivojlanar ekan, qo‘shiqchilik janri ham taraqqiy etadi. Buyuk mutaffakir Aflotun aytgan ekan: «Davlatning, millatning qudratini qay darajada ekanligini bilmoqchi bo‘lsang – uning musiqasini, uning qo‘shiqlarini tingla.» Xaqiqatdan ham, musiqa san’ati har bir davrning aks-sadosi, jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlarning ko‘zgusidir. Ertangi xayotimiz va o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy va madaniy darajasi bugungi yangrayotgan musiqamizga bog‘liqdir.

**Ijro dasturini shakllantirish**. Turli zamonaviy shakl va yo‘nalishlardagi o‘zbek va jahon kompozitorlarining va mashxur estrada yulduzlarining estrada va djaz asarlarini ijro etishdan iboratdir. Unda alohida e’tibor professional ijro darajani mukammallashtirishga, tovush apparatining texnik rivojiga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Mazkur fan yuzasidan talaba davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san’at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

O‘zbekiston estrada xonandalari milliy estrada maktabi an’analarini davom ettirgan xolda klassik va zamonaviy uslublardagi jahon estradasining vokal namunalarida tarbiyalanishlari lozim. Shuning uchun talabalar repertuariga jahon klassik estrada asarlari, zamonaviy kompozitorlarining oxirgi yillarda yaratgan turli uslubdagi estrada va djaz asarlari kiritilgan.

Xususan, amaliy (yakka) mashg‘ulotlarda har bir asarni notaga qarab yoki yoddan ijro etib, tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi. Dasturdagi ayrim asarlar fortepiano jo‘rligida ijro etilsa, ayrimlari fonogramma minus jo‘rligida foydalaniladi. Asar tanlanganida o‘qituvchi talabaning tayyorgarlik darajasi va ovoz diapazoni imkoniyatlarini xisobga olishi shart. Ayrim asarlarni ovoz diapazoniga moslash yo‘lida transpozitsiya (tonallikni 1-2 ton pastga yoki tepaga ko‘tarish) qilinadi.

Yakka mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (mashxur estrada yulduzlari ijrolari yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Tinglangan mashxur xonandaning ijro san’atini tahlil orqali o‘rganish va talabaning o‘z ijrosini taxlil qila bilish, nuqsonlarni bartaraf qila bilish ko‘nikmalari ham qo‘yiladi.

1 kurs magistratura ta’lim jarayonlari mobaynida ijrochilik mahoratini yangi bosqichda o‘zlashtirish uchun dastavval ijro dasturini shakllantirish zarur, bu o‘quv yili boshida amalga oshiriladi. Misol tariqasida ushbu darslikka asos qilib, bir talabaning iqtidorini inobatga olgan holda «Talaba shaxsiy rejasi»ni tuzdik. O‘rtacha ijrochilik mahoratini egallagan talaba uchun namuna sifatida 2-o‘quv yiliga quyidagi ijro dasturini tavsiya etaman.

2-SEMESTRGA IJRO DASTURI NAMUNASI:

**Ayol ovozlar uchun:**

1. Estrada-jaz yo'nalishidagi vokaliz sifatida D.Amanullayevaning vokaliz №20;
2. Vatanparvarlik ruhidagi asar sifatida: «Iftixor» asari. D.Amanullayeva musiqasi, N.Narzullaev she'ri;
3. Estrada romansi, ashula yoki ballada sifatida: A.Pugachyova dasturidan «Tri schastlivix dnya» balladasi;
4. O'zbekiston kompozitorlarining estrada yoki jaz asari sifatida D.Amanullayevaning «Unutmadim» qo'shiq-balladasi;
5. Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan djaz asari sifatida Lara Fabian dasturidan «Je suis malade» (fransuz tilida);

**Izoh:** 2ta asar o'zbek tilida, 1ta asar Rossiya kompozitorlari dasturidan, 1ta asar g'arb davlatlari tillarida (ingliz, fransuz yoki italyan) ijro etilishi shart.

**Erkak ovozlar uchun:**

1. Estrada-jaz yo'nalishidagi vokaliz sifatida D.Amanullayevaning vokaliz №22;
2. Vatanparvarlik ruhidagi asar sifatida: «Vatan xayotdek aziz» asari – D.Amanullayeva musiqasi, Z.Mo'minova she'ri;
3. Estrada romansi, ashula yoki ballada sifatida: «Noktyurn» A.Babadjanyan musiqasi;
4. O'zbekiston kompozitorlarining zamonaviy estrada asari sifatida: «Unutmadim» ballada. D.Amanullayeva musiqasi, M.Omon she'ri;
5. Improvizatsiya elementlari mavjud bo'lgan djaz asari sifatida: Frenk Sinatra dasturidan «My Way» qo'shig'i (ingliz tilida);

SAVOLLAR:

1. O'zbekistonda qaysi tashkilot estrada san'atkorlariga litsenziya beradi?
2. O'zbeknavo estrada birlashmasi qachondan beri faoliyat olib bormoqda?
3. O'zR Prezidenti Islom Karimovning qaysi asarlarida estrada san'atiga baho berilgan?
4. Sizningcha O'zbekistonda estrada san'atini yaxshilash bo'yicha qanday choralar ko'rish kerak?
5. 5A150601 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) ta'lim yo'nalishida ta'lim dasturlarini amalga oshirish qanday normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimga solingan bo'ladi?
6. Talaba 1 o'quv yili mobaynida qaysi janr va yo'nalishlardagi asarlarni ijro etishi shart?

TOPSHIRIQLAR:

1. «Estrada xonandaligi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha qanday o'quv – uslubiy adabiyotlari mavjudligini o'rganib keling.
2. Vokaliz, romans, ballada, kompozitsiya, ashula asar tushunchalarini ensiklopediya va boshqa manbalardan toping, keyingi darsda ustozingizga so'zlab bering.
3. Estrada xonandaligi va pedagogikasi bo'yicha kafedra o'qituvchilarining ilmiy-uslubiy maqolalarini konservatoriya o'qituvchilari maqolalari to'plamlaridan toping va tanishing. Keyingi darsda o'qituvchingizga fikrlaringizni ayting.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:


1. I.A.Karimov. «Istiqlol va ma'naviyat». T., «O'zbekiston» 1994.
2. I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., «Ma'naviyat» 2008
3. D.Omonullayeva. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasida musiqa san'atining o'rni. O'zR Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasida magistrlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.. 1998 y. Qo'lyozma xuquqida.
4. A.Erkayev. Ma'naviyat – millat nishoni. T., 1997.
5. D.Amanullayeva «Estrada va jaz vokalizlari» OTM uchun o'quv qo'llanma, T., 20 b.t. «Musiqa» 2014.

6. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
7. D.Amanullayeva, N.Amanova «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;

## 42–45-DARSLAR: O‘zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asarlari

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining bakalavriat va magistratura bosqichidagi mutaxassislik fanlarining o‘quv dasturidan ajratilmas holda Vatanparvarlik ruhidagi vokal asarlari keng joy olgan. Bu asarlar ijrosi orqali talabaning nafaqat Vatanga bo‘lgan muhabbat his tuyg‘usini, tafakkurini tarbiyalaymiz, balki ko‘plab o‘quv-pedagogik va badiiy – ijodiy masalalarni hal etishimiz mumkin. Vatanparvarlik ruhidagi asarlar badiiy tafakkur, hissiy ta’sirchanlik rivoji doirasida talabalar uchun juda foydali materialdir. Ular ijrosida talaba yirik shakldagi keskin xarakterlardagi obrazlarni ifodalashni, butun musiqiy boylikni va ta’sirchanlik imkoniyatlarini ishlatmoqni o‘rganadi.

Vatanparvarlik asarlari asosida yosh avlodni va jamiyatni xaqiqiy vatanparvar millat etib, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli va taraqqiyoti yo‘lida fidoiy hizmat qilish va kurashishni tarbiyalash, insonning ongiga Vatan tuyg‘usini, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularinin singdirish mumkin. Prezidentimiz Vatanga muhabbat tuyg‘usi xaqida gapirar ekan, «Tarix haqiqati shuni ko‘rsatdiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.» (I.Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida 90 bet) Yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlarning kuchi va ahimyati katta.

Musiqaning dinamik o‘zgaruvchanligi va o‘sishi, tonallikning modulyasiyalari, garmonink tizimiining nozik va ta’sirli ranglari, she’riy matndagi chuqur g‘oyalar - xonandaninig talqinida erkin va samimiy yoritilishi darkordir. Vatanparvarlik asarlaridagi samimiy va ta’sirli she’riy misralari ijrochilardan nozik va qalbdagi samimiy ovoz tembrlarini yurg‘azishni talab etsa, dramatik xolatga keskin o‘zgargan naqarotlar keng ko‘lamli, pafosli, g‘urur bilan to‘la yorqin tovushli ifodani talab etadi. Ushbu keng miqyosdagi asarlar magistr talabalariga to‘g‘ri nafas va vokal texnikasini, manerali ijroni, tovushning filigran filirovkasini, intonatsion ifodaviylikni, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni, ijodiy fikrlash va yuqori artistik mahoratni, garmonik va ritmik eshitish qobiliyatini, nozik didni va sahnaviy chidamlilikni tarbiyalashga imkon yaratib beradi.

**Erkaklar ijrosi uchun:**

**«Vatan hayotdek aziz»** – D.Amanullayeva musiqasi, Zulfiya Mo‘minova she’ri. 2012 yilda yozilgan.

Mazkur qo‘shiq – qahramonning Vatanga bo‘lgan muhabbati haqidagi o‘ziga hos kichik musiqiy doston – poema desak bo‘ladi. She’r misralariga nazar solsak, unda shoir yaxshi insonlarning Vatanga bo‘lgan muhabbati, munosabati, Vatanning qadri xayotdek va Onadek azizligi xaqidagi yuksak va olijanob g‘oyalarni olg‘a surgan. Ushbu so‘zlardan kelib chiqib, musiqa matosi ham o‘ziga hos nozik va ta’sirli kechinmalarni lad orqali garmonik minor tovushqatorida ifoda etgan. Bu lad asardagi she’rning ta’sirini kuchaytirilgan alfozda ochib bergan. Shu ma’noda, musiqaning lad-garmonik strukturasi nafaqat asarni bezaydi, balki she’r g‘oyasini yana ham ta’sirli chiqishiga, xonandaga lirik-dramatik obrazli yorqin artistik holatlarni ochib berishga yordam beradi.

Ushbu juda go‘zal, monumental konsert asari naqarotli kuplet shakliga ega. Asarning kirish cholg‘u qismidagi garmonik minor ladidagi qayishli lastik ohangi xonandani obrazga va psixologik holatga kirishiga yordam beradi. Qo‘shiqning ranglarga boy melodiyasi nozik lirik kechinmalardan boshlanib, 21chi taktdan boshlab dinamik tarzda kuchayadi, va naqarot qismida kuchli shijoatli rakursda dramatik avjni hosil qiladi. Baland tessituradagi avjli naqarot asarning dramaturgiyasidagi markaziy qismi bo‘lib, unda she’rdagi eng ta’sirli so‘zlar yangraydi. Ijro bo‘yicha naqarot – qo‘shiqning eng murakkab qismi bo‘lib, ijrochidan diapazoni

keng dramatik ovozni, tirgakli tovushlarni, to'g'ri taqsimlangan nafasni, chuqur extirosli dramatik va ta'sirli ijro talqinini talab etadi.

Asar ijodiy fikrlashga, intellektning rivojiga, tovush filirovkasi va nafas texnikasini rivojiga imkon beradi. Ushbu qo'shiq ijrochilarga o'z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

Notada keltirilgan variant re majorda – tenor ovozlari uchun berilgan. Baritonlar ovozlari uchun lya minor tonalligi ijroda qulay bo'ladi. Fortepiano jo'rligida ijro etish tavsiya etiladi.

**Ayollar ijrosi uchun:**

**«Iftixor»** asari atoqli qo'shiqchi shoir Normurod Narzullaev she'riga buyurtma bo'yicha D.Amanullayeva tomonidan yaratilgan. Buxoro viloyatining Mustaqillik davlat konsert dasturining yakuniy qo'shig'i sifatida yozilgan. Buxorolik iste'dodli xonanda, go'zal va yorqin ovoz sohibasi, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist Yulduz Turdieva ijrosida ilk bor 2005chi yilda Mustaqillik bayramida yangragan bu qo'shiq, yoshlar orasida mashhur bo'lgan. Asar ko'p yillardan beri boshqa iqtidorli yosh xonandalar ijrosida Buxoro viloyatining davlat konsertlarini bezab kelmoqda.

Magistratura o'quv dasturiga kiritilgan ushbu qo'shiq konservatoriyada tahsil olayotgan Buxorolik talabalar ijrosida o'zlashtirilib, kafedraning konsert tadbirlarida va bitiruv dasturlaridan joy olib kelmoqda.

Qo'shiq ikki kuplet va koda – tugatish qismidan iborat. Ushbu monumental asar simfonik konsepsiyasida yaratilgan bo'lib, uni estrada simfonik orkestri jo'rligidagi ijroga tayyorlash zarur. Ko'lami keng, yirik dramatik asar faqat orkestr jo'rligidagi talqinda to'laqonli yangraydi.

Qo'shiqning she'riy misralariga axamiyat bersak, unda:

*«Bizlar hyech kimdan ham hyech kam emasmiz,*

*Bizlar hyech kimga ham qaram emasmiz!»* – muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning halqimizga ko'p marotaba so'zlagan fikrlari, sitata sifatida qo'shiqning Naqarot qismida shoir tomonidan o'ta mohirona ishlatilgan. Bu misralar musiqa ohang-xarakterida ham keskin va shijoatli maqomda yangraydi. Aynan ushbu misralarni kuchliroq, serg'ayrat va keskin dramatik xarakterda ijro etish lozimdir. Bu yerda xonandaning solo ovozi bek-vokal ansamblidagi akkordlar bilan to'ldirilgan.

Dastlabki instrumental kirish qismidagi keng melodiya (1-16chi taktlar) sinkopalar bilan asarga jadallik xarakterini kiritadi. Bu cholg'u qismi «sving» yo'nalishida zabardast ijro etilishni talab etadi. Unda ozod Vatanimizga bo'lgan iftixor tuyg'ulari chizilgan. Xonanda asarni boshidan ohirigacha baland iftixor tuyg'usida ijro etishi lozim. 17-32 taktlar soul yo'nalishida, nozik lirik tuyg'udagi samimiy ijroni talab qilsa, Naqarot qismini keskin shiddat bilan dramatik alfozda ijro etish talab etiladi.

Yakunlovchi Koda qismi esa, g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan pafosli va keng, madhiyavor ijroni talab etadi. Bu qismdagi major tonalligidagi yangi tantanavor musiqiy mato asarga yangi bayramona va quvonch ranglardagi ruhni kiritgan.

Asar simfonizm konsepsiyasi bilan yo'g'rilgan. Ushbu yirik janrdagi simfonik vokal asar rang-barang va qarama qarshi obrazlarning keskin kontrast o'zgarishi bilan ijrochiga psixologik qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Shuning uchun asar tayyorgarligi baland magistr talabasi, yoki assistentura stajyorining ijro dasturiga tavsiya etiladi.

Notada keltirilgan tonallik (lya minor) ayollar ovoziga - metsso sopranolarga mosdir. Tenor ovozlari uchun re minor tonalligi to'g'ri keladi.

Darslik ilovasida berlgan kompakt disk audio yozuvida ushbu qo'shiq O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist Yulduz Turdieva ijrosida berilgan.

**Izoh**: Boshqa D.Amanullayevaning vatanparvarlik mavzusidagi asarlarining nota klavirlarini va uslubiy tavsiyalarini «Estrada xonandaligi» Magistratura uchun o'quv qo'llanmasida (2015) topishingiz mumkin. Yana «Mustaqillik qo'shiqlari». T., 2000 - to'plamida A.Nazarov, A.Ikromov, D.Ilyosov, A.Mansurov, N.Norxo'jaev, A.Rasulovlarining vatanparvarlik mavzusidagi asarlarini topishingiz mumkin.

Ushbu notalarga qarab asarlarning nota va she'r matnini o'rganing, analiz qiling.

# ВАТАН ҲАЁТДЕК АЗИЗ
# VATAN HAYOTBEK AZIZ

Зулфия Мўминова шеъри
Zulfiya Mo‘minova she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqas




ни-ма бор, ай-тинг, Ва-тан - да гул-ла- гай у-мр - лар фас-ли.
ni-ma bor, ay - ting, Va-tan - da gul-la- gay u-mr - lar fas - li.
Ба-ра-ка ё-ғил-гай да-ла - ла-ринг-да, Бу-хо-рий на-фа-си
Ba-ra-ka yo-g‘il-gay da-la - la-ring - da, Bu-xo-riy na-fa-si
8va
ду-о - ла-ринг- да. Ҳеч ким-га қа-рам-мас, ҳеч ким-га то-бе,
du- o - la - ring - da. Hech kim-ga qa-ram-mas, hech kim-ga to-be,
8va
Те - му - рий ши-жо - ат бо - ла - ла-ринг - да.
Te - mu - riy shi - jo - at bo - la - la - ring - da.


Нақарот:
Naqarot:
Ва - тан - ю - рак - лар - да
Va - tan - yu - rak - lar - da
жон, Ва - тан ҳа - ёт - дек а - зиз.
jon, Va - tan ha - yot - dek a - ziz.
Ва - тан - ни сев - ган - лар, Ва - тан - ни сев - ган - лар, Ва - тан - да а - зиз,
Va - tan - ni sev - gan - lar, Va - tan - ni sev - gan - lar, Va - tan - da a - ziz,
Ва - тан - да а - зиз.
Va - tan - da a - ziz.
ff
mart, 2015

Оламни асрагай яхшилик асли,
Ватан деб яшайди яхшилар насли,
Ватандан муқаддас нима бор, айтинг,
Ватанда гуллагай умрлар фасли.

Барака ёқилгай далаларингда,
Бухорий нафаси дуоларингда.
Ҳеч кимга қараммас, ҳеч кимга тобе,
Темурий шижоат болаларингда.

Нақарот:

Ватан – юракларда жон,
Ватан ҳаётдек азиз.
Ватанни севганлар, Ватанни севганлар,
Ватанда азиз, Ватанда азиз.

Ватансиз бахт топган борми жаҳонда,
Ватансиз шодлик йўқ таҳти равонда.
Ватан балолардан асровчи паноҳ,
Ватансиз олтин бош тошга нишонда.

Онага эгилар ою-юлдузлар,
Она атрофида айланар олам.
Онасиз қандайин яшайди олам,
Онасиз қандайин яшайди одам?

Нақарот.

Ватан – юракларда жон,
Ватан ҳаётдек азиз.
Ватанни севганлар, Ватанни севганлар,
Ватанда азиз, Ватанда азиз.

Olamni asragay yaxshilik asli,
Vatan deb yashaydi yaxshilar nasli,
Vatandan muqaddas nima bor, ayting,
Vatanda gullagay umrlar fasli.

Baraka yog‘ilgay dalalaringda,
Buxoriy nafasi duolaringda.
Hech kimga qarammas, hech kimga tobe,
Temuriy shijoat bolalaringda.

Naqarot:

Vatan – yuraklarda jon,
Vatan hayotdek aziz.
Vatanni sevganlar, Vatanni sevganlar,
Vatanda aziz, Ватанда азиз.

Vatansiz baxt topgan bormi jahonda,
Vatansiz shodlik yo‘q tahti ravonda.
Vatan balolardan asrovchi panoh,
Vatansiz  oltin bosh toshga nishonda.

Onaga egilar oyu-yulduzlar,
Ona atrofida aylanar olam.
Onasiz qandayin yashaydi olam,
Onasiz qandayin yashaydi odam?

Naqarot.

Vatan – yuraklarda jon,
Vatan hayotdek aziz.
Vatanni sevganlar, Vatanni sevganlar,
Vatanda aziz, Ватанда азиз.

# ИФТИХОР
# IFTIXOR

Нормурод Нарзуллаев шеъри
Normurod Narzullayev she'ri

Дилором Аманyллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi




Нақарот:
Naqarot:
patetic
Биз-лар ҳеч ким-дан ҳам ҳеч кам э-мас-миз,
Biz-lar hech kim-dan ham hech kam e-mas-miz,
биз-лар ҳеч ким-га ҳам қа-рам э-мас-миз!
biz-lar hech kim-ga ham qa-ram e-mas-miz!
Тенг-лар ич-ра тенг-миз, о-зод Ва-тан-миз,
Teng-lar ich-ra teng-miz, o-zod Va-tan-miz,
у-луғ ҳалқ, мил-лат-миз, гў-зал ча-ман-миз!
u-lug‘ halq, mil-lat-miz, go‘-zal cha-man-miz!
// зал ча-ман-миз!
// zal cha-man-miz!
Coda
// миз!
// miz!
Ва-тан меҳ-рин қал-би-миз-га нақш э-тай-лик,
Va-tan meh-rin qal-bi-miz-ga naqsh e-tay-lik,
шу эл у-чун жо-ни-миз-ни бахш э-тай-лик!
shu el u-chun jo-ni-miz-ni baxsh e-tay-lik!
Жо-ни-миз-ни бахш э-тай-лик! Жо-ни-миз-ни бахш э-тай-лик!
Jo-ni-miz-ni baxsh e-tay-lik! Jo-ni-miz-ni baxsh e-tay-lik!

Ардоқлаб яшайман қувончларингни,
Ташвишу ғамларинг кўраман баҳам.
Қанийди оқлолсам ишончларингни,
Сен-ла ҳамнафасман, онажон ўлкам.

Ўзимга оламан дардларингни мен,
Гар оғриса жонинг, малҳам бўламан.
Асраб кўзларимда мардларингни мен,
Ёнингда хушёру бардам бўламан.

Нақарот:

Бизлар ҳеч кимдан ҳам ҳеч кам эмасмиз,
Бизлар ҳеч кимга ҳам қарам эмасмиз!
Тенглар ичра тенгмиз, озод Ватанмиз,
Улуғ ҳалк, миллатмиз, гўзал чаманмиз!

Умид билан яшар покиза инсон,
Танлаган йўлимиз, баҳомиз бордир.
Етар манзилига сарбонли карвон,
Доно йўлбошчиси – даҳомиз бордир.

Эзгулик фарзанди аслида одам,
Кўтариб яшайлик қуёшдай бошга.
Биз билан бу олам азиз, мукаррам,
На даркор инсонга меҳрдан бошқа.

Нақарот.

Бизлар ҳеч кимдан ҳам ҳеч кам эмасмиз,
Бизлар ҳеч кимга ҳам қарам эмасмиз!
Тенглар ичра тенгмиз, озод Ватанмиз,
Улуғ халк, миллатмиз, гўзал чаманмиз!

Кода:
Ватан меҳрин қалбимизга нақш этайлик,
Шу эл учун жонимизни бахш этайлик.
Жонимизни бахш этайлик!

Ardoqlab yashayman quvonchlaringni,
Tashvishu g'amlaring ko'raman baham.
Qaniydi oqlolsam ishonchlaringni,
Sen-la hamnafasman, onajon o'lkam,

O'zimga olaman dardlaringni men,
Gar og'risa joning, malham bo'laman.
Asrab ko'zlarimda mardlaringni men,
Yoningda hushyoru bardam bo'laman.

Naqarot:

Bizlar hech kimdan ham hech kam emasmiz,
Bizlar hech kimga ham qaram emasmiz!
Tenglar ichra tengmiz, ozod Vatanmiz,
Ulug' halq, millatmiz, go'zal chamanmiz!

Umid bilan yashar pokiza inson,
Tanlagan yo'limiz, bahomiz bordir.
Yetar manziliga sarbonli karvon,
Dono yo'lboshchisi – dahomiz border.

Ezgulik farzandi aslida odam,
Ko'tarib yashaylik quyoshday boshga.
Biz bilan bu olam aziz, mukarram,
Na darkor insonga mehrdan boshqa.

Naqarot.

Bizlar hech kimdan ham hech kam emasmiz,
Bizlar hech kimga ham qaram emasmiz!
Tenglar ichra tengmiz, ozod Vatanmiz,
Ulug' halq, millatmiz, go'zal chamanmiz!

Koda:
Vatan mehrin qalbimizga naqsh etaylik,
Shu el uchun jonimizni baxsh etaylik!
Jonimizni baxsh etaylik!

SAVOLLAR:
1. Vokal texnikasi va imkoniyatlarini rivojlantirish uslublarini aniqlang.
2. Dasturda berilgan Vatanparvarlik mavzusidagi asarlarning estetik mohiyati.
3. Vatanparvarlik ruhidagi asarlarning barkamol yoshlar tarbiyasidagi o'rni.
4. Vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarni o'quv protsessiga joriy etilishining sabablari.

VAZIFALAR:
1. «Iftixor» asarining shakli va stilistik yo'nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Vatan xayotdek aziz» asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Darslik ilovasida berlgan kompakt disk audio yozuvidagi ushbu qo'shiqlarni tinglang, qo'shilar shakli, ijro dramaturgiyasini mustaqil analiz qiling va o'zingizga belgilab oling.
4. Ijro dasturingizdagi «Iftixor» yoki «Vatan xayotdek aziz» asarlarini 1chi kupletini notaga qarab o'rganing va keyingi darsda o'qituvchingizga ijro etib berasiz.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. I.A.Karimov. «Istiqlol va ma'naviyat». T., «O'zbekiston» 1994
2. I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., «Ma'naviyat» 2008

3. D.Omonullaeva. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasida musiqa san’atining o‘rni. O‘zR Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasida magistrlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.. 1998. Qo‘lyozma xuquqida.
4. A.Erkayev. Ma’naviyat – millat nishoni. T., 1997.
5. D.Amanullayeva «Estrada va jaz vokalizlari» OTM uchun o‘quv qo‘llanma, T., 20 b.t. «Musiqa» 2014;
6. D.Amanullayeva «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015.
7. D.Amanullayeva, N.Amanova «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010.

## 46-50 DARSLAR.
## 1. Kafedra talabalari ishtirokidagi «O‘zbek asarlarining eng yaxshi ijrochisi» mavzudagi tanlovga tayyorgarlik ko‘rish.
## 2. Estrada romansi, balladasi ashula shaklidagi yangi asarlar bilan tanishish va o‘zlashtirish

23-25chi xaftalarda yakka darslarda ijro etish ko‘nikmalarini va ijro mahorati ustida ish olib boriladi.

Darslarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Jaz vokalizinig ijrosi
3. Vatanparvarlik ruhidagi o‘zbek asarini ijro etish;
4. **O‘zbekiston kompozitorining estrada yoki jaz asari bilan tanishish.**
5. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**1. Vokal mashqlari**

Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.






Quyidagi mashq katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, oʻrta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Stakkato texnikasidagi 28chi mashqni toʻla va toza bajarishga intiling.



Ovoz tesnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.




29-31 mashqlarda katta va uzun nafas ishlating. Yuqori tessturadagi eng baland notalarni dadil ijro etishga intiling.

2. Vokalizlarni tanlash va ijro dramaturgiyasini belgilab olish.

Vokalizlarni tanlashda har bir talabaning tayyorgarligi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, individual tarzda yondoshish lozim. Har bir talabaning ovoz apparati xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlash zarur. Notada ko'rsatilgan har bir musiqiy belgilarni va nafas olish setkasini talaba ongli ravishda tushunib bajarishi lozim. Texnik xarakterdagi vokalizlarni sekin tempdan boshlab, asta-sekin tez tempga o'tib ijro etish darkor.

Kuylashda talabadan maksimal ravishda alohida passajlarda sadoning (intonatsiyaning) sofligini talab etish zarur. Vokaliz ustida ishlagan paytda, talabani nafaqat texnik qiyinchiliklarni bartaraf etishiga, balki ularning musiqiy badiiyligi va emotsional mazmuni bilan qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim. Qulay tanlangan vokalizlar kelajakda talabaga har qanday texnik va badiiy stilistik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Vokalizlarni kuylash jarayonida quyidagi jihatlarga asosiy urg'uni qaratishingiz lozim:

a) kantilena silliqligini rivojlantirish;
b) tovushning professional darajadagi filirovkasini egallash;
d) nafas olish texnikasini rivojlantirish;
e) ovoz dipazonini kengaytirish;
f) estrada- djaz stilistikasini egallash;
g) garmonik intonatsiyani rivojlantirish;
i) pop va djaz musiqasining zamonaviy ritmlarini egallash;
g artistizm va badiiylikni rivojlantirish;
k) ijodiy fikrlash va ijroda ijodiy yondoshish;
l) yuksak badiiy didni tarbiyalash; ko'zda tutilgan;
m) fizik va saxnaviy chidamlilikni rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Dars jarayonida qo'yiladigan asosiy vazifa, ijroda muallifning asarda ko'rsatilgan asosiy ijodiy va texnikaviy talablarini to'la to'kis ifoda etishga qaratilishi lozim. Tashqi ko'rinishi go'zal bo'lgan holda ham, asarni g'oyaviy mazmunini ifoda eta olmagan talqin, ijrochini va tinglovchini qoniqtira olmaydi.

**Ayol ovozlari uchun:**

**Vokaliz №20** – Fransiyaning takrorlanmas va afsonaviy xonandasi Edit Piafga bag'ishlangan ushbu vokaliz ma'noli dinamik intonatsion ohangda qurilgan. O'zgaruvchan dinamik musiqiy frazalar ikkita faktura usulidan iborat: minor akkordlarining tepaga intilgan

zalvorli arpedjio oktavaning cho‘qqidagi tayanch tovushida tasdiqlanib, subdominanta va dominanta garmoniyasi yonida mayda notali passajlar kuylashuvida tugallanadi. Talaba bilan ishlaganda undan mayda o‘noltitalik passajlarni to‘g‘ri ritmik va intonatsion sofligini talab etish darkor.

Bu vokalizni «uchtovushli arpedjio vokalizi» deb tasvirlash mumkin. U garmonik va ritmik eshitish qobiliyatini tarbiyasiga, ovoz chidamliligi va diapazon kengayishiga, keng nafas, artistik mahorat malakalarining rivojiga ko‘maklashadi.

Auftaktdan (an’anaviy musiqada «ist» deb atalib kelingan) boshlangan punktir ritmdagi musiqa o‘zinig bo‘ysunmas quvvati, zalvorli va aniq ritmik ijrosi bilan tinglovchini qamrab olishi kerak. Maqsad sari intiluvchanlik hissi kuydagi tayanch tovushlarining qat’iy ta’kidlari orqali yangraydi. Ushbu vokalizni tanlashda talabaning texnik tayyorgarligi va vokal imkoniyatlarini, fizik chidamliligini e’tiborga olgan holda yondoshish lozim.

Talaba ongli ravishda muallif ko‘rsatgan musiqiy dinamik belgilarni to‘g‘ri ifoda etishi lozim. Intervallarga sakrash tovushlarni, mayda o‘noltitalik notalarni ijrosida intonatsiyaning sofligiga, artikulyasiya va ritmning ravshanligiga, to‘g‘ri nafasda ishlashga ahamiyat qilish lozim. Asarda asosiy urg‘u dinamik aksentlarga, intonatsiyaning sofligiga, to‘g‘ri chuqur nafas setkasiga, zalvorli intiluvchan xarakter ifodasiga qaratilishi lozim.

Texnik xarakterdagi bu vokalizni sekin suratdan boshlab, asta-sekin tez suratga o‘tib ijro etish tavsiya etiladi. Ijroda alohida murakkab passajlarni intonatsion sofligini talab etish lozim. Vokaliz ustida ishlagan paytda, talabani nafaqat texnik qiyinchiliklarni bartaraf etishiga, balki ularning musiqiy badiiyligi va ehtirosli mazmunini yorqin ifodasi ustida ko‘proq ishlash yaxshi natijalarga olib keladi.

Tez suratdagi bu vokalizni faqat «Fa-farafa» ifodasi bilan ijro etish tavsiya etiladi.

**Erkak ovozlari uchun:**

**Vokaliz № 22** – Etno-djaz stilida yaratilgan ushbu asar murakkab vokalizlardan biri hisoblanib, manerali ijro uchun mo‘ljallangan. Ushbu vokaliz Ozarbayjonda etno-djazning yaralishi va rivojlanishida katta hissa qo‘shgan mashhur djaz kompozitori va ijrochisi Vagif Mustafa Zoda xotirasiga bag‘ishlangan. Shuni quvonch bilan ta’kidlash lozimki, uning qizi – bugungi kunda dunyoda mashhur bo‘lgan iste’dodli kompozitor, xonanda ijrochi Aziza Mustafa Zoda otasining ijodiy ishini davom ettirib, samarali ijod va yuqori darajaga erishdi. Aziza Mustafa Zodaning ajoyib iste’dodi va go‘zal avangard musiqasidan zavqlanib ushbu asar yaratildi.

Uch qism shaklidagi asar o‘zgaruvchan sinkopali, frigiya ladi asosidagi ohangda qurilgan. O‘rta qismida garmonik minor ladidagi ohang yarim ton tepaga modulyasiya qilinib yangraydi. Ma’noli musiqaning mazmuni nozik tasvirda va nozik nyuansli garmonik modulyasiyalarda vokal va fortepiano ohanglarida ifodalangan. Vokal ohangning intonatsion tuzilmasini ma’nosini faqat fortepiano jo‘rligidagi birgalikdagi mashqlarda tushunish mumkin.

Tersiya va kvartaga sakrashli o‘tkir sinkopali ohang o‘noltitali passajlar bilan to‘ldirilgan. Ijrochidan ma’noli va aniq intonatsion ijroni talab etadi. Asarning murakkabligi, nazarimizda, ko‘pqirrali ritmik va lad-intonatsiya aylanmalaridadir. Faqat nozik improvizatsion ijroda ularni bezash mumkin. Bu ijrochidan ostinato sinkopali sakkiztali notalarni va mayda o‘noltitali passajlarni asarning ritmik setkasi ichida rivojlangan qobiliyat orqali his etish va uslubiy ijro etishni talab etadi.

Asarning musiqiy obrazi o‘tkirlashgan eshitish va egiluvchan garmonik ohang yo‘nalishini nozik nyuansirovkasida belgilanadi. Shaksiz, vokalizni o‘zlashtirmoq rahbar va jo‘rnavoz birgaligida puxta shug‘ullanishni talab etadi. Bu vokalizning qimmatliligi uning badiiy sahnaviy asarligida bo‘lib, ijrochiga intellektning rivojini, manerali ijroni, tovushning filigran filirovkasini, garmonik va ritmik sluxni, nozik didni tarbiyalashda imkoniyat yaratib beradi.

Intonatsiya va ritmik jihatdan murakkab hisoblanmish bu vokalizni faqat «Fa-farafa» yoki «Na-nana» ifodasi bilan ijro etish tavsiya etiladi.

Tanlangan va keltirilgan ikkala vokaliz ham jaz yo‘nalishida, soul texnikasini rivojiga va artistik mahorat qirralarini rivojiga qaratilgan bo‘lib, ularni ikkalasini ham sinfda ham ayol, ham erkak ovozlarida tayyorlash tavsiya etiladi. Oraliq nazoratga faqat bittasini ijrosini sahnaga olib chiqish lozim. Ikkala vokalizning ijrosi talabalarning yangi professional qirralarini ochib berishda foydalidir. Vokalizlarni notaga qarab kuylang.

*Afsonaviy Edit Piafga bag'ishlanadi.*

# VOKALIZ № 20

Dilorom Amanullayeva




f
mf
f
mf
mf
cresc.


f
f
ff
rit.
ritard.
f
mf
mf
8vb

*Vagif Mustafa-Zodaga bag'ishlanadi.*
*Посвящается Вагифу Мустафа-Заде.*

# ВОКАЛИЗ №22

ДИЛОРОМ АМАНУЛЛАЕВА

**Moderato con moto**




mf
mf
p
p
f
f
8va


(8)
mf
p
rit.
A tempo
mf
mf



**3. Vatanparvarlik ruhidagi asarlarni ustida ish olib borish.** Ijroda:
- Ovoz diapazonining kengligini ko'rsatmoq;
- Rivojlangan texnik ijroni ko'rsatmoq (nola, glissando, sket, forshlag va xokazo)
- Tovushning erkin filirovkasi;
- Rivojlangan va erkin tirgakli tovush;
- Asarlardagi badiiy obrazni ko'rsatmoqqa xarakat qilish kerak bo'ladi.

Jo'rnavoz bilan repetitsiyalar orqali ishlaganda ushbu yirik shakldagi Vatanparvarlik mavzusidagi asarlarda musiqaning lad-garmonik strukturasini, she'r g'oyasini yana ham ta'sirli chiqishiga, lirik-dramatik obrazli yorqin artistik holatlarni ochib berishga xarakat qiling.

4. Ayollar va erkaklar repertuaridagi o'zbekiston kompozitorining zamonaviy estrada yoki jaz asari:

**«Unutmadim»** – yorqin va murakkab konsert balladasi, D.Amanullayeva musiqasi, iqtidorli shoir Muxiddin Omon she'riga 1996 yilda yaratilgan. Asar texnik ijro jixatidan murakkabligi va baland tessituradagi dramatik ovozni talab etgani sababli, xozirgi davrgacha o'zining xaqiqiy ijrochisini topmadi. Bir necha marta muallif ijrosida O'zDKning Katta zalida, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Alisher Ikromov rahbarligidagi milliy estrada orkestri jo'rligida ijro etilgan. Ballada talabalarning o'quv dasturiga kiritilib, ularning talqinida ijodiy yondoshishini, ijodiy fantaziyasini ishlatishga mo'ljallangan.

Asar ikki kupletli va naqarotli, yiriklashtirilgan shaklda fyujn yo'nalishida yozilgan. Uning formulasi quyidagicha:

| Birinchi kuplet | Ikkinchi kuplet |
|---|---|
| A – B – C | A – B – D – C |

A qismi – cholg'u kirish qismi, uning musiqiy matosi S qismidagi naqarot ohangining o'zgartirilgan, variatsiyalashtirilgan maqomida yozilgan. Lirik dramatik xarakterda boshlanadi, va 8-9chi taktlarda dinamika pasayib, xonandani lirik xarakterdagi ijroga tayyorlaydi.

B qismi – xonanda ijrosidagi kuplet qismi bo'lib, u lirik ohangda boshlanadi. She'riy so'zlarni rechitativlashgan yo'nalishda, aniq va ta'sirli ifodasida ijro etish talab etiladi. 20chi taktdan dinamika kuchayib, dramatik xolatdagi naqarot qismiga kirib keladi.

C qismi – refren rolini bajaruvchi Naqarot qismi. «*Unutmadim, unutmadim, unutolmadim*» so‘zlari bilan ijro etiladigan baland pardalardagi naqarot, jo‘shqin va chuqur dramatik xissiyotlardagi xarakterga ega. U tirgakli tovushlar asosidagi tez xarakatlangan, texnik ijroni talab etadi.

D qismi – epizod ro‘lini bajaruvchi eng ta’sirli, eng dramatik markaziy qism. She’rning eng ta’sirli misralari ushbu dinamika bilan to‘ldirilgan kulminatsiya qismida yangraydi (31-38chi taktlar). Ushbu eng baland avj qismi dramatik ruhdagi, jazavali ijroni talab etadi. Unda ijrochi yangi ta’sirchan qiyofada, badihaviy djaz yo‘nalishida, baland tessituradagi tirgakli tovushlarda, ehtirosli va keng ko‘lamli ijroni ko‘rsatishi lozim bo‘ladi.

Balladaning murakkabligi nafaqat musiqaning xarakter almashuvi va baland tessiturali kulminatsiyalarda, balki asarning yirikligi va keng ko‘lamligidadir. Asarning talqini ijrochidan vokal va jismoniy chidamliligini, puxta tayyorgarligini, ichki dunyosining kengligini, ijodiy yondoshishni, artistik mahoratni, va yangi stilistik qiyofani aks ettirishni talab etadi.

Asardagi tonallik ayollar ovozi uchun berilgan. Tenorlar tonalligi – re minorga to‘g‘ri keladi. Undan «Orkestr jo‘rligida ijro mahorati» fanida ham foydalansa bo‘ladi.

# УНУТМАДИМ
# UNUTMADIM

Муҳиддин Омон шеъри
Muhiddin Omon she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi

**Moderato con moto**




p
Ха-зон-лар баґ-ри-дан ба - хор ис-та-дим, гу-ноҳ-лар ху-ни-га қах-
Xa-zon-lar bag'-ri- dan ba - xor is-ta-dim, gu-noh-lar xu-ni-ga qax-
p
mf
хор ис-та-дим. Гар-чи у-нут-моқ-ни бис - ёр ис-та-дим,
xor is-ta-dim. Gar-chi u-nut-moq-ni bis - yor is-ta-dim,
mf
на қи-лай, се-ни ёр, у-ну-тол - ма-дим... Гар-чи у-нут-моқ-ни бис-
na qi-lay, se-ni yor, u-nu-tol - ma-dim. Gar-chi u-nut-moq-ni bis-
cresc.
ёр ис-та-дим, на қи-лай, се-ни ёр, у-ну - тол - ма - дим.
yor is-ta-dim, na qi-lay, se-ni yor, u-nu - tol - ma - dim...


cresc.
У-нут-ма-дим, у-нут - ма-дим,
U-nut-ma-dim, u-nut - ma-dim,
у-ну-тол - ма-дим,
u-nu-tol - ma-dim,
у-нут-ма-дим, се-ни ёр, у-ну-
u-nut-ma-dim, se-ni yor, u-nu
тол - ма-дим.
tol - ma-dim.
У-нут-ма-дим, у-нут - ма-лим,
U-nut-ma-dim, u-nut - ma-dim,
у-ну тол - ма-дим,
u-nu-tol - ma-dim,
ба - ри-бир се-ни ёр, у-ну-
ba - ri-bir se-ni yor, u-nu-




2010

Gunohlar xuniga qaxxor istadim.
Garchi unutmoqni bisyor istadim,
Na qilay, seni yor, unutolmadim...

Naqarot:

Unutmadim, unutmadim, unutolmadim,
Unutmadim seni yor, unutolmadim.
Unutmadim, unutmadim, unutolmadim,
Baribir seni yor, unutolmadim.

Sen qayda, men qayda, vafo qayondir,
Sog‘inch bir ilondir, firoq chayondir,
Extimol, ishq o‘zi asli fig‘ondir,
Ex, nechuk men seni unutolmadim.

O‘zgani aldadim, aldovda yondim,
Ko‘ngildan voz kechib, o‘zimdan tondim.
Baribir, har sahar Sen deb uyg‘ondim,
Na qilay, seni yor, unutolmadim...

Naqarot.

Unutmadim, unutmadim, unutolmadim,
Unutmadim seni yor, unutolmadim.
Unutmadim, unutmadim, unutolmadim,
Baribir seni yor, unutolmadim.

SAVOLLAR:

1. O‘zbekistonda Vatanparvarlik qo‘shiqlariga bag‘ishlangan qanday tanlovlarni bilasiz?
2. Madhiyalarning xayotimizdagi o‘rni. D.Amanullayevaning qanday gimnlarini bilasiz?
3. Vatanparvarlik ruhidagi asarlarning barkamol yoshlar tarbiyasidagi o‘rni.
4. Chet el kompozitorlarining va estrada yulduzlarining qanday vatanparvarlik asarlarini bilasiz?
5. Asarning ijro dramaturgiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. D.Amanullayevaning vatanparvarlik qo‘shiqlarining stilistik yo‘nalishlarini ayting.

VAZIFALAR:

1. Kompozitor A.Nazarov yaratgan vatanparvarlik ruhidagi asarlarni internet orqali topib, asar nomlari va ijrochilarini yozib keling.
2. «Unutmadim» asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Ijro dasturingizdagi «Iftixor» yoki «Vatan xayotdek aziz» asarlarini yodlang va keyingi darsda o‘qituvchingizga ijro etib berasiz.
4. «Unutmadim» asarining 1chi kupletini yodlang.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

7. Bril. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988
8. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
9. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesi». M., 1986.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
6. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T., «Musiqa» 2008
7. R.Islamova «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010

## 51–56-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg‘ulotlari. Yangi estrada romansi va ballada asari bilan tanishish

Kafedra talabalari ishtirokidagi «O‘zbek asarlarining eng yaxshi ijrochisi» mavzudagi tanlovda sahnada qatnashmoq va Vatanparvarlik ruhidagi asarni ijro etmoq. Tanlovdagi natijalar sizning ijrochilik mahoratingizni oshishiga turtki bo‘lishi lozim. Kafedra professor – o‘qituvchilarining sizga bergan baho: yutuqlar yoki kamchiliklarga jiddiy qarang.

25-26chi xaftalarda yakka darslarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Jaz vokalizlarining ijrosi;
3. «Unutmadim» asari ustida ishlash:
4. Estrada romansi va ballada bilan tanishish.
5. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

1. Vokal mashqlari

Quyidagi mashq katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.

Quyidagi mashqni chuqur va uzun nafasda, shoshilmay ijro eting.
Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.
Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.






Quyidagi mashq katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o'rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.






**2. Jaz yo‘nalishidagi vokalizlarning ijrosi: D.Amanullayeva «Estrada va jaz vokalizlari №№20 va 22.**

Dars jarayonida qo‘yiladigan asosiy vazifa, ijroda muallifning asarda ko‘rsatilgan asosiy ijodiy va texnikaviy talablarini to‘la to‘kis ifoda etishga qaratilishi lozim. Ushbu ikkala vokaliz jaz yo‘nalishida yaratilgan. Ijroda jaz stilistik ijroni nozik nyuanslarini ifodasi ustida ishlang.

*Afsonaviy Edit Piafga bag'ishlanadi.*

# VOKALIZ № 20

Dilorom Amanullayeva





*Vagif Mustafa-Zodaga bag'ishlanadi.*
*Посвящается Вагифу Мустафа-Заде.*

# ВОКАЛИЗ №22

ДИЛОРОМ АМАНУЛЛАЕВА












**3. O‘zbekiston kompozitorining zamonaviy estrada yoki jaz asari:**

«Unutmadim» asari ustida ishlash. Asrning ijrosida muallif notada ko‘rsatgan barcha dinamik belgilarni to‘g‘ri ifoda etish, intonatsion ifodaviyligiga katta axamiyat qaratish va bajarish kerak bo‘ladi.

**4. Estrada romansi va ballada bilan tanishish.**
**Rossiya kompozitorlarining estrada vokal asarlari**

Rossiya estrada qo‘shiqchilik san’ati «shahar romansi» va rus xalq qo‘shig‘i asosida vujudga kelgan. Sovet xukumati «burjuaziya» musiqasini ma’n etgan bo‘lsada, 1930-1940chi yillarda ko‘plab ajoyib estrada vokal asarlari yaratilgan. Kompozitorlar Isaak Dunaevskiy, Matvey Blanter, Oskar Felsman, Dmitriy Kabalevskiy, Nikita Bogoslovskiy, Vasiliy Solovyov-Sedoylar tomonidan yaratilgan xalqsimon estrada qo‘shiqlari Klavdiya Shuljenko, Mark Bernes, Nina Dordalar ijrosida mashhur bo‘lgan. Shular qatorida Leonid Utyosov va Oleg Lundstrem boshchiligida «Djaz musiqasi» ham gullab yashnagan.

1950–1960-yillarda lirik estrada qo‘shiq janri gullagan davr. Estrada sahnasida ajoyib mashhur estrada xonandalari paydo bo‘ladi: Iosif Kobzon, Eduard Xil, Lev Лещенко, Muslim Magomaev, Edita Pexa, Mayya Kristallinskaya, Anna German, Lidiya Klement, Margarita Suvorova.

1970-yillarda esa, sovet estradasida vokal cholg‘u ansambllar davri boshlanadi. Rossiyada «Samotsveti», «Plamya», «Sveti», Belorussiyada «Pesnyari», «Syabri», «Verasi», Ozarbayjonda «Gyunesh», Gruziyada «Gaya», O‘zbekistonda «Yalla» va boshqa ko‘plab guruhlar xalq qo‘shiqlari asosidagi «pop-folk musiqa» yo‘nalishida ijod qilganlar va o‘ta mashhur bo‘lganlar.

Shu davrlarda estrada sahnasida Rossiya estradasining eng mashhur xonandalari Alla Pugachyova, Sofiya Rotaru, Yak Yola, Roza Rimbaeva, 1980 yillarda esa Fili p Kirkorov, Larisa Dolina, Valeriya, Aleksandr Serov, Valeriy Meladze kabi xozirda mashhur estrada yulduzlari estrada Olimpiga qadam tashlaganlar..

1960–1980-yillarda kompozitorlardan Veniamin Basner, Yan Frenkel, Oskar Felsman, Eduard Kolmanovskiy, Mark Fradkin, Raymond Pauls, Arno Babadjanyan, Aleksandr Zatsepin, Aleksandra Paxmutova, Mikael Tariverdiev, Andrey Petrov, yevgeniy Martinov, 1990-2010chi yillarda esa Igor Krutoy, Igor Nikolaev, Konstantin Meladze kabi kompozitorlar Sovet va zamonaviy Rossiya estrada vokal musiqasining rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Ularni novator kompozitorlar desak bo‘ladi, chunki XX asr ikkinchi yarimining zamonaviy estrada qo‘shiqchiligi va pop musiqasiga yangi zamonaviy oqimlarni kiritib, yangi mavzularda ijod qildilar, estrada san’atini rivojlantirdilar.

Aytish joizki, 19701990-yillarda Rossiyada rok-opera va myuzikllar ham estrada musiqasiga va yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Kompozitorlar David Tuxmanov, Aleksey Ribnikovlarning rok operalari yoshlar orasida mashhur bo‘lgan, va bugungi kunga qadar teatr sahnalarida qo‘yilmoqda.

Darslikda keltirilgan quyidagi asarlar asosan 1970-1990chi yillarda yaratilgan mashhur, va bugungi kunga qadar o'z qimmatini yo'qotmagan, vokal tarbiyasida metodologik ahamiyatga ega va foydali namunalardan terilgan. Ushbu asarlarni ustida ishlash jarayoni talabalardan ijodiy yondoshishni talab etadi. Ishlash jarayonida talaba intonatsion ifodaviylikga ko'proq e'tibor qaratishi darkordir. Har bir so'zni, fikrning mohiyatini rang barang ovoz intonatsiyalari orqali yetkazib berishni talab etish zarurdir. Asarlar ijrochilarga badiiy fantaziya, yorqin obraz, musiqiy va artistik mahoratni namoyish etishga, zamonaviy stilistik yo'nalishlarni egallashga, ovoz diapazonini kengaytirishga va vokal texnik ko'nikmalarini rivojiga imkon beradi.

**Erkak ovozlari uchun soul-ballada**

**«Noktyurn»** – A.Babadjanyan musiqasi, R.Rojdestvenskiy she'riga yaratilgan qo'shiq 1970-80 yillarda Muslim Magomaev ijrosida mashhur bo'lgan.

Arno Babadjanyan XX asrning rus estrada musiqasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur kompozitordir. Uning yaratgan betakror va ajoyib estrada – vokal asarlari bugun ham yosh xonandalar ijrosida yashab kelmoqda.

Ushbu ko'tarinki ruhdagi «Noktyurn» asari muxabbat qudrati, hayot sir-sanoatlari, inson saodati haqidagi lirik poemadir. Chuqur ma'noga ega so'zlar, ajoyib musiqa M.Magomaev ijrosida esda qolarli darajada talqin etilgan va etalon sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu bilan bir qatorda talaba mazkur qo'shiq ijrosi yuzasidan o'z ijro talqinini qidirishi, qo'shiq so'zlarining badiiy jihatdan boy psixologik nyuanslarini ochib berish uchun o'zining ovoz bo'yoqlarini topishi lozim. Asarning shakli va stilistik yo'nalishi klassik estrada vo'shiqlari tipigakiradi,lekin chuqur ma'nosi bo'yicha«soul ballada» deb izoh bersak xato qilmaymiz.

Asar talabalarningt kantilenani rivojlantirish, to'g'ri nafas olish, intellektual jihatdan o'sishiga va artistik qobiliyatni shakllantirishga foydalidir. Asar ijrosi erkaklar uchun tavsiya etiladi. MR3 – Muslim Magomaev ijrosida keltirilgan.

**Ayol ovozlari uchun soul-ballada**

**«Tri schastlivix dnya»** – 1980-yillarda A.Pugacheva ijrosida mashhur bo'lgan murakkab asarlardan biri. I.Reznik she'riga yozilgan ballada chuqur muxabbat qayg'ulari, yo'qitalgin sevgi, rashk iztiroblarini ifoda etgan, o'ziga hos ayol monologidir.

Asar lirik-dramatik xarakterga ega bo'lib, unda qayg'uli nozik psixologik xolatdan qat'iy e'tiroz, sevgi iztiroblarini eng baland nuqtadagi izhori dramatik xarakterda tasvirlanadi. Asar o'zining she'riy mazmuni va dramatik tizimi bilan «soul-ballada» janriga mos tushadi.

Asar ijrosi talabalarga bir qator qiyin vazifalarni qo'yadi: ijrochi xonandadan yuqori musiqiy va artistik mahoratni, ichki psixologik holatlarni ifoda etuvchi turli vokal tembrlarini ishlatishini, kontrast ifoda vositalarini qo'llashni, keng va chuqur nafas setkasida ishlashni talab etadi. Asar keng diapazonli dramatik ovozlar ijrosida yaxshi taasurot qoldiradi. Uning ijrosi ijodiy yondoshishni talab etib, baland pardalardagi tirgakli tovushlarni mustahkamlashida, artistik mahorat ko'nikmalari rivojida foydalidir. Xonandaning vazifasi - chuqur va yorqin obrazni yaratish, ta'sirli artistik mahoratni ko'rsatish, ovoz texnikasining nozik nyuanslarini filigran ifoda etishdan iboratdir.

Asar intellektning o'sishiga, badiiy tafakkurni, tovush filirovkasini, uzun nafas texnikasini va obrazli fikrlashni rivojiga imkon beradi. 2chi kursning ayol va erkak ovozlari dasturiga kiritish tavsiya etiladi. MP3 – A.Pugachyova ijrosida keltirilgan.

Nota va she'r matni bilan tanishing:

# НОКТЮРН

Р.Рождественский | А.Бабаджанян

**Умеренно**



Между мною и тобою – гул небытия,
Звёздные моря, тайные моря.
Как тебе сейчас живётся, вешняя моя,
Нежная моя, странная моя?

Если хочешь, если можешь, – вспомни обо мне,
Вспомни обо мне, вспомни обо мне.
Хоть случайно, хоть однажды
Вспомни обо мне, долгая любовь моя.

А между мною и тобой – века,
Мгновенья и года, сны и облака.
Я им к тебе сейчас лететь велю,
Ведь я тебя ещё сильней люблю.

Как тебе сейчас живётся, вешняя моя,
Нежная моя, странная моя?
Я тебе желаю счастья,
Добрая моя, долгая любовь моя!

Я к тебе приду на помощь – только позови,
Просто позови, тихо позови.
Пусть с тобой всё время будет свет моей любви,
Зов моей любви, боль моей любви.

Только ты останься прежней – трепетно живи,
Солнечно живи, радостно живи!
Что бы ни случилось, ты, пожалуйста,
Живи, счастливо живи всегда.

А между мною и тобой – века,
Мгновенья и года, сны и облака.
Я им к тебе сейчас лететь велю,
Ведь я тебя ещё сильней люблю.

Пусть с тобой всё время будет свет моей любви,
Зов моей любви, боль моей любви.
Что бы ни случилось, ты, пожалуйста,
Живи, счастливо живи всегда.

# ТРИ СЧАСТЛИВЫХ ДНЯ

И.Резник

А.Пугачева




рас-ста-вань-е - ма-лень-ка - я смерть! Рас-ста - вань-е -дол гий
dim.
путь к при - ча - лу. Мо- же быть ког-да ни - будь мы встре-тим-ся о - пять.
dim.
mf
cresc.
Там, где ты, - нет ме - ня.
mp
cresc.
Для повторения
f
Там, где я, - - там




Три счастливых дня было у меня
Было у меня с тобой.
Я их не ждала, я их не звала,
Біли мне они даны судьбой.

Среди тысяч лиц ты меня узнал,
Голос различил в толпе.
Ты мне милым стал, долгожданным стал,
Но подвластны мы судьбе.

Как же эту боль мне преодолеть,
Расставанье – маленькая смерть!
Расставанье – долгий путь к причалу.
Может быть когда-нибудь
Мы встретимся опять.

Там, где ты, – нет меня.
Там, где я, – там нет,
Там нет со мною места рядом, милый!
Там, где ты, – нет меня.
Вот и все, прощай!

Унесет меня быстрый самолет
К тем, кого давно уже люблю.
Мой привычный круг, мой забытый друг,
Вновь меня к себе влекут

Три счастливых дня, три больших огня,
Три больших огня на берегу.
Я их сохраню, я их сберегу,
Сберегу навек в душе.

Как же эту боль мне преодолеть,
Расставанье – маленькая смерть!
Расставанье – долгий путь к причалу.
Может быть когда-нибудь
Мы встретимся опять.

Там, где ты, – нет меня.
Там, где я, – там нет,
Там нет со мною места рядом, милій!
Там, где ты, – нет меня.
Вот и все, прощай!

Три счастливых дня было у меня
Было у меня с тобой.

SAVOLLAR:

1. Rossiyaning qanday mashhur estrada artistlarini bilasiz?
2. Kafedra o‘qituvchilaridan kimlar «Estrada xonandaligi» - ixtisoslik fanidan Rossiya asarlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yaratgan?
3. A.Babadjanyan va R.Pauls ijodidan qaysi asarlarni bilasiz?
4. Rossiyada qanday Halqaro tanlovlar o‘tmoqda?
5. Rossiyada ijod qilayatgan qaysi o‘zbek san’atkorlarini bilasiz?
6. Rossiyadagi jaz vokal ijrochilarini sanab bering?
7. Rossiya va MDXning jaz kompozitorlarini ayting.

VAZIFALAR:

1. «Noktyurn» asarining shakli va stilistik yo‘nalishini analiz qilib, izohlab bering.
2. «Tri schastlivix dnya» asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, izohlab bering.
3. Rossiyadagi estrada ijrochiligi sohasidagi oliy ta’lim yurtlarini internet orqali aniqlang. O‘sha OTMlarining o‘quv dasturlarini bilishga xarakat qiling. Keyingi darsda o‘qituvchingiz bilan Rossiyadagi va O‘zbekistondagi ta’limining farqi xaqida o‘rtoqlashing.
4. Vokaliz va «Unutmadim» asarini yodlang.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988
2. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.

3. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesl». M., 1986.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
6. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» – o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T., «Musiqa» 2008
7. R.Islamova «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010
8. M.Orinbayeva «Estrada qo‘shiqlari» (Rossiya estradasi asosida), T.. 2010.

## 57-60 DARSLAR. Oraliq nazoratiga tayyorgarlik ko‘rish.

28-30chi xaftalarda yakka darslarda ON1 ni topshirishga tayyorgarlik ko‘riladi,
Dasturni sahnada ijro etish ustida ish olib boriladi.
Darslarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:
1. Vokal mashqlari;
2. Jaz vokalizinig ijrosi;
3. «Unutmadim» asari ustida ishlash;
4. Estrada romansi va ballada asarlarini o‘rganish;
5. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**1. Vokal mashqlari:**

Quyidagi mashq katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang




Keyingi stakkato mashqlarini ijrosida har bir tovushni intonatsiyasini sofligi va artikulyasiyaning aniqligiga qarating.






Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.







**2. Vokalizlar ijrosi.**

Vokalizlarni sof intonatsiya, to‘g‘ri nafas setkasida, stilistik va artistik mahoratli ijro qilishga intiling va sahnada ko‘rsatishga o‘zingizni tayyorlang. Jo‘rnavoz bilan bir necha marta repetitsiyalar bajarib saxnaviy va ijrochilik mahortingizni o‘stirishga intiling.

**3. «Unutmadim» asari ustida ishlash.**

Asarning ijrosida o‘zingizning hususiy interpretatsiyangizni yaratishga intilishingiz lozim bo‘ladi. Asar ijrosida ovoz diapazonini kengligini, rivojlangan ovoz va nafas texnikasini ko‘rsatishga intilish kerak bo‘ladi. Yorqin artistik mahorat va soul uslubini egallaganingizni sahnada ko‘rsatishingiz lozim bo‘ladi.

# УНУТМАДИМ
# UNUTMADIM

Муҳиддин Омон шеъри
Muhiddin Omon she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi

**Moderato con moto**



4. Estrada romansi va ballada asarlarini o'rganish **borasida ham ijro asarining xususiy interpretatsiyasini yaratishingiz lozim bo'ladi**; asar ijrosida ovoz kengligi, rivojlangan ovoz va nafas texnikasi, «soul» yo'nalishi ifodasi, **musiqiy va artistik mahoratga erishish kerak bo'ladi.**

Ushbu keltirilgan zamonaviy estrada va jaz yulduzlari dasturidagi mashhur asarlar sizlarning intellektingizning rivojiga, madaniyat doirasini va badiiy tafakkuringizni kengayishiga, va shu bilan birga, kuylash texnikasini rivojiga imkon beradi. Asarlar soul, fyujn, shanson, disko, pop va jaz-rok stilistik yo'nalishini, badiha (improvizatsiya) texnikasini egallashda, garmonik va ritmik eshitish qobiliyatini rivojida, psixologik intonatsiya va badiiy ohang ifodasini egallashda foydalidir. Ushbu asarlar ustida ishlaganda ijodiy yondoshish, ijodiy fikrlash va chet tillar ( Rus, ingliz, fransuz, italyan) talab etiladi. Va albatta, mazkur asarlar ijrochilarga o'z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

# НОКТЮРН

Р.Рождественский — А.Бабаджанян

**Умеренно**



# ТРИ СЧАСТЛИВЫХ ДНЯ

И.Резник

А.Пугачева



SAVOLLAR:

1. Qanday xonandalik nafas turlarini bilasiz?
2. Xonandalik ovozlar klassifikatsiyasini ayting
3. Ovoz gigiyenasi to‘g‘risida nimani bilasiz?
4. O‘zbekistondagi birinchi Rok guruxini bilasizmi?
5. Estrada soxasida «O‘zbekiston Xalq artisti» unvoniga sazovor bo‘lgan san’atkorlarni sanab bering.
6. Etno-djaz yo‘nalishi namoyondalarini ayting.
7. «Soul» iborasiga izoh bering.

VAZIFALAR:

1. «Noktyurn»va «Tri schastlivix dnya» asarlarini sahnadagi ijroga tayyorlang.
2. «Unutmadim» asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, sahna ijrosiga tayyorlang..
3. D.Amanullayeva ijodidan «Soul» yo‘nalishidagi asarlarni toping va tahlil qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988
2. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
3. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesi». M., 1986.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
6. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» - o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa» 2008
7. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010
8. Orinbayeva M. «Estrada qo‘shiqlari» (Rossiya estradasi asosida), T.. 2010.

## 61–66-DARSLAR. Amaliy ijrochilik mashg‘ulotlari.

31chi xaftada siz ON nazoratini topshirasiz, kafedra professor –o‘qituvchilari tarkibidagi komissiyaga quyidagi dasturni sahnada ijro etasiz:

1. Jaz vokalizi;
2. Estrada romansi yoki ballada («Tri schastlivqx dnya» – ayollar ijrosida, «Noktyurn» – erkaklar ijrosida);
3. Tanlovda ijro etgan Vatanparvarlik asari komissiya tomonidan hisobga olinadi, tanlovda qatnashmagan bo‘lsangi, unda asarni ijro etishingiz shart.

Endi Yakuniy nazoratgacha dasturdagi qolgan ikkita asar: O‘zbekiston kompozitorining zamonaviy asari sifatida – «Unutmadim» asari, va improvizatsiya elementlari mavjud jaz asarini ijrosi qoladi.

32-33chi xaftalarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. «Unutmadim» asari ustida ishni davom ettirish;
3. Improvizatsiya elementlari mavjud jaz asari bilan tanishish;
4. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

### 1. Vokal mashqlari.

Quyidagi mashqlarni ijro eting. Kuylashda chuqur nafas setkasida, intonatsiyaning sofligiga, yuqori tessituradagi tovushlarning yorqinligiga intiling. Mashqlarni shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Quyidagi mashqlar katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy. Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.









Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.






**2. «Unutmadim» asari ustida ishni davom ettirish**.

Yana bir bor asarga berilgan uslubiy tavsiyalar bilan tanishamiz.

**«Unutmadim»** – yorqin va murakkab konsert soul-balladasi, D.Amanullayeva musiqasi, iqtidorli shoir Muxiddin Omon she'riga 1996-yilda yaratilgan. Asar texnik ijro jixatidan murakkabligi va baland tessituradagi dramatik ovozni talab etgani sababli, xozirgi davrgacha o'zining xaqiqiy ijrochisini topmadi. Bir necha marta muallif ijrosida O'zDKning Katta zalida, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Alisher Ikromov rahbarligidagi milliy estrada orkestri jo'rligida ijro etilgan. Ballada talabalarning o'quv dasturiga kiritilib, ularning talqinida ijodiy yondoshishini, ijodiy fantaziyasini ishlatishga mo'ljallangan.

Asar ikki kupletli va naqarotli, yiriklashtirilgan shaklda fyujn yo'nalishida yozilgan. Uning formulasi quyidagicha:

| Birinchi kuplet | Ikkinchi kuplet |
|---|---|
| A – B – C | A – B – D – C |

A qismi – cholg'u kirish qismi, uning musiqiy matosi S qismidagi naqarot ohangining o'zgartirilgan, variatsiyalashtirilgan maqomida yozilgan. Lirik dramatik xarakterda boshlanadi, va 8-9chi taktlarda dinamika pasayib, xonandani lirik xarakterdagi ijroga tayyorlaydi.

B qismi – xonanda ijrosidagi kuplet qismi bo'lib, u lirik ohangda boshlanadi. She'riy so'zlarni rechitativlashgan yo'nalishda, aniq va ta'sirli ifodasida ijro etish talab etiladi. 20chi taktdan dinamika kuchayib, dramatik xolatdagi naqarot qismiga kirib keladi.

C qismi – refren rolini bajaruvchi Naqarot qismi. *«Unutmadim, unutmadim, unutolmadim»* so'zlari bilan ijro etiladigan baland pardalardagi naqarot, jo'shqin va chuqur dramatik xissiyotlardagi xarakterga ega. U tirgakli tovushlar asosidagi tez xarakatlangan, texnik ijroni talab etadi.

D qismi – epizod ro'lini bajaruvchi eng ta'sirli, eng dramatik markaziy qism. She'rning eng ta'sirli misralari ushbu dinamika bilan to'ldirilgan kulminatsiya qismida yangraydi (31-38chi taktlar). Ushbu eng baland avj qismi dramatik ruhdagi, jazavali ijroni talab etadi. Unda ijrochi yangi ta'sirchan qiyofada, badihaviy djaz yo'nalishida, baland tessituradagi tirgakli tovushlarda, ehtirosli va keng ko'lamli ijroni ko'rsatishi lozim bo'ladi.

Balladaning murakkabligi nafaqat musiqaning xarakter almashuvi va baland tessiturali kulminatsiyalarda, balki asarning yirikligi va keng ko'lamligidadir. Asarning talqini ijrochidan vokal va jismoniy chidamliligini, puxta tayyorgarligini, ichki dunyosining kengligini, ijodiy yondoshishni, artistik mahoratni, va yangi stilistik qiyofani aks ettirishni talab etadi. Asardagi tonallik ayollar ovozi uchun berilgan. Tenorlar tonalligi – re minorga to'g'ri keladi. Undan «Orkestr jo'rligida ijro mahorati» fanida ham foydalansa bo'ladi.

Ushbu asarning eng baland kulminatsiyasi Epizod qismida. Bu eng dramatik markaziy qism. She'rning eng ta'sirli misralari ushbu dinamika bilan to'ldirilgan kulminatsiya qismida yangraydi (31-38chi taktlar). Ushbu eng baland avj qismi dramatik ruhdagi, jazavali ijroni talab etadi. Unda ijrochi yangi ta'sirchan qiyofada, badihaviy djaz yo'nalishida, baland tessituradagi tirgakli tovushlarda, ehtirosli va keng ko'lamli ijroni ko'rsatishi lozim bo'ladi.

Ushbu qimni to'laqonli bajarishga xarakat qiling.






3. Improvizatsiya elementlari mavjud jaz asari bilan tanishish

**«Je suis malade»** – mualliflar Serj Lama va Alice Don qalamlariga mansub ushbu o‘ta ta’sirli va fojiali mazmundagi komopzitsiya 1975 yilda mashhur fransuz estrada yulduzi Dalida uchun yaratilgan va uning ijrosida o‘ta mashhur bo‘lgan. 1995 yilda fransuz xonandasi Lara Fabian ijrosidagi yangi interpretatsiyada asar yana ham ta’sirli ravishda yangradi.

Asarning tuzilmasi va intonatsion tilini musiqiy obrazlar belgilab, variatsiyalashgan qismlar ikki kupletli keng kompozitsiyada aks ettirilgan. Uning obraz tuzilmasi lirik-psixologik, iztirobli va fojiali ohanglarning keskin va keng ekstaz xarakterli kulminatsiya almashuviga asoslangan. Melodik minor ladidagi yig‘isimon, iltijo ohanglardagi musiqiy mato she’rning ma’nosini chizib bergan.

Soul stilistik yo‘nalishdagi kompozitsiya chuqur fojiaviy ruhda yangraydi. Naqarot - avj qismlari dramatik ruhdagi, eng ta’sirli, jazavali ijroni talab etadi. Unda ijrochi yangi ta’sirchan

qiyofada, badihaviy jaz yo‘nalishida, baland tessituradagi tovushlarda, ehtirosli va keng ko‘lamli lirik- dramatik ijrosini ko‘rsatishi lozim.

Ikkinchi kupletdagi oxirgi yakunlovchi naqarot yana-da tasirli dinamikasidagi iltijo xarakterida tugallashi lozim.

Ushbu asardagi eng murakkab vazifa – badiiy ohang ifodasidir. Asarning ijro dramaturgiyasi she’riy matnga asosan yaratilgan. Bu asar ham o‘ziga hos monospektakldir. Shu o‘rinda ijrochi-xonanda ijodiy fantaziyasini ishlatishi darkor bo‘lib, asarni o‘z hissiyotida, ijodiy xayoloti bilan boyitib, intonatsion tembr va dinamik bo‘yoqlarda, «soul» ifodasida samimiy va ta’sirli ijro etilishi talab etiladi. Asarning talqini ijrochidan ijodiy yondoshishni, artistik mahoratni, yangi stilistik qiyofani aks ettirishni talab etadi.

Asar ayollar ijrosi uchun yaratilgan. Magistraturaning 2chi kursiga mos keladi, va ushbu kompozitsiyani bitiruv ijro dasturiga kiritish tavsiya etiladi. MP3 – L.Fabian ijrosida keltirilgan.

# JE SUIS MALADE

Paroles de
Serge LAMA

Musique de
Alice DONA




Fm7 Bb7 3° fois al Coda
toire Je suis seul sans toi, Je suis laid sans toi, Je suis comm'
Eb G Cm
un or-phe-lin dans un dor-toir, Je n'ai plus en-vie, De vi-
Cm/Bb Fm9/Ab Fm7
vre ma vie, Ma vie ces-se quand tu pars Je n'ai
Bb7 Eb
plus de vie Et mê - me mon lit Se trans-form' en quai de gare Quand


Refrain
G7 Cm Cm/B♭ Fm9/A♭
tu t'en vas. Je suis ma - la - de Com-plè - te - ment ma - la - de
Fm B♭ B♭7 E♭
Comm' quand ma mèr' sor - tait le soir Et qu'ell' me lais - sait seul a - vec mon
G7 Cm Cm/B♭ Fm9/A♭
dé - ses - poir, Je suis ma - la - de, Par - fai - te - ment ma - la - de,
Fm B♭ B♭7 E♭
T'ar - riv's on ne sait ja - mais quand, Tu r'pars on ne sait ja - mais où


Fm7 A♭ G G7
Et ça va fair' bien-tôt deux ans Que tu t'en fous. 2. Comm' à
E♭ G7 Refrain Cm
sa pro-pre voix Qui chan-te-ra... Je suis ma-la-de,
CODA
Cm/B♭ Fm9/A♭ Fm B♭
Com-plè-te-ment ma-la-de, Comm' quand ma mèr' sor-tait le soir
B♭7 E♭ G7 Cm
Et qu'ell' me lais-sait seul a-vec mon dé-ses-poir, Je suis ma-la-de,


Cm/B♭ Fm9/A♭ Fm B♭
Par - fai - te - ment ma - la - de, Tu m'as pri - vé de tous mes chants,
B♭7 E♭ Fm7
Tu m'as vi - dé de tous mes mots, Et j'ai le cœur com -
A♭ Fm6 Fm6/A♭ Cm/G
plè - te - ment ma - la - de, Cer - né de bar - ri - ca - des,
Cm/G Gsus4 G7 Cm
T'en - tends, Je suis ma - la - - - - - de.
rall.

Je ne reve plus
Je ne fume plus
Je n’ai meme plus d’histoire
Je suis sale sans toi
Je suis laide sans toi
Comme une orpheline dans un dortoir

Je n’ai plus envie
De vivre ma vie
Ma vie cesse quand tu pars
Je n’ai plus de vie
Et mкme mon lit
Se transforme en quai de gare
Quand tu t’en vas

Je suis malade, complиtement malade
Comme quand ma mиre sortait le soir
Et qu’elle me laissait seul avec mon dйsespoir.
Je suis malade, parfaitement malade
T’arrive on ne sait jamais quand
Tu pars on ne sait jamais ощ
Et за va faire bientфt deux ans
Que tu t’en fous

Comme a un rocher
Comme a un pйchй
Je suis accrochй a toi
Je suis fatiguйe, je suis йpuisйe
De faire semblant d’кtre heureuse
Quand ils sont la

Je bois toutes les nuits
Et tous les whiskys
Pour moi ont le mкme goit
Et tous les bateaux
Portent ton drapeau
Je ne sais plus ощ aller tu es partout

Je suis malade
Complиtement malade
Je verse mon sang dans ton corps
Et je suis comme un oiseau mort
Quand toi tu dors
Je suis malade
Parfaitement malade
Tu m’as prieye de tous mes chants
Tu m’as vidye de tous mes mots

SAVOLLAR:
1. «Tirgakli tovush» iborasiga izoh bering.
2. «Kulminatsiya» iborasiga izoh bering.
3. Qanday xonandalik nafas turlarini bilasiz?
4. Xonandalik ovozlar klassifikatsiyasini ayting.
5. «Tessitura» so‘ziga izoh bering.
6.»Metsso soprano» diapazonini ayting?
7. Estrada soxasida qanday uslubiy qo‘llanmalarni bilasiz?
8. Milliy estrada orkestri badiiy raxbari kim?
9. Botir Zokirov nomidagi BigBend orkestrining badiiy rahbari kim?

VAZIFALAR:
1. Fransiya estradasi bo‘yicha internet va boshqa manbalardan ma’lumot yig‘ing va keyingi darsda o‘qituvchingizga aytib berasiz.
2. Lara Fabian ijodini manbalardan o‘rganib keling.
3. «Unutmadim» asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, sahna ijrosiga tayyorlang.
4. «Noktyurn»va «Tri schastlivix dnya» asarlarini MR3 formatidagi yozuvmda diqqat bilan tinglang va ijro dramaturgiyasini tahlil qiling.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:
1. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988
2. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
3. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesi». M., 1986.
4. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
5. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
6. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» – o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa» 2008
7. R.Islamova «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010
8. M.Orinbayeva «Estrada qo‘shiqlari» (Rossiya estradasi asosida), T.. 2010.
9. «World of hits»- istoriya populyarnoy muziki. Vip. 1-3, M., «Megaservis», 1997.

## 67–72-DARSLAR. Jaz yo‘nalishidagi asarlar

34–36-xaftalarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:
1. Shaxsiy ijro rejangizdagi Jaz yo‘nalishi va yangi jaz asarlari bilan tanishish va o‘zlashtirish;
2. Vokal mashqlari;
3. «Unutmadim» asari ustida ishni davom ettirish;
4. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**Jaz yo‘nalishidagi asarlar**

Zamonaviy qo‘shiqchilik san’atini jaz janridagi musiqasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jaz musiqasiga oid tushunchalar, rivojlangan davlatlardagi yosh san’atkorlar orasida ommalashib kelmoqda. O‘zbekiston xududida ham jaz san’ati 1960chi yildan beri o‘z rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmoqda. Buning dalilida Toshkentda bir necha bor o‘tkazilgan jaz festivallarini, dunyodagi mashhur jaz san’atkorlarini bizning vatanimizda o‘tkazgan Mahorat-darslarini aytishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi A.Ikromov boshchiligidagi Milliy estrada simfonik orkestri, O‘zbekiston Respublikasi Xalq artisti Mansur Toshmatov boshchiligidagi Botir Zokirov nomidagi Big-bend orkestrlarining ijodiy faoliyati dunyo va o‘zbek jaz musiqasini targ‘ib etishda katta faoliyat olib bormoqda. Vokal yo‘nalishida esa, *jaz-rok, fyujn, ritm end blyuz(ayrendbi)* va *etno-djaz* yo‘nalishlari 1990chi yillarda yosh

iqtidorli san'atkorlar Rovshan Namozov, Sevara Nazarxon, bugun esa Gulasal Abdullaeva ijodi orqali mashhur bo'lib, ommalashib bormoqda.

Aytish joizki, O'zDKning «Estrada xonandaligi» ta'lim yo'nalishining bakalavriat va magistratura tizimini tugatgan bir nechta yosh san'atkorlar Xalqaro jaz festivallarida muvaffaqiyatli qatnishib, xalqaro Diplomlarga sazovor bo'lganlar. Shular qatorida «Nixol» mukofoti sovrindori Diana Ziyatdinova, Aysel Balich, Xurshid Inagamov, Svetlana Saydievalardir. Ayniqsa eng katta yutuqlarga erishgan iqtidorli san'atkor, O'zbekiston Respublikasida hizmat ko'rsatgan artist Sevara Nazarxonni ta'kidlashimiz lozimdir. U jaz ansamblini tuzib, cholg'u guruxida tambur, sato, nay, doira kabi milliy cholg'ular ishlamida etnografik vokal asarlarni etn-jaz yo'nalish va ritmik usullarida ijro etdi. S.Nazarxon ijrosida milliy va an'anaviy jaz cholg'ulari orqali milliy o'zbek musiqasi yangicha kesimda, etno-jaz yo'nalishida ko'z ochdi. S.Nazarxon ushbu yangi ijodi bilan Yevropa davlatlarida mashxur bo'lgan.

Ma'lumki, estrada-jaz musiqa san'ati turli janrlar, xilma-xil stilistik yo'nalishlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z tarihi, an'analari va xususiyatlariga ega. Jaz san'atiga izoh bersak, avvalambor, u boshqa musiqa janrlaridan o'zining boy ritmik usullari va garmonik tizimi bilan farqlanadi. Ritmdagi svinglash usuli, ohangning badihaviy improvizatsiya ijrosi, murakkablashgan jaz-garmonik akkordlar tizimi – hammasi ijrochidan erkin, yuqori texnikadagi ijodiy interpretatsiyani talab etadi.

Jaz san'ati o'tgan asrning boshida afro-amerika xalqlarining musiqasi asosida, AQShning Nyu Orlean shahrida paydo bo'lgan. Dastlabki davrda janr faqat kollektiv ijrosida, jaz-bend cholg'u guruhlari ijrosida yaralib, tezda mashhur bo'lgan. Jaz guruhida ijro etish - bu xayot tarziga aylangan zarur ijtimoiy protsess edi. Davr o'tgan sayin jaz musiqasi yangi tusda, turli stilistik yo'nalishlarda dunyoni zabt eta boshladi. *Nyu orlean, chikago, sving, bi-bop, progressiv, xard-bop, fri-djaz, jaz-rok, rok-n-roll, bossa-nova, fyujn, soul, ritm end blyuz (ayrendbi)* kabi stilistik yo'nalishlar ochiq ravishda paydo bo'lib, keng tarqala boshladi. Ularning melodik, ritmik, garmonik tizimlari murakkablashdi va yangicha tuslandi, guruhdagi har bir ijrochi o'zining virtuoz improvizatsiyalari bilan tinglovchilarni hayratga sola oldi.

Jaz musiqasi dastlabki davrda cholg'u san'ati turi bo'yicha rivojlangan bo'lsa, keyinchalik unga vokal ijrosi qo'shila boshlagan. Dunyodagi mashhur jaz san'atkorlaridan xonanda Ella Fitstdjerald, xonanda va truba cholg'usidagi virtuoz ijrochi Lui Armstrong, kompozitor va pianinochi Dyuk Ellington, klarnetchi va dirijyor Benni Gudmen, pianinochi Uilyam Beysilarning siymolari jaz san'atining rivoji bilan bog'liq. Jaz san'ati musiqa teatr san'atiga ham kirib keldi, va 1930chi yillaridan boshlab AQSh va Yevropa davlatlarida myuzikllar yaratila boshlandi, alohida myuzikl teatrlari barpo etildi. XX asrning 70-90chi yillarida jaz musiqasi yangi iste'dodli san'atkorlar ijodi asosida progressiv rivoj topdi. Bibi King, Stiv Uander, Layza Minelli, Elvis Presli, Elton Djon, Sting, Bon Jovi, Rikki Martin, Laynl Richchi, Djordj Maykl, Djo Kokker, Dayana Ross, Uitni Xyuston, Merayya Kerri, Maykl Jekson va hozirda ijod qilayatgan, latino-amerikadagi yangi nomlar jaz musiqasini olg'a surishda e'tiborlidir.

Xususan, o'tgan asrning 80-90 yillarida jaz yo'nilishi Sharq va Osiyo davlatlari musiqasiga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi, va e*tno-djaz* terminidagi yo'nalish paydo bo'ldi. Bu milliy ohanglar va ritmlar asosidagi jaz musiqasidir. Ushbu yo'nalish Ozarbayjonda, mashhur jaz kompozitori va ijrochisi Vagif Mustafa Zoda ijodida yorqin ifodasini topdi. V.Mustafa Zodaning o'limidan so'ng, uning qizi – bugungi kunda dunyoda mashhur bo'lgan iste'dodli kompozitor, xonanda va virtuoz pianino ijrochisi Aziza Mustafa Zoda o'zining original kompozitsiyalari bilan etno-jaz musiqasi rivojiga samarali xissa qo'shib kelmoqda.

Jaz janrining ta'lim davrida o'zlashtirilishi jahon estrada-jaz ijrochiligi bo'yicha OTMlarda ta'lim tizimining talablariga kiritilgan. Rossiya va Yevropadagi Oliy ta'lim yurtlarida estrada xonandaligi san'ati jaz san'ati bilan parallel o'zlashtirilib kelinmoqda.

Magistratura talabalarini jaz asarlarining o'zlashtiririshi va badihaviy uslubdagi ijro ko'nikmalarini egallashi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, kasbiy tayyorgarligini o'stiradi, vokal ijro texnikasini rivojlantiradi, va albatta, musiqiy madaniyatini va badiiy didini kengaytiradi.

Aytish joizki, xonandaning jaz ijro yo'nalishini egallaganligi, va ushbu yo'nalishda ijod qilayotganligi – uning yetuk san'atkorligidan dalolat beradi.

Konservatoriyaning o‘quv dasturida ko‘pqirrali jaz yo‘nalishidagi asrlarning o‘zlashtirishi muxim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bakalavriat tizimidan boshlab improvizatsiya fanida, ixtisoslik, xonandalik ansambli, orkestr jo‘rligida ijrochilik kabi kurslarda klassik Yevropa va AQSh jaz asarlarini, o‘zbek zamonaviy jaz yo‘nalishidagi asarlarni badixaviy ijroda o‘zlashtirishlari zarur.

Mazkur qo‘llanmada keltirilgan jaz yo‘nalishidagi o‘zbek vokal asarlar muallifning ohirgi yillarda ijod qilgan asarlari namunalari bo‘lib, ular bakalavriat va magistratura tizimidagi o‘quv dasturlarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Talabalarning orasida ommalashgan «Sen eding», «Sen ketarsan» kabi asarlar bilan, «Boshim egib qo‘yma, dunyo!», «Jonnisorim», «O‘zgacha» kabi yangi jaz asarlari oxirgi yillarda bitiruv dasturlarida ijro etib kelinmoqda.

Yevropa va Amerika jaz yo‘nalishidagi asarlardan fan dasturda D.Gershvining Porgi va Bess operasidan «Summer time» asari, Dj.Kernning «Smoke gets in your eyes», Djon Kanderning «Kabaret», «And all that jazz», «Nyu York» asarlari kiritilgan.

Jaz yo‘nalishida kuylash – bu murakkab ijrochilik san’atidir. Har bir ijrochining ijodiy vazifasi – o‘z ovozining texnik jihatlarini rivojlantirib turli stilistik yo‘nalishlardagi ijro uslublarini egallashdan tashqari, asar ijrosida jazga hos improvizatsiya, ya’ni badihaviy xususiyatlar orqali obraz yaratish, psixologik holatlarni yaqqol ko‘rsata olishdan iboratdir. Jaz ijrochilik san’atida bu murakkab omildir. Kuylovchi xonanda psixologik emotsional holatlarni o‘ziga hos individual xususiyatlari bilan asarning mohiyatini boyitadi. Jaz asarining ijrosi xonandaning imkoniyatlariga: umumiy musiqiy tayyorgarligiga, ovoz diapazoni, tembri va ovozning rangdorligi, ijrochilik texnikasi darajasi, iste’dod va tayyorgarlik darajasiga bog‘liqdir.

Asarni ijrosida matndan kelib chiqib yondoshish zarur. Notada keltirilgan shoirning she’ri, bastakor yaratgan musiqasidagi nota belgilari asarning faqat tashqi mohiyatini belgilaydi. Ijrochi xonanda asarning ichki mohiyatini o‘z badihaviy ijrosida, faqatgina o‘z intonatsiyasi, ovoz xarakterini o‘z ruhiy holatidan kelib chiqib, asarni o‘zinikiday qilib olib, badiiy jonlantirishi mumkin. Musiqa orqali she’r nutqining ohang ifodaviyligi jaz ijrosida zarur vositadir. U asarning ruhiy hayotini kechirish masalasida ijrochi oldida turgan jiddiy ko‘nikmalaridan biridir. Va shu bilan birga bu ijodiy masaladir.

Ko‘p vokal jaz asarlari klavir yozuvida emas, sifrovkalarda (notalarning va akkordlarning xarf belgilari) keltiriladi. Magistratura talabasi ushbu sifrovkalar orqali kuyning garmonik tizimini fortepianoda ijro etib, badihaviy kuylay olishi talab etiladi. Jaz musiqasi badihaviylik ijro bilan bog‘liq bo‘lib, har bir ijrosi unga o‘zining individual ravishdagi interpretatsiyasini bag‘ishlaydi.

Ushbu darslikda keltirilgan barcha asarlar talabalar intellektining rivojiga, badiiy tafakkurini kengayishiga, va shu bilan birga, kuylash texnikasini rivojiga imkon beradi. Asarlar soul, fyujn va jaz-rok stilistik yo‘nalishini, badiha (improvizatsiya) texnikasini egallashda, garmonik va ritmik eshitish qobiliyatini rivojida, psixologik intonatsiya va badiiy ohang ifodasini egallashda foydalidir. Ushbu asarlar ustida ishlaganda ijodiy yondoshish, ijodiy fikrlash talab etiladi. Va albatta, mazkur asarlar ijrochilarga o‘z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

**1. Vokal mashqlari.**

Quyidagi mashqlarni ijro eting. Kuylashda chuqur nafas setkasida, intonatsiyaning sofligiga, yuqori tessituradagi tovushlarning yorqinligiga intiling. Mashqlarni shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.




Quyidagi mashqlar katta va chuqr nafasda, yuqori tessituradagi tirgakli tovushlarni yorqin ishlatishga, intonatsiyani rivojiga foydali. Ushbu mashqni ham shoshilmasdan, o‘rta registrdan boshlab, asta-sekin yuqori registrlarda kuylang.






Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy. Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.







Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato). Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.







**3. «Unutmadim» asari ustida ishni davom ettirish**.

Unda psixologik intonatsiya va badiiy ohang ifodasi ustida ishlash, eng qiyin avj qimlarini tirgakli tovushda yorqin ifodasi, artistik mahorat ustida ishlash lozim bo‘ladi.

4. Ayollar ijrosida: **«Je suis malade»** asarining nota va she’riy matnini o‘rganish, fransuz tilidagi talaffuz ustida ishlash.

Erkaklar ijrosida: **«My Way»** asari.

**«My Way»** klassik estrada-jaz qo‘shig‘i Amerikaning mashhur estrada –jaz xonandasi Frenk Sinatra ijrosida ilk bor 1969 yilda ijro etilib, o‘ta mashhur asarlar qatoriga kiradi. Bu qo‘shiqni ko‘p mashhur estrada xonandalari o‘z repertuariga kiritgan: Elvis Presli, Tom Djons,Mirey Mate,Robbi Uilyams,Il Divo,Muslim Magomaev, Filip Kirkorov, O‘zbekistonda esa Mansur Toshmatov ijrosida konsertlarda yangragan.

Qo‘shiq kuplet shaklida yozilgan, klassik jaz janriga qarashli.

Ikki kupletli qo‘shiqda naqarot avj ro‘lini o‘ynaydi. Bu avjlar mag‘rur va dadil, to‘laqonli tirgakli tovushlarda yangrashi kerak. Xonandanining butun vujudi bilan, hamma diqqatini aynan shu baland cho‘qqidagi avjda konsentratsiya qilingan yorqin va mohirona ijrosini kutadi. Ushbu avj qismlari ijrochidan nihoyatda katta mahoratni, badihaviy ijro va keng diapazonli, tepa pardalardagi tirgakli tovushlarni talab etadi. Asar Magistraturani 1 kursiga mos keladi. MP3 – F.Sinatra ijrosida keltirilgan.

# MY WAY

Original French Words by
Gilles Thibault

English Words by Paul Anka
Music by Jacques Revaux
and Claude Francois




F Fm C G7
each and ev-'ry high-way, And more, much more than this, I did it
step a-long the by-way, And more, much more than this, I did it
F6 C F6 C
1. 2.
My Way. Re- My Way. Yes, there were
C C7 F
times, I'm sure you knew, when I bit off more than I could chew, But thru it
Dm7 G7 Em7 Am
all, when there was doubt, I ate it up, and spit it out. I faced it


Dm7 G7 C
all, and I stood tall, and did it My Way. I've
C Em Gm6 A7
loved, I've laughed and cried, I've had my fill, my share of los - ing, And
Dm Dm7 G7 C
now, as tears sub-side, I find it all so a - mus - ing. To
C7 F Fm
think I did all that, and may I say, "Not in a shy way." Oh,


C G7 F6 C
no, oh no, not me, I did it My Way. For what is a
C C7 F
man, what has he got, if not him-self, then he has not to say the
Dm7 G7 Em7 Am
things he tru-ly feels, And not the words of one who kneels. The rec-ord
Dm7 G7 C
shows I took the blows, and did it My Way.
rall.

And now, the end is near
And so I face the final curtain
My friend, I'll say it clear
I'll state my case, of which I'm certain
I've lived a life that's full
I traveled each and every highway
And more, much more than this, I did it my way

Regrets, I've had a few
But then again, too few to mention
I did what I had to do and saw it through without exemption
I planned each charted course, each careful step along the byway
And more, much more than this, I did it my way

Yes, there were times, I'm sure you knew
When I bit off more than I could chew
But through it all, when there was doubt
I ate it up and spit it out
I faced it all and I stood tall and did it my way

I've loved, I've laughed and cried
I've had my fill, my share of losing
And now, as tears subside, I find it all so amusing
To think I did all that
And may I say, not in a shy way
Oh, no, oh, no, not me, I did it my way

For what is a man, what has he got?
If not himself, then he has naught
To say the things he truly feels and not the words of one who kneels
The record shows I took the blows and did it my way

*[instrumental]*

Yes, it was my way

SAVOLLAR:

1. Jaz (djaz) iborasiga izoh bering.
2. Jaz qachon va qaerda paydo bo'lgan?
3. Jazning qanday oqim va yo'nalishlarini bilasiz?
4. Mashhur jaz namoyondalarini ayting.
5. Improvizatsiya so'ziga izoh bering.
6. »Sving» deganda nimani tushunasiz?
7. O'zbekistondagi jaz namoyondalarini ayting?
8. Jaz ijrochiligi bo'yicha qanday tanlovlarni bilasiz?
9. D.Amanullayevaning qaysi jaz yo'nalishidagi asarlarini bilasiz
10. O'zbekistonda qaysi kompozitorlar jaz yo'nalishida asarlar yaratgan?

VAZIFALAR:

1. Etno-jaz ijodkorlari va ijrochilari bo'yicha internet va boshqa manbalardan ma'lumot yig'ing va keyingi darsda o'qituvchingizga aytib berasiz.
2. O'zbekistondagi jaz yo'nalishi bo'yicha ma'lumot yig'ing va o'rganib keling.

3. **«Je suis malade»** asarining lad strukturasi va ijro dramaturgiyasini analiz qilib, tayyorlang.

4. D.Amanullayevaning jaz yo‘nalishidagi vokal asarlarini tahlil qiling («Sen eding», «Sen ketarsan»).

5. Ijro repertuaringizga kiritilgan barcha asarlarning audio yozuvlarini darslik kompakt-diskidan yoki OTM fonotekasidan ko‘chirib olib

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Konen V. Puti amerikanskoy muziki. M., 1984.

2. Konen D. Legenda i pravda o djaze // Konen D. Etyudi o zarubejnoy muzike. M.: Muzika, 1975.

3. Klitin S. Estrada: problemi teorii, istorii i metodiki. L.: Iskusstvo, 1987.

4. Bekov O. Sovremennaya uzbekskaya estradnaya pesnya v kontekste muzikalnoy kulturi Uzbekistana. T.: SITI. M (m) B-42 № 9311994. 1994.

5. Ovchinnikov ye. Istoriyajaza. Vip. 1. M.,Muzika,1994.

6. Sardjent U. Djaz. M., Muzika, 1987.

7. Kollier Dj. Stanovlenie djaza. M.: Raduga, 1984

8. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;

9. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;

10. R.Islamova «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010

## 73–76-DARSLAR. O‘zbekiston kompozitorlarining jaz vokal asarlari

37-38chi xaftalarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. Vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi «Unutmadim» asari ustida ishni davom ettirish;
3. Shaxsiy ijro rejangizdagi Jaz yo‘nalishidagi yangi asarlarni o‘zlashtirish;
4. O‘zbekiston kompozitorlarining jaz vokal asarlari bilan tanishish.
5. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**1. Vokal mashqlari.**

Quyidag vokal mashqlarini bajaring. Chuqur nafas, sof intonatsiya, yuqori tessiturada tirgakli tovushlarning yorqin sadosini ko‘rsatishga intiling.



Artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (staccato).
Diafragmani ishlatish uchun va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.












Ovozni texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.




Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.
Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.






**2. «Unutmadim»** asarini sahna ijrosiga tayyorlang. Jo‘rnavoz bilan repetitsilar orqali ijro mahorati ustida ishlash kerak. Alohida e’tiborni avj-kulminatsiya qismlaridagi intonatsion ifodaga qaratish kerak. Unda she’r mazmunini va g‘oyasini intonatsion ifodalab berishga intiling. Ushbu avj qismlarida katta nafas, tirgakli tovushlarni mohirona ishlata olish kerak. Kafedraning konsert dasturlarida sahnada ushbu asarni ijro etishga xarakat qilish kerak.

3. Ayollar ijrosida: **«Je suis malade» va** Erkaklar ijrosida: **«My Way»** asarlarining nota va she’riy matnini o‘rganish, fransuz va ingliz tilidagi talaffuz ustida ishlash, ijro mahoratini rivojlantirish zarur.

# JE SUIS MALADE

Paroles de
Serge LAMA

Musique de
Alice DONA






# MY WAY

Original French Words by
Gilles Thibault

English Words by Paul Anka
Music by Jacques Revaux
and Claude Francois






4. O‘zbekiston kompozitorlarining yangi jaz vokal asarlari bilan tanishish.

**«O‘zgacha»** – D.Amanullayeva musiqasi, klassik o‘zbek shoiri Alisher Navoiy g‘azaliga yaratilgan djaz-rok yo‘nalishidagi vokal asar. Ma’lumki, A.Navoiy g‘azallariga asosan an’anaviy va akademik yo‘nalishidagi mumtoz vokal asarlar, kompozitorlar tomonidan romans va opera asarlari yaratilgan.

«Vahki, chamandin yana esdi shamol o‘zgacha,

*Har dam o‘lur atridin ko‘nglima hol o‘zgacha.»* – A.Navoiyning ushbu g‘azali teran lirik obrazlarda yozilgan bo‘lib, unda tabiatning va havoning go‘zalligi bilan zavqlanish, gul-chechaklarni va qushlarni o‘z dilbariga taqqoslash kabi she’riy kompozitsiya mavjud. Ushbu she’riy matnning ta’siri jaz-rok usulidagi ritmda, ko‘tarinki kayfiyatdagi bayramona, major tonalligidagi, sho‘x va o‘ynoqi rasmdagi yorqin ohanglarda yana ham kuchayadi. Ayniqsa, ikkinchi kupletdagi musiqa matni (37chi takt), kutilmaganda bir ton baland tonallikda yangrashi, asarga yangicha xarakter baxsh etib, yana-da kayfiyatni ko‘taradi.

Musiqiy matn milliy an’anaviy qo‘shiqlar shaklida yaratilib, unda ohang tizimi past pardalardan asta sekin yuqori pardalarga ko‘tariladi. Har bir yangi pardaga ko‘tarilish qismi dinamik jihatdan kuchayib boradi, va baland pardalardagi avjlar (21-32 taktdar va 53-64chi taktlar) yanada kuchaytirilgan, dramatiklashtirilgan xarakterda, ekspressiya ranglarida ifodalanadi.

Mazkur asarda biz A.Navoiyning misralarini yangicha uslubda, zamonaviy janr va ritmlarda, she’rni yangicha musiqiy dramaturgiyasida ifodaladik. Ushbu asar orqali biz yosh estrada xonandalarini A.Navoiy she’riyati bilan qiziqishga, mumtoz she’riyatni yetib anglashga, va kelajakda ajoyib va beqiyos o‘zbek mumtoz she’rlar ila ijod qilishga qaratamiz.

Asar dramatik tenor ovozlari uchun mos keladi. U ijrochidan keng diapazonli yorqin ovozni, yuqori texnikadagi badihaviy ijroni talab etadi. Asar ijrochilarga o‘z mahoratini namoish etishga, ovoz zaxiralaridan mukammal ravishda foydalana olish imkoniyatini yaratib beradi.

**«Boshim egib qo‘yma, dunyo!»-** D.Amanullayeva musiqasi, shoira Z.Rajabova she’riga 2014chi yilda yaratilgan murakkab, jaz yo‘nalishidagi soul-ballada. U soul stilistik yo‘nalishida yaratilgan bo‘lib, rivojlangan naqarotli kuplet shakldan tashkil topgan.

Asarning obraz tuzilmasi lirik-psixologik, iztirobli va fojiali ohanglarning keskin va keng ekstaz xarakterli kulminatsiya almashuviga asoslangan. Asarning tuzilmasi va intonatsion tilini musiqiy obrazlar belgilab, variatsiyalashgan qismlar ikki kupletli keng kompozitsiyada aks ettirilgan. Uning formulasi quyidagicha:

| Birinchi kuplet | Ikkinchi kuplet |
|---|---|
| A B C | A B C D C |

A qismi – cholg‘u kirish qismi bo‘lib, uning musiqiy matosi S qismidagi naqarot ohangining o‘zgartirilgan, variatsiyalashtirilgan maqomida yozilgan. Tabiiy minor ladidagi yig‘isimon, iltijo ohanglardagi musiqiy mato she’rning ma’nosini chizib bergan.

B qismi – xonanda ijrosidagi kuplet qismi bo‘lib, u lirik ohangda boshlanadi. She’riy so‘zlarni rechitativlashgan yo‘nalishda, aniq va ta’sirli ifodasida ijro etish talab etiladi. 22chi taktdan dinamika kuchayib, dramatik xolatdagi naqarot qismiga kirib keladi.

C qismi – Naqarot qismi (26-35chi taktlar). «*Boshim egib qo‘yma, dunyo*» so‘zlari bilan ijro etiladigan baland pardalardagi naqarot, jo‘shqin va chuqur dramatik xissiyotlardagi, patetik xarakterdagi ijroni talab etadi.

D qismi – epizod qismidagi yangi improvizatsiya matosi. U eng ta’sirli, eng dramatik markaziy qismdir (35-55chi taktlar). Sekvensiyalar oqali tonallik plan o‘zgarib boradi, va nixoyat asosiy tonallikdan uzoq bo‘lgan do minor tonalligida, badihaviy so‘zsiz vokaliz chuqur fojiaviy ruhda yangraydi. Ushbu eng baland avj qismi dramatik ruhdagi, eng ta’sirli, jazavali ijroni talab etadi. Unda ijrochi yangi ta’sirchan qiyofada, badihaviy jaz yo‘nalishida, baland tessituradagi tovushlarda, ehtirosli va keng ko‘lamli vokaliz ijrosini ko‘rsatishi lozim.

Ikkinchi kupletdagi oxirgi yakunlovchi naqarot boshqacha tusda, «p» dinamikasidagi iltijo xarakterida tugallashi mumkin.

Ushbu asardagi eng murakkab vazifa – badiiy ohang ifodasidir. Asarning ijro dramaturgiyasi she’riy matnga asosan yaratilgan. Bu asar ham o‘ziga hos monospektakldir. Shu o‘rinda ijrochi-xonanda ijodiy fantaziyasini ishlatishi darkor bo‘lib, asarni o‘z hissiyotida, ijodiy xayoloti bilan boyitib, intonatsion tembr va dinamik bo‘yoqlarda, «soul» ifodasida samimiy va ta’sirli ijro etilishi talab etiladi.

Balladaning murakkabligi nafaqat musiqaning xarakter almashuvi va baland tessiturali kulminatsiyalarda, balki asarning improvizatsiyalashgan qismidadir. Asarning talqini ijrochidan ijodiy yondoshishni, artistik mahoratni, yangi stilistik qiyofani aks ettirishni talab etadi.

Asardagi tonallik ayollar ovozi uchun berilgan. Tenorlar tonalligi – re minorga to‘g‘ri keladi. Fortepiano jo‘rligida ijro etish tavsiya etiladi.

# ЎЗГАЧА
# O‘ZGACHA

Алишер Навоий шеъри
Alisher Navoiy she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqa




Бул-бу-лу қум-ри че-киб лаҳ-ну на-во ўз-га
Bul-bu-lu qum-ri che-kib lah-nu na-vo o‘z-ga
навъ, кўр-гу-за-дур сар-ви гул
nav’, ko‘r-gu-za-dur sar-vi gul
ған-жу да-лол ўз-га-ча.
g‘an-ju da-lol o‘z-ga-cha.
Сав-сан ў-луб сар-ба-
Sav-san o‘-lub sar-ba-
ланд ғун-ча қи-либ нўш-ханд,
land g‘un-cha qi-lib no‘sh-xand,
f
8va


эл-га а-лар-дин е-тиб дафъ-и ма-лол ўз-га-
el-ga a-lar din ye-tib daf'-i ma-lol o'z-ga-
ча. Эл-га а-лар-дин е-тиб
cha. El-ga a-lar-din ye-tib
gliss. 8va
дафъ-и ма-лол ўз-га-ча.
daf'-i ma-lol o'z-ga cha.
f


mf
Кир-ди ма-гар дил-ба-рим ху-ру па-ри пай-ка-
Kir-di ma-gar dil-ba-rim hu-ru pa-ri pay-ka-
mf
рим, гул-шан а-ро кўнг-ли-да
rim, gul-shan a-ro ko‘ng-li-da
фик-ру ҳа-ёл ўз-га-ча. Сун-бу-лу пур-тоб
fik-ru ha-yol o‘z-ga cha. Sun-bu-lu pur-tob
ҳам, ло-ла-и се-роб ҳам,
ham, lo-la-i se-rob ham,


дуд и-ла ўт-дин то-пиб шиб-ҳу ми-сол ўз-га-
dud i-la o‘t-din to-pib shib-hu mi-sol o‘z-ga-
ча. Зуҳд На-во-ий сен-га
cha. Zuhd Na-vo-iy, sen-ga
8va
f
бер-ма-ди мас-жид-да файз, эм-ди қи-риб дайр а-
ber-ma-di mas-jid-da fayz, em-di qi-rib dayr a-
ро тар-ҳи-ни сол ўз-га-ча!
ro tar-hi-ni sol o‘z-ga-cha!
gliss.




02.2013

Ваҳки чамандин яна эсди шамол ўзгача,
Ҳар дам ўлур атридин кўнглима ҳол ўзгача.

Булбулу қумри чекиб лаҳну наво ўзга навъ,
Кўргузадур сарву гул ғанжу далол ўзгача.

Савсан қлуб сарбаланд ғунча қилиб нўшханд,
Элга алардин етиб дафъи малол ўзгача.

Кирди магар дилбарим ҳуру пари-пайкарим,
Гулшан аро кўнглида фикру ҳаёл ўзгача.

Сунбулу пуртоб ҳам, лолаи сероб ҳам,
Дуд ила ўтдин топиб шибҳу мисол ўзгача.

Зуҳд Навоий, сенга бермади масжидда файз,
Эмди қириб дайр аро тарҳини сол ўзгача!

Vahki chamandin yana esdi shamol o‘zgacha,
Har dam o‘lur atridin ko‘nglima hol o‘zgacha.

Bulbulu qumri chekib lahnu navo o‘zga nav’,
Ko‘rguzadur sarvi gul g‘anju dalol o‘zgacha.

Savsan o‘lub sarbaland g‘uncha qilib no‘shxand,
Elga alardin yetib daf’i malol o‘zgacha.

Kirdi magar dilbarim huru pari - paykarim,
Gulshan aro ko‘nglida fikru hayol o‘zgacha.

Sunbulu purtob ham, lolai serob ham,
Dud ila o‘tdin topib shibhu misol o‘zgacha.

Zuhd Navoiy, senga bermadi masjidda fayz,
Emdi qirib dayr aro tarhini sol o‘zgacha!

# БОШИМ ЭГИБ ҚЎЙМА, ДУНЁ!
# BOSHIM EGIB QO‘YMA, DUNYO!

Зилола Ражабова шеъри
Zilola Rajabova she’ri

Дилором Амануллаева мусиқаси
Dilorom Amanullayeva musiqasi




эй воҳ,се-виш гу-ноҳ-ми-ди? Сен-сиз ҳа-ёт бўш-лиқэн - ди...
ey voh,se-vish gu-noh-mi-di? Sen-siz ha-yot bo‘sh-liq en - di...
А-лам-лар-дан қий-нал-ди жон, ай-ри-лиқ-нинг дар-ди ё-мон,
A-dam-lar-dan qiy-nal-di jon, ay-ri-liq-ning dar-di yo-mon,
дил-да фа-қат қол-ди ҳиж-рон...
dil-da fa-qat qol-di hij-ron...
mf
На-ҳот-ки сен ке-тар бўл-динг, кўз-ла-рим-ни ёш-лар бўл-динг.
Ha-hot-ki sen ke-tar bo‘l-ding, ko‘z-la-rim-ni yosh-lar bo‘l-ding.
mf


Эй фа-лак, мен йиғ-ла сам
Ey fa-lak, men yig‘-la sam,
куй-га-ним-дан йиғ-лай-ман,
kuy-ga-nim-dan yig‘-lay-man,
му-ҳаб-бат-нинг о-зо-ри
mu-hab-bat-ning o-zo-ri
ет-га-ни-дан йиғ-лай-ман.
yet-ga-ni-dan yig‘-lay-man.
sub.mf cantabile
Йиғ-лай-ма-ну, ўй-лай-ман,
Yig‘-lay-ma-nu, o‘y-lay-man,
ў-йим-га ҳеч е-тол-май,
o‘-yim-ga hech ye-tol-may,
sub.mf
бу сав-до-лар бо-шим-га
bu sav-do-lar bo-shim-ga
қай-дан кел-ди, бил-май-ман.
qay-dan kel-di, bil-may-man.


mf
Йиғ-лай-ма-ну, ўй - лай - ман, ў-йим-га ҳеч е - тол - май,
Yig‘-lay-ma-nu, o‘y - lay - man, o‘-yim-ga hech ye - tol - may,
бу сав-до-лар бо - шим - га қай-дан кел-ди, бил - май - ман.
bu sav-do-lar bo - shim - ga qay-dan kel-di, bil - may - man.
Шун-ча-лар дил о - зор - ки, жа-воб-сиз сев - ги,
Shun-cha-lar dil o - zor - ki, ja-vob-siz sev - gi,
шоҳ, га-до-ни аж - рат - мас, а-ёв-сиз сев - ги...
shox, ga-do-ni aj - rat - mas, a-yov-siz sev - gi...
8vb


Шун-ча-лар дил о-зор-ки, жа-воб-сиз сев-ги,
Shun-cha-lar dil o-zor-ki, ja-vob-siz sev-gi,
шох, га-до-ни аж-рат-мас, а-ёв-сиз сев-ги...
shox, ga-do-ni aj-rat-mas, a-yov-siz sev-gi...


mf
Бир кам дун - ё, ас - ло ка-минг тўл-май - ди,
Bir kam dun - yo, as - lo ka-ming to‘l- may - di,
сар-сон бўл-ма, син - ган кўн-гил бит май - ди.
sar-son bo‘l-ma, sin - gan ko‘n-gil bit- may - di.
А-до-ғи йўқ му-ҳаб-бат-нинг қий - ноқ - ла ри,
A-do-g‘iyo‘q mu-hab-bat-ning qiy - noq - la - ri,
айт - сам дос - тон, ас - ло а - до бўл - май - ди.
ayt - sam dos -ton, as - lo a -do bo‘l - may - di.
8vb




02.2015

| | |
|---|---|
| Бир кам дунё, асло каминг тўлмайди,<br>Сарсон бўлма, синган кўнгил битмайди.<br>Адоғи йўқ муҳаббатнинг қийноқлари,<br>Айтсам достон, асло адо бўлмайди. | Bir kam dunyo, aslo kaming to‘lmaydi,<br>Sarson bo‘lma, singan ko‘ngil bitmaydi.<br>Adog‘i yo‘q muhabbatning qiynoqlari,<br>Aytsam doston, aslo ado bo‘lmaydi. |
| Эй фалак, мен йиғласам, куйганимдан йиғлайман,<br>Муҳаббатнинг озори етганидан йиғлайман. | Ey falak, men yig‘lasam, kuyganimdan yig‘layman,<br>Muhabbatning ozori yetganidan yig‘layman. |
| Йиғлайману, ўйлайман, ўйимга ҳеч етолмай,<br>Бу савдолар бошимга қайдан келди, билмайман. | Yig‘laymanu, o‘ylayman, o‘yimga hech yetolmay,<br>Bu savdolar boshimga qaydan keldi, bilmayman. |
| Шунчалар дил озорки, жавобсиз севги,<br>Шоҳ, гадони ажратмас, аёвсиз севги... | Shunchalar dil ozorki, javobsiz sevgi,<br>Shox, gadoni ajratmas, ayovsiz sevgi... |
| Бир кам дунё, асло каминг тўлмайди,<br>Сарсон бўлма, синган кўнгил битмайди.<br>Адоғи йўқ муҳаббатнинг қийноқлари,<br>Айтсам достон, асло адо бўлмайди.<br>Бир кам дунё, бир кам дунё... | Bir kam dunyo, aslo kaming to‘lmaydi,<br>Sarson bo‘lma, singan ko‘ngil bitmaydi.<br>Adog‘i yo‘q muhabbatning qiynoqlari,<br>Aytsam doston, aslo ado bo‘lmaydi.<br>Bir kam dunyo, bir kam dunyo... |

SAVOLLAR:

1. Etno-djaz iborasiga izoh bering.
2. Fyujn so'zi nimani anglatadi?
3. Jazning qanday oqim va yo'nalishlarini bilasiz?
4. Mashhur jaz namoyondalarini ayting.
5. Big-Bend bu nima?
6. «Sving» deganda nimani tushunasiz?
7. Jaz-rok yo'nalishidagi namoyondalarini ayting?
8. «Bard» deganda nimani tushunasiz?
9. E.Fitsjerald ijro etgan asarlarni ayting.
10. F.Sinatra dasturidagi asarlarni sanab bering.

VAZIFALAR:

1. Avangard djaz va Avangard rok bo'yicha internet va boshqa manbalardan ma'lumot yig'ing va keyingi darsda o'qituvchingizga aytib berasiz.
2. Yakuniy nazoratida topshirishingiz lozim bo'lgan, tasdiqlangan shaxsiy rejangizga kiritilgan keyingi asarlarni mustaqil ravishda notadan tayyorlab boring.
3. «Je suis malade» va «My Way» asarlarini sahna ijrosiga tayyorlang.
4. Darslik ilovasidagi kompakt disk audio yozuvlardan «Je suis malade» va «My Way» asarlarini tinglab, ijro dramaturgiyasini tahlil qiling.
5. O'zbek estradasi mavzusida kichik ommabop maqola yozishga xarakat qiling. Keyingi darslarda o'qituvchingiz bilan maslaxatlashing.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Konen V. Puti amerikanskoy muziki. M., 1984.
2. Konen D. Legenda i pravda o djaze // Konen D. Etyudi o zarubejnoy muzike. M.: Muzika, 1975.
3. Klitin S. Estrada: problemi teorii, istorii i metodiki. L.: Iskusstvo, 1987.
4. Bekov O. Sovremennaya uzbekskaya estradnaya pesnya v kontekste muzikalnoy kulturi Uzbekistana. T.: SITI. M (m) B-42 № 9311994. 1994.
5. Ovchinnikov Ye. Istoriyajaza. Vip. 1. M.,Muzika,1994.
6. Sardjent U. Djaz. M., Muzika, 1987.
7. Kollier Dj. Stanovlenie djaza. M.: Raduga, 1984
8. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o'quv qo'llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
9. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o'quv qo'llanma, 14 b.t., T.,2010;
10. R.Islamova «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010

## 77–80-DARSLAR. 2-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish

39-40 xaftalarda yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko'riladi.

O'quv yilinig 30-haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) dasturning uchta asarini topshirgansiz (vokaliz, Vatanparvarlik mavzusidagi asar,ballada asarlarni). Tanlovda qatnashib O'zbekiston kompozitorining yangi asarini ijro etgan bo'lsangiz, demak sizga yakuniy nazoratda faqat bitta asar ijrosi – jaz yo'nalishidagi asarini topshirish qoladi. Ushbu shaxsiy ijro rejangizga kiritilgan asarlarni mukammal o'zlashtirishingiz lozim. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Turli janrlardagi asarlarni me'yoriga yetkazib, asarlar mazmunini tinglovchiga singdira olsangizgina mahoratingiz ijobiy baholanadi. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

Test savollariga tayyorgarlik ko‘rish esingizdan chiqmasin!

39-40chi xaftalarda quyidagi mashg‘ulotlar bajariladi:

1. vokal mashqlari;
2. Shaxsiy ijro rejangizdagi asarlarni («Unutmadim», Jaz yo‘nalishidagi asarlarni) sahna ijrosiga tayyorlash;
3. Ijro mahorati qirralari va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

1. **Vokal mashqlari**

Quyidagi keltirilgan mashqlarni to‘la bajarishga xarakat qiling.

Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun estrada yo‘nalishidagi kuy.

Estrada ijro yo‘nalishiga (manernost ispolneniya) ahamiyat qilish lozim.






Ovozni texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. Bu mashqlar bir nafasda ijro etiladi.




2. Shaxsiy ijro rejangizdagi asarlarni («Unutmadim», Jaz yo‘nalishidagi asarlarni) sahna ijrosiga tayyorlash.

Yana bir bor ixtisosiy talablarga nazar solamiz:

**Ixtisosiy talablar**: (1 va 2 semestrlar uchun)

– Ovoz diapazonining kengligini ko‘rsatmoq;
– Rivojlangan texnik ijroni ko‘rsatmoq (nola, glissando, forshlag va xokazo)
– Tovushning erkin filirovkasi;
– Rivojlangan va erkin tirgakli tovush;
– Asarlardagi badiiy obrazni ko‘rsatmoq;
– Chet el tillarda sof talaffuz.

Yakuniy nazoratda komissiya a’zolari sizga baho berishda ana shu ijro jihatlarni bajarganligingiz va shaxsiy ijro rejangizdagi hamma dasturni to‘la bajarganligingizga qarab sizga baho beradi. Asarlar ijrosida asarning dramaturgiyasini ochib berish, artistik mahoratli, ta’sirli ijroni ko‘rsatish, stilistik yo‘nalishlarni his etish, sof talaffuz, mikrofonlar bilan ishlay olish jihatlari talab etilgan darajada bajarilishi kerak bo‘ladi. Sahna mahoratiga tashqi

ko'rinishidan boshqa yana ichki madaniyat, intellekt, sahna go'zalligi (sharm), imidj, sahna va artistik qiyofangiz ustida ham ishlashingiz kerak bo'ladi.

Ana shu keltirilgan jihatlar bo'yicha Ijro dasturidagi «Unutmadim», «Je suis malade» va «My Way» asarlarini sahna ijrosiga tayyorlang.

# JE SUIS MALADE

Paroles de
Serge LAMA

Musique de
Alice DONA



# MY WAY

Original French Words by
Gilles Thibault

English Words by Paul Anka
Music by Jacques Revaux
and Claude Francois



O‘quv rejadagi semestrning boshqa fanlarini ham topshirib, keyingi semestrda, ya’ni 2-kursda o‘qishingizni davom ettirishingiz mumkinligi hyech qachon esingizdan chiqmasin!

SAVOLLAR:

1. Avangard-djaz iborasiga izoh bering.
2. Avangard-rok iborasiga izoh bering.
3. Saxna imidji deganda nimani tushunasiz?
4. D.Amanullayevaning novatorligi nimada?
5. D.Amanullayeva ijodida milliylik jihatlari nimada namoyon bo‘ladi?
6. Aranjirovka deganda nimani tushunasiz?
7. Jaz-rok yo‘nalishidagi namoyondalarini ayting?
8. «Blyuz» deganda nimani tushunasiz?
9. L.Fabian ijro etgan asarlarni ayting.
10. U.Xyuston dasturidagi asarlarni sanab bering.

VAZIFALAR:

1. Avangard djaz va Avangard rok bo‘yicha internet va boshqa manbalardan ma’lumot yig‘ing va keyingi darsda o‘qituvchingizga aytib berasiz.
2. Darslikka ilova qilingan kompakt-diskdagi barcha audio yozuvlarni tinglang va ustozingiz, kursdoshlaringiz bilan fikr almashing.
3. «Je suis malade» va «My Way» asarlarini sahna ijrosiga tayyorlang.
4. Kafedra o‘qituvchilarining estrada-jaz vokal san’atiga oid maqolalarini konservatriya ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plamlaridan kutubxonada izlab toping va tanishib chiqing. O‘qituvchingiz va talabalar bilan fikrlashing.
5. O‘zbek estradasi mavzusida kichik ommabop maqola yozishga xarakat qiling. Keyingi darslarda o‘qituvchingiz bilan maslaxatlashing.

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Konen V. Puti amerikanskoy muziki. M., 1984.
2. Konen D. Legenda i pravda o djaze // Konen D. Etyudi o zarubejnoy muzike. M.: Muzika, 1975.
3. Klitin S. Estrada: problemi teorii, istorii i metodiki. L.: Iskusstvo, 1987.
4. Ovchinnikov Ye. Istoriyajaza. Vip. 1. M.,Muzika,1994.
5. Sardjent U. Djaz. M., Muzika, 1987.
6. Kollier Dj. Stanovlenie djaza. M.: Raduga, 1984
7. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o‘quv qo‘llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa» 2015;
8. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o‘quv qo‘llanma, 14 b.t., T.,2010;
9. Amanullayeva D. «Obzor stilisticheskix napravleniy vokalno-estradnogo iskusstva Uzbekistana. (1991-2009 gg.)» Ilmiy maqola. «Protsessi reformirovaniya sistemi muzikalnogo obrazovaniya» mavzuidagi birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2009, 164-169 betlar
10. R.Islamova «Osnovi shou-biznesa». T.: 2010

## 2-semestrda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar

1. Estrada atamasi ... demakdir
A) Pog‘ona
B) Sahna
D) Balandlik
E) Ring

2. Pop-muziqa – bu ...
A) Ommaviy musiqa
B) Madaniy musiqa
D) Umumxalq musiqa
E) Yakka musiqa

3. Kantri – bu
A) Oq tanlilar qishloq folklor musiqasi
B) Oq tanlilar shahar folklor musiqasi
D) Qora tanlilar folklor muziqasi
E) Qizil tanlilar folklor muziqasi

4. Disko – bu ...
A) Raqsbob uslub
B) Xordiq uslubi
D) Akademik uslub
E) Simfonik uslub

5. Soul – ... musiqasi uslubi.
A) Pop
B) Jaz
D) Rok
E) Disko

6. «Pop-musiqasi qiroli» unvonini olgan qo‘shiqchi
A) M.Djekson
B) Sting
D) F.Merkuriy
E) Madonna

7. Bit va rechitatsiyaga asoslangan pop-musiqasi uslubi
A) Rep
B) Disko
D) Fank
E) Rok

8. Xip-xop uslubining yaralish joyi...
A) Nyu-York
B) Chikago
D) Texas
E) Kaliforniya

9. Xip-xop uslubiga tegishli bo‘lgan tasviriy san’at turi
A) «graffiti»
B) «stenopisi»
D) «stenofiksi»
E) «steno»

10. Fransuzcha pop musiqasi uslubi
A) Shanson
B) Blyuz

D) Soul
E) Xip-xop

11. Raqsbob uslublar orasidagi eng «texnogen» uslub
A) Texno
B) Xip-xop
D) Rep
E) Pop

12. Klassik vokal jazining yulduzi:
A) Lui Armstrong
B) Areta Yuranklin
D) Dyuk Ellington
E) E.Fitsdjerald

13. «Sket» texnikasining «muallifi»
A) L.Armstrong
B) E.Fitsdjerald
D) O.Piterson
E) M.Jekson

14. Bi-bop uslubi asoschilari
A) D.Gillespi
B) K.Djarrit
D) D.Ellington
E) O.Piterson

15. A.Mustafa-zoda qaysi millat djaz musiqasi malikasi?
A) Ozarbayjon
B) Eron
D) Turk
E) Arab

16. Ritm-n-blyuz, Soul, Fank, Disko, Texno, Reggi, Xip-xop, Shanson-bu
A) Pop musiqasi uslublari
B) Rok musikasi uslublari
D) Jaz musiqasi uslublari
E) Rep musiqasi uslublari

17. R&B .... kelib chiqqan
A) Ritm-n-blyuzdan
B) Rok-n-rolldan
D) Reggidan
E) Rok-n-popdan

18. O‘zbek estradasining asoschisi
A) B.Zakirov
B) Yu.Turayev
D) F.Zokirov
E) D.Omonullayeva

19. «Yalla» guruhining ilk rahbari
A) B.Zokirov
B) Ye.Jivayev
D) F.Zokirov
E) Yu.Usmonova

20. Birinchi o‘zbek estrada kompozitorlari
A) E.Salixov, I.Akbarov

B) M.Ashrafi, S.Yudakov
D) T.Kurbanov, U.Musayev
E) M.Ashrafi, U.Musayev

21. Zamonaviy ESO rahbari
A) A.Ikromov
B) R.Abdullayev
D) A.Ergashev
E) A.Ibodullayev

22. B.Zokirov, L.Zokirova, Yu.Turayev, M.Shamayeva, R.Sharipova o‘zbek estradasining nechchinchi yillar yulduzlari?
A) 70
B) 50
D) 90
E) 80

23. «Yomg‘ir yog‘di» qo‘shig‘ining muallifi
A) D.Amanullayeva
B) N.Norxojayev
D) A.Ikromov
E) A.Ergashev

24. «Uch kuduk» qo ‘shig‘ining ijrochisi
A) «Yalla» guruhi
B) «Original» guruhi
D) «Sado» guruhi
E) «Setora» guruhi

25. «Ra’no», «Gazli», «Qaydasan?» qo‘shiqlarining muallifi
A) I.Akbarov
B) E.Salixov
D) N.Norxodjayev
E) D.Omonullayeva

26. «Saraton», «Yomg‘ir yog‘di», « Siz yoqqansiz...» qo‘shiqlar ijrochisi
A) K.Razzoqova
B) N.Nurmuxammedova
D) R.Sharipova
E) D.Omonullayeva

27. O‘zbek estradasining asosiy yo‘nalishlari
A) Milliy estrada, klassik estrada, oriyent-pop, pop musiqasi uslublari
B) Soul, klassik estrada, shanson
D) Disko, Texno, Xip-xop
E) Pop, disko, Texno, Xip-xop

28. T.Sodiqov qaysi gurih xonandasi?
A) «Bolalar»
B) «Shaxzod»
D) «Xo‘ja»
E) «Yalla»

29. O.Nazarbekov ijro yo‘nalishi
A) Milliy Estrada
B) Klassik estrada
D) Orint-pop
E) Folklor

30. O‘zbekistonda vokal jaz musiqasi yulduzi
A) A.Balich
B) Shoxriyor
D) O.Nazarbekov
E) T.Sodiqov

31. T.Sodiqov qaysi uslub vakili
A) Pop-rok
B) Soul
D) Etno-jaz
E) Rep

32. O‘zbek etno-pop-rok uslubi vakili
A) S.Nazarxon
B) R.Sharipov
D) R.Xoliqov
E) A.Ergashev

33. «Qars» guruhining ijro uslubi
A) Folk-rok
B) Jaz rok
D) Spid-rok
E) Rok

34. «Saraton», «Yomg‘ir yog‘di», «Siz yoqqansiz...» qo‘shiqlari muallifi
A) D.Amanullayeva
B) R.Abdullayev
D) S.Yudakov
E) F.Zokirov

35. O‘zbekiston musiqiy telekanallari
A) «MuzTV»
B) «Forum TV»
D) «Yoshlar»
E) «O‘zbekiston»

36. O‘zbekistonda eng birinchi hususiy musiqiy radio
A) «Grand»
B) «Vodiy sadosi»
D) «Oriyat Dono»
E) «Mash’al»

37. O‘zbek estradasidagi ustivor yo‘nalishlar
A) Raqsbop
B) Mumtoz
D) Vatan haqidagi
E) An’anaviy

38. N.Abdullayeva, F.Zokirov, K.Razzoqova qaysi musiqiy yo‘nalishda kuylaydilar?
A) Klassik Estrada
B) Milliy Estrada
D) Pop-musiqasi uslublarida
E) Rep-musiqasi uslublarida

39. Dyuk Ellington kim?
A) Klassik jaz musiqasi asoschisi
B) Rok musiqasi asoschisi
D) Pop musiqasi asoschisi
E) Rep-musiqasi asoschisi

40. Bionse qaysi musiqiy uslub vakili?
A) R&B
B) Shanson
D) Xard-rok
E) Rep

41. M.Djekson
A) Pop qiroli
B) Jaz qiroli
D) Rok qiroli
E) Rep qiroli

42. E.Piaf.........estrada musiqasi yulduzi
A) Fransuz
B) Nemis
D) Ingliz
E) Ispan

43. Shanson........pop musiqasi uslubi?
A) Fransiya
B) Italiya
D) Amerika
E) Afrika

44. Afroamerika folklor musiqasi ladi?
A) Blyuz
B) Major
D) Doriy
E) Minor

45. Blyuz ladiga asoslangan rok musiqasi uslubi?
A) Blyuz-rok
B) Metall-rok
D) Psixodelik-rok
E) Shanson

46. Djaz musiqasi qaysi ladga asoslangan?
A) Blyuz
B) Ioniy
D) Frigiy
E) Doriy

47. Nyu-Orlean uslubi nechchinchi yillarda shakllangan?
A) 1910
B) 1930
D) 1940
E) 1950

48. Dizzi Gilespi cholg'usi?
A) Truba
B) Baraban
D) Skripka
E) Doira

49. O.Piterson taniqli.......
A) Pianinochi
B) Saksofonchi
D) Baschi
E) Altchi

50. Chikagoda shakllangan uslub nomi?
A) Chikago
B) Nyu-Orlean
D) Bi-bop
E) Sving

51. Djazning eng «jizzaki» uslubi
A) Bi-bop
B) Sving
D) Kul
E) Nyu-Orlean

52. Bi-bop uslubi 1940 yilda ......... shakllangan
A) Nyu-Yorkda
B) Los-Anjelesda
D) Nyu-Orleanda
E) Nyu-Jersida

53. Jazning eng «sovuq» uslubi?
A) Kul
B) Etno-jaz
D) Fri-jaz
E) Pop-jaz

54. «Sket» bu.....
A) Kuyni turli bo‘g‘inlarga qo‘yib ijro etish
B) Qo‘shiqni kuysiz ijro etish
D) Qo‘shiqni so‘zsiz ijro etish
E) Qo‘shiqni so‘z bilan ijro etish

55. Aziza Mustafo Zoda ozarbayjon jaz musiqasini .......asoslagan
A) Mug‘omlarga
B) Maqomlarga
D) Ragalarga
E) Maqomlarga

56. Jazning eng tez uslubi – bu....
A) Bi-Bop
B) Sving
D) Etno-jaz
E) Chikago

57. Eng raqsbop jaz uslubi....
A) Sving
B) Chikago
D) Progressiv
E) Bi-bop

58. Jazni professional musiqa darjasiga olib chiqqan uslub....
A) Bi-bop
B) Sving
D) Chikago
E) Progressiv

59. Lui Armstrongning sevimli cholg‘usi......
A) Truba
B) Saksofon
D) Fortepiano
E) Baraban

60. Klassik jazda qo‘llanmaydigan cholg‘u
A) Ritm gitara
B) Bandjo
D) Baraban
E) Fortepiano

61. «Karavan» jaz kompozitsiyasi muallifi?
A) D.Ellington
B) L.Armstrong
D) D.Gillespi
E) T.Kutuno

62. Jaz va rok yo‘nalishlarining uyg‘unligi
A) Jaz-rok
B) Rok ballada
D) Fri-jaz
E) Soul

63. Italiya pop musiqasining eng mashhur tenori
A) A.Bachelli
B) T.Kutuno
D) E.Ramazotti
E) L.Armstrong

64. 70-80 yillarda jaxon pop musiqasida ustivorlik qilgan uslub
A) Disko
B) Soul
D) Ritm-end-blyuz
E) Rep

65. «Modern Toking» qaysi mamlakat pop musiqasi vakili?
A) Germaniya
B) Fransiya
D) Italiya
E) Angliya

66. M.Magamayev, E.Pexa, M.Kristalinskaya nechanchi yillarda shuxrat qozonganlar?
A) 1960
B) 1970
D) 1980
E) 1990

67. A.Pugacheva rus estradasiga nechanchi yil kirib keldi?
A) 1970-yillarda
B) 1980-yillarda
D) 1950-yillarda
E) 1960-yillarda

68. I.Krutoy taniqli rus estrada ........
A) Kompozitori
B) Xonandasi
D) Gitarachisi
E) Saksafonchisi

69. «Million alix roz» qo‘shig‘ining muallifi kim?
A) R.Pauls
B) I.Krutoy
D) I.Nikolayev
E) V.Kuzmin

70. 1980 yillarda mashhurlikka erishgan Rossiya estrada xonandalari:......
A) S.Rataru, V.Kuzmin
B) L.Utesov, K.Shuljenko
D) V.Miladze, K.Orbakayte
E) V.Kuzmin, K.Orbakayte

71. T.Kutuno taniqli ...........qo‘shiqchisi va kompozitori
A) Italyan
B) Nemis
D) Ingliz
E) Ispan

72. Sh.Aznavur taniqli ...........shansonesi
A) Fransuz
B) Ingliz
D) Nemis
E) Ispan

73. M.Mate taniqli .............estrada xonandasi
A) Fransuz
B) Nemis
D) Italyan
E) Ingliz

74. «Kombo» bu...
A) Jaz guruhi
B) Uslubning nomi
D) Qo‘shiqning nomi
E) Kuyning nomi

75. «Kul» uslubi shakllangan yillar
A) 50-y.
B) 30-y.
D) 40-y.
E) 60-y.

76. Pop musiqasi – bu
A) Hamma uchun tushunarli bo‘lgan musiqa
B) Hammaga yoqadigan musiqa
D) Hamma raqsga tushsa bo‘ladigan musiqa
E) Qo‘shiqbop musiqa

77. Ch. Parker qaysi jaz uslubi asoschisi?
A) Bi-bop
B) Nyu-Orlean
D) Kul
E) Etno-jaz

78. Qaysi jaz uslubida improvizatsiya garmoniya asosida bo‘ladi?
A) Bi-bop
B) Chikago
D) Etno-jaz
E) Kul

79. Jaz asosan nimaga tyanadi?
A) Improvizatsiya, ritm, lad, garmoniya
B) Garmoniya, tembr, lad, ritm
D) Tembr, improvizatsiya, lad, ritm
E) Lad, ritm

80. Kul uslubidagi klassik musikasi elementi
A) Polifoniya
B) Garmoniya
D) Shakl
E) Uslub

81. Jaz shaxzodasi unvoni kimga tegishli?
A) A.Mustafo Zodaga
B) E.Fitsdjeraldga
D) A.Franklinga
E) M.Jeksonga

82. B.Zokirov o‘zbek estradasining qaysi yo‘nalishida ijro etgan?
A) Klassik estrada
B) Milliy Estrada
D) Pop musiqasida
E) Rep Estrada

83. O‘zbek estrada kompozitorlari kimlar?
A) I.Akbarov, E.Salixov, D.Amnullayeva, A.Ikramov
B) I.Akbarov, M.Bafoyev, T.?urbonov, S.Jalil
D) E.Salixov, D.Amnullayeva, T.?urbonov, S.Yudakov
E) M.Bafoyev, T.Qurbonov, S.Jalil

84. Disko uslubiga xos bo‘lgan tashqi elementlar?
A) Yorqin tashqi ko‘rinish va libos, sahnaviy raqsbop harakat
B) Baland tovushdagi musiqa, sahna bezaklari
D) G‘ayritabiiy tovushlar va sahna bezaklari
E) Past tovushdagi musiqa, sahna bezaklari

85. S.Dion, M.Keray, L.Fabianlarning ijro uslubi…
A) Soul
B) Ritm-end-blyuz
D) Rok-n-roll
E) Pop

86. Art-rok uslubi nimalarga tayanadi?
A) Klassik musiqa vositalariga
B) Baland tovushlarga
D) Yorqin liboslarga
E) Raqsga

87. Germaniya pop musiqasiga tegishli bo‘lgan guruhni ko‘rsating
A) «Modern toking»
B) «Aerosmit»
D) «Abba»
E) «Bitlz»

88. Blyuz ladida qaysi pog‘onalar o‘zgaruvchan bo‘ladi?
A) 3,5
B) 2,8
D) 4,5
E) 5,5

89. Ringo Star qaysi guruh barabanchisi?
A) «Bitlz»
B) «Aerosmit»
D) «Kuin»
E) «Abba»

90. Djo Dassen qaysi estrada yulduzi?
A) Fransuz
B) Ispan
D) Italyan
E) Ingliz

91. Rey Charlz qaysi musiqiy yo‘nalishda ijod qilgan?
A) Ritm-end-blyuz, soul, blyuz
B) Rok-n-roll, sving, blyuz
D) Blyuz, rok, sving
E) Sving, blyuz, pop

92. Jaz musiqasi kaysi daryo yo‘li bilan tarqala boshlagan?
A) Missisipi
B) Amazonka
D) Missuri
E) Parana

93. Daryo bo‘ylab sayohat qiluvchi paraxodda qaysi yulduz ijodini boshlagan?
A) L.Armstrong
B) D.Ellington
D) E.Fitsjerald
E) M.Jekson

94. Bi-bop uslubining yaralish sababi nimada edi?
A) Jaz san’atida xavaskorlar yo‘lini to‘sishda
B) Musiqachilarning ko‘proq pul ishlashida
D) Ko‘proq shuxrat qozonish maqsadida
E) Ko‘proq shon-shuxrat va pul topish uchun

95. Pop musiqasi uslublariga nimalar kiradi?
A) Ritm-n-blyuz, Soul, Fank, Disko, Texno, Reggi, Xip-xop, Shanson
B) Disko, Soul, Rok, Texno, Xip-xop
D) Shanson, Texno, Jaz, Fank, Reggi
E) Texno, Xip-xop, Reggi

96. Simfo-pop uslubida qaysi musiqiy yo‘nalishlar uyg‘unlashgan?
A) Klassik musiqa va pop
B) Rok va pop
D) Pop va jaz
E) Pop va rep

97. Simfo-pop uslubida ijod qiladigan xorvat pianistini ko‘rsating.
A) Maksim
B) A.Bachelli
D) Lang-Lang
E) E.Fitsjerald

98. Yanni qaysi musiqiy uslub vakili?
A) Simfo-pop
B) Jaz-rok
D) Fyujn
E) E.Fitsjerald

99. «Bogema rapsodiyasi» qo‘shig‘ining ijrochisi
A) «Kuin» guruhi
B) «Pink Floyd» guruhi
D) «Nazaret» guruhi
E) «Abba» guruhi

100. Emenim qaysi musiqiy uslubda ijro etadi?
A) Xip-xop
B) Rok
D) Texno
E) Jaz

101. O'zbek pop xonandasi Shaxriyor qaysi uslubda ijod qiladi?
A) Xip-xop
B) Jaz
D) Rok
E) Texno

102. Xip-xop uslubi uchun zarur bo'lgan element?
A) Rep
B) Ritm
D) Kuy
E) Texno

103. Xip-xop qaysi millat submadaniyatigategishli?
A) Amerika qoratanlilarining
B) Amerika oqtanlilarining
D) Angliyaxippilarining
E) Amerika qiziltanlilarining

104. Rok musiqasining yaralishi Yevropadagi qaysi yoshlar harakati bilan bog'liq bo'ldi?
A) «Xippilar»
B) «GRIN PIS»
D) «Chap radikallar»
E) «Repperlar»

105. Eng katta ovoz diapazoni qaysi uslubda muhim?
A) Soul
B) Rep
D) Reggi
E) Jaz

106. Reggi uslubining vatani?
A) Yamayka oroli
B) Kipr oroli
D) Fidji oroli
E) Panama oroli

107. Rok musiqasi uchun muhim bo'lgan cholg'u?
A) Elektrogitara
B) Baraban
D) Skripkalar
E) Organ

108. Soul musiqasida shart bo'lgan rivoj vositasi?
A) Improvizatsiya
B) Modulyatsiya
D) Polifonizatsiya
E) Garmonizatsiyas

109. Jazdagi eng past tembrli bas cholg'usi?
A) Kontrabas
B) Fortepiano
D) Trombon
E) Saksofon

110. Banjo cholg'usi qaysi folklor musiqasida uchraydi?
A) Kantri
B) Shanson

D) Soul
E) An’anaviy

111. Rok musiqasining asosiy pog‘onalari:
A) Art rok, Progressiv rok, Xard rok, Dum rok, Trash rok
B) Art rok, Barokko rok, Xard rok, Dum rok, Trash rok
D) Art rok, Progressiv rok, Spiid rok, Dum rok, Trash rok
E) Progressiv rok, Spiid rok, Dum rok, Trash rok

112. Glem-rok so‘zi qaysi so‘zdan olingan?
A) Glamur
B) Bezak
D) Ko‘zga tashlanuvchan
E) Jiloli

113. Texno uslubi qaysi musiqa toifasiga kiradi?
A) Elektron
B) Klassik
D) Rok
E) Pop

114. Disko uslubining o‘lchami?
A) 4/4
B) 3/4
D) 5/4
E) 6/8

115. 1950 yillarda shakllangan jaz uslubi?
A) Kul jaz
B) Fri djaz
D) Xot-jaz
E) Pop-jaz

116. Bi-bop uslubi 1940 yilda ......... shakllangan
A) Nyu-Yorkda
B) Los-Anjelesda
D) Nyu-Orleanda
E) Nyu-Jersida

117. Reggi uslubi bilan bog‘liq bo‘lgan diniy oqim?
A) Rastofarizm
B) Xristian dini
D) Buddizm
E) Iudaizm

118. 20 asrning 30-yillarida, Amerikada iqtisodiy inqiroz natijasida yaralgan musiqiy uslub?
A) Ritm-end-blyuz
B) Soul
D) Blyuz
E) Rok

119. I. Montan, P.Kaas, M.Mate, Dj.Dassen qaysi millat estradasi vakillari?
A) Fransuz
B) Rus
D) Amerika
E) Afrika

120. Turk estradasida qaysi cholg‘ular asosiy o‘rinni egallaydi?
A) Milliy
B) Elektr
D) Elektron
E) Gitara

## XULOSA

Aziz talaba! Siz O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 5A150601 – Vokal san’ati (estrada xonandaligi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-kursda tahsil olib, barcha fanlar qatori mutaxassislik faningiz hisoblanmish – «Estrada xonandaligi»dan ham kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ldingiz. Zaruriy bilimlar majmuasi shu mutaxassislik ta’lim dasturlarida o‘z aksini topgan.

Mazkur darslikning 1- va 2-semestrlar oxirida berilgan testlarning to‘g‘ri javoblari A variantda berildi.

## GLOSSARIY

**Avangard jaz -** Avantgarde jazz (fransuzcha avant-garde so'zi ilg'or otryad ma'nosini anglatadi) – bu musiqiy til modernizatsiyasiga, yangi va noan'anaviy ifoda vositalari hamda texnik usullarga (atonallik, modal improvizatsiya va kompozitsiya, sonoristika, tovushning elektron sintezi va h.k. sohalarda) tayanuvchi, zamonaviy jaz uslublari va yo'nalishlarida ijod qiluvchi guruhlarning shartli nomi. Fri-jaz, "uchinchi oqim", elektron jaz, xard-bop, kul-jaz, jaz-rok va b.ning ba'zi eksperimental shakllarini avangard jazga taalluqli deyish mumkin.

**Avangard rok** (Avantgarde) – o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida yuzaga kelgan bu tushuncha jaz, rok, folk ta'sirida rivojlangan barcha narsalarni o'zida jamlagan. Bu oqimning eng yorqin namoyandalari – "Velvet Underground" va "Mothers Of Invention"dir. Keyinchalik "Avangard" atamasi deganda musiqaning turli xil noan'anaviy shakllari tushunila boshlandi.

**Akkord** (it. Accordo, fr. Accord - birdamlik)– turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib, yaxlit holda yangrashi. Akkord odatda tersiya intervali bo'yicha taqsimlanadigan tovushlardan hosil bo'ladi. To'rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord – nonakkord, olti tovushli akkord – undetsimakkord deyiladi.

**Ansambl** (fr. Ensemble - birgalikda)- 1. Vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to'da san'atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo'lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – duet, uch ijrochi – trio yoki terset, to'rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, yetti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va h.k. Ba'zan ansambl so'zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

**Mualliflik musiqasi** – ushbu qo'shiq janri XX asrning 50-yillarida Rossiyada yuzaga kelgan bo'lib, u shuningdek, bardovaya qo'shig'i nomi ostida ham mashhur. She'riy matn mazmuni, uning tabiiyligi va ohangdorligi, shuningdek, xonish vaqtidagi kuychanlik va musiqaning garmonik funksionalligi – mazkur janrning yorqin farqlanuvchi qirralaridir.

AyDiEm (IDM-intelligent dans music) – ushbu elektron musiqaning muqobil (alternativ) yo'nalishi asoschisi - "Aphex Twin" sifatida mashhur bo'lgan ingliz texno-musiqachi Richard James hisoblanadi. Mazkur uslub 1989-yilda yuzaga kelgan bo'lib, atama esa 1993-yilda kompyuter tarmoqlari tubida, ularga mavjud uslublarning birortasiga mos kelmagan musiqani belgilab berish uchun o'ylab topilgan. Ingliz kompyuterchilarining yengil qo'li bilan kiritilgan bu atama ostida barcha tushunarsiz eksperimental texno-musiqani (ya'ni texnologiyadan foydalanuvchi musiqani) uchta harf - IDM bilan atay boshladilar. O'z vaqtida mazkur uslub ta'siri ostida "Cosmic Baby"dan "Cabaret Voltaire"gacha, "Banco De Gaia"dan "Goldie"gacha, "Portishead"dan "Underworld"gacha bo'lgan guruhlar qoldilar. Shundan so'ng mazkur uslub o'zining mutlaqo aniq doirasiga ega bo'ldi.

**Alternativ rok** (inglizcha Alternativ rock) – bu an'anaviy madaniyatga qarama-qarshi bo'lgan ommaviy madaniyatning eng turfa janrlarini nazarda tutuvchi tushuncha. Ushbu atama 1980-yillarda pank-rok, post-rok kabi ko'plab janrlar ta'rifi sifatida paydo bo'ldi.

**Aranjirovka**/Arrangement (inglizcha arrange – joylashtirmoq, o'tkazmoq, tartibga solmoq) – ijrochilarning muayyan tarkibiga mo'ljallangan va nota yozuvida qayd etilgan musiqa. Jazdagi aranjirovka ansamlb va orkestr interpretatsiyasining umumiy g'oyasini mustahkamlash uslubi

va uslubiy sifatlarning bosh yetakchisi bo‘lib, buning oqibatida u akademik musiqada kompozitsiyaning o‘rni qanday bo‘lsa, shundan kam bo‘lmagan ahamiyat kasb etdi.

**Art-rok**/(inglizcha art-rock) - rok-musiqa yo‘nalishini anglatuvchi bu atama, o‘zining melodik, garmonik yohud ritmik eksperimentlari, shuningdek, qo‘shiqlar matnidagi katta miqdorli badiiy obrazlari bilan tavsiflanadi. Art-rok - jaz, klassik, etnik musiqa yohud eksperimental avangard yo‘nalishidagi zamonaviy ommaviy musiqa shakllari va janrlaridan uzoqroqqa boradi.

**Arxaik (ilk) blyuz**/Archaic (early) blues – blyuzning birmuncha qadimiy, an’anaviy toifasi bo‘lib, u taxmin qilinganidek, o‘tgan asrning birinchi yarmida AQShning janubida joriy etilgan va afrikacha manbalar, shuningdek, amerikalik negrlar xalqona musiqasining an’anaviy janrlari bilan uzviy aloqalarga ega bo‘lgan (masalan, uork-song, xoller, ballada va spirichuels bilan).

**Arxaik/(ilk) jaz** /Archaic (early) jazz – o‘tgan asrning o‘rtalarida AQShning bir qator janubiy shtatlarida joriy bo‘lgan jazning birmuncha qadimiy, an’anaviy toifasi. Arxaik jaz xususan, XIX asrning negrcha va kreolcha marsh orkestrlari tomonidan namoyish etilgan. Arxaik jaz davri yangiorleancha (klassik) uslubning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

**Tovush atakasi**/Attack – jazdagi tovush sadolanishining biror bir cholg‘u yoki xonishda olingan ilk tovush lahzasi bilan bog‘liq muhim dinamik tavsiflaridan biri. Bu urg‘ulangan, agressiv yohud mayin tovush bo‘lishi mumkin. Tovush atakasining sifati ahamiyatli ravishda jaz saund orqali belgilanadi.

**Baza**/Base (inglizchadan pastki qism, asos, tayanch ma’nolarini anglatadi) – yakkaxonlarga jo‘rsoz vazifasini bajaruvchi ansambl yoki ansamblning bir qismi.

**Ballada**/Ballad (lotincha ballo – raqsga tushaman) – kelib chiqishi qadimiy xorovod qo‘shiq-raqslarga borib taqaluvchi, ko‘plab xalqlarda uchraydigan qo‘shiq janridir. Balladaga xos qirralar – bu epik hikoyanavislik va lirizm, stroficheskaya shakl, vazmin va mo‘tadil sur’at, syujet hamda musiqiy materialning yaxlit rivojlovidir. Amerikalik negrlar xalq musiqasida balladaning blyuz bilan ayrim umumiyliklarga ega, va afrikacha an’analar bilan aloqani saqlovchi o‘ziga xos toifasi joriy bo‘ldi. Jazda cholg‘u ijrosi va xonishning lirik balladaviy uslubi keng tarqaldi.

**Bandjo**/Banjo (Bonjo) – kelib chiqishi Afrikadan bo‘lgan, mandolina va gitaraga qardosh torli-chertma musiqiy cholg‘u asbobi. U ham yakkanavoz, ham jo‘rsoz sifatida amerikalik negrlarning xalq ijrochiligi amaliyotida juda keng tarqalgan. Negr xalq musiqasining o‘ziga xos janrlari bandjo uchun regtaym va jaz ilk shakllarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

**Bard**/Bard – (keltchadan olingan so‘z) shoir va musiqachi, o‘z shaxsiy qo‘shiqlarining ijrochisi.

**Bauns**/Bounce (inglizchadan “sakrash” degani) – 1. Sving turi, mo‘tadil sur’atdagi tarang ritmik harakat, taktning asosiy hissalaridagi urg‘ular bilan. Soddalashtirilgan, kam svinglangan bit va juda tezkor sur’atli jampning qarama-qarshi toifasi. 2. 4/4 takt-o‘lchovidagi mo‘tadil sur’atli urfdagi shimoliy amerikacha raqs, u vazmin fokstrot bilan umumiy jihatlarga ega.

**Begin**/Beguine – kelib chiqishi Lotin Amerikasi (taxminan Martinika oroli)dan, to‘rt hissali o‘lchov, mo‘tadil sur’atda. Tango va rumbo bilan ayrim o‘xshashlik qirralariga ega. XX asrning 30-yillarida xalqaro miqyosda keng tarqaldi. K.Porterning “Jubilee” myuziklidagi “Begine the Beguine” kuyi (1935) eng ommalashgan jaz mavzularidan biridir.

**Bibop** – qarang: Bop.

**Big bit**/Big beat – “big-bit”ning asosiy farqlanuvchi tomoni – bu maxsus studiya texnikasi yordamida hosil qilinadigan spetsifik jarang, shuningdek, asosiy gruv va umumiy fakturaning nihoyatdaog‘irlashtirilishidir (trip yoki xip-xop bilan taqqoslaganda). “Big-bit” xip-xopning fank gruvlarini, rok qudrati va xausning svingli metodini o‘zaro chog‘ishtiradi. “Big-bit”ni tinglagandan ko‘ra, unga raqs tushgan afzal. Ko‘pgina musiqiy nashrlarda “big-bit”ni hali ham “chemical beats” deb ataydilar. Big-bit asoschilaridan biri “CHEMICAL BROTHERS”dir. Agar siz “techno” va birinchi hissaga tushuvchi bas-bochkali “jingle”dan farqli o‘laroq “yog‘li” bas chizig‘ini tinglasangiz, siniq pulsli ritmni his etsangiz, bu shubhasiz – “big-bit”dir. Mazkur

uslubning eng taniqli va mashhur namoyandalari “EBOMAN” “PROPELLERHEADS” “RHYTM ACE” kabilar deyish mumkin.

**Big-bend** (katta orkestr)/Big band – cholg‘ularning muayyan tarkibi (unda damli cholg‘ular yetakchilik qiladi), cholg‘u guruhlari (seksiyasi)ning spetsifik bo‘linishi, ansambl ijrosining o‘ziga xos texnikasi (aranjirovkalangan bo‘limlarning yakkanavozlar improvizatsiyasi bilan muvofiqlashuvi, orkestr jo‘rnavozligining muhim toifalari – bekgraundni, shuningdek, metroritmik pulsatsiyaning muhim toifalari va tembrlar aralashmasini qo‘llash va b.) bilan farqlanuvchi jaz orkestrining xarakterli turi. Big-benddagi musiqachilar soni - 10-20tagacha ishtirokchini tashkil etadi. Odatdagi tarkib: 4ta truba, 4ta trombon, 5ta saksofon va ritmguruh (fortepiano, gitara, bas, zarbli cholg‘ular); uning boshqacharoq variantlari ham bo‘lishi mumkin. Saksofonlar seksiyasi (rids), mis damli cholg‘ular seksiyasi (brass) va ritm-seksiyaning mavjudligi nazarda tutiladi; ularga yog‘och damli cholg‘ular seksiyasi (vuds), shuningdek, torli cholg‘ular guruhi qo‘shilishi mumkin. Big-bendning rivojlanishi XX asrning 20-yillarda boshlangan, 30-yillarda esa uning negizida orkestr jazining asos soluvchi uslublaridan biri - sving joriy etildi.

**Bit**/Beat (inglizchadan “zarba” degani) – keng ma’noda – musiqadagi metroritmik pulsatsiya. Jazda esa bitning toifalari (graund-bit, off-bit, on-bit, tu-bit, four-bit va b.) takt metrik strukturasining talqini, hissali va ritmik urg‘ularning o‘zaro munosabati, ularning o‘zaro to‘g‘ri tushishi yoki tushmasligi bilan belgilanadi. Qoidaga ko‘ra, qat’iy tashkil etilgan, muntazam bitga birmuncha erkin va egiluvchan ritmika qarama-qarshi qo‘yiladi. Takt hissalariga nisbatan ritmik urg‘ularning doimiy ravishda yuzaga keladigan mikroaralashmasi impulsivlik taassurotini, musiqiy harakatning ichki ziddiyati va tarangligini kuchaytiradi.

**Blok-akkordlar**/Block chords – pianinochining har ikki qo‘l partiyalaridagi parallel monoritmik akkordli harakatga asoslangan fortepiano ijrosining jaz texnikasi. Uning boshqa mashhur nomi – o‘zaro bog‘langan qo‘llar texnikasi. U ilk bor o‘tgan asrning 40-yillarida ishlab chiqilgan. Keyinchalik akkordli fakturaning mazkur toifasi kichik ansambllar (kombo) va big-bendlarning ijrochilik amaliyotida qo‘llanila boshlandi.

**Blyuz**/Blues (taxminan amerikacha qisqa ibora- idioma “to feel blue”dan qayg‘uda bo‘lish yoki inglizcha “blue devils”dan melanxoliya, g‘amginlik; blue ham “havorang” ma’nosini anglatadi) – negrlar musiqa madaniyatining eng yuksak yutug‘i bo‘lgan afroamerikacha musiqaning an’anaviy janridir. U afrikacha manbalar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, Janubiy, Markaziy va Shimoliy Amerika negrlari xalqona musiqasining ko‘plab janrlari orqali namoyon bo‘lgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, blyuz bir qator negrlar folklor vokal janrlari asosida rivojlangan bo‘lib, ular orasida uork-song, xoller, negrityan balladasi va spirichuelz kabi muhim janrlar bor. Blyuzning yorqin va betakror qiyofasi uning o‘ziga xos ohang, lad, kuy, garmoniya va shakl tuzilishida namoyon bo‘ladi. Blyuz an’analari deyarli barcha asosiy jaz uslublari orqali namoyish etilgan; o‘z ijodlarida unga XX asrning yetakchi akademik kompozitorlari murojaat qilganlar (jumladan, M.Ravel, Miyo, Gershvin, Kollend, Onegger, Martinu va b.); zamonaviy ommabop va raqsbop musiqalarning ko‘plab shakllari hamda janrlari uning ta’siri ostida yuzaga kelgan.

**Blyuz shakli**/Blues form – blyuz bandi (strofasi) tuzilishining xarakterli toifasi. Blyuz shakli deganda ko‘pincha klassik, o‘n ikki taktli savol-javobli, AAV strukturasi takrorli “savol” A va bir martali “javob” V bilan, “uchinchi marotabadagi o‘zgarishlar” tamoyiliga asoslanish nazarda tutiladi. Ushbu strukturaga blyuz uchun xos bo‘lgan D-S-T kadensiyali, yevropacha musiqa bilan o‘xshashligi bo‘lmagan muayyan funksional-garmonik model (kvadrat) mos keladi. Ko‘p marta takrorlanuvchi “blyuz kvadrati”ning barqarorligi melodik improvizatsiya uchun tashkillashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Blyuz shakli spetsifikasi “Blyuz ohanglari”/ Blue notes mavzusi doirasida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Lad alohida pog‘onalarining beqaror intonatsiyalanuvchi, yevropacha amaliyotda qabul qilingan oktavaning ton va yarim tonlarga bo‘linishi bilan mos tushmaydigan zonalari jaz uchun ham, umuman butun negr musiqasi uchun ham xosdir. yetti pog‘onali tovushqatorda (geptatonikada) ko‘pincha III va VII pog‘onalarda “blyuz tersiyasi” va “blyuz septimasi” joylashadi, ular shartli ravishda majorning pasaytirilgan III va VII pog‘onalari sifatida qayd etiladi. “Blyuz ohanglari”ning

yevropaliklar tomonidan noxolis idrok etilishi, negr musiqasi - g‘amli musiqa (yevropacha meyorlar nuqtai nazaridan major ladi III va VII pog‘onalarining pasayishi o‘ziga xos “minorlashgan” majorni hosil qiladi), degan noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishiga olib keldi.

**Blyuz tovushqatori**/Blue scale – shartli tushuncha bo‘lib, unda bir maromli temperatsiyalangan soz va u bilan bog‘liq notatsiya tizim doirasi ila cheklangan negr musiqasining (birinchi navbatda blyuzning) tovushqator asosi xususidagi yevropacha tasavvur aks etgan. Ushbu tasavvurga ko‘ra “blyuz tovushqatori” qo‘shimcha “blyuz ohanglari” – pasaytirilgan III va VII pog‘onalarga ega, yetti pog‘onali tabiiy major sifatida o‘rganiladi. Haqiqatda bu “pog‘onalar” yevropacha gammaning o‘xshash pog‘onalaridan ko‘ra o‘zgacha tovush balandligiga ega bo‘lgan intonatsiyalashning muhim zonalari tarkibiga kiradi.

**Katta orkestr** – qarang: Big-bend.

**Bongi**/Bongos – Lotin Amerikasi (kelib chiqishi taxminan hinducha bo‘lgan) kichik barabanlarining turi. Odatda yog‘och xalqa orqali o‘zaro bog‘langan, turli kattalikdagi ikki bongdan iborat blok qo‘llaniladi. Bonglar Ikkinchi Jahon urushidan keyin estrada-raqs musiqasida keng tarqaldi. Jazda epizodik tarzda qo‘llaniladi

**Bonus trek**/Bonus-track – diskka, qo‘shimchasiga albomning trek-varag‘iga joylashadigan kompozitsiya.

**Bop**/Bop – o‘tgan asrning 40-yillarida joriy bo‘lgan jaz uslubi. U shuningdek, “bi-bop”, “bi-bap”, “ri-bap”, “mintons-uslub” nomlari bilan ham mashhur. Mazkur nomlarning deyarli barchasi (oxirgisidan tashqari) tovush taqlid etuvchi o‘tmishga ega bo‘lib, sket-vokal amaliyoti bilan bog‘liq. “Mintons-uslub” atamasi “Minton’s Playhouse” nomli garlem klubi nomidan olingan, bunda bopning ilk ijrochilari, asoschilari o‘z chiqishlarini amalga oshirganlar. Bop, negr jazi kichik ansambllari (kombo)ning yangi, eksperimental yo‘nalishi sifatida sving o‘rniga keladi. Bopni tavsiflovchi muhim tendansiyalar – bu eski xot-jaz modernizatsiyasi, erkin solo improvizatsiyasining hukmronligi, kuy, ritm, garmoniya, shakl va boshqa ifodaviy vositalar sohasidagi novatorlikdir. Bop zamonaviy jazning dastlabki ahamiyatli uslubi hisoblanadi.

**Boper**/Boper – bop uslubida chaluvchi musiqachi.

**BiPieM**/Bpm – (Beats Per Minute) – har daqiqaga bir zarb. Bu musiqa sur’atini o‘lchashning eng keng tarqalgan va qulay usuli.

**Brass-bend**/Brass band (inglizcha brass – mis, jez, band – orkestr) – bu arxaik jaz davriga mansub bo‘lgan negr damli cholg‘ular orkestrining nomlaridan biri. U klassik jaz va zamonaviy diksi-lend jaz ansambllari nomlanishlarida kamdan-kam uchraydi. Shuningdek, qarang: marsh orkestri

**Breyk**/Break (inglizchadan yorib o‘tish, tanaffus) – ansambl jarangini uzib qo‘yuvchi qisqa improvizatsion solo lavhasi. U birorta jaz pesasining bo‘limini yakunlovchi kadension “javob” rolini bajarishi (qarang: savol-javob tamoyili), yoki yakkaxonning jo‘rnavozli imrovizatsion xorusiga muqaddima sifatida kelishi mumkin.

**Breykbit** (breakbeat inglizchadan sinuvchan ritm) – bu shunday musiqa uslubiki, unda coloning barabanli yo‘lakchasi bilan chog‘ishtirilgan elektron musiqani tushunish lozim. Bunday partiyalar ko‘pincha bir toifali ritmda emas, balki “sinuvchan ritm” deb nom olgan turli toifali ritmlarda bo‘ladi va dijeylar tomonidan dram-mashinalarda yaratiladi.

**Brekdaun** (breykdaun)/Breakdown (inglizcha break-down – vayrona, chalkashlik, tartibsizlik) – tezkor temperamentli negr xalq raqsi . XIX asr o‘rtalarida menestrel teatrining sharofati bilan katta mashhurlikka ega bo‘ldi (qarang: minstrel-shou). Bunda u barcha qatnashchilar ishtirok etadigan erkin, jamoaviy improvizatsiyalarga qurilgan yakunlovchi ommaviy raqs sahnalarida qo‘llanilar edi. Shuningdek, bugi-vugiga qardosh bo‘lgan Chikagoda Brij davrida (Bridge - inglizcha o‘tish, ko‘prik) ommalashgan fortepiano uslubi ham shu atama bilan nomlangan. U jaz mavzulari strukturasidagi oraliq bo‘lim bo‘lib, yakunlovchi reprizali bo‘limdan avval keladi (masalan, V uchinchi sakkiz taktlik AAVA standart o‘ttiz ikkitaktli bandda). Qolaversa, u improvizatsiya uchun qo‘shimcha rag‘bat bo‘lib xizmat qiluvchi mavzui rivoj yoki kontrast elementlarini o‘zida jamlagan. Brijning boshqa nomlari – rilis (inglizcha releas – erkinlik) va chennel (inglizcha channel – yo‘l, manba).

**Breyk dens**\Break dance – 1980-yillarning boshida Bronks nomli Nyu-York kvartalida

yuzaga kelgan raqs. Uning ildizlari Afrikaga borib taqaladi, musiqiy jo‘rlik sifatida “rep” va progressiv elektron musiqa xizmat qiladi. Asosiy harakatlari: sirpanuvchi qadamlar, sakrashlar, polda aylanishlar, shuningdek, barcha akrobatik nomerlar. 1980-yillar o‘rtalariga kelib, breykning urfligi deyarli to‘liq o‘tmishda qoldi, biroq 90-yillarda u yana yodga olindi.

**Bristol saund**/Bristol sound – Bristol “trip-xop”i ushbu vaziyatda maxsus e’tiborga sazovor. Mazkur yo‘nalishning eng mashhur va yorqin namoyandalari: “MASSIVE ATTACK”, “PORTISHEAD” va“Tricky”. Bu uslubga“xip-xop”gaasoslangan,“reggey-daba” vag‘aroyib elektron tovushlar bilan mutanosiblashgan og‘ir ritm xosdir.

**Bugi-vugi**/Boogie woogie (tovush taqlidchisi) – fortepiano blyuz uslubi, negr cholg‘u blyuzining dastlabki turlaridan biri (arxaik gitara blyuzi, barrel-xaus-blyuz va b. bilan bir qatorda). Taxmin qilinadiki, bu uslub jo‘rovozlikda blyuz xonishidan foydalanuvchi shimoliy amerikalik negrlarning bandjo va gitara chalish texnikasini fortepiano ijro amaliyotiga o‘tkazish natijasidir. Bugi-vugi uslubi XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda yuzaga kelgan va xaus-rent-pati sharofati bilan XX asrning birinchi o‘n yilligida keng tarqalgan. Uning mumtoz namunalari o‘tgan asrning 20-yillariga mansub. Bugi-vugi sving davrida big-bendlar repertuariga kiritildi. Fortepiano bugi-vugisining o‘ziga xos qirralari – blyuz an’analariga tayanish, off-bit toifasidagi iboralar va metroritmikaning ustunligi, breyk va rifflar bilan to‘yinganlik, badihaviylik, texnik virtuozlilik, jo‘rnavozlikning spetsifik toifasi (walkin bass – “adashgan bas”) va pianinochining chap qo‘l partiyasidagi ritmika (shaffl-ritm). Jaz bugi-vugisining ba’zi xususiyatlari (o‘n ikki taktli blyuz kvadrati, motorli ritmika, tezkor sur’at, bas figuratsiyalarining ostinatoli takrori) ko‘ngilochar tijorat industriyasi tomonidan 1930-yillarda yaratilib, urf bo‘lgan ekssentrik raqsning atributiga aylandi, bu raqs ham shunday nom bilan 1945-yildan e’tiboran yevropada ommalashdi.

**Butleg**/Bootleg – bu konsertlarning qaroqchilik yo‘li yozib olingan ko‘rinishi bo‘lib, ular keyinchalik noqonuniy ravishda disklarga yoziladi va “qora bozor”da sotiladi.

**Bek vokal**/Back vocal – bu sahnadagi yakkaxon-xonanda va uning xonishiga jo‘r bo‘luvchilarning ortida turgan xonanda-vokalchilar va musiqachilar guruhidir.

**Bekgraund**/Background (inglizcha fon, orqa plan) – yetakchi kuy yo‘li yoki yakkaxon partiyasiga jo‘r bo‘luvchini bildiradigan atama. Bekgraundning quyidagi toifalari ajratiladi: 1) akkordli (bunda mavzuning garmonik kvadratiga mos keluvchi akkordlar ketma-ketligi fon bo‘lib xizmat qiladi); 2) melodik (yetakchi ovozga jo‘rovozning kontrapunktlanuvchi melodik ovozlari qarama-qarshi qo‘yiladi); 3) riffli (rifflar texnikasiga – ostinatoli takrorlanuvchi melodik modellarga asoslangan); 4) bas (jo‘rovoz rolini kuyning funksional-garmonik tayanchi bo‘lgan bas yo‘li bajaradi); 5) ritmik (taktning asosiy hissalariga urg‘u berilgan, aniq tashkillashtirilgan ritmik pulsatsiya ko‘rinishida); 6) aralash (yuqorida qayd etilgan toifalarning o‘zaro muvofiqlashuvchi alomatlari).

Klassik davrda yangi orleancha jaz-bendning mustaqil toifasi cholg‘u guruhlarining o‘ziga xos bo‘linishi bilan joriy etildi: bular ritmik (bandjo, damli yoki torli bas, zarblilar va fortepiano) va melodik (yetakchi ovoz – kornet yoki truba, kontrapunktlanuvchi ovozlar, shuningdek, kuyning garmonik jo‘rnavozligida ishtirok etuvchi – klarnet va trombon), solo va jamoaviy ijroning, improvizatsiya va aranjirovkaning muayyan o‘zaro munosabatlari bilan. Arxaik jazdagi ijroning geterofon-variatsion uslubidan farqli o‘laroq, bu yerda yetakchi ovozli (lid) improvizatsion kontrast polifoniya toifasidagi ko‘povozlik bilan bir qatorda, ansambl ijrosining birmuncha murakkab va mukammal responsor (savol-javob) tamoyili tasdiqlandi. Blyuz an’analari o‘zining birmuncha yorqin va izchil ifodasini topdi, off-bit, drayv, derti-tonlar, shaut-effektlar, stomping, breyklar, stop-taym-texnika, xot-manera kabi spetsifik ifoda vositalari va texnik usullar doirasi aniqlandi. 1917-yildan keyin, Yangi Orleandagi ko‘ngilochar maskanlarning yopilishi munosabati bilan ko‘plab jazmenlar Chikagoga ko‘chib o‘tdilar. Shu tariqa Yangiorlean-Chikago uslubi rivojlandi va u ilk svingning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi (qarang: chikagocha uslub). Yangi Orlean va Chikagoning negr jaziga taqlid qiluvchi oq tanli musiqachilari orasida diksilend uslubi rivojlandi. 1920-yillar oxirida Yangi Orlean uslubi o‘z ahamiyatini yo‘qotdi va tijoriy ko‘ngilochar musiqa tomonidan siqib chiqarildi, biroq 30-yillarning ikkinchi yarmida uning an’anaviy va yangi shakllarda qayta tug‘ilishi yuz

berdi (qarang: rivayvl). Yangiorleancha uslubning g'oya va tamoyillari zamonaviy diksilendda davom ettirildi.

**Jaz asri** – qarang: Jaz erasi

**Vest-koust-jaz** (G'arbiy sohillar jazi) West Coast Jazz - 1950-yillarda Kaliforniyaning bir qator shaharlarida shakllangan zamonaviy jazdagi uslubiy yo'nalishlar (dastlabki namunalar 1949-yillarga mans ub). Vest-koust-jaz avvalo progressiv va bop kabi uslublar ta'siri ostida yuzaga kelgan, biroq unda boshqa uslubiy aloqalar ham kuzatiladi – bu simfojaz, sving, kul-jaz va yevropacha akademik musiqa. Vest-koust-jaz uchun emotsional vazminlik, shakl va ovoz yo'nalishining qat'iyligi, linear-kontrapunktik texnikani qo'llashga moyillik, mo'tadil sur'atlar va tugal kantilenali kuy (ballada va evergrin ruhida), tovush sadosining mayinligiga (bu borada vest-koust-jaz xot-jazga emas, balki kul-jazga yaqinroq) bo'lgan ishtiyoq, garmonik va tembr vositalarining nafisligi, diatonik lad-tonal asosning "yaltiroq" xromatizmi va uning rang-barang modulyasion usullar bilan mutanosibligi, qo'rg'oshin pulsning "bo'shashgan" xarakteri va xotirjam, ravon ritmika bilan bir qatorda tugal, simmetrik iboralarga moyillik xosdir. Vest-koust-jazning an'anaviy jaz bilan aloqasi bu uslubning musiqachilar tomonidan bir vaqtdagi guruhli improvizatsiyada qo'llanilganiga ishora qiladi. Kamer-ansambl ijrochiligi sohasida vest-koust-jaz uchun katta orkestrlar ijrochilik texnikasi usullarini o'zlashtirish xosdir (butun ansamblning big-bend seksiyasiga monand yagona cholg'u guruhiga aylangunicha). Vest-koust-jazning orkestr amaliyotida qarama-qarshi tendensiya kuzatiladi – bu kamer ijro usuli, tembrlar individualizatsiyasi, solo improvizatsiyasi rolini kuchaytirish. Shuningdek, cholg'uchilikda goboy, ingliz rojogi, fagot, bas-klarnet, bas-truba, bas-trombon, valtorna, arfa, torli cholg'ular kabi jaz ansambllarida kamdan-kam ishlatiladigan musiqa sozlarining qo'llanilishi e'tiborga molik; yo'g'on ovozli yog'och damli cholg'ularning saksofonlar bilan muvofiqlashuvi odatiy holdir. Vest-koust-jaz uslubi yevropalashgan konsert jazining rivojlanishiga ahamiyatli ravishda ta'sir ko'rsatdi.

**Vi-jey**/VJ - video-disk-jokey (video-disc-jokey) so'zidan olingan abbreviatura. Bu atama MTV yuzagakelishi bilan paydo bo'lgan. Vijey– musiqiydasturni olib boruvchi,videokliplar orasidagi bo'shliqni to'ldiruvchi.

**Vodevil**/Vaudeville – zamonaviy ma'noda – musiqiy nomerlar, she'rlar, raqslar, pantomima va tryukli sahnalarga ega maishiy komediya turi. AQShda amerikacha vodevil (uning turdoshi sifatida esa xabashcha vodevil) keng tarqaldi. Uning spetsifikasi fabula va musiqaning milliy o'ziga xos qirralari bilan, mahalliy folklor va maishiy materiallarga murojaat, shuningdek, menestrel teatr ta'siri bilan bog'liq (qarang: minstrel-shou).

**"Diksilend va yangiorleancha jazning qayta tiklanishi"** – qarang: Rivayvl

**Savol-javob (responsor) tamoyili**/Responsorial principle (responsory,responsorium) (lotincha respondeo – javob bermoq) – musiqiy shakllantirishning universal, asos soluvchi tamoyili bo'lib, shaklning shunday aloqa unsurlari toifasi (tuzilma, bo'lim, qism, motiv, ibora, jumla va b.)ni nazarda tutadiki, unda mazkur unsurlar o'zaro bir-birini to'ldiruvchi juftliklarni hosil qiladi. "Savol" vazifasini bajaruvchi musiqiy tuzilmaning naqdligi (u beqarorlik, notugallik, uzilganlik kabi xususiyatlarga ega), "javob" tuzilmasining (avval buzilib, keyin tiklangan dinamik muvozanatning birmuncha barqarorligi va tugalligi) yuzaga kelishini ta'minlovchi omildir. Savol-javob tamoyili ko'plab yevropacha shakllarda (konsentrik planirovka, ko'zguli simmetriya, muntazam takror va h.k. asoslangan imitatsion, reprizali, refrenda) qo'llanila boshlandi. Mazkur tamoyilni ijrochilikda amalga oshirishning eng oddiy usuli – bu antifondir (lotincha antiphonos – qarshi jarang) – ansambl ikki guruhining almashinib kelishi, yakkaxonlar o'rtasidagi, yakkaxon va ansambl o'rtasidagi aytishuvlar. Afroamerikacha musiqa (uork-song, xoller, spirichuel, blyuz) va jazdagi responsor texnika eng oddiydan (galma-gal ijro) eng murakkabgacha bo'lgan (improvizatsiya va kompozitsiya, garmoniya va kuy mantiqi sohalarida, alohida ijrochilar va cholg'u guruhlari o'rtasidagi funksiyalarni taqsimlashda) g'ayrioddiy usul va vositalar orqali namoyon bo'ladi.

**Vudstok**/Woodatock – rok tarixidagi eng mahobatli festival. U 1969 yili 15-17 avgust kunlarida Nyu-Yorkdan uzoq bo'lmagan joyda o'tkazilgan. Unga Amerikaning turli burchaklaridan 400000 tomoshabin to'plandi va ular 10 dollar evaziga 12 soat davomida

muttasil rok musiqasini tinglashlari mumkin edi. Festivalda o‘ttizdan ziyod ijrochi qatnashdi, ular orasida Jimmi Xendriks, Janis Joplin, Jo Kokker, Santana va boshqa ko‘plab xonandalar bor edi.

**Garlem jazi**/Harlem jazz - 1920-30-yillar negrlar jazidagi bir qator uslubiy yo‘nalishlarning umumiy nomlanishi bo‘lib, ularning yuzaga kelishi Nyu-York Garlemining musiqiy hayoti bilan bog‘liq. Bu yerda blyuz (garlem blyuzi)ning o‘ziga xos ijro usuli rivojlandi, o‘z fortepiano jaz maktabi (garlem strayd-uslubi) shakllandi, shuningdek, kamer va orkestr svingi (garlem jampi)ning muhim turi joriy etildi. 1920-yillarda Garlemda habashcha vodevil o‘zining rivojlanish cho‘qqisiga erishdi. O‘z orkestri bilan ko‘plab garlem klublarida chiqishlar qilgan va bir qator original uslubiy konsepsiyalar (jangl-uslub, konsert uslubi, lirik “kayfiyat uslubi”) yaratgan Dyuk Ellingtonning sermahsul kompozitorlik va konsert faoliyati ham shu davrda boshladi. Garlem jazi an’analarining ta’siri ostida 1940-yillarda bi-biop uslubi rivojlandi (qarang: bop).

**Glem-rok** (inglizcha Glam Rock, glamorous so‘zidan olingan bo‘lib, “effektli” ma’nosini anglatadi) - 1970-yillar boshlarida Buyuk Britaniyada yuzaga kelgan rok-musiqa janri bo‘lib, u o‘sha o‘n yillikning birinchi yarmida eng yetakchi janrlardan biriga aylandi. Glem-rok ijrochilari uchun ekzotik liboslarning teatral effekti orqali ifodalanuvchi yorqin obraz, makiyajni mo‘l-ko‘l ishlatish, androgin qiyofa xos edi. Glem-rok musiqiy jihatdan bir toifali emas, u o‘zida rok-n-roll, xard-rok, art-rok va estradani jamlagan. Glem-rok uslubining unsurlari disko, pank va yangi to‘lqinga, shuningdek, Queen, Kiss, Marilyn Manson kabi guruhlarga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Glem-rok shuningdek, glitter-rok nomi bilan ham mashhur.

**Goa trans** (Goa/ psychedelic trance so‘zidan olingan) – ushbu musiqiy uslubning nomlanishi Hindistonda joylashgan shtatning nomidan olingan. Bu shtat o‘z navbatida o‘ziga xos turistik Makkani namoyon qiladi. Mazkur shtat hududida 1960-yillardayoq tasavvufga maftun bo‘lgan turli-tuman xippilar hordiq chiqarishgan. Aynan Goada goatrans paydo bo‘lgan. Bu shtat hududida mana ko‘p yillarki rang-barang ko‘ngilochar kechalar uyushtiriladi, unda xalq hyech bir ta’qiqlarga qaramasdan, shunchaki ko‘ngil yozadi. Ammo buning barchasi unchalik ham oson emas. Shtat hududida giyohvand moddalarni istalgan miqdorda iste’mol qilishga rasman ruxsat berilgan. Musiqaga kelsak, avvallari Goa hududida texno-musiqa ommalashgan edi, u bugungi kunda qayta tug‘ilib goa-trans ko‘rinishida qo‘llaniladi. Bu borada hozirgi kunda mustamlaka bo‘lgan Sharq davlatlarining ko‘pchiligi zamonaviy yevropa ta’siri ostida qolgan. Shu sabab Goa transni Psixodelik trans deb ham ataydilar.

**“So‘zlovchi barabanlar”**/Talkint drums – Afrika barabanlarining alohida ko‘rinishi bo‘lib, ular uzoq masofalarga (10-15 kmgacha) xabar yetkazish uchun mo‘ljallangan. “So‘zlovchi barabanlar”ning qurilmasi ularda keng diapazondagi tovushlarni, tovush balandligi va tembr bo‘yoqlarini sadolantirish imkonini beradi. Shu sabab ijrochi maxsus tovush signallari tizimidan foydalangan holda, eng turfa ma’lumotlarni kodlashi va yetkazishi mumkin. Baraban jarangining balandligi va tembrini variatsiyalashga qoidaga ko‘ra, baraban yuzasiga tortilgan terining tarangligik kuchi hisobiga erishiladi. “So‘zlovchi barabanlar”da chalishning ayrim usullari jaz amaliyotida, zarbli cholg‘ular ijrosida qo‘llanila boshlandi.

**Gospel-song**/Gospel song (inglizcha Gospel –Tavrot, song – qo‘shiq) – negrlarning Tavrot mavzusidagi diniy qo‘shiqlari janri bo‘lib, u 1930-yillarda AQShda tarqalgan. Negrlarning folklor janriga mansub boshqa, diniy mavzudagi qo‘shiqlaridan (spirichuel, jyubili va b. kabi) farqli o‘laroq, gospel-songning matni va musiqasi asosan professional mualliflar tomonidan yaratilgan. Gospel-song xor spirichuelidan shunisi bilan farq qiladiki, u asosan yakka ijro uchun mo‘ljallangan bo‘lib, blyuz an’analari bilan ko‘proq bog‘langan va improvizatsiyaga yanada to‘yingan; qolaversa, u rivojlangan cholg‘u jo‘rligiga ham ega bo‘lishi mumkin (spirichuel esa odatda a capella tarzida ijro etiladi).

**Granj** (inglizcha Grunge) – bu 1980-yillardagi alternativ rokning uslubiy oqimi hisoblangan musiqiy yo‘nalishdir. Mazkur janrning paydo bo‘lgan joyi Sietldir. Granj kuychanlik va lirika, gitara partiyalari va vokal solosining o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi qo‘shilmasidir. Garchi shunday bo‘lsa-da, granj uslubi musiqasida dinamik ko‘tarilish va tushishlarni, torli va zarbli cholg‘ularning feeriyalarini, matnlarida esa ba’zi bir depressiyani tinglash mumkin.

**Graul**/Growl (inglizchadan “irillash”, “xirillash”) – xirilloq, “irillovchi” jarang. Bu negrlar folklor amaliyotidan (qarang: shaut, dyorti-ton) jazga oʻtkazilgan cholgʻu-tembr effektidir. U koʻpincha mis damli cholgʻularning quyi registrida surdinni qoʻllash (ayniqsa trombonda) orqali ishlatiladi, ammo boshqa damli cholgʻularda ham ijro etilishi mumkin (klarnet, saksofon va h.k.). Rang-barang graul-effektlar jangl-uslublar uchun xosdir.

**Graund-bit**/Ground beat (inglizchadan “asosiy zarba”, “puls”) – jazdagi barqaror muntazam puls boʻlib, u taktning metrik strukturasiga mos tushadi. Qoidaga koʻra, graund-bit jaz ansamblining ritm-guruhiga topshiriladi; u ansambl ijrosining tashkilotchi-yetakchisidir. Shu bilan birga graund-bit jaz musiqasida uni birmuncha individuallashgan va ritmik jihatdan erkin boʻlgan kontrovozlar bilan muvofiqlashtirish yoʻli bilan, yohud unga metrik hissalarga nisbatan hiyla seziladigan ritmik urgʻular aralashmasini kiritish orqali rang-barang metroritmik ziddiyatlarni yaratish asosi boʻlgan (qarang: off-bit)

**Gruv-metal** (inglizcha Groove metal) – musiqaning uslubiy yoʻnalishi boʻlib, u tresh-metal oqimi sanaladi. Mazkur uslubning muhim xususiyati – uning yuqori tezlikdagi sadolanishi va kompozitsiyadagi ritmik oʻtishlarning hayratlanarliligidadir.

**Gremmi**/Grammy – kino sohasida “Oskar” qanday nufuzga ega boʻlsa, “Gremmi” ham musiqa san’atining eng yuksak sovrinidir. Har yilning yakunida musiqa tanqidchilari tomonidan soʻrovnoma oʻtkaziladi va turli nominatsiyalarda eng yaxshi ijrochi, guruh va disk aniqlanadi. Bundan tashqari, “Gremmi” eng yaxshi jarang, eng yaxshi muqova, eng yaxshi debyut uchun ham topshiriladi. Bunday sovringa erishish har bir musiqachi uchun sharafdir. “Gremmi”ning oʻzi esa – mitti kulguli grammofon boʻlib, uning nusxalari gʻoliblarga topshiriladi.

**Dab**/Dub – bu musiqiy uslubdan koʻpincha chil-autni bezash uchun foydalaniladi. Uning asosiy farq qiluvchi tomoni – garchi joʻrnavoz chizigʻining yetakchisi boʻlsa-da, ammo aniq, yorqin, toʻlaqonli, qattiq bas ovoziga egaligidir. Yana bir xususiyati – vazmin, boʻlinuvchan ritm va katta miqdordagi reverbiratsiyalar.

**Daun-bit**/Down Beat (inglizcha down – pastga; Beat – zarba, puls) – bu jazcha iboralash toifasi boʻlib, undagi erkin artikulyasiyalanuvchi ritmik guruhlar ichida taktning asosiy hissalaridagi tayanch urgʻular saqlanadi. Mazkur metod bir cholgʻu partiyasida graund-bit (yashirin koʻrinishda) va off-bitning bir vaqtdagi mutanosibligini amalga oshirish imkonini beradi.

**Daun-bits**/Downbeats – “xip-xop”ga yaqin musiqiy uslub boʻlib, uning mayin, yumshoq basli, zaiflashgan, oʻta vazmin ritmik chizmasi bor. Mazkur atama matbuotda cholgʻu “xip-xop”iga yozilgan taqrizlar sabab paydo boʻldi. 1998 yil yanvarida “AIR” fransuz komandasi oʻzining “Moon Safan” nomli debyut albomini chiqaradi, va u mazkur kategoriyadagi a’lo namuna boʻlib qoladi.

**Jaz bend**/Jazz-band – uncha katta boʻlmagan jaz orkestri (5-10 ijrochidan iborat). “Jaz bend” nomi ilk bora 1915-yilda Yangi Orleanlik T.Braun ansamblining konsert afishasida paydo boʻlgan. Oʻshanda orkestr Chikagoda “Tom Brown’s Dixieland Jazz-Band” nomi bilan chiqqan va bu atamadan kichik raqs orkestrlarini nomlash uchun foydalanila boshlangan.

**Filarmoniyadagi Jaz**/Jazz at the Philharmonic (qisq. JATP) – 1942 yil Los-Anjelosda impresario Norman Grats tomonidan tashkil etilgan Jaz konsert tashkiloti. Uning faoliyatidagi bosh vazifalardani biri – jazning yetakchi musiqachilariga filarmoniya konsert zallarida muntazam ravishda chiqishlar qilish imkonini yaratib berish, shuningdek, AQSh va chet ellarda jaz ansambllari hamda yakkaxonlarining gastrol safarlarini uyushtirishdan iborat. Ayni paytda “filarmoniyadagi jaz” yoki “filarmonik jaz” tushunchasi birmuncha keng ma’noda qoʻllanilmoqda, ya’ni barcha zamonaviy jaz-konsert musiqasiga nisbatan.

**Jaz erasi** (“Jaz asri”)/Jazz Age – jaz tarixida taxminan 1917-1929-yillar sifatida qayd etilgan davrning shartli nomlanishi (birinchi jahon urushi oxiridan AQShning iqtisodiy inqirozigacha boʻlgan davr). Ushbu davrni “Jaz asri”, deya ilk bor amerikalik yozuvchi Frensis Skott Fitsjerald oʻzining “Tales of the Jazz Age” (1922) nomli kitobida nomlagan edi. Jazning sensatsion “ochilishi” shu davr bilan bogʻliq boʻldiki, bu uning shiddat ila gullab-yashnashi va keng miqyosda tarqalishiga olib keldi. Xronologik jihatdan qayd etilgan bu davr, klassik jaz davriga, va undan “sving erasi”ga oʻtish ibtidosiga toʻgʻri keladi.

**Jaz-rok**/Jazz rock – jaz va rok-musiqaning o'zaro sintezi natijasida yuzaga kelgan uslubiy yo'nalish. Jaz-rok o'zining rivojlanish cho'qqisiga 1960-yillar oxirida erishgan (fri-jaz musiqachilarining tashabbusi bilan qo'llanilgan dastlabki eksperimentlar 1950-yillar oxiriga mansub).

**Jayv**/Jive (amerikachadan bekorchi gap, safsata, sheva) – mazkur atama bir qator ma'nolarni anglatadi: 1) bu ham "jaz" degani; 2) she'r matnidagi turlicha "ta"qiqlangan" mavzularni ustalik bilan talqin etish imkonini beruvchi blyuzning ramziy tili – masalan, fohishabozlik, alkogolizm, giyohvandlik, jinoyat va h.k.; 3) sving uslubi davrida big-bend tomonidan garlem jampi usulida ijro etiluvchi musiqaning nomlanishi, shuningdek, mazkur uslub bilan bog'liq ommaviy raqslarning nomlanishi; 5) jaz musiqachilari va jaz shinavandalarining shevasi.

**Jamp**/Jump (inglizchadan "sakrash") - 1920-30 yillarda garlem maktabi jaz musiqachilari (qarang: garlem jazi) tomonidan yaratilgan negr svingining turi. U o'zining o'ta hayajonli ijro usuli, tovushining kuchli va keskin hujumi, ohangidagi bo'linish va sakrashlarning serobligi, katta dinamik bosim va intiluvchanlik (qarang: drayv), asosiy metrik hissalardagi qattiq, og'ir urg'uli bir maromli ritmi (qarang: bit, graund-bit) bilan farqlanadi. Jamp blyuz va negr xot-jazi an'analari bilan uzviy bog'langan.

**Jangl**/Jungle – mazkur uslub 1988-yil Angliyada yuzaga kelgan. Bu bo'linuvchan afrikacha ritmlar va zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlarini o'zida jamlagan musiqiy yo'nalish. "Jangl"ni boshqa uslublardan uning agressiv jarangi, qabul qilingan 180-190 bpm sur'ati, ritmik ko'povozlik, titilib ketgan bas yo'li, ritmik chizmalarning erkin tarzda aralashib ketishi, kichik tembr rang-barangligi ajratib turadi. 1992-yildan e'tiboran mazkur uslubning SL2 guruhining "On A RaggaTip" singli bilan kattasahnagayorib chiqishi kuzatiladi. Shundan buyon "jangl" inglizlar va ilg'or jazmenlarda orasida katta mashhurlikka ega bo'ldi. "Jangl-jaz" uslubi buning dalilidir.

**Jangl-uslub**/Jungl style ("junglilar uslubi") - 1920-yillarning ikkinchi yarmida jazda yuzaga kelgan uslubiy yo'nalish. Mazkur uslubning asoschilari va yetakchi namoyandalaridan biri Dyuk Ellingtondir. Jang-uslubning o'ziga xos qirralari bu – tembrlarning ekzotik kombinatsiyalari, keskin dissonanslanuvchi jarang va klasterlar mo'l-ko'lligi, rang-barang surdinali effektlar, damli cholg'ular ijrosidagi graul-usul, dertitonlar, glissando, shaut-usullar, inson va yovvoyi hayvonlar ovoziga taqlid. Bunda ekzotika va varvarlik uslubiyati nafis orkestr koloriti bilan, blyuz va xot-jaz an'analari garmoniya, tonallik, shakl va cholg'ulashtirish sohasidagi eksperimentlar bilan tez-tez muvofiqlashtiriladi. Jang-uslubning ko'plab ifoda vositalari zamonaviy jazda o'z ifodasini topdi.

**Jem-seshn**/Jam session (inglizcha "tasodifiy uchrashuv") – bu bo'sh vaqtlarida (asosan tunda) hamkorlikdagi erkin ijro va fikr almashish uchun, yoki ijro mahorati hamda improvizatsiya san'ati bobida o'zaro bellashish uchun to'planadigan jaz musiqachilarining an'anaviy ijodiy uchrashuvlaridir. Jem-seshnda chiqishlar qiluvchi ansambllar qoida ko'ra, avvaldan belgilanmaydi, va ular bevosita ijro jarayonida o'zgarishi mumkin. Bunday "konsertlar"ning dasturi ham tasodifiy xarakterga, bu esa musiqachilarning avvaldan tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Jem-seshn an'analari XX asr boshlaridayoq yangiorleancha jaz musiqachilarida mavjud bo'lib, u hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Jem-seshnlar ko'plab jaz uslublarining qayta ishlanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

**Jyubili**/Jubilee (inglizcha "bayram", "shodiyona") – arxaik negr diniy qo'shiq-madhiyasi. Jyubili asosi – bu ahamiyatsiz o'zgarishli ko'p marotaba takrorlanuvchi va yangi improvizatsion ovozostili (bandli variatsiyalash tamoyili) kanonik xoral kuy. Odatda, jyubili ijrosi jarayonida yevropacha cherkov madhiyasi kuyining qat'iy va sokin bayonidan afrikalashgan texnika, improvizatsiya va "blyuz ohanglari", ekstatik shaut-xonishgacha bo'lgan raqsbop ritmlardan foydalangan holda, birmuncha erkin va dinamik bayonga asta-sekin o'tish yuz beradi.

**Diapazon** (yun. Diapason – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg'u asbobining tovush ajmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig'i.

**Diatonika** (yun. Diatonikos – bir tondan ikkinchi tonga o'tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy mador, minor va o'rta asr

ladlari uchun asos bo‘lgan asosiy yetti pog‘onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

**Diatonik gamma** – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To‘liq diatonik gammada yettita tovush bo‘ladi.

**Dinamika** (yun. Dinamikos - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya’ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta’kidlab eshittirish v.b. bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: forte - qattiq, kuchli; piano – sekin; crescendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish; diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish.

**Di-jey**/Dj – (disk-jokey) – dastlab di-jey deb, radioda musiqiy dasturlarni olib boruvchilarga aytilgan, ular bundan tashqari prodyuserlik faoliyati, musiqachilarni “yuzaga chiqarish” bilan ham shug‘ullanar edilar. 1970-yillar boshida “disko” raqs uslubining paydo bo‘lishi bilan tungi dansing – diskotekalar nihoyatda ommalashib ketdi va di-jeylarning ikkinchi ish joyiga aylandi. Taxminan shu paytda disk jokeylar Geri Krouel nomli inson sabab yangi mutaxassislikka ega bo‘ldilar. U ilk bor mikslarni hozirgidek tayyorlay boshladi. 1980-yillarning o‘rtalarida di-jey san’atining rivojlanishi uchun navbatdagi turtkini Frenki Nakls o‘z musiqasida “rep”ni qo‘llash orqali amalga oshirdi. Va nihoyat, 1980-yillar oxirida texno uslubi paydo bo‘ladi. Mazkur musiqa turi bilan yana bir di-jey – bu Jek Master Fankning nomi bog‘langandir. Shu tariqa, bu professiya mana shunday o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazdi. Agar boshida di-jey yaxshi ovozga ega konferanse bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda u bir inson qiyofasidagi ham musiqachi, ham ovoz rejissyoridir.

**Diksilend**/Dixiland (inglizchadan “disk mamlakati”) – an’anaviy jazning asosiy uslubiy turlaridan biri (yangiorleancha uslub bilan bir qatorda). Mazkur atama folklor negizga ega (“disklar mamlakati”- AQSh janubiy shtatlarining ramziy nomi); u oq tanli musiqachilar – diksilend yaratuvchilari tomonidan, negrcha jazdan farqli tomonini ajratish va “jaz” so‘zining o‘zini ishlatmaslik uchun amaliyotga kiritilgan. Sababi “jaz” atamasiga uzoq vaqt davomida mensimaslik ko‘zi bilan qaralgan. Diksilendning dastlabki namunalari XIX asrning oxirlariga mansub bo‘lib, u taxminan 1910-yilda batamom joriy etildi. Dastavval oq tanli musiqachilarning faoliyati yangiorleancha uslubga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish bilan chegaralanib, buning natijasi kam edi. Diksilendning ikkinchi avlod musiqachilari negr jazining asosiy ifoda vositalari (improvizatsiya, off-bit, “blyuz tovushqatori”, xot-ton va b.)ni o‘zlashtirib, irqiy to‘siqlarni asta-sekin yengib bordi. Natijada diksilend-jazi va yangiorleancha uslub o‘rtasidagi farqlar tekislana boshladi, bu esa jaz musiqasining yangi, aralash uslubiy shakllari yuzaga kelishiga va rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Diksilend boshlang‘ich bosqichlarda asosan menestrel an’analar va arxaik marsh kapellalari musiqasi (qarang: marsh orkestri) va ayniqsa regtaym ta’siri ostida rivojlandi. 1916-yillarga kelib uning klassik negr jaziga to‘laqonli qayta tayanishi yuz berdi. Diksilendning ko‘plab o‘ziga xos alomatlari 1920-yillarda uning o‘rniga kelgan chikagocha uslubda saqlanib qoldi.

**Disko**/(inglizcha “disco”) – u musiqiy uslubni, qolaversa, 1970-yillarning ikkinchi yarmida pop-musiqada keng tarqalgan studiyaviy saund toifasini anglatadi. Disko bir qator artistlar (Gloriya Geynor, Donna Sammer, Villaj Piepl va b.), shuningdek, prodyuserlar (Jorjo Moroder, Nil Bogart, Jan Moralli, Freddi Peren, Jan-Mark Serron) ijodi bilan bog‘liq. Disko-moda “Shanba oqshomidagi bezgak” nomli (1979) diniy gollivud filmi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Diskoning musiqiy asosi – oddiylashtirilgan fank- va soul-musiqadir. Disko-musiqaning ritmik asosiga zarblarning muayyan chastotasi (taxminan daqiqasiga 120ta zarb) xos bo‘lib, aranjirovkasida vokalning bir vaqtdagi “cholg‘ulashtirilishi” alohida ahamiyat kasb etadi. 1990-yillarning o‘rtalarida disko-musiqa yana raqsbop musiqadagi umumiy moda sabab uslubiy qayta tiklanishlarni boshdan kechiradi.

**Drayv**/Drive (inglizcha “harakat”, “ta”qib qilish”, “poyga”, “shoshilish”) – jaz ijrosidagi shiddatli usul bo‘lib, uning asnosida sur’atning o‘suvchan tezlashuvi effektiga, harakatning faol intiluvchanligiga erishiladi. Drayv ifoda vositalari va usullarining butun majmuini nazarda tutadi, masalan metrik pulsatsiya hissalarining muntazam ravishda ilgarilab ketishi (qarang: off-bit), hissa urg‘ularining erkin joylashuvidan (1- va 3-hissaga yoki 2- va 4-hissaga) har bir

hissaning urg'ulanishiga, birmuncha yirik ritmik cho'zimlardan bir qadar mayda tovush, sving, stomp, riffalarning dinamik attakasiga o'tish kabi.

**Dram-n-bass**/Drum'n' bass – "breykbit" konsepsiyasi ifodalaridan biri bo'lib, u 1990-yillarning boshida uslub sifatida shakllangan. Unda bas yo'li 80 bpm sur'atda va turli barabanlar majmui 160 bpm sur'atda o'zaro muvofiqlashadi. Bor xususiyati shundan iborat. Barabanlar temperamenti sabab mazkur uslub raqssimon deb, basning birmuncha vazmin yo'li tufayli uni bo'shashtiruvchi musiqa, deya qabul qilish mumkin. Ushbu uslubga tobora go'zal, ba'zan esa hayolchan kuylar qo'shila boshlandi. Xullas, 1990-yillarning o'rtalarida Drum'n' bass asta-sekin, biroq ishonch bilan intellijent janglga transformatsiyalanadi.

**Drim-pop**/Dream-pop - 1980-yillar boshida "PINK FLOYD" nomli britancha elektron psixodelika, embient Brayan Ino, Robert Frippning "ovozli peyzajlari" va nemischa "kraut-rok" nafosati asosida yuzaga kelgan. "Drim-pop" go'yoki "zamonlar qa"ridan" kelayotgan qandaydir yoqimli sir, jumboq muhitini yaratdi. Ushbu yo'nalish namoyandalari akustik, simfonik, "xor", shuningdek, mutlaq fantaziyaviy sintezatorli tembrlarni o'z aranjirovkalarida keng qo'llaganlar va mumtoz hamda folk badiiy tili unsurlaridan foydalanganlar. Bundan tashqari, ular pop-musiqani ham "begona" qilmaganlar. Havoiy, quyiluvchan gitarali-elektron materiya, stereopanorama bo'ylab sochilgan perkussiyalarga boy hajmdor saund, salkam operadek vibratoli ayollar vokali "drim-pop" yetakchilarining tashrif kartasi bo'lib qoldi. 1980-yillarning ikkinchi yarmida "drim-pop" asosida "Shoegazing" kabi yo'nalish unib chiqdiki, u birmuncha to'yingan gitara-sintezatorli jarang va g'amginroq ruhiyat ila to'yinganligi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, "drim-pop"ning nazokati "nyu-eyj"dek relaksatsion musiqaga, shuningdek, "xaus"ning ba'zi yo'nalishlariga ("drim-xaus", "trip-xop" vab.) yaqin bo'lib chiqdi.

**yevrotrans**/Eurotrance – musiqa olamidagi eng ommaviy janrlardan biri. U birmuncha keng ma'nodagi "trans"ning aynan tijorat ko'rinishidir. Bu uslubiyat shunisi bilan e'tiborliki, uning kompozitsiyasi bandli cholg'u qismi va vokal soloning o'zaro almashinib kelish tamoyiliga qurilgan. Shuningdek, yevrotrans elektron ritmining sirliligi, tez-tez o'zgarib turuvchi kuy aranjirovkalari, ko'plab di-jeylar tarmoqlaridagi eksperimentlar uchun katta maydon ekanligi bilan mashhurdir.

"DJs&Work", "Novaspace", "Groove Coverage", "Fragma", Jan Wayne kabilar elektron musiqaning bu uslubida ko'plab qalblarni rom etib, birmuncha yorqin porladilar.

**Lad** – turg'un va noturg'un musiqiy tovush pog'onalarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog'onali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

**Rok-n-rollning Shuhrat zali**/Rock and hall of fame - 1980-yillar boshida Klivlend nomli Amerikadagi shaharda yaratilgan. Shuhrat zalida har yili muntazam ravishda eng yaxshi ijrochilar taqdirlash marosimlari o'tkaziladi, qolaversa bu – o'ziga xos muzey. Shuhrat zali memorialiga kirish uchun 25 yildan kam bo'lmagan super yulduz unvoniga ega bo'lish kerak. Bunday sharafga birinchilardan bo'lib Elvis Presli, Rey Charlz va "THE BEATLES" kabilar musharraf bo'lganlar.

G'arbiy sohil jazi – qarang: Vest-koust-jaz.

**"Tovushli ideal"**/Ideal sound – g'arb musiqa ilmida musiqiy tovush sifati va go'zalligi xususidagi, ya'ni u yoki bu tarixiy davrga, uslubning milliy madaniyatiga oid badiiy idrok va tafakkur meyorlari bilan belgilangan zarur xususiyatlar haqidagi estetik tasavvurni ifodalash uchun qo'llaniladigan atama. "Tovushli ideal" – tovush qattiqligi, vaqt, tembr va tovush balandligi kabi tavsiflarga ega; u badiiy jihatdan to'laqonli, ya'ni musiqiy cholg'ular va ovozning ifodali imkoniyatlariga, ijrochilik san'ati an'analariga ega bo'lgan tovush sadolanishi va tovush yo'nalishli to'g'ri mezonlar bilan uzviy bog'langan. Turli davr va xalqlar musiqasida u o'zining individual o'ziga xos qirralarini topdi. O'rta asrlar musiqa madaniyati va klassitsizmning, akademik musiqa va folklorning "tovush ideallari" turlichadir. Jazning "tovush ideali" ("jaz saundi" deya nomlanuvchi) o'zining spetsifik xususiyatlariga ega bo'lib, jaz uslubiyatining eng muhim toifalaridan biridir.

**Improvizatsiya**/Improvisation (lotincha improvisus so'zidan olingan bo'lib, kutilmagan, tasodifan, qo'qqisdan ma'nolarini anglatadi) – ijod metodi bo'lib, u ekspromt tarzida, erkin fantaziyalash jarayonida yaratiladigan asarni nazarda tutadi. Musiqiy improvizatsiyada kompozitor (musiqa yaratuvchi) va ijrochi (talqin etuvchi) vazifalarining bo'linishidek tushuncha yo'q; ular o'zaro mantiqiy birlikni hosil qilib, bir vaqtning o'zida musiqachi-improvizatorni amalga tatbiq etadilar. Jazda (akademik musiqa san'atidan farqli o'laroq) improvizatsiya asos soluvchi ahamiyatga ega, garchi uni alohida vaziyatlarda qo'llash majburiy sanalmaydi. Jazdagi improvizatsion texnika turlari va vositalari favqulodda rang-barang, bu esa turfa xil jaz uslublarining xususiyatlari, musiqachilarning individual ijro usuli, jaz uchun xos bo'lgan musiqiy shakl va janrlar bilan izohlanadi. Bunda improvizatsiyaning vokal va cholg'u, solo va ansambl, tonal va atonal, erkin va chegarali (berilgan chizmalar, modellar standartlarga asoslanuvchi, qisman yoki to'liq rejalashtirilmagan, kompozitsiya va aranjirovka unsurlari bilan muvofiqlashuvchi, hatto nota yozuvida to'liq qayd etilgan) turlari keng qo'llaniladi. Bu qisqa breyk yoki rivojlantirilgan melodik xorus, muayyan mavzu, garmonik kvadrat yoki hatto rivojlangan shaklli tugal pesaga improvizatsiya, improvizatsiyaga improvizatsiya, modal yoki aleogorik improvizatsiya, linear-kontrapunktik, geterofon, ornamental-variatsion yohud responsor usuldagi jamoaviy o'yin, musiqachining boshqa jaz ijrochilarining improvizatsion uslubiga taqlidi va h.k.

**Indii-pop**/(inglizcha Indie pop) – musiqa olamidagi yo'nalish bo'lib, aniq chegaralarga ega, u ko'proq indii-rokning turi sifatida xizmat qiladi va kelib chiqishi hindcha bo'lgan ko'plab kompozitsiyalarni ta'riflovchi tushunchani anglatadi. Indii-popning musiqiy formati musiqaning ko'plab formatlaridan shunisi bilan farq qiladiki, u avval boshdan radioeshittirishga yo'naltirilmagan. Bu ko'proq "jonli" cholg'u ijrosi uchun mo'ljallangan janrdir. Unda gitara, barabanlar, ba'zan esa torli cholg'ulardan ham foydalaniladi.

**Intelligent**/Intellegent – bunday tavsifnomaga ega musiqa turli kechalar, shuningdek, raqs maydonini bezashdan ko'ra ko'proq, tinglash va xotirjam vaqt o'tkazish uchun mo'ljallangan. Uning "jangla", "texno" kabi intellijent-variantlari mavjud. Sof uslublardan farqli o'laroq, ularning aqlli versiyalari birmuncha ohangdor, muhitbop bo'lib, unda hatto o'ta chiroyli mavzularni ham kuzatish mumkin.

**Interval** (lot. Intervallum – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o'rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa garmonik interval, birin-ketin yangrasa – melodik interval deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

**Intro/**Intro (introduction) – musiqiy asarning asosiy qismi uchun yaratilgan kichik cholg'u muqaddimasi (kamdan-kam hollarda nutqli).

**Ist-koust-jaz** (Sharqiy sohillar jazi)/East Coast Jazz - 1950-yillarning birinchi yarmida AQShning sharqiy sohillarida (bosh markaz – Nyu-York) joriy bo'lgan zamonaviy jaz uslub va yo'nalishlari guruhining umumiy nomlanishi. Ist-koust-jaz namoyandalari – asosan rangli musiqachilar. Uning muhim uslubiy shakllari - xard-bop va soul. Vest-koust-jaz eksperimentlariga reaksiya sifatida yuzaga kelgan mazkur uslublar uchun yevropalashgan konsert shakllari sohasida blyuz an'analarining qayta tiklanishiga va zamonaviy asosdagi negr xot-jaziga bo'lgan moyillik xosdir.

**Kaver-versiya**/Cover – avval mashhur bo'lgan biror-bir kompozitsiyaning qayta aranjirovkalangan va qayta ishlangan versiyasi bo'lib, unda original mavzu yoki kuy, masalan jaz standarti yohud xalq ohanglari, usluban qayta tafakkur etilib, yangi aranjirovkada mavjud bo'ladi.

**Kanzascha uslub (**Kanzas-Siti-jaz**)**/Kansas-City-jazz - 1920-yillar oxirida Kanzas-citi shahrida yuzaga kelgan ilk negr svingining uslubiy turi. U svingcha pulsatsiya (bauns)ning xarakterli toifasi, cho'zilgan four-bit, rifflar va off-bit iboralar texnikasidan rang-barang tarzda foydalanishi bilan farqlanadi. Mazkur uslubda an'anaviy jaz, regtaym va O'rta G'arb musiqiy folklorining ta'siri kuzatiladi. Kanzascha uslub qaysidir ma'noda birmuncha keyinroq yuzaga kelgan zamonaviy jaz, xususan bop va kul kabi jazlardan ilgarilab ketgan.

**Kantri**/Country (Country music) – (inglizcha country – qishloqcha) – folklor negizidan unib chiqqan va Amerikaning janubi-sharqiy va g'arbiy shtatlaridagi qishloqlarda yashovchi

oq tanli aholi musiqa madaniyatining an’anaviy qo‘shiq-cholg‘u musiqasining ko‘plab maktab, uslub va yo‘nalishlari orqali taqdim etilgan. Kantri XX asr boshlarida turli yevropalik xalqlar musiqa folklorining arxaik shakllari aralashuvining uzun jarayoni natijasida joriy bo‘lgan. U dastlab qishloq tumanlarida fermerlar, qishloq xo‘jaligi ishchilari va o‘rmon kesuvchilarning musiqasi sifatida, folkmyuzik yoki qisqacha folk nomi ostida mavjud bo‘lgan. Kantri birinchi jahon urushidan so‘ng grammafonyozuvlar va radioning rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. Va 1920-yillarda mazkur uslubning mashhur ijrochilaridan biri, skripkachi va xonanda Billi Xill (1899-1940) nomiga bag‘ishlab xilbilli (hillbilly) deb atala boshladi. Kantri uslubi 1940-yillarga kelib “ikkilamchi folklor”ga (professional mualliflar tomonidan yaratilgan) aylandi va tijoratlashdi. G‘arbning kovboycha qo‘shiqlari – vesternalar bilan birga shahar muhitida ham kantri-end-vestern (country and western, C&W) nomi bilan mashhurlikka ershdi. Kantri musiqasining ba’zi bir ko‘rinishlarida negrcha ta’sirni kuzatish mumkin. Hozirgi paytda u deyarli butkul ko‘ngilochar tijorat musiqasiga mansub bo‘ldi; shuningdek, mazkur uslub teatrlashtirilgan estrada dasturlari - kantri-shou shaklida ham tez-tez ommalashib turadi.

**Kantri blyuz**/Country blues – arxaik blyuz nomlaridan biri bo‘lib, asosan shahar sharoitiga oid klassik blyuzdan farqli o‘laroq, uning qishloq musiqa folkloriga mansubligini ta’kidlaydi. Klassik blyuzni shuningdek, big-siti-blyuz deb ham ataydilar (shuningdek qarang: kantri).

**Kat**/Cut – radio yoki video formatga moslashtirilgan kompozitsiya versiyasi. Masalan, radio cut, chicago radio cut, airplay cut va h.k. Ushbu versiyaning maqsadi shundaki, unda kompozitsiya shaklining biror qismi qisqartiriladi (muqaddima, improvizatsiya, koda va h.k.)

**Kvadrat**/Square – bu jaz musiqasidagi mavzu asosida yotgan muayyan masshtabli (sakkiz taktli, o‘n ikki taktli, o‘n olti taktli va h.k.) tugal funksional-garmonik strukturani anglatuvchi atamadir. Butun pesa davomida sezilarli o‘zgarishlarsiz ko‘p marotaba takrorlanuvchi mavzu va unga ijro etiladigan improvizatsiya. Jazdagi musiqiy shakl muhim toifasining mavjudligi mazkur tushuncha bilan bog‘liqdir. U garmonik kvadratlar seriyasini namoyon etib, ular fonida melodik improvizatsiya rivojlanadi. Bu holat shakllanishning bir nechta tamoyillaridan bir vaqtda foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi: bandli (strofik) variatsiyalash (garmonik kvadratning strukturaviy sxemasi o‘zgarishsiz qoladi, bu paytda uning akkordikasi, fakturasi va ritmikasi variatsiyalanadi), kuy va responsor texnikaning yaxlit improvizatsion tarzda rivojlantirilishi (yakkaxonlarning bir kvadrat doirasidagi dialogik muloqoti yoki melodik soloning bir nechta kvadratga cho‘ziluvchi savol-javob almashinuvi), shuningdek, reprizaviylik (pesa mavzuning ekspozitsion va reprizali bayoni bilan o‘rab olinishi).

**Klassik blyuz**/Classic blues – XIX asr oxirida joriy etilgan blyuz toifasi bo‘lib, u arxaik yohud qishloq blyuzi, mazkur janrning yangi, urbanizatsiyalangan (urban blues, big city blues) ko‘rinishlari asosida rivojlangan. Klassik blyuzning gullagan davri 1925-1935-yillarga to‘g‘ri keladi, shundan so‘ng uning zamonaviy shakllariga o‘tish yuz beradi (qarang: zamonaviy blyuz). Bu vaqtga kelib blyuzning mustaqil badiiy voqyelik sifatidagi eng muhim qirrali xususiyatlari to‘liq aniqlanadi: bu klassik o‘n ikki taktli blyuz shakli, kuyning o‘ziga xos toifasi, rivojlangan responsor texnikasi, janr turlarining tizimi (vokal, vokal-cholg‘u va cholg‘u blyuzi; kombo va big-bend-blyuz; lirik va dramatik; melodik va shaut-blyuz; xot va svig-blyuz). Klassik blyuz an’anaviy jaz uslublari va yo‘nalishlarining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi, masalan yangiorleancha uslub, barrel-xaus, bugi-vugi va b.

**Klassik jaz**/Classic jazz – arxaik jaz asosida rivojlangan jaz uslublarining umumiy nomi. Klassik davr taxminan 1890-1929-yillar bilan belgilanadi. Sving erasi boshlanishi bilan u xotima topadi. Klassik jazning eng gullagan lahzasi 1917-yilga yaqin (Yangi Orlean), va ikkinchi marta 1920-yillarning o‘rtalariga (Chikago) to‘g‘ri keladi. Klassik jazga uning quyidagi uslubiy shakllarini taalluqli deyish lozim: yangi orleancha uslub (u negr va kreolcha yo‘nalishlar orqali taqdim etilgan), yangiorlean-chikagocha uslub (u 1917 yildan keyin Chikagoda, yangiorleanlik ko‘plab yetakchi negr jazmenlarining ko‘chib o‘tishi munosabati bilan yuzaga kelgan), diksilend (uning yangiorleancha va chikagocha turlarida namoyon bo‘ladi), fortepiano jazining bir qator turlari (barrel-xaus, bugi-vugi va h.k.), shuningdek, AQShning Janubi va O‘rta G‘arb shaharlarida yuzaga kelgan, shu davrga mansub jaz yo‘nalishlari shular jumlasidandir. Klassik jaz alohida arxaik uslubiy shakllar bilan birga ba’zan an’anaviy jaz sifatida ham belgilanadi.

**Orkestr** (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg'u asboblarda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholg'u asboblarining tarkibiga ko'ra orkestrlarning turlari: simfonik – to'liq tarkibdan iborat, torli – kamonli cholg'ular, damli - yog'och va mis damli cholg'ular, shovqinli - urma-zarbli cholg'ular, yoki estrada-simfonik – yuqorida sanab o'tilgan cholularga elektr-cholgular, ya'ni gitaralar, sintezatorlar kabilarning qo'shilishi asnosida .

**Partitura** (it. partitura – bo'lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko'p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholg'u asboblar bo'yicha keladi. O'z navbatida, bir turdagi cholg'ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo'yicha pastki satrlarda yoziladi.

**Partiya** (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

**Registr** (lot. Registrum – ro'yxat, yozib, qo'yish) – musiqiy matoning oanggini yuqori, o'rta va pastki qismlarga mansubligi bo'yicha ajratish.

**Tembr** (fr. tembre - qo'ng'iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg'u yoki xonanda ovozining o'ziga xos tovush xarakteri. Cholg'u asbobining tuzilishi va shakliga ko'ra uning tembri turlicha bo'ladi.

**Temperatsiya** (lot. Temperatio – to'g'ri munosabatda, bir o'lchamda) – musiqiy pog'onalar oralig'idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig'ining teng 12 yarim tonga bo'linishi bir tekis temperatsiya bo'ladi.

**Tovushqator** – cholg'u asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo'lgan tovushqator. U yuqori ko'tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

**Transpozitsiya** (lot. Transponere – joyini o'zgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko'chirish. Transpozitsiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay bo'lsa; bir cholg'u asbobdan ikkinchisiga ko'chirish zarurati bo'lsa; yozilgan notalar o'qish uchun noqulay bo'lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozitsiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o'zgarmaydi.

**Transpozitsiyalanuvchi cholg'ular** – kuy ijro etilganida nota yozuvida yozilganiga ko'ra past yoki baland tovush bilan yangraydigan cholg'ular. Masalan, qashqar rubobi, afg'on rubobi yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Nay pikkolo esa yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi.

**Unison** (it. unisono – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

**Xromatizm** (yun. Chroma -rang) – diatonik laddagi pog'onalarning yarim tondan o'zgarishi. Ular alteratsiya belgilari – diez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, do va do-diez.

**Xromatik gamma** – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

## FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

### Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar


1. I.A.Karimov. «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir». T., «O'zbekiston», 2015.
2. Karimov I.A.. «Istiqlol va ma'naviyat». T., «O'zbekiston» 1994.
3. Karimov I.A.. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., 2008.
4. Amanullayeva D., Amanova N. «Istoriya djaza i estradnoy muziki»- o'quv qo'llanma, 14 b.t., T., 2010;
5. Amanullayeva D. «O nekotorix tendensiyax sovremennogo estradnogo peniya» - Ilmiy maqola. «XX-XXI asrlarda badiiy-ijodiy jarayon» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2010.
6. Amanullayeva D. «Estrada va jaz vokalizlari» OTM uchun o'quv qo'llanma, T., 2014.
7. Amanullayeva D. «Osobennosti prepodavaniya estradnogo peniya v Gosudarstvennoy konservatorii Uzbekistana» – ilmiy maqola « XXI asr musiqa ta'limi: muammo va yechimlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., 2014.
8. Amanullayeva D. «Estrada xonandaligi» magistratura uchun o'quv qo'llanma, 29,5 b.t.,T., «Musiqa», 2015.
9. Amanova N.A. Zamonaviy estrada musiqasidagi asosiy tamoyillar xususida/Musiqa ijrochiligi va pedagogikasi masalalari. IV. T., 2003.
10. Amanova N.A. Pop-rok uslubining o'zbek estradasidagi ko'rinishi/O'zbekiston san'ati: tarix va zamonaviylik. Yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T., 2003.
11. Bekov O. Sovremennaya uzbekskaya estradnaya pesnya v kontekste muzikalnoy kulturi Uzbekistana. T.: SITI. M (m) B-42 № 9311994. 1994.
12. Islamova R. «Primenennie interaktivnix metodov i novix informatsionnix i pedagogicheskix texnologiy v dissipline «Vokalniy ansambl» dlya bakalavriata. T., 2012.
13. Islamova R. «Osnovi shou-biznesa». T., 2010.
14. Islamova R. «O rasshirenii oblasti ispolzovaniya interaktivnix metodov i innovatsionnix obrazovatelnix texnologiy v dissipline «Iskusstvo vokalnogo ansamblya» v Magistrature»- o'quv qo'llanma. T., 2012.
15. Klitin S. Estrada: problemi teorii, istorii i metodiki. L.: Iskusstvo, 1987.
16. Kollier Dj. Stanovlenie djaza. M.: Raduga, 1984
17. Konen V. Puti amerikanskoy muziki. M., 1984.
18. Konen D. Legenda i pravda o djaze // Konen D. Etyudi o zarubejnoy muzike. M.: Muzika, 1975.
19. Orinbayeva M. «Estradnoe penie» o'quv-uslubiy qo'llanma, D.Amanullayeva estrada asarlari asosida, 4 b.t.,T., 2007;
20. Orinbayeva M. «Estrada qo'shiqlari» (Rossiya estradasi asosida), T., 2010.
21. Ovchinnikov Ye. Istoriya jaza. Vip. 1. M., Muzika, 1994.
22. Pauls R. Estradnie pesni v soprovojdenii fortepiano. M., 1982.
23. Saidova Sh. Estrada kushiklari va vokal ansamblari. T., 2011
24. Sardjent U. Djaz. M., Muzika, 1987.
25. Sposobin I. Muzikalnaya forma. –M., 1972.

26. Turayev Yu., Amanullayeva D. «Konservatoriyada estrada xonandaligidan dars berish uslubiyati» – o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 4 b.t..T.,»Musiqa», 2008.
27. Turayev Yu. XX asr o‘zbek estrada qo‘shiqlari. O‘quv qo‘llanma. T., 2015.
28. Zokirova G. «Eng gullagan yoshlik chog‘imda» (I.Akbarov asarlari). O‘quv qo‘llanma, T., 2012.
29. «World of hits» – istoriya populyarnoy muziki. Vip. 1-3, M., «Megaservis», 1997.

## Qo‘shimcha adabiyotlar

30. Bril I. «Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii». M., 1988
31. Konen J. «Rojdenie djaza». M., 1984.
32. «Milliy estrada musiqasi» – ma’lumotnoma «O‘zbekiston san’ati» kitobida, T., 2001.
33. Norxo‘jayev N. «Improvizatsiya». O‘quv qo‘llanma. T., 2005.
34. O‘rinbayeva M. «Ijodiy kamolot sari». «Guliston» jurnali, 2008. T., №4.
35. Orinbayeva M. «Estrada qo‘shiqchiligi sirlari». Yilnoma: «Zamonaviy yoshlarning musiqiy va ma’naviy dunyosi». T., 2008.
36. Orinbayeva M. «Vokalizi Dilorom Amanullayevoy v razvitii estradnogo ispolnitelstva». Yilnoma: O‘zgaruvchan siyosiy madaniy muhitda musiqa va musiqachilarning o‘rni. T., 2014.
37. Orunbayeva M. «Ona Vatan madhi» (Kompozitor D.Omonullaevaning qo‘shiqlari misolida). «Musiqa san’ati va zamonaviylik». O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida. T., 2008.
38. Orinbayeva M. «Otechestvennoe estradnoe vokalnoe iskusstvo: sostoyanie i perspektivi» – «Musiqiy ta’lim tizimini qayta isloh qilish jarayoni (14-15 noyabr 2009 y.)» mavzuidagi Birinchi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T., 2009.
39. Piterson O. «Djazovie uprajneniya i pesi». M., 1986.
40. Xoliqov G‘. «Improvizatsiya asoslari». O‘quv qo‘llanma. T., 2004.

## Internet saytlari:

1. http://www.youtube.com
2. http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa
3. www musika uz
4. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami

## MUNDARIJA

### 1-SEMESTR

Muallifdan ........ 3
1-DARS: Kirish. Ijro dasturini shakllantirish ........ 7
2–3-DARSLAR: Estrada xonandasining kasbiy tarbiyasida ovoz sozlash mashqlarining ahamiyati ........ 15
4–5-DARSLAR: Estrada-jaz vokarizlari ........ 23
6–7-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 35
8–10-DARSLAR: O'zbekiston klassik kompozitorlarining estrada asarlari ........ 39
11–12-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 57
13-DARS: Estrada romansi, ashula va balladalar........ 73
14–15-DARSLAR: Estrada-jaz vokalizlari tanloviga tayyorgarlik ........ 85
16–DARS: G'arbiy Yevropa va Amerika kompozitorlarining estrada-jaz asarlari. Myuzikllar.....96
17–18-DARLAR Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 106
19–20-DARSLAR: 1-semestr oraliq nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish ........ 109
21–22-DARSLAR: Rossiya kompozitorlarining estrada-jaz vokal asarlari ........ 110
23–26-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 128
27–30-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 140
31–34-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 148
35–37-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 154
38–40-DARSLAR: 1-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish ........ 163
1-semestrda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar ........ 164

### 2-SEMESTR

41-DARS: Barkamol avlod tarbiyasida estrada qo'shiqchiligining o'rni ........ 178
42–45-DARSLAR: O'zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asarlari ........ 183
46–50-DARSLAR: «O'zbek asarlarining eng yaxshi ijrosi» tanloviga tayyorgarlik ........ 192
51–56-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 207
57–60-DARSLAR: 2-semestr Oraliq nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish ........ 220
61–66-DARSLAR: Amaliy ijrochilik mashg'ulotlari ........ 225
67–72-DARSLAR: Jaz yo'nalishidagi asarlar ........ 236
73–76-DARSLAR: O'zbekiston kompozitorlarining jaz vokal asarlari ........ 247
77–80-DARSLAR: 2-semestr Yakuniy nazorati uchun ijro dasturini sahnada tayyorlash va topshirish ........ 267
2-semestrda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar ........ 273

Xulosa ........ 285
Glossariy ........ 286
Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar ........ 300

**AMANULLAYEVA DILOROM DARVINOVNA**

# ESTRADA XONANDALIGI

*Estrada xonandaligi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha*
*1-kurs talabalari uchun darslik*
(o‘zbek tilida)

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent, 2016

Noshir *A.Rahimov*
Texnik muharrir *N.Ismoilova*
Musahhih *M.Tolipov*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126. 2008.12-noyabr.

Bosishga ruxsat etildi 18.01.2016. Bichimi 60 x 84 1/8.
Times New Roman garniturasi. Shartli bosma taboq 38,0. Adadi 350 nusxa.

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent, Olmazor ko‘chasi, 1.

«Building Print» MCHJ da chop etildi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 40.

## MP3 FORMATIDA YOZILGAN VOKAL ASARLARI TARKIBI:

*O‘zbek asarlari:*
1. «Ra’no»
2. «Umid»
3. «Unutma meni»
4. «Yoshligim»
5. «Iftixor»
6. «Bolicha»
7. «Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar»
8. «Vatan xayotdek aziz
9. «Toshkentim yagonadir»
10. «Sharq taronalari» madhiyasi

*G‘arbiy Yevropa va Amerika asarlari:*
1. «Summertime»
2. «My Way»
3. «New York»
4. «Je suis malade»
5. «All by myself»
6. «Et Si Tu N’Existait Pas»
7. «From Souvenirs to Souvenirs»
8. «Je T’aime»
9. «The lady in red»
10. «Somos novios»

*Rossiya estrada yulduzlari va kompozitorlarining estrada vokal asarlari*
1. «Подберу музыку»
2. «Любовь настала»
3. «Noktyurn»
4. «Верни мне музыку»
5. «Любовь, похожая на сон»
6. «Три счастливых дня»
7. «До свиданья, лето!»
8. «Я люблю тебя до слёз»
9. «Стена»
10. «Снег»